K.N. NAVRO‘ZOVA, O.A. ORTIQOV

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA TO‘LOV TIZIMI

N-34

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

K.N. Navro‘zova, O.A. Ortiqov

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA TO‘LOV TIZIMI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5A230701 – «Bank ishi» va 5A230702 – «Banklarda buxgalteriya hisobi va audit» mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olayotgan magistratura bosqichi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent–2014

BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI
ARM
REESTR № 9/247/4
“___” _____ 201___ y

UO‘K: 336.711.61 (075)
KBK 65.052
N 34
N 14

Taqrizchilar:

T.M. Karaliyev *– «Banklarda buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi professori, i.f.n.;*

Z.A. Xolmahmadov *– Mintaqaviy bank o‘quv markazi direktori, i.f.n., dots.*

N 34 Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi / K. Navro‘rova [va boshq.]. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. – 240 b.

ISBN: 978-9943-05-693-0

Ushbu o‘quv qo‘llanma naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi fani bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv va ishchi dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda respublikamizda milliy to‘lov tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, takomillashtirilishi, Markaziy bankning milliy to‘lov tizimini tashkil etishdagi o‘rni, milliy to‘lov tizimi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar, banklararo hisob-kitoblarning filiallar va turli banklar o‘rtasida o‘tkazish tartiblari yoritilgan.

Shuningdek, yangi bank texnologiyalari, elektron bank xizmatlari, ularning turlari, xususiyatlari, pul o‘tkazish tizimlari haqidagi ma’lumotlar ham qo‘llanmada o‘z ifodasini topgan.

UO‘K: 336.711.61 (075)
KBK: 65.052

© K. Navro‘rova va boshq., 2014
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014

ISBN: 978-9943-05-693-0

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida respublikamiz da faoliyat yuritayotgan banklarning roli tobora ortib bormoqda Chunki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hech biri bank xizmati ni chetlab o‘tib faoliyat ko‘rsata olmaydi, o‘zaro hisob-kitoblarin bank yordamisiz yurita olmaydi. Shu sababli bank tizimini yana da mustahkamlash, ularning erkinligini oshirish yo‘lida islohot larga hukumat miqyosida e’tibor berib kelinmoqda. Chunki ban tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar nafaqat banklarning, balki bu tun iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga asos bo‘ladi. Ban tizimining barqarorligi respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishi ga asos bo‘ladi. Ayni paytda, respublikamiz bank tizimi barqaro bo‘lib, buni xalqaro reyting kompaniyalari ham e’tirof etmoqdala Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovnin bir qator asar va ma’ruzalarida ham to‘xtalib o‘tilgan.

«Mamlakatimiz tijorat banklari yalpi kapitalining barqaror o‘s shi bank aktivlari portfelini boshqarish sohasida yuritilayotga mutanosib siyosat natijasida bank tizimida bank nazorati bo‘yich Bazel Qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan uc barobar ko‘p bo‘lgan kapitalning yetarlilik ko‘rsatkichini ta’mir ladi. Yurtimizda 1995–2010-yillar davomida yalpi kapitalning re o‘sishi 12,5 barobarni tashkil etdi, bu esa banklarning kapital baza mustahkamlanganidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, ularnin to‘lov qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi»[1].

Hozirgi kunda bank tizimi rivojlanib borar ekan, banklar o‘rtas dagi o‘zaro aloqalar, hisob-kitoblarni o‘tkazish mexanizmini tak millashtirish talab etiladi.

---

[1] *Karimov I. A.* O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011–2015-yillar mo‘ljallangan prognozlari. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 31-b.

UO‘K: 336.711.61 (075)
KBK 65.052
N 34
N 14

Taqrizchilar:

T.M. Karaliyev *– «Banklarda buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi professori, i.f.n.;*

Z.A. Xolmahmadov *– Mintaqaviy bank o‘quv markazi direktori, i.f.n., dots.*

N 34 Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi / K. Navro‘rova [va boshq.]. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. – 240 b.

ISBN: 978-9943-05-693-0

Ushbu o‘quv qo‘llanma naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi fani bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv va ishchi dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda respublikamizda milliy to‘lov tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, takomillashtirilishi, Markaziy bankning milliy to‘lov tizimini tashkil etishdagi o‘rni, milliy to‘lov tizimi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar, banklararo hisob-kitoblarning filiallar va turli banklar o‘rtasida o‘tkazish tartiblari yoritilgan.

Shuningdek, yangi bank texnologiyalari, elektron bank xizmatlari, ularning turlari, xususiyatlari, pul o‘tkazish tizimlari haqidagi ma’lumotlar ham qo‘llanmada o‘z ifodasini topgan.

UO‘K: 336.711.61 (075)
KBK: 65.052

© K. Navro‘rova va boshq., 2014
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014

ISBN: 978-9943-05-693-0

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hech biri bank xizmatini chetlab o‘tib faoliyat ko‘rsata olmaydi, o‘zaro hisob-kitoblarini bank yordamisiz yurita olmaydi. Shu sababli bank tizimini yanada mustahkamlash, ularning erkinligini oshirish yo‘lida islohotlarga hukumat miqyosida e’tibor berib kelinmoqda. Chunki bank tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar nafaqat banklarning, balki butun iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga asos bo‘ladi. Bank tizimining barqarorligi respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ayni paytda, respublikamiz bank tizimi barqaror bo‘lib, buni xalqaro reyting kompaniyalari ham e’tirof etmoqdalar. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bir qator asar va ma’ruzalarida ham to‘xtalib o‘tilgan.

«Mamlakatimiz tijorat banklari yalpi kapitalining barqaror o‘sishi bank aktivlari portfelini boshqarish sohasida yuritilayotgan mutanosib siyosat natijasida bank tizimida bank nazorati bo‘yicha Bazel Qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan uch barobar ko‘p bo‘lgan kapitalning yetarlilik ko‘rsatkichini ta’minladi. Yurtimizda 1995–2010-yillar davomida yalpi kapitalning real o‘sishi 12,5 barobarni tashkil etdi, bu esa banklarning kapital bazasi mustahkamlanganidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, ularning to‘lov qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi»[1].

Hozirgi kunda bank tizimi rivojlanib borar ekan, banklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, hisob-kitoblarni o‘tkazish mexanizmini takomillashtirish talab etiladi.

---

[1] *Karimov I. A.* O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 31-b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ1438-sonli «2011–2015-yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorining 2-ilovasida «To‘lov tizimi va to‘lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish»ga bag‘ishlangan alohida bo‘lim keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra to‘lov tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda respublikamizda to‘lov tizimi, uning rivojlanishi va takomillashtirilishini o‘rgatuvchi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini nashr qilish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘quv qo‘llanma ushbu fan bo‘yicha ishlab chiqilgan namunaviy dastur va ishchi-o‘quv dasturlar asosida yozilgan. O‘quv qo‘llanmada to‘lov tizimining mazmuni, uning tarkibi, respublikada milliy to‘lov tizimining shakllanishi, elektron to‘lov tizimini tashkil etishning zarurati va shartlari, tamoyillari va funksiyalari o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha operatsiyalar, noto‘lovlar muammolari hamda banklararo hisob-kitoblar, ularning elektron to‘lov tizimi orqali o‘tkazilishi, yagona vakillik hisobvarag‘i orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi batafsil yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmada yangi bank texnologiyalari, naqd pul o‘tkazish tizimlari, ularning turlari, xususiyatlari va amaliyotda qo‘llanilishi o‘z ifodasini topgan.

Ushbu qo‘llanma «Bank ishi» va «Banklarda buxgalteriya hisobi va audit» mutaxassisliklari uchun mo‘ljallangan.

Talabalarning bilimini nazorat qilish uchun har bir mavzu oxirida nazorat savollari bilan birgalikda fan bo‘yicha test savollari berilgan.

Umuman, mazkur o‘quv qo‘llanmadan «Bank ishi» yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiyotgan barcha oliy o‘quv yurtlarining magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari, kollejlar, biznes maktabi talabalari, shuningdek, bank mutaxassislari va bank faoliyati bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

I BOB

TO‘LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI

Tayanch tushunchalar: *bank tizimi, Markaziy bank, tijorat banki, to‘lov tizimi, to‘lov tizimi elementlari, to‘lovlarni o‘tkazish tartibi, mexanizmi, xavfsizlikni ta’minlash, makrodarajadagi to‘lov tizimi, mikrodarajadagi to‘lov tizimi, chakana to‘lov tizimi, hisob-kitob, texnik standartlar, to‘lov summasi, to‘lov vositasi, operator, SMS xabar, tizimning nomi va logotipi, real vaqt rejimi.*

1-§. To‘lov tizimi tushunchasi va uning elementlari

Respublikamizda bank tizimi va uning faoliyati jahon andozalariga tobora yaqinlashib bormoqda. Bank tizimini erkinlashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko‘zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va uni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni chiqarilib, unda «Moliya-bank tizimini isloh qilish siyosatini takomillashtirish, uning ko‘proq aniq-oydinligini ta’minlash, iqtisodiyotda to‘lovlar va hisob-kitoblar mexanizmini mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish» lozimligi belgilab berilgan edi. Bu vazifaning bajarilishi aynan to‘lov tizimi bilan bog‘liq.

Bugungi keng qamrovli iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to‘lov tizimi har bir mamlakat iqtisodiyotida katta va muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, to‘lov tizimi iqtisodiyotning moliyaviy infrastrukturasida hayotiy zarur element bo‘lib hisoblanadi.

Ikkinchidan, to‘lov tizimi iqtisodiyotni pul-kredit siyosati orqali samarali boshqarishni ta’minlovchi zaruriy kanallardan biri bo‘lib sanaladi.

Uchinchidan, to‘lov tizimi iqtisodiyotning har bir sohasi samaradorligini oshirishda mablag‘larni o‘z vaqtida o‘tkazib berish vazifasini amalga oshiruvchi bo‘g‘in hisoblanadi.

Iqtisodiyotda turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan kompaniya va firmalar faoliyat ko‘rsatib, ular doimo bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Chunki korxona va tashkilotlar bir-biri bilan oldi-sotti munosabatlarini o‘rnatadilar, bu munosabatlar o‘zaro hisob-kitoblar orqali hal qilinadi. Bu hisob-kitoblarni o‘tkazish uchun ma’lum bir tizim mavjud bo‘lishi lozim. Agar o‘zaro hisob-kitob qilayotgan firmaga bitta bank xizmat ko‘rsatsa, to‘lovlar juda tez va sodda sxemada o‘tkaziladi, ya’ni hisob-kitoblar bir bankning ichida bajarilib, bir korxona hisobvarag‘idan ikkinchi korxona hisobvarag‘iga ma’lum bir summani o‘tkazish orqali bajariladi. Agar hisob-kitob qilayotgan firmalar turli bank xizmatidan foydalansalar, u holda, to‘lovni bir bankdan ikkinchi bankka o‘tkazish uchun ma’lum bir to‘lov tizimidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu to‘lov tizimi arzon, qulay, shu bilan birga, xavfsiz ham bo‘lishi lozim. Agar to‘lov tizimi rivojlangan bo‘lsa, undan foydalanish sur’ati ham oshib boradi.

To‘lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya’ni aholiga va xo‘jalik subyektlariga o‘z pul mablag‘larini bir bankdagi hisobvaraqdan boshqa bank hisobvarag‘iga tez o‘tkazib berishni ta’minlashdir. To‘lovchi va to‘lovni oluvchi uchun muqobil yo‘l bo‘lib, naqd pul orqali hisob-kitob qilish yoki barter bo‘lishi mumkin. Lekin bunday hisob-kitoblar ko‘p hollarda cheklangan bo‘ladi.

To‘lov tizimidan banklar ham foydalanadilar. Banklar to‘lov tizimidan o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha pul o‘tkazishda, shu bilan birga, mijozlarning operatsiyalari bo‘yicha pul o‘tkazishda foydalanadilar.

Qanday shaklda foydalanishdan qat'i nazar, to‘lov tizimi o‘z ichiga 4 bosqichni oladi:

1-bosqich – to‘lovning boshlanishi, ya'ni to‘lovchi o‘z bankiga pulni o‘tkazib berish to‘g‘risida topshiriq beradi.

2-bosqich – to‘lov tizimining ishtirokchi banklari o‘rtasida to‘lov hujjatlarining almashishi, ko‘pincha, bu operatsiya kliring deb yuritiladi.

3-bosqich – to‘lov tizimining ishtirokchi banklari o‘rtasida hisob-kitob o‘tkazish, ya'ni to‘lovchi banki pul o‘tkazib berishi lozim. Bundan tashqari, banklar uchinchi ishtirokchi orqali, unda o‘z hisobvaraqlarini ochish orqali hisob-kitob qilishlari mumkin. Bu holda, ko‘pincha, uchinchi tomon rolini Markaziy bank bajaradi.

4-bosqich – to‘lovlarning qabul qilish bilan bog‘liq operatsiyalarini yakunlash.

To‘lov tizimi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, Bryus Sammersning fikricha, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish natijasida paydo bo‘lgan majburiyatlarni ushlab turish uchun pulli to‘lovlarni o‘tkazishda ishlatiladigan mablag‘lar yig‘indisi ***to‘lov tizimi*** deyiladi.

Bu talqinda asosiy o‘rin mablag‘larga berilyapti, buning uchun naqd hamda naqdsiz pullardan foydalaniladi. Yuqoridagi talqindan yana shunday xulosaga kelish mumkinki, to‘lov tizimi majburiyatlarni ushlab turish imkoniyatini beradi. Naqdsiz pullardan foydalaniladigan to‘lov tizimida ma'lum bir to‘lov vositalari ishlatiladi, ya'ni mablag‘larni o‘tkazish uchun qog‘oz hujjatlar yoki elektron hujjatlar ishlatiladi. Jahon banki mutaxassislaridan yana biri O. Margaret to‘lov tizimiga quyidagicha ta'rif bergan: «To‘lov tizimi – bu pul mablag‘larini o‘tkazish mexanizmidir». To‘lov tizimiga yana bir ta'rif rossiyalik iqtisodchi M. P. Beryozina tomonidan berilgan bo‘lib, unga ko‘ra «mamlakatning to‘lov tizimi – bu iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi qarz majburiyatlarining bajarilishini ta'minlovchi, qonuniy boshqariluvchi elementlar yig‘indisi».

Bu ta'rif mazmunan Bryus Sammers ta'rifiga yaqinroq ekanligini ko'rish mumkin, ya'ni bu ikki ta'rifda «... yuzaga kelgan majburiyatlar...» degan tushuncha ishlatilgan. Demak, bu ta'riflarda tovar va xizmatlar qiymatini to'lash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar, shu bilan birga, moliyaviy majburiyatlar ham ko'zda tutilgan. Moliyaviy majburiyatlarni davlat budjeti oldidagi yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlari deb qaraydigan bo'lsak, unda barcha naqd pulsiz hisob-kitoblar, jumladan, banklarning davlat budjetini kassaviy ijro etish operatsiyalari bajarilishining to'lov tizimi orqali amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin.

V. G. Solovyevning ta'kidlashicha: «To'lov tizimi – bu hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlovchi qoida va mablag'lar kompleksidir». Ushbu ta'rifda ham asosiy urg'u hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari hamda pul mablag'lariga berilmoqda.

Vazifa:
To'lov tizimiga oid adabiyotlardan to'lov tizimiga berilgan ta'riflarni o'rganing. To'lov tizimiga o'z ta'rifingizni bering.

Bir qator ta'riflarni ko'rib, ular to'g'risida mushohada yuritish natijasida to'lov tizimiga umumiy qilib quyidagi ta'rifni beramiz:

To'lov tizimi *– iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha subyektlar o'rtasida pul mablag'larining qonun-qoidalar asosida harakatlanishini ta'minlovchi dastur yoki mexanizm.*

Fikrimizcha, bu mexanizmni harakatga keltirish uchun ishtirokchilar, mexanizm oldiga qo'yilgan huquqiy talablar, to'lov vositalari yoki qurollari kerak bo'ladi.

To'lov tizimini mexanizm sifatida qaraganimizda, uning harakatga keltiruvchi elementi sifatida to'lov vositasi yoki to'lov qurollarini ko'rishimiz mumkin. To'lovni o'tkazishni boshlash aynan

to‘lov vositalarini tanlashdan boshlanadi. To‘lov vositalariga kredit instrumentlari sifatida to‘lov talabnomasi, to‘lov topshiriqnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditiv ochish uchun ariza, debet instrumentlari sifatida esa cheklarni kiritish mumkin. Hozirgi kunda magnit, plastik kartochkalar ham to‘lov vositalari sifatida keng ishlatilmoqda.

To‘lov tizimi instrumentlari *– o‘z mijozlarining majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishda ishlatiladigan to‘lov hujjatlaridir. Ularga to‘lov talabnomasi, to‘lov topshiriqnomasi, inkasso topshiriqnomasi, veksel, hisob cheki kiradi.*

Ko‘pgina chet davlatlarda to‘lov instrumentlarini tanlashdan avval bir qator savollar o‘ylab ko‘riladi. Har bir konkret operatsiya bo‘yicha alohida savollar yechimi topiladi. Masalan:

Bu operatsiya shu yerning o‘zida (do‘kon, supermarket) bajariladimi yoki operatsiyani yakunlash uchun ma’lum vaqt kerak bo‘ladimi?

To‘lov summasining miqdori katta yoki kichikmi?

To‘lov mahalliymi, shaharlararo yoki xalqaromi?

Bu operatsiya doimiymi (1 oy, chorak, yil) yoki bir martalikmi?

Bu operatsiya muddatlimi? Shu kuni yakunlanadimi yoki bir necha kundan so‘ngmi?

Har bir konkret to‘lov vositasining tannarxi qanday?

To‘lov kafolati qanday, uning xavfsizligi qay darajada ta’minlangan?

Bunday savollarni har bir konkret operatsiya bo‘yicha ishtirokchilar o‘ylab, vaziyatni tahlil qilib, o‘zlariga qulay bo‘lgan variantni, qulay bo‘lgan to‘lov vositalarini tanlaydilar. Bu esa shartnomada mustahkamlab qo‘yilgan.

To‘lov tizimi 2 turga bo‘linadi:


– xalqaro to‘lov tizimlari;

– milliy to‘lov tizimi.

Xalqaro to‘lov tizimlariga SWIFT, CHIPS, CHAPS, ZENCHEKIO va boshqa tizimlar kiradi. Milliy to‘lov tizimiga Elektron to‘lov tizimi, «Bank-Mijoz» to‘lov tizimi, tijorat banklarining to‘lov tizimlari, chakana to‘lov tizimlarini kiritish mumkin.

To‘lov tizimi turlarini quyidagi chizma orqali ko‘rish mumkin:

1-chizma



Barcha to‘lov tizimlarining vazifalari turlicha va o‘z xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, maqsadlari, asosan, bir xil.

To‘lov tizimining bosh maqsadi *– iqtisodiy faoliyatni tashkil etish natijasida paydo bo‘lgan majburiyatlar yuzasidan to‘lovlarni to‘liq, tez o‘tkazish va xavfsizligini ta’minlashdan iborat.*

Ko‘p yillar davomida to‘lov tizimining ishi Markaziy bankning aktiv qiziqish sohasiga kirmas edi. Unga «ko‘zga ko‘rinmas» faoliyat turi sifatida qaralib, bank siyosatining asosiy masalalariga tegishli emasdek bo‘lib hisoblanardi. Hozirgi kunda bunday e’tibor tubdan o‘zgardi. Oxirgi 15–20 yil ichida ko‘p davlatlar, asosan, bozor iqtisodi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, bank o‘tkazmalarining soni va o‘tkazilayotgan mablag‘larning hajmi ortib borishi natijasida to‘lov tizimi oboroti (aylanmasi)ning beqiyos darajada o‘sishi. Bu esa, birinchi navbatda, butun dunyoda moliviy bozor aktivligining o‘sishiga va to‘lovlarning tezlashuviga yordam berdi.

Ikkinchidan, to‘lov tizimi ichida pul mablag‘larining bir joydan ikkinchi joyga tez o‘tishini ta’minlovchi texnika va texnologiya tizimidagi katta muvaffaqiyatlarning qo‘lga kiritilishi. To‘lov tizimidagi yangi texnologiyalarning yaratilishi va ularning amaliyotga tatbiq etilishi to‘lovlarni bir necha daqiqada bir hududdan ikkinchi hududga o‘tkazib berish uchun sharoit yaratdi.

Bu esa hozirgi to‘lov tizimining bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolining beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Umumiy qilib aytganda, to‘lov tizimi iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining hayotiy muhim elementi, iqtisodiyot samaradorligiga ta’sir etuvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni samarali boshqarishni ta’minlovchi zaruriy vosita bo‘lib hisoblanadi.

To‘lov tizimining iqtisodiyotda tutgan o‘rni Markaziy bank faoliyati bilan chambarchas bog‘liq, chunki Markaziy bankning asosiy maqsadi mamlakatda pul-kredit va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

2-§. Makro va mikrodarajadagi to‘lov tizimi

To‘lov tizimini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Makrodarajadagi to‘lov tizimi.
2. Mikrodarajadagi to‘lov tizimi.

Butun dunyo miqyosida oladigan bo‘lsak, makrodarajadagi to‘lov tizimiga butun dunyoda ko‘plab mamalakatlar keng foyda-

lanadigan xalqaro to‘lov tizimlarini kiritish mumkin. Bunga misol tariqasida SWIFT xalqaro hisob-kitoblar tizimini keltirish mumkin. Mikrodarajadagi to‘lov tizimiga esa bir mamlakatning milliy to‘lov tizimi misol bo‘ladi.

Bir mamlakat miqyosida ham to‘lov tizimini makrodarajadagi hamda mikrodarajadagi to‘lov tizimlariga shartli ravishda bo‘lish mumkin. Respublikamiz miqyosida oladigan bo‘lsak, makrodarajadagi to‘lov tizimi – bu mamlakat ichidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tashkil etilgan va Hisob-kitob markazi orqali amalga oshiriladigan ichki to‘lov tizimidir. Bir mamlakatning mikrodarajadagi to‘lov tizimiga esa bir bank va bank filiallarilar o‘rtasidagi o‘zaro to‘lov tizimlarini, chakana to‘lov tizimlarini kiritamiz. Bunga misol tariqasida plastik kartalar tizimi, PAYNET, UNIPAY, FASTPAY tizimlarini ko‘rsatishimiz mumkin.

To‘lov tizimining ishtirokchilari jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, hukumat, banklar va boshqa moliyaviy institutlar bo‘lishi mumkin. Masalan, SWIFT xalqaro hisob-kitoblar tizimini aksionerlik jamiyati ko‘rinishida tashkil etilgan SWIFT (xalqaro banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar tizimi) xalqaro moliyaviy uyushmasi boshqaradi. Makrodarajadagi bunday tizim foydalanuvchilari banklar va nobank moliya tashkilotlaridir. Ushbu tizimga milliy qonunchilikda xalqaro bank operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsati bo‘lgan har bir davlatning banklari a’zo bo‘lishlari mumkindir.

Biz milliy to‘lov tizimi, uning ishtirokchilari va foydalanuvchilari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Jismoniy shaxslar to‘lov tizimini boshqarib turuvchi Markaziy bank bilan bevosita aloqada bo‘lmasalar-da, ular to‘lov tizimidan foydalanadilar. To‘lov tizimidan foydalanish bilvosita bo‘ladi, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlariga xizmat ko‘rsatuvchi bankka o‘z hisobvaraqlaridagi pul mablag‘larini boshqa bankka o‘tkazib berish bo‘yicha topshiriq beradilar. Bu topshiriqni bajarish uchun tijorat banklari to‘lov tizimiga bog‘lanadi.

Agar ushbu foydalanuvchilari bo‘lmaganda edi, tijorat banklarining o‘zi to‘lov tizimining to‘laqonli foydalanuvchilari bo‘lishi mumkin emas edi.

Shu bilan birgalikda, hukumat hamda turli moliyaviy institutlar ham to‘lov tizimidan foydalanadilar. Bunday foydalanish ham tijorat banklari orqali bo‘ladi. Chunki ularning hisobvaraqlarini tijorat banklari yuritadi.

Shundan kelib chiqib, biz to‘lov tizimidan foydalanuvchilar va ishtirokchilarni quyidagicha ajratamiz:

Axborotlash Bosh Markazi va Markaziy bankning Hisob-kitob markazi banklararo to‘lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi.

Banklararo to‘lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitob markazi (MB HKM)da vakillik hisobvarag‘iga ega bo‘lgan banklar va moliyaviy institutlar hisoblanadi.

Demak, hozirgi kunda respublikamiz to‘lov tizimining asosiy va bevosita foydalanuvchilari – tijorat banklaridir. Bu haqda quyiroqda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

To‘lov tizimi oldiga bir qator talablar qo‘yilgan bo‘lib, ularni sanab o‘tamiz:

birinchidan, to‘lovchi va pul oluvchilarning huquqlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak;

ikkinchidan, pul mablag‘larining o‘tkazilishi huquqiy tomondan belgilangan bo‘lishi lozim, ya’ni qonun bilan mustahkamlangan tartiblar amaliyotga to‘la tatbiq etilishi lozim;

uchinchidan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan bo‘lishi kerak;

to‘rtinchidan, kam xarajatli bo‘lishi, tannarx hisobga olinishi lozim;

beshinchidan, yo‘qotishlar va qonunbuzarliklarning oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Agar yuqoridagi sanab chiqilgan talablarga javob bersa, bunday to‘lov tizimi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

3-§. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi va uning tashkil etilishi

Har bir mamlakat o‘zining mustaqil to‘lov tizimini tashkil qilgan holda mamlakat iqtisodiyotidagi to‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu to‘lov tizimi doimo rivojlantirib va takomillashtirib boriladi. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimida ham respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki davrlardan boshlab juda ko‘plab o‘zgarishlar qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar to‘lov tizimi, asosan, qog‘oz ko‘rinishidagi pochta hisob-kitoblarni amalga oshirib beradigan tizim edi. 1990-yillargacha sobiq Ittifoq iqtisodiyoti «banklararo hisob-kitoblar» atamasi ishlatilmas edi. Banklararo hisob-kitoblar davlat bankida ochilgan markazlashgan tartibdagi vakillik hisobvarag‘i orqali olib borilgan. Bank muassasalari o‘z filiallari bilan 1933-yilda kiritilgan MFO (filiallararo oborotlar) bo‘yicha ichki hisob-kitoblarni olib borganlar. Shunga muvofiq bank xodimlarining asosiy e’tibori filiallararo hisob-kitoblarga qaratilgan edi. Bunday hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun bankning mablag‘i bo‘lmasa ham, cheklanishlar yo‘q edi. Filiallararo hisob-kitoblar yil oxirida markazda yakunlanardi. Yil davomida esa filiallararo oborotlar yuritiladigan hisobvaraqlar orqali pul o‘tkazish operatsiyalari pochta yoki telegraf avizolari orqali amalga oshirilar edi. Kredit resurslari markazdan hisobga olinib, rejalashtirib borilardi.

1991-yildan boshlab bu kamchiliklarni tugatish maqsadida O‘zbekistonda banklararo hisob-kitoblarga o‘zgartishlar kiritila boshlandi. Bu davrda O‘zbekistonning boshqa respublikalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblari qalbaki avizolar hisobiga buzildi va to‘lov tizimi izdan chiqdi.

Mavjud tizim talabga javob bermay qolgani bois Respublika Markaziy banki yangi elektron to‘lovlar konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyaga binoan, elektron hujjatlar ko‘rinishida ishlab chiqilgan to‘lov tizimi talab va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim edi va bu vazifa ko‘zlangandek bajarildi. Hozirgi vaqtda yaratilgan elektron to‘lov tizimiga muvofiq, to‘lov hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar respublika miqyosida 15–20 daqiqada, viloyat ichida 3–5 daqiqada amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Markaziy bank ma’lumotlariga qaraganda, yangi tizim kuniga 60 milliard so‘mlik 60 mingta hujjat aylanish imkonini beradi. Bu to‘lov tizimining bundan besh barobar ko‘p hajmdagi operatsiyalarni amalga oshirishga qurbi yetadi.

Lekin bunday muvaffaqiyatga yetgunga qadar milliy to‘lov tizimi bir necha bosqichni bosib o‘tdi.

1-jadval

Quyida O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimining rivojlanish bosqichlariga tegishli sana va ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz

Bosqichlar	Yillar	To‘lov tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar
1-bosqich	1991–1994- yillar	O‘zbekiston Respublikasining pochta-telegrafga asoslangan muvaqqat to‘lov tizimi amal qilgan
	1992-yilda	Kliring markazi tashkil etildi
	1993-yilda	Kliring markazi tugatildi
2-bosqich	1994–1995- yillar	O‘zbekiston Respublikasining «Elektron pochta» tizimi tashkil etildi va amaliyotga tatbiq etildi. Hisob-kitoblar bir hudud ichida dastlab 1 kunda, respublika ichida 2–4 kun ichida yakunlangan
	1995–1996- yillar	Bir hudud ichida keyinchalik 1 soat ichida, respublika ichida 1 kun ichida yakunlangan

1-jadvalning davomi

3-bosqich	1998–2002- yillar	O‘zbekiston Respublikasining «Elektron pochta» tizimi takomillashtirilib, «Elektron to‘lov tizimi»ga aylantirildi. To‘lovlar o‘tkazish muddati hudud ichida 3–5 daqiqa, respublika ichida 15–20 daqiqani tashkil etdi
4-bosqich	2002–2003 yillar	Yagona vakillik hisobvarag‘i orqali hisob-kitob tizimi joriy etildi va tijorat banklari bosqichma-bosqich, dastlab bir necha filiallar, so‘ng butun bank tizimi ushbu tizimga o‘tdi
	2003–2004- yillar	Yagona balansga o‘tkazish ishlari amalga oshirildi
	2005–2008- yillar	Bank tizimining axborot texnologiyalarini 2005–2008- yillarda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi
	2008–2010- yillar	2010-yilgacha axborot texnologiyalari va elektron hujjat aylanishini joriy qilish, Internet tarmog‘ida axborot resurslarini shakllantirish va ularni yangilab borish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi
5-bosqich	2011–2015- yillar	O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimini takomillashtirish

Milliy to‘lov tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi 1991–1994-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda to‘lov tizimini rivojlantirish va takomillashtirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1991–1992-yillarda Markaziy bankning Bosh axborotlashtirish Markazida banklararo hisob-kitoblarda elektron pochta usulini yaratish ustida ishlandi. Shuningdek, bank operatsion ish kunini kompyuter vositasida bajarishning amaliy dasturini yaratish va ularni banklarda tatbiq etish bo‘yicha ish olib borildi. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ijrosini ta’minlash maqsadida Markaziy bankda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi banklararo to‘lovlar tizimini takomillashtirish maqsadida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar

hisobidan samarali foydalanish maqsadida xalqaro tanlov – tender e'lon qilindi.

Milliy to'lov tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi 1991–1994-yillarni o'z ichiga oladi.

1995-yil aprel oyidan boshlab to'lov tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu bosqich 1998-yilgacha davom etdi. Ushbu bosqichda to'lov tizimi o'z oldiga qo'ygan vazifani uddaladi deyish mumkin. Agar 1996-yilda hisob-kitoblar respublika ichida 1 kunda, viloyat ichida 1 soatda yakunlangan bo'lsa, bu vaqt borgani sari qisqarib bordi. 1997–1998-yillardan boshlab to'lovlarning o'tishi respublika ichida 15–20 daqiqani, hudud ichidagi to'lovlarning o'tishi esa 3–5 daqiqani tashkil qilishiga erishildi.

Milliy to'lov tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi 1995–1998-yillarni o'z ichiga oladi.

1998-yildan boshlab 2002-yilgacha milliy to'lov tizimini shakllantirish va takomillashtirishning uchinchi bosqichi amalga oshirildi.

1998–2002-yillar respublika to'lov tizimini takomillashtirishning uchinchi bosqichini o'z ichiga oladi.

Bu davrda barcha tijorat banklari va ularning filiallari Markaziy bankning Toshkent shahar Hisob-kitob markazi va hududiy Hisob-kitob markazlarida o'zlarining vakillik hisobvaraqlarini ochib, banklararo va filiallararo hisob-kitoblarni aynan ushbu tuzilmalar orqali amalga oshirdilar. Banklararo hisob-kitoblar bir hudud ichidagi va hududlararo hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshirilar edi. Banklararo hisob-kitoblarning to'liq yakunlanishi ustidan nazorat

REESTR № 4/2174/4
"___" _____ 201___ y

Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali bajarilardi. Makaziy bankda jami 800 dan ortiq vakillik hisob-varaqlari ochilgan edi.

2002-yildan respublika to'lov tizimini takomillashtirishning to'rtinchi bosqichi boshlandi.

Bu davrda to'lov tizimini takomillashtirish va boshqaruv uchun axborot tizimini yaratish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

To'lovlarning real vaqtda o'tishini ta'minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisobvarag'i orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha tanlangan texnologiya hamda ishlab chiqilgan texnik topshiriq bo'yicha banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazish bo'yicha yaratilayotgan dasturlarning ishlashga tayyorligini tekshirish maqsadida 2002-yilning 27-aprel kuni sinovdan o'tkazildi. Bundan tashqari, yagona vakillik hisobvarag'i orqali real vaqtda amalga oshirayotgan banklarning o'zaro uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan dastur ishga tushirildi. Yangi tizimga barcha tijorat banklari bir yo'la o'tkazilmadi. Avval bir qator banklar ushbu tizim bo'yicha ishlab sinab ko'rildi. Yagona vakillik hisobvarag'i tizimi orqali ishlashga «O'zsanoatqurilishbank» OATB 2002-yilning 15-iyulida, «Tadbirkorbank» OATB (hozirgi «Mikrokreditbank») 20-iyulida, «Asaka bank» DAT 21-oktabrda o'tkazildi va ularga har tomonlama yordam berildi. Yagona vakillik hisobvarag'i bo'yicha boshqaruv axborot tizimiga o'tish 2003-yilning sentabr oyida nihoyasiga yetkazildi. Yangi tizimga o'tishni Xalq banki DTB hamda Alp Jamol xususiy banki (hozirgi kunda ushbu bank faoliyati tugatilgan) yakunladi.

Natijada quyidagilarga erishildi:

– kunlik to'lovlarni o'tkazish uchun band bo'lgan mablag'larning bir qismining bo'shashiga, shu bilan birga, bo'shagan mablag'larni tegishli aktivlarga joylashtirish imkoni yaratildi;

– bank filiallarida butun kun davomida paydo bo'ladigan tavakkalchiliklarni kuzatib, uni o'z vaqtida bartaraf etish mumkin bo'ldi;

– bankning yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga bo‘lgan har bir jarayonini tizim orqali kuzatish mumkin bo‘ldi;

– bank filiallarining qay biri zaif, qay biri mustahkamligini tahlil qilish va tez, operativ ravishda choralar ko‘rish imkoni yaratildi;

– bankning yagona kundalik balansi, uning likvidligi, tavakkalchiliklari, majburiyati, kapitali qanday darajada ekanligini aniq ko‘rish va tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

To‘lov tizimining hozirgi darajaga yetishida bir necha omillar xizmat qilgan. Bu omillar quyidagilardir:

– buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos keluvchi Bank Depozitorlari Milliy Axborot Bazasi tashkil etildi;

– Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari asosida soliqdan ozod etilgan mablag‘lar hisobiga bank tizimi to‘liq kompyuterlashtirildi;

– banklar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda «Fido-Biznes» firmasi tomonidan yaratilgan dasturiy ta’minoti bilan to‘liq ta’minlandi va imkoniyati yetadigan banklarga, jumladan, Milliy bank, Asaka bank, DAEWOO bank va ABN-AMRO banklarga dasturiy ta’minot yaratishga doir texnik talablar qo‘yildi.

To‘lovlarning elektron usulda amalga oshirilishi ham mijoz uchun tez amalga oshirish quvvati jihatidan ham qulay, ham bank uchun xarajat kamligi uchun juda foydalidir. Shuning uchun O‘zbekistonda yaratilgan elektron to‘lovlar tizimi milliy to‘lov tizimining asosi bo‘lib, uni rivojlantirish umummilliy ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda respublikada to‘lov tizimini mukammallashtirish, to‘lov vositalarini rivojlantirish va mijozlarga qulay bo‘lgan to‘liq avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan. «Elektron hamyon» sifatida mashhur bo‘lgan plastik kartochkalar to‘lovlarning barcha turidan ham eng qulay to‘lov vositasi sifatida tan olingan. Shuning uchun respublikada bir qator yirik banklar plastik kartochkalar bozorini shakllantirishda aktiv faoliyat

ko‘rsatmoqdalar. Plastik kartochkalar bozorini rivojlantirishda bir qancha bankomatlar o‘rnatilishi, milliy valuta barqarorligi va mustahkam muhofaza tizimi kabi murakkab ishlar amalga oshirilgandan keyingina ma’lum ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Hozirgi kunda respublikada «Bank–Mijoz» tizimi amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Bu tizimda bank mijozlari to‘g‘ridan to‘g‘ri ofis yoki uyidan turib to‘lovlarni amalga oshirishi ko‘zlangan. Bank xizmatining bu yangi ko‘rinishi pul mablag‘larining boshqarilishini faollashtirish bilan birga bank mijozlari sonining oshishiga, bank va mijoz o‘rtasidagi moliyaviy faoliyatni yanada rivojlantirishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ1438- sonli Qarori qabul qilinishi milliy to‘lov tizimini takomillashtirishning beshinchi bosqichini boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ1438- sonli «2011–2015-yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 2-ilovasida «To‘lov tizimi va to‘lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish»ga bag‘ishlangan alohida bo‘lim keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra to‘lov tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan.

Vazifa:
2011–2015-yillarda «To‘lov tizimi va to‘lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish» bo‘yicha qanday vazifalarni bajarish belgilab berilganligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ1438-sonli Qarorining 2-ilovasidan olib o‘rganing.

Demak, 2011-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi milliy to‘lov tizimini takomillashtirishning beshinchi bosqichi boshlandi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda jahon talablariga javob beradigan elektron usulda to‘lovlarni amalga oshiradigan milliy to‘lov tizimi yaratildi. Elektron to‘lov tizimining ishlash prinsiplari, to‘lov tizimi orqali hisob-kitoblarni o‘tkazish tartibi, plastik kartochkalarning turlari, ularning amaliyotda qo‘llanishi, «Bank–Mijoz» dasturiy ta’minotining mazmuni va ish faoliyati keyingi mavzularda batafsil ko‘rib chiqiladi.

4-§. Respublikada axborot va to‘lov tizimini takomillashtirish

O‘zbekistonda to‘lov tizimi shakllandi va rivojlantirib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot tizimilari ham mavjud bo‘lib, ularni takomillashtirib borish hozirgi kunda davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Oxirgi yillarda mamlakatimizda yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratish ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikada yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratish bu milliy iqtisodiyotda axborotlashtirish makonini tashkil qilish hisoblanadi.

Yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratishdan asosiy maqsad hozirgi sharoitda vazirliklar, idoralar, shu bilan birga, bank tizimining aloqalarini zamon talabidan kelib chiqqan holda tashkil qilish va mazkur axborotlarni yig‘ish, jamg‘arish, saqlash hamda tahlil qilish jarayonlarini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratishning asosiy shart-sharoitlari va zaruriyati mavjud vazirliklar, idoralar, moliyaviy sektor, jumladan, bank tizimini ishonchli axborotlar bilan ta’minlab, iqtisodiy o‘sishga erishish bilan ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratish konsepsiyasi quyidagi vazirlik va idoralarda ham YIAT asoslarini yaratishni taqozo etadi:

– Iqtisodiyot vazirligi;
– Moliya vazirligi;
– Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;
– Davlat soliq qo‘mitasi;
– Davlat bojxona qo‘mitasi;
– Davlat statistika qo‘mitasi;
– Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi;

Markaziy bank, Iqtisodiyot vazirligi respublikamizdagi barcha vazirliklar va idoralardan axborot qabul qilib, olingan axborotlarni tahlil qilib, shu asosda qarorlar qabul qiladi. Mamlakatdagi asosiy axborotlar bazasi tadqiq qilingan bo‘lib, bu sohada bank sektori yetakchi ekanligidan dalolat beradi. YIATni Iqtisodiyot vazirligida yaratish va tatbiq qilish axborotlarni tezkor ravishda olib, bu sohada ishlovchilarning hisobotlar yig‘ishdagi mashaqqatli mehnatlariga amaliy yordam beradi.

Global integratsiyalashgan axborot analitik tizimi yordamida har kuni respublikamiz Moliya vazirligiga tijorat banklari va filiallaridan, valuta birjasidan, Markaziy bankdan axborot uzatiladi. Davlat soliq qo‘mitasi axborotlarni qayta ishlash uchun shu sohada 6000 dan ortiq kompyuter va 300 dan ortiq serverlar bilan ta’minlangan. Bu texnika va texnologiyalar iqtisodiy axborotlarni, yuridik va jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi axborotlarni qayta ishlashga xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari, lokal axborot hisoblash tarmoqlari mazkur sohalarning barcha bo‘limlari faoliyatida ishlatilib, sun’iy yo‘ldosh tizimi asosida ishlovchi telekommunikatsiya vositalaridan soliq axborotlarini o‘zaro almashinuvda foydalanib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy axborot tizimini uni shakllantirishda Markaziy bankning YIATni yaratish zarurati ham eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu sohada tijorat banklari ham eng yirik axborot yetkazib beruvchilardan bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi kunda Markaziy bankning elektron

to‘lovlar tizimi ishlab turibdi. Bu tizim orqali tijorat banklari o‘rtasida axborotlarni yuqori saviyada va tezlik bilan o‘tkazish qobiliyati, hujjatlarni tezkor qayta ishlash qobiliyati bilan respublikada va hamdo‘stlik mamlakatlarida ham hammaga ma’lum

Respublikamizda barcha tijorat banklari ham Markaziy bankning axborot markazi bilan bank telekommunikatsion tarmog‘i orqali ulangan.

Markaziy bank tomonidan axborot uzatish tarmog‘i yaratilgan bo‘lib, u raqamli va kommutatsiya paketlari tarmoqlari majmuasidan iborat. Bu tarmoq Toshkent shahrida 1996-yildan boshlab samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Tarmoq yordamida tijorat banklarining barcha filiallaridan Markaziy bankning Bosh axborotlash markaziga 64 Kbit/sek tezlikda ma’lumotlar uzatilib, tizim raqamli optik tolali radio releli aloqa tarmoqlari yordamida faoliyat yuritadi. Ushbu tarmoq Jahon bankining kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirilgan. Shunday qilib, yuqorida keltirib o‘tilgan dalillar respublikamiz bank va moliya tizimi ham yagona iqtisodiy axborot tizimiga o‘tishga tayyor va ular uchun ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Axborotlashtirish milliy tizimini yaratishning asosiy maqsadi va yagona iqtisodiy axborot tizimini bosqichma-bosqich iqtisodiyotga joriy qilishdan iborat. Yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratish va uning ishlatilishiga ma’lum bir talablar qo‘yiladi. Bu talablarning eng muhim shartlaridan biri tizimni tashkil qilishda boshqaruvchilar tomonidan to‘g‘ri yechim qabul qilishdir. Ushbu tizim uchun shunchaki dasturlar kerak emas, balki amaliy dasturlar, kompyuterlar, kommunikatsiya uskunalari, aloqa kanallaridan iborat bo‘lgan yaxlit texnologiyalar kerak.

Dasturlar, ma’lumotlar va ushbu tizimda ishlovchilar axborot xavfsizligining obyektlari hisoblanadi. Ushbu tizim foydalanuvchilardan moddiy xarajatlar qilishni talab etadi. Shu bilan birga, yagona iqtisodiy axborot tizimini shakllantirish va amaliyotga tatbiq qilish

barcha qatnashuvchilar uchun quyidagilarga erishishni ta'minlab beradi:

– axborotlarni qayta ishlashning avtomatlashgan tizimini tashkil qilishni;

– axborotlarni olish va uzatish jarayonlarini avtomatlashtirishni;

– axborotlarni o'z vaqtida olish va uzatishni ta'minlash;

– hisobotlarni uzatish va olishda xodimlar ishtirokini kamaytirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, yagona iqtisodiy axborot tizimining texnik tarkibi kengayuvchan va moslashuvchan bo'lishi bilan birga, u o'zida yangi texnologiyalar integratsiyasini aks ettirmog'i ham lozim.

Nazorat savollari:

1. *To'lov tizimi deganda nimani tushunasiz?*
2. *Makrodarajadagi to'lov tizimi haqida gapirib bering.*
3. *Mikrodarajadagi to'lov tizimi haqida gapirib bering.*
4. *To'lov tizimi elementlariga nimalar kiradi?*
5. *Qanday to'lov vositalarini bilasiz?*
6. *To'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilari kimlar?*
7. *O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimining shakllanishi qanday bosqichlarga bo'lib o'rganiladi?*
8. *O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimining hozirgi darajaga yetishi qanday omillar bilan belgilanadi?*
9. *To'lov tizimining asosiy maqsadi nimadan iborat?*
10. *To'lov tizimining iqtisodiyotda tutgan o'rni nimalardan iborat?*
11. *Respublikada yagona iqtisodiy axborot tizimini yaratishning maqsadi nima va u asosida qanday natijalarga erishiladi?*

II BOB

MARKAZIY BANKNING TO‘LOV TIZIMIDAGI O‘RNI

Tayanch tushunchalar: *to‘lov tizimi, Markaziy bank, pul-kredit siyosati, to‘lov tizimini boshqarish, to‘lov tizimi nazorati, to‘lov tizimi ishtirokchilari, to‘lov tizimi foydalanuvchilari, AQSH to‘lov tizimi, to‘lov summasi, chekli to‘lovlar, to‘lov oboroti, omillar, texnik vositalar, naqd pul aylanishi, naqdsiz pul aylanishi.*

1-§. To‘lov tizimini tashkil etishda Markaziy bankning o‘rni

Mamlakat to‘lov tizimini tashkil etishda Markaziy bankning o‘rni beqiyosdir. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning «Bosh maqsadi va asosiy vazifalari» nomli 3-moddasida Markaziy bankning bir qator vazifalari belgilab berilgan.

Markaziy bankning ushbu vazifalaridan biri sifatida «O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlash» vazifasi ko‘rsatilgan.

Shundan kelib chiqib, Markaziy bankning hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha bajaradigan quyidagi vazifalarini keltirib o‘tamiz:

– to‘lov tizimini tashkil etish va boshqarish;

– naqd pulsiz hisob-kitoblarning barcha subyektlar uchun majburiy shakllarini hamda hujjatlar turini belgilash va tashkil etish;

– elektron to‘lovlarni amalga oshirishni tashkil etish;

– to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha yuzaga keladigan xatarlarning oldini olish bo‘yicha zarur tadbirlarni ishlab chiqish, to‘lovlar xavfsizligini ta’minlash.

Hozirgi kunda amalda bo‘lgan banklararo to‘lov tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shaxsiy mulki hisoblanadi.

To‘lov tizimi va uning faoliyati Markaziy bank faoliyatidagi asosiy maqsadi bo‘lgan pul-kredit va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq.

Markaziy bank to‘lov tizimiga nisbatan uning rivojlanishi va shu orqali o‘z maqsadiga erishishni ta’minlash borasida qanday ta’sir o‘tkazishi mumkin? Bu savolga javob berish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim.

Birinchidan, Markaziy bankni to‘lov tizimining foydalanuvchisi sifatida ko‘rib chiqamiz. Markaziy bank pul o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatiga tegishli bo‘lgan operatsiyalarni o‘tkazadi. Bunga pul-kredit siyosatini o‘tkazish uchun rasmiy ochiq bozoridagi operatsiyalari, davlat qimmatli qog‘ozlari bilan bo‘ladigan rasmiy operatsiyalari, jumladan, yangi qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, eskilarini to‘lash operatsiyalari, chet el valuta operatsiyalari bo‘yicha milliy valutada hisob-kitoblarning to‘lov tizimi orqali o‘tkazishi misol bo‘ladi. Bundan tashqari, boshqa barcha korxonalar qatori, Markaziy bank ham o‘z ishchi-xizmatchilariga ish haqi, turli nafaqalar, xizmat safari xarajatlari, mukofotlar to‘lashi lozim bo‘ladi, bunday to‘lovlar ham aksariyat hollarda to‘lov tizimini chetlab o‘tmaydi.

Ikkinchidan, Markaziy bankni to‘lov tizimining ishtirokchisi sifatida ko‘rib chiqamiz. To‘lov tizimining ishtirokchisi sifatida Markaziy bankni o‘z mijozlari nomidan pul o‘tkazish yoki to‘lovni olish operatsiyalarini bajarish jarayonida kuzatishimiz mumkin. Masalan, Markaziy bank hukumat yoki boshqa hududiy Markaziy banklar kabi o‘z mijozlarining operatsiyalarini bajarish jarayonida to‘lov tizimining ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Uchinchidan, Markaziy bankning to‘lov xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs sifatidagi rolini ko‘rishimiz mumkin. Bunday xizmatlar to‘lov tizimi doirasida ishlovchi tijorat banklari uchun

hisob markazlarini tashkil qilish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, to‘lov tizimi uchun o‘z mablag‘lari yoki tijorat banklari, shu bilan birga, boshqa tijorat tashkilotlarining mablag‘larini qo‘shish evaziga texnik vositalar, dasturlar, instruksiyalar, kommunikatsiyalar bilan ta’minlash jarayonida ham Markaziy bankning to‘lov tizimi orqali to‘lov xizmatlarini bajaruvchi rolini ko‘rishimiz mumkin.

Va nihoyat, *to‘rtinchidan*, Markaziy bankning davlat qiziqishlarini himoyalovchisi sifatidagi rolini ko‘rib chiqamiz. Markaziy bankning bu roli ancha keng xarakterga ega bo‘lib, o‘z ichiga quyidagi qirralarni oladi (2-jadval).

2-jadval

Markaziy bankning to‘lov tizimi bilan bog‘liq vazifalari

T/r	Markaziy bankning vazifalari
1	To‘lov tizimi ishini boshqaradi
2	To‘lov tizimi qatnashchilari ustidan nazorat o‘rnatadi
3	To‘lov tizimi orqali o‘tadigan har kunlik to‘lovlar o‘tishini kafolatlash va xavfsizligini ta’minlash
4	Da’volar bildirilganda arbitraj funksiyasini bajaradi
5	Texnik standartlarni ishlab chiqish va joriy qilish bilan shug‘ullanadi

Shunday qlib, sanab o‘tilgan Markaziy bankning to‘lov tizimi bilan bog‘liq jihatlariga to‘lov tizimi orqali o‘tadigan kundalik to‘lovlarning kafolatlanishini ta’minlashni ham kiritdik. Lekin bu faqat Markaziy bankka emas, bir vaqtning o‘zida tijorat banklari vakillik hisobvaraqlarining holatiga ham bog‘liq.

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotini kuzatar ekanmiz, Markaziy banklarning to‘lov tizimidagi ishtiroki turlicha ekanligini ko‘rish mumkin. Bu har xillik turli davlatlarning turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Ba’zi davlatlar-

ning Markaziy banklari to‘lov tizimini yaratish va uni ekspluatatsiya qilish masalalariga chuqur kirishib ketganlar. Bunday davlatlarga Germaniya, Fransiya, Italiya va Ispaniyani kiritish mumkin. Ba’zi davlatlarning Markaziy banklari qonunchilik bilan belgilab qo‘yilgan spetsifik majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan muvofiqlashtiruvchi rolini bajaradi. Ba’zi davlatlardagi Markaziy banklar o‘z mijozlari nomidan to‘lovlarni bajarish bo‘yicha aktiv faoliyat olib borishni afzal ko‘radilar, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Markaziy banklar o‘z faoliyatini ko‘proq to‘lov xizmatlarini tijorat asosida olib borishga harakat qiladi. To‘lov tizimida Markaziy banklarning ishtiroki turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning maqsadlari kamroq xarajat qilib, minimal tavakkalchilik asosida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi tizimni ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi ham Markaziy bank tomonidan tashkil qilinib, tizimning harakati hisob-kitob markazlari orqali amalga oshiriladi. Respublika Markaziy banki hisob-kitob markazi faoliyatini muvofiqlashtirib, ular faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

2-§. To‘lov oboroti, uning tuzilishi va tashkil etilishi

To‘lov tizimi to‘lov oboroti bilan chambarchas bog‘liq. Agar to‘lov oboroti amal qilmasa, to‘lov tizimining ham keragi bo‘lmay qoladi, chunki to‘lov tizimi ma’lum bir ma’noda to‘lov oborotiga xizmat qiladi. Lekin bularning barchasining zamirida tovar ishlab chiqarish va tovar muomalasi yotadi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlat mulki yagona bo‘lmagan holda, rivojlanayotgan turli mulkchilik shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqarish va tovar muomalasining mavjudligidir. Tovar muomalasi mavjud ekan, u, o‘z navbatida, korxona va

tashkilotlar o‘rtasida pulli munosabatlarni, ya’ni hisob-kitoblarni keltirib chiqaradi.

Tovar muomalasi va tovar ayirboshlash jarayoni doimo pul harakatini taqozo etadi. Tovar oboroti pul oborotining moddiy asosi bo‘lib hisoblanadi, lekin pul oborotining hajmi tovar oborotining hajmidan doimo katta bo‘ladi, chunki pul oboroti o‘z ichiga tovar ayirboshlashdan tashqari boshqa munosabatlarni ham oladi. Masalan, pulli munosabatlar va pulli hisob-kitoblar quyidagi hollarda yuzaga keladi:

– bank muassasalari, aholi va turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi kredit munosabatlarida;

– milliy iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda;

– sug‘urta fondlari bilan munosabatlarda;

– jamg‘arma fondlari bilan munosabatlarda;

– aholi guruhlari o‘rtasidagi munosabatlarda;

– nobank moliya-kredit tashkilotlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda;

– davlat budjeti bilan munosabatlarda va hokazo.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, pul oborotiga quyidagicha tavsif beramiz:

Pul oboroti – bu jamiyatda sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardagi pul mablag‘larining turli shakllardagi harakatidir.

Pul oborotidan tashqari to‘lov oboroti degan tushuncha ham mavjud. To‘lov oboroti pul oborotiga nisbatan cheklangan, ya’ni to‘lov oboroti pul oborotining bir qismini tashkil etadi.

To‘lov oboroti pul oborotining bir qismini tashkil etadi. To‘lov oboroti, asosan, iqtisodiyotda o‘tkaziladigan turli to‘lovlar bilan bog‘liq. Shuning uchun to‘lov oboroti – bu pulning to‘lov vositasi funksiyasini bajaruvchi pul oborotidir. Hozirgi kunda pul funksiyalarining klassik ta’rifi o‘zgartirilib, pulning muomala va to‘lov vositasi funksiyalari birlashtirilib, pulning «to‘lov vositasi» funksi-

yasi deb yuritilmoqda. Shu bilan bu ikkita funksiya o‘rtasidagi chegara olib tashlanib, pulning to‘lov vositasi funksiyasini bajarishda naqdsiz pullar bilan bir qatorda naqd pullarning ishlatilishi ko‘rsatib berildi. Shundan kelib chiqqan holda, to‘lov oborotining tuzilishi haqida fikr yuritib ko‘ramiz.

To‘lov oboroti pulli munosabatlarda pul formalaridan foydalanish xususiyatlari va to‘lov usuliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:


– naqd pulli to‘lov oboroti;

– naqd pulsiz to‘lov oboroti.

Buni ushbu chizmada yaqqol ko‘rish mumkin:

2-chizma

To‘lov oborotining tarkibiy tuzilishi



To‘lov oborotining asosiy qismi naqd pulsiz to‘lov oborotidan tashkil topadi. Bu to‘lov oboroti naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo‘yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni pul mablag‘larini naqd pul ishlatmasdan bankdagi bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o‘tkazish orqali bajarilishi tushuniladi.

Iqtisodiyot rivojlanib borgani sari, to‘lov oborotida naqd pulsiz to‘lov oborotining ulushi ortib boradi. Chunki iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi omillar naqdsiz to‘lov oborotining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi omillar quyidagilar:

a) sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmining o‘sishi;

b) tovar aylanishi va milliy daromad hajmining o‘sishi;

d) bank kreditining ayirboshlash jarayonidagi rolining ortib borishi;

e) mulkchilik shakllarining va ular o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi;

f) iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda hisob-kitob ishlarida elektron to‘lov tizimidan keng ko‘lamda foydalanish;

g) chakana hamda korporativ plastik kartalar muomalasining rivojlanishi, keng tatbiq etilishi va boshqalar.

Hozirgi kunda nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektlar, hattoki aholining ham naqd pulsiz to‘lov tizimidagi ishtiroki ortib bormoqda. Ilgari Xalq banki orqali aholiga naqd pulsiz hisob-kitoblarining turli shakllari taklif etilgan edi. Hozirgi kunda kelib aholining ushbu naqd pulsiz hisob-kitob shakllari bilan bir qatorda plastik kartochkalardan foydalanish ham rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, 90-yillarning o‘rtalarida amaliyotga tatbiq etilgan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan chet el valutasi va milliy valutada chiqarilgan plastik kartochkalar aholi o‘rtasida asta-sekinlik bilan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik «Asaka banki» DAT, «O‘zsanoatqurilishbank» OATB, «Paxta bank» («Agrobank»), «G‘alla bank» («Qishloqqurildishbank»), «Hamkorbank», «Ipak yo‘li» banki hamda Xalq banki va boshqa qator banklar tomonidan plastik kar-

tochkalar chiqarilib, aholiga taklif qilindi. Hozirgi kunda 20 dan ortiq tijorat banklari o‘z plastik kartalarini chiqarib, aholi o‘rtasida joylashtirmoqdalar.

To‘lov oborotining ikkinchi qismi naqd pulli to‘lov oborotidir. Naqd pulli to‘lov oboroti deganda, tovar ayirboshlash va xizmat ko‘rsatish jarayonida subyektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarning naqd pul yordamida amalga oshirilishi tushuniladi. Naqd pulli to‘lov oborotining ishlatish ko‘lami naqd pulsiz to‘lov oborotiga nisbatan chegaralangan.

Naqd pul oboroti davlat va aholi, turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar bilan aholi hamda aholi guruhlari o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Masalan, korxona va tashkilotlar o‘z ishchi va xizmatchilariga ish haqi, mukofot, xizmat safari xarajatlarini to‘laydi, pensionerlar pensiya, talabalar stipendiya oladi. Bu naqd pullar savdo do‘konlarida, bozorlarda ishlatiladi, shu bilan birga, turli moliyaviy majburiyatlar va xizmatlar yuzasidan to‘lovlar o‘tkaziladi.

Chet davlatlarda naqd pullarning ishlatilishi bilan band bo‘lganlarning 10 foizdan kamrog‘i o‘z ish haqlarini naqd pulda oladilar. Angliyada ham naqd pulda ish haqi oladiganlar barcha ishlovchilarning qariyb 10 foizini tashkil etadi. Germaniya va Kanadada 5 foizni, AQSHda esa taxminan 1–5 foizni tashkil etadi. Chunki bu davlatlarda ish haqi plastik, kredit kartochkalari yoki cheklarga o‘tkazib beriladi.

Naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lov oboroti quyidagi hollarda yuzaga keladi:

a) aholi tomonidan davlat, xususiy, qo‘shma, kooperativ chakana va mayda ulgurji savdo tashkilotlaridan mahsulot xarid qilinganda;

b) aholi tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining dehqon bozorlaridan sotib olinganda;

d) aholi tomonidan oziq-ovqat va buyum bozorlarida tijoratchilardan, hunarmandlardan va boshqa tadbirkorlardan tovarlarni sotib olinganda;

e) turli transport turlaridan va boshqa maishiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlari xizmatidan foydalanganda;

f) ishchi-xizmatchilar ish haqining to‘langanda;

g) stipendiya va turli nafaqalarning to‘langanda;

h) aksiyalar bo‘yicha dividentlar to‘langanda;

i) lotereyalar bo‘yicha yutuqlar to‘langanda;

j) sug‘urta to‘lovlari to‘langanda;

k) aholi tomonidan kommunal va boshqa to‘lovlar to‘langanda;

l) gazeta va jurnallarga obuna bo‘lganda yoki joriy davrda sotib olinganda;


m) aholi tomonidan yer, mulk va boshqa soliqlar naqd pul yordamida to‘langanda.

Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Umumlashtirib shuni aytish mumkinki, aholi tomonidan naqd pul yordamida turli to‘lovlar to‘langanda naqd pulli to‘lov oboroti yuzaga keladi.

Lekin naqd pul doimo naqdsiz pulga, naqdsiz pul esa naqd pulga aylanib turadi. Pulning bunday harakatini quyidagi chizmada ko‘rishimiz mumkin.

3-chizma

To‘lov oborotida naqd pulning harakati



1. Har bir korxona o‘z ishchi-xizmatchilariga ish haqi va shunga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lash uchun bankdan naqd pul oladi. Bankdagi hisobvaraqda turgan naqdsiz pul naqd pulga aylanadi.

2. Korxona va tashkilotlar bu pullarni ish haqi va boshqa to‘lovlar ko‘rinishida aholiga tarqatadi. Shu bilan birga, nobank kredit tashkilotlari bo‘lgan kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar tijorat banklaridagi o‘zlarining hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan aholiga va tadbirkorlik subyektlariga naqd pulda kredit beradilar.

3–4–5. Ish haqi, pensiya, stipendiya, mukofot va boshqa to‘lovlarni olgan aholining turli qatlamlari bu pulni o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun bozorda, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, madaniyat tashkilotlarida sarflaydilar, turli to‘lovlar gaz, elektr energiyasi, telefon, soliqlar, jarimalar va hokazo to‘lovlarni to‘laydilar. Dehqonlar, hunarmandlar ham o‘zlari mehnat qilib topgan pullarni o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida sarflaydilar

6. Aholining turli qatlamlaridan kelib tushgan naqd pullar do‘kon va naqd pul bilan ishlaydigan boshqa tashkilotlar, jumladan, nobank kredit tashkilotlari tomonidan bankka topshirilishi lozim. Chunki har bir korxona va tashkilotga o‘z oborot kassasida naqd pulni ushlab turish uchun limit o‘rnatiladi. Ushbu limitdan ortiqcha qismi, albatta, bankka topshirilishi shart qilib belgilangan. Bu holda, ham biz naqd pulning naqdsiz pulga aylanganini ko‘ramiz, ya’ni bank kassasiga topshirilgan naqd pullar naqd pulni topshirgan korxona yoki tashkilotning hisobvarag‘iga o‘tkazib qo‘yiladi.

Shunday qilib, biz to‘lov oborotining naqd va naqdsiz shakllarini va uni ishlatish doiralarini ko‘rib chiqdik.

To‘lov oborotini boshqa xususiyatlariga ko‘ra ham tasniflash mumkin. To‘lov oboroti ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘ladigan turli munosabatlarni o‘zida aks ettirishiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi:

Birinchidan, tovarlarni sotish jarayonidagi kapital ko‘rinishdagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi to‘lov oboroti. Bunday to‘lov oboroti, boshqacha qilib aytganda, tovarli yoki tovar operatsiyalari bo‘yicha to‘lov oboroti deyiladi. Bunda to‘lovlar naqd pul ko‘rinishda ham, naqdsiz pul ko‘rinishda ham amalga oshiriladi. Korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash va qurilish-montaj ishlari jarayonidagi pulli hisob-kitoblar, asosan, naqdsiz pul ko‘chirish asosida bajariladi. Aholi guruhlari o‘rtasida korxona, tashkilot va aholi o‘rtasidagi tovar ayirboshlashda naqd pul ishtirok etib, naqd pulli to‘lov oboroti yuzaga keladi.

Ikkinchidan, tovar xarakteriga ega bo‘lmagan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida sodir bo‘ladigan to‘lov oboroti. Bunday to‘lov oboroti tovarsiz operatsiyalarda yuzaga keladigan to‘lov oboroti yoki moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha yuzaga keladigan to‘lov oboroti bo‘lib hisoblanadi. Bu to‘lov oboroti ham naqd pul ko‘rinishi bilan birgalikda naqdsiz pul ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Korxona va tashkilotlar bank kreditini qaytarganlarida, kredit uchun foiz to‘laganlarida, korxona faoliyatini sug‘urtalash bilan bog‘liq to‘lovlarda, soliqlar va budjetdan tashqari fondlarga turli tushumlar to‘laganlarida, naqd pulsiz to‘lov oboroti yuzaga keladi. Aholining turli badallari va soliqlarning ish haqidan olib qolib, kerakli tashkilotlarga o‘tkazilishi ham naqdsiz to‘lov oborotiga misol bo‘ladi. Respublika va mahalliy budjetga naqd pul yordamida soliqlarning to‘lanishi esa naqd pulli to‘lov oborotini vujudga keltiradi.

To‘lov oborotini yana ishtirokchilar va ishtirokchilarning joylashuviga ko‘ra ham tasniflash mumkin. To‘lov oborotining ishtirokchilari bo‘lib markaziy va tijorat banklari, turli mulkchilik shakliga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar, aholining turli qatlamlari hisoblanadi. Mana shu ishtirokchilar bir-biri bilan turli operatsiyalar bo‘yicha munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat jarayonida ular bir shahar ichida yoki turli shaharlarda joylashgan bo‘lishi mumkin.

Agar to‘lov oborotida qatnashgan ishtirokchilar bitta shahar ichida joylashgan bo‘lsa, bu oborot bir shahar ichidagi to‘lov oboroti deyiladi.

Agar ishtirokchilar turli shaharlarda, masalan, biri Andijonda, ikkinchisi Samarqandda bo‘lsa, bunday to‘lov oboroti shaharlararo to‘lov oboroti deyiladi. Lekin hozirgi davrda to‘lov oboroti elektron to‘lov tizimi orqali juda tez sodir etilmoqda. Shu sababli to‘lov oborotini bunday bo‘lish, fikrimizcha, qandaydir chegarada o‘z kuchini yo‘qotmoqda. Ayniqsa, 2003-yilning oxirlariga kelib banklararo hisob-kitoblarda hududlararo hisob-kitoblarning bekor qilinishi, barcha banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun faqat birgina Toshkent shahar Hisob-kitob markazi saqlab qolingani (hududiy Hisob-kitob Markazlari faoliyati tugatildi) bunday bo‘linishga barham berdi.

3-§. To‘lov oborotiga ta’sir qiluvchi omillar

To‘lov oboroti ma’lum to‘lov tizimi orqali amalga oshiriladi, ya’ni to‘lovlarni o‘tkazish orqali har bir davlatda naqd va naqdsiz pullar boshqarib boriladi. Bizning davlatimizda to‘lov tizimi 90-yillarning o‘rtalaridan boshlab shakllanib borgan bo‘lib, asosan, naqd pulsiz o‘tkazmalar mana shu tizim orqali olib boriladi. Bu tizim elektron to‘lov tizimi bo‘lib, to‘lov oboroti bilan chambarchas bog‘liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning to‘lov tizimi uning iqtisodiyotini tartibga solish va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakat o‘zining mustaqil milliy to‘lov tizimini tashkil qilgan holda mamlakat iqtisodiyotidagi to‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta’minlaydilar.

Respublikamizda barcha banklar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi xalqaro andozalarga moslashtirilishi,

buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos keluvchi Bank Depozitorlari Milliy Axborot Bazasi tashkil etilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari asosida tijorat banklarining ma’lum muddatlarga soliqdan ozod etilgan mablag‘lari hisobiga bank tizimi to‘liq kompyuterlashtirilishi, dastlab yirik banklar, keyinchalik barcha tijorat banklari o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda «Fido-Biznes» firmasi tomonidan yaratilgan dasturiy ta’minot bilan to‘liq ta’minlanganligi to‘lov tizimi bilan birga to‘lov oborotiga yetarlicha ta’sir etuvchi omillardan bo‘lib sanaladi.

To‘lov oboroti, yuqorida aytganimizdek, naqd pul va naqd pulsiz pul oborotidan iborat bo‘ladi. Oxirgi yillarda naqd pul oboroti qisqarib borib, naqd pulsiz pul oborotining ortib borishi kuzatilmoqda. Buning sababi shundan iboratki, ilgari faqat yuridik tashkilotlar naqdsiz ko‘rinishda hisob-kitob qiladigan bo‘lsa. Hozirgi kunda aholining savdo, maishiy xizmat, majburiy to‘lovlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha tegishli tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlari naqdsiz pulga asoslanmoqda.

Hukumatimiz tomonidan naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish, mamlakatda naqd pul muomalasini qisqartirish borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida naqd pul aylanmasi ancha qisqardi. Plastik kartochkalarning amaliyotga yanada ko‘proq tatbiq qilinishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning yanada ko‘payishiga yordam berdi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlar doirasida amaldagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirib borildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ–1090-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda «To‘lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ishlab chiqildi.

Ushbu Nizomga binoan terminal o‘rnatilishi majburiy bo‘lgan savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan to‘lov terminallari bilan jihozlash hamda ulardan foydalanish talablariga rioya qilmaslik holatlari nazorat-kassa mashinalarini o‘rnatish va foydalanish tartibi, savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish holatlariga tenglashtirildi hamda ular zimmasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik yuklatildi.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida, 2013-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 9,5 mln donaga, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlariga o‘rnatilgan terminallar soni esa qariyb 112,7 mingtaga etdi. 2012-yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 barobarga oshdi»[1].

2014-yil 1-yanvar holatiga esa 10 milliondan ziyod plastik kartochka muomalaga chiqarilgan bo‘lib, ular orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 41 foizga oshdi.

Demak, oxirgi yillarda muomalaga chiqarilgan kartochkalar soni, savdo terminallari, bankomatlar, infokiosklar soni ortib borishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning yanada ko‘payishiga, bu esa, o‘z navbatida, naqd pulsiz oborotning ortishi va, aksincha, naqd pul oborotining qisqarishiga olib keladi.

Shunday qilib, to‘lov oboroti va uning tarkibiy tuzilmalari, ularning rivojlanishi mamlakatda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati, aholining dunyoqarashi, ongi, naqd pulsiz hisob-kitoblarning takomillashtirilishi, do‘kon va naqd pul tushumi bilan ishlaydigan nuqtalarning texnik vositalar bilan jihozlangani, kassa apparatlarining to‘liq ishlashi, barcha naqd pullarning banklarga topshirilishi, aholi qo‘lida bo‘sh turgan pullarning banklarga jalb qilinishi, naqd pullarning bankdan tashqarida aylanishini qisqartirish kabi omillar ta’sir qiladi.

---

[1] Pul-kredit siyosatida mavjud vaziyat va monetar siyosatining 2013-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. // Bozor, pul va kredit. 2013-yil, № 1.

4-§. Jahon amaliyotida to‘lov tizimi va uning xususiyatlari

Rossiya to‘lov tizimi. Rossiyada XX asrning oxirlaridagi bozor iqtisodining shakllanishi va rivojlanishi bank tizimida islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Sobiq Ittifoq davridagi bank tizimi Rossiya rivojlanishining yangi bosqichi uchun mos kelmay qoldi. Bank ishi, hisob-kitoblar tizimidagi davlat monopoliyasi davrida vujudga keltirilgan hisob-kitoblar tizimi ko‘p sonli subyektlarning, jumladan, banklar, korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni tez va samarali tarzda bajarishga imkon bermas edi. Shuningdek, me’yoriy va huquqiy baza ham ancha eskirgan edi.

1991-yilda sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida to‘lov tizimidagi inqiroz, ayniqsa, keskin tus oldi. Aynan shu davrlarda qalbaki «chechen» avizolari paydo bo‘ldi. Bularning hammasi Rossiya to‘lov tizimini boshqarishni qiyin ahvolga solib qo‘ydi.

Shuning uchun 1992-yildan e’tiboran Rossiya to‘lov tizimini isloh qilish davri boshlandi. Bank tizimini, jumladan, to‘lov tizimini takomillashtirish bo‘yicha rivojlangan davlatlarning tajribasi o‘rganildi, metodologik va texnik bazani mustahkamlash yuzasidan tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Rossiya Markaziy banki tomonidan «Rossiya to‘lov tizimini rivojlantirish strategiyasi» rejasi ishlab chiqildi va Rossiya Banki Direktorlari Kegashi tomonidan 1996-yilning 1-aprelida tasdiqlandi. Unda XXI asr boshida davr talabiga mos bo‘lgan real vaqt rejimida ishlaydigan hisob-kitoblarni o‘tkazishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi.

Rejaga asosan «Banklararo Hisob-kitoblarning Elektron Tizimi» (Elektronnnaya Sistema Mejbankovskix Raschetov – ELSIMER) va uning ishlash tamoyillari ishlab chiqildi. «Banklararo Hisob-kitoblarning Elektron Tizimi»ning mazmuni, ishlash tamoyillari va arxi-

tekturasi «Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining axborotlashtirishning maqsadli dasturi»da aniq ko‘rsatib berildi. ELSIMERning ishtirokchilari bo‘lib Rossiya Bankining muassasalaridan Bosh Hisob-kitob-kassa markazi, hududiy Hisob-kitob-kassa markazi, Axborotlash Markazi hisoblanadi.

Rossiyada banklararo hisob-kitoblar bir hudud ichida va hududlararo ko‘rinishida amalga oshiriladi. Hududlararo elektron hisob-kitoblar – bu Rossiya Bankining hisob-kitoblar tarmog‘i orqali elektron ko‘rinishdagi to‘lov va ma’muriy-axborot hujjatlaridan foydalangan holda Rossiya Federatsiyasining turli hududlarida joylashgan subyektlari, shuningdek, kredit tashkilotlari, mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar majmuyidir. Hududlararo elektron hisob-kitoblarning ishtirokchilari bo‘lib, Bosh Hisob-kitob-kassa markazi, hududiy Hisob-kitob-kassa markazi, Hisob-kassa markazlari va Rossiya Bankining boshqa hisob-kitoblar tarmoqlari tarkibi hisoblanadi. Ular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– 23. 06. 98-yildagi P-36-sonli «Hududlararo elektron hisob-kitoblarni o‘tkazish hisobi va texnologiyasi tartibi»ga rioya qilish;

– yuqoridagi tartibda belgilab qo‘yilgan o‘z vaqtida to‘lov hujjatlaridagi ma’lumotlarni uzatish va qayta ishlashni kafolatlovchi texnik va dasturiy vositalarning mavjudligi;

– Rossiya Bankining 03. 04. 097-yildagi 60-sonli «Rossiya Banki tizimida elektron to‘lov hujjatlarini qayta ishlash texnologiyasining xavfsizligini ta’minlashning muvaqqat tartibi»ning bajarilishini ta’minlash;

– «Rossiya Federatsiyasi hududidagi hisob-kitoblar ishtirokchilarining bank identifikatsiya kodlari ma’lumotnomasi»ga asosan hududlararo elektron hisob-kitoblarning ishtirokchilariga maxsus kod berilgan bo‘lishi lozim.

Rossiya Bankining mijozlari bo‘lgan hududlararo elektron hisob-kitoblarning ishtirokchilari tomonidan jo‘natilgan elektron hujjatlari Hisob-kassa markazlari tomonidan mahalliy vaqt bilan

soat 12:00 gacha qayta ishlanib, to‘liq nazoratdan o‘tganidan so‘ng mahalliy vaqt bilan soat 13:00 gacha Bosh Hisob-kitob-kassa markaziga jo‘natilishi lozim. O‘z vaqtida qayta ishlangan va Bosh Hisob-kitob-kassa markaziga jo‘natilgan elektron to‘lov hujjatlari Bosh Hisob-kitob-kassa markazidan to‘lovni oluvchi bankka shu kuni mahalliy vaqt bilan soat 15:30 gacha o‘tkazilishi shart. Agar Hisob-kassa markazlari tomonidan mahalliy vaqt bilan soat 12:00 gacha qayta ishlanmagan, to‘liq nazoratdan so‘ng mahalliy vaqt bilan soat 13:00 gacha Bosh Hisob-kitob-kassa markaziga jo‘natilmagan elektron hujjatlar HKMning balansiga olinadi va ertasi kuni ertalab soat 10:00 dan kechiktirmasdan tegishli bankka yuboriladi.

Rossiya to‘lov tizimida Rossiya Bankining to‘lov tizimi katta o‘rin egallaydi. Oxirgi yillarda uning hissasiga Rossiya bank tizimi orqali o‘tadigan barcha to‘lovlar sonining 33–35% i va to‘lovlar miqdorining 42,5–43,0% i to‘g‘ri kelmoqda. Bir kunda Rossiya Bankining to‘lov tizimi orqali 2,1–2,5 trillion rubllik 3,8–4,0 millionta to‘lov o‘tadi. Bunda o‘rtacha to‘lov miqdori 548,2 ming rublni tashkil etadi.

Kredit tashkilotlari orqali bir kunda o‘rtacha 3–3,5 trillion rubl miqdorida 7–8 millionta to‘lov o‘tkaziladi. Bunda o‘rtacha to‘lov miqdori 364,5 ming rublni tashkil etadi, bu Rossiya Bankining to‘lov tizimidan o‘tadigan o‘rtacha to‘lov miqdoridan 1,5 barobar kam. Lekin Rossiya rubli va chet el valutasida o‘tkaziladigan to‘lovlarning uchdan ikki qismi xususiy to‘lov tizimlariga tegishlidir[1].

To‘lov xizmatlarining samaradorligini oshirishning omillaridan biri bu to‘lov xizmatlarini bajaruvchi bank infratuzilmasini rivojlantirishdir. Shunga ko‘ra, Rossiya bank tizimiga tegishli bo‘lgan to‘lov xizmatlarini bajaruvchi muassasalari soni oxirgi 2–3 yil ichida har yili 4–5% ga ortib, hozirgi kunga kelib deyarli 45 mingtaga yetdi. Rossiya bank tizimi muassasalarining har 1 mln aholi

[1] Центральный Банк России Анализ и статистика. Выпуск №20. 2010.

jon boshiga soni bo‘yicha Buyuk Britaniyaga nisbatan 1,6 barobar, Chexiyaga nisbatan 1,5 barobar, Slovakiyaga nisbatan 1,3 barobar ortiq bo‘lib, bu ko‘rsatkich 305 tani tashkil etadi. Lekin ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Rossiya G‘arbiy va Sharqiy Yevropadagi qator mamlakatlardan, masalan, Belgiya (417), Polsha (451), Germaniya (531) va Italiyadan (585) ortda qoladi.

3-jadval

To‘lov xizmatlarini ko‘rsatayotgan bank infratuzilmasi haqida ma’lumot[1]

	01.01.07-y.	01.01.08-y.	01.01.09-y.	O‘sish sur’ati, %
Rossiya bank tizimidagi muassasalar soni	38281	41081	43294	5,4
Jumladan:				
Rossiya Banki muassasalari (BHKM, HKM, bo‘limlar operatsion boshqarmalar	923	782	632	–19,2
Kredit tashkilotlari muassasalari	36358	40299	42662	5,9
1 mln aholiga to‘g‘ri keladigan bank muassasalari	261	289	305	5,5

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rib turganimizdek, Rossiya Banki muassasalari soni 2007–2008-yillar ichida 19,2% ga kamaygan. Bu Rossiya Bankiga tegishli bo‘lgan hisob-kassa markazlari tarmoqlari faoliyatining optimallashuvi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, kredit tashkilotlarining tarmog‘i ortib borib, 2009-yilning boshida 42662 tani tashkil etgan. Rossiya hududidagi 1 mln aholiga to‘g‘ri keladigan bank muassasalari soni ham 2009-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 305 tani tashkil etgan. Bu o‘rtacha xalqaro standartlarga mos keladi.

[1] Центральный Банк России Анализ и статистика. Выпуск №20. 2010.

Umuman, Rossiya to‘lov tizimi rivojlanib borib, Rossiya Banki hamda kredit tashkilotlari muassasalari orqali o‘tayotga to‘lovlar hajmi ortib bormoqda. Bu to‘lovlarni o‘tkazish uchun ko‘plab yangi texnika va texnologiyalar jalb qilinmoqda hamda dasturlar ishlab chiqilib, bank amaliyotiga keng tatbiq etilmoqda.

Rossiyada plastik kartalar tizimi ham ancha rivojlangan bo‘lib, 2010-yilning 1-oktabr holatiga jami bankomatlar miqdori 148911 tani, terminallar soni esa deyarli 520 mingtani tashkil etadi. Kredit tashkilotlari tomonidan chiqarilgan bank kartalari miqdori 2010-yilda 137732 ming donani tashkil etgan. Rossiya Federatsiyasi to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar strukturasi haqidagi ma’lumotlar asosida 2010-yilning 3-kvartali natijalariga ko‘ra jami to‘lovlar soni 936,2 mln tani, to‘lovlar hajmi esa 80482,1 mlrd rublni tashkil etgan. Shundan, to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha to‘lovlar 78234,2 mlrd rubl, talabnomalar va inkasso topshiriqnomalari 322,5 mlrd rubl, akkreditivlar 33,4 mlrd rubl, cheklar 1,7 mlrd rubl, memoreal orderlar orqali 1050,6 mlrd rubllik hajmdagi operatsiyalar o‘tkazilgan.

Nazorat savollari:

1. *To‘lov tizimini tashkil etishda Markaziy bankning o‘rni nimalar bilan belgilanadi?*
2. *Markaziy bankning davlat qiziqishlarini himoyalovchisi sifatidagi rolini aytib bering.*
3. *To‘lov oboroti deganda nimani tushunasiz?*
4. *To‘lov oboroti bilan pul oboroti o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?*
5. *To‘lov oborotini amalga oshirishda to‘lov tizmining o‘rni nimalardan iborat?*
6. *To‘lov oborotiga ta'sir qiluvchi omillarni aytib bering.*
7. *Jahon amaliyotida to‘lov tizimiga misollar keltiring va ularning xususiyatlarini aytib bering.*
8. *Rossiya to‘lov tizimi va O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimini solishtirib ko‘ring, alohida xususiyatlari, o‘xshashlik va farqlari haqida ma’lumot bering.*

III BOB

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA NOTO‘LOVLAR BO‘YICHA MUAMMOLAR

Tayanch tushunchalar: *naqdsiz pul oboroti, tovar operatsiyalari, notovar operatsiyalari, akseptli to‘lovlar, akseptsiz to‘lovlar, akkreditiv, inkasso operatsiyalari, inkasso topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, to‘lov topshiriqnomasi, aksept muddati, hujjat rekvizitlari, hujjat nusxalari, debet, kredit, depozit, talab qilinguncha saqlanadigan depozit, reyestr, kartoteka, debet kartochka, kredit kartochka, noto‘lovlar muammosi, debetorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, hujjatlar aylanish sxemasi, elektron hamyon, plastik kartochkalar.*

1-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va ularning elementlari

Iqtisodiyotda yuzaga keladigan pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to‘lov usullariga ko‘ra pul aylanishi naqd pulsiz aylanishga va naqd pulli aylanishga bo‘linadi. Chakana savdo va aholiga pullik xizmat ko‘rsatish, asosan, naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, naqd pulli aylanishga kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar, ishchi-xizmatchilarga ish haqi va shunga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lash, sug‘urta tashkilotlariga badallar to‘lash, uy-joy qurilishi va boshqa maqsadlar uchun aholi tomonidan olingan kreditni naqd pul ko‘rinishida qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlarning to‘lanishi kiradi.

Iqtisodiyotda bo‘ladigan pul aylanishining 80–90 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz

hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning keng ishlatilishiga ko‘p tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va uni tartibga solish nuqtayi nazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko‘payishi va turli mulkchilik munosabatlarining kengayib borishi asos bo‘ladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo‘yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag‘larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o‘tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ma’lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi o‘z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishda qo‘yilgan talablarni oladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi elementlarining har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

1930–1932-yillarda o‘tkazilgan kredit reformasi davrida kiritilgan va sobiq ittifoq davrida mavjud bo‘lgan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi iqtisodiyotni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va realizatsiya qilish rejalarini bajarish nuqtayi nazaridan mahsulot sotuvchi korxona qiziqishlariga xizmat qilar edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari korxonalarning shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun iqtisodiy qiziqishlar va javobgarligi chegaralangan, qat’iy qilib belgilangan edi.

Bu tamoyillar quyidagicha belgilangan:

1) bank naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazorat qiladi;

2) to‘lov vaqti qat’iy belgilangan, ya’ni barcha to‘lovlar tovar jo‘natilgandan yoki xizmat bajarilgandan so‘nggina o‘tkaziladi, avans to‘lovlari, tijorat kreditiga ruxsat etilmas edi;

3) to‘lovchining roziligi to‘lov o‘tkazilishining asosi sifatida tan olinadi;

4) qaysi sohada, qaysi hollarda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining ishlatilishi oldindan belgilab qo‘yilgan, bank u yoki bu hisob-kitob shakllarini tanlashga aralashar edi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari to‘lovchining to‘lovga va kreditga layoqatlilik qobiliyatini hisobga olmas edi.

Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning birinchi tamoyili mulkchilik shaklidan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashlari va barcha operatsiyalarni bank orqali o‘tkazishlari lozimligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida hisob-kitoblarning bank orqali o‘tkazilishi bozor ishtirokchilarining iqtisodiy mustaqilligi bilan qo‘shib olib borilishi kerak.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning ikkinchi tamoyili shundan iboratki, mijozlarning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini ko‘chirish ularning topshirig‘i yoki roziligiga asosan hisobvaraqdagi mablag‘lar chegarasida bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ishlab chiqilishi va joriy etilishi munosabati bilan Markaziy bank tomonidan mijozlarning hisob raqamlari bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazish tartibi belgilangan. Hisobvaraqlardan mablag‘larni o‘tkazish hisobvaraq egasining topshirig‘i asosida bajariladi, mijozlarning buyrug‘isiz hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari faqat sud qaroriga binoan, qonunda belgilangan tartibda bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan ko‘chirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan mijozlarning hisobvaraqlarida barcha talablarni bajarishga pul mab-

lag‘lari yetarli bo‘lgan hollarda pul ko‘chirilishi bo‘yicha mijozning topshirig‘i va boshqa hujjatlarning kelib tushishi tartibida hujjatlar to‘lanishi lozim. Mijoz hisobvarag‘ida barcha talablarni to‘lashga mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda hujjatlarning to‘lanishi 2012-yil 15-martdagi «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlariga pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida»gi 2342- sonli Yo‘riqnomaga asosan olib boriladi. Agar mijoz bilan bank o‘rtasidagi kredit shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, to‘lovlar bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning uchinchi tamoyili shundan iboratki, mablag‘lar to‘lovchining hisobvarag‘idan o‘chirilgandan so‘ng oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Tijorat banklarining hisob cheklari bo‘yicha pul o‘tkazish bundan mustasno.

Hisob-kitoblar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi o‘zaro e’tirozlar, belgilangan tartibda bank ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi hisob-kitoblarni tashkil qilishning to‘rtinchi tamoyilidir. Banklar o‘z vaqtida to‘lanmagan hujjatlar bo‘yicha penyalarni hisoblash va undirishga javobgar emas. To‘lovchi yuklab jo‘natilgan mahsulotlar uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan summaga hisoblangan penyani to‘lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi o‘rtasida tuzilgan xo‘jalik shartnomada ko‘zda tutilgan tartibda to‘laydi. Agar bank bilan mijoz o‘rtasidagi penya hisoblanishi va undirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bu holda bank o‘z vaqtida to‘lanmagan hujjatlar bo‘yicha penya hisoblashi va mahsulot sotuvchi korxona foydasiga undirib berishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishning beshinchi tamoyili hisob-kitob shakllarini tanlash bilan bog‘liq. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi hamda tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitida xo‘jalik yurutuvchi subyektlarning faoliyati naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish xo‘jalik idoralari tomonidan hisob-kitob shakllarini erkin tanlash tamoyilidan kelib chiqadi va ular xo‘ja-

lik shartnomasida mustahkamlanadi. Xo‘jalik organlarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi. Bu tamoyil hisob-kitob ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarining ijobiy natijalari uchun moddiy javobgarligini oshirishga, hisob-kitob va shartnomaviy munosabatlarni tashkil qilishda iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning oltinchi tamoyili to‘lovning muddatliligidir. Bu tamoyil katta amaliy ahamiyatga ega. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lovning qanday muddatda kelib tushishi to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lgan holda, o‘z mablag‘larining aylanishini ratsional tashkil qilish, qarz mablag‘lariga bo‘lgan zaruratni hisoblab ko‘rishi, shu bilan birga, o‘z balansining likvidligini boshqarib borishi mumkin bo‘ladi. Mahsulot sotuvchi va oluvchi tomonlar kelishuviga ko‘ra to‘lovlar muddatli, muddatidan oldin hamda muddati kechiktirilgan bo‘lishi mumkin.

Muddatli to‘lovlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– tovar jo‘natilmasdan yoki xizmatlar bajarilmasdan oldin – bunday to‘lovlar avans to‘lovlari yoki oldindan to‘lov ko‘rinishida amalga oshiriladi;

– tovar jo‘natilgandan keyin, ya’ni tovarni bevosita aksept qilish yo‘li bilan;

– yirik summaga tuzilgan shartnomalarda ko‘rsatilgan summalarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Muddati uzaytirilgan to‘lovlar belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirolmay qolgan hollarda, to‘lov muddatini qandaydir muddatga cho‘zish, ya’ni yangi to‘lov muddatini belgilashni bildiradi. Muddati uzaytirilgan to‘lovlar tomonlarning moliyaviy ahvoliga zarar yetkazmagan holda shartnomaviy munosabatlar doirasida bo‘lishi lozim.

Muddati kechiktirilgan to‘lovlar to‘lovchi korxonaning hisobvarag‘idan hujjatda ko‘rsatilgan summani to‘lash uchun pul mablag‘lari bo‘lmagan holatda yuzaga keladi. Agar korxona bankdan

kredit olish huquqiga ega bo‘lmasa, hujjat korxona hisobvarag‘iga pul kelib tushgandan so‘nggina belgilangan tartibda to‘lanadi.

Yuqorida biz korxona va tashkilotlar o‘z mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashlari lozimligini ta’kidlagan edik. Banklarda mijozlarga bir qator hisobvaraqlar ochiladi. Bular talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar, jamg‘armali depozitlar va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlardir. Talab qilingungacha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar ilgarigi hisob-kitob hisobvaraqlariga tenglashtirilgan bo‘lib, xo‘jaliklarning barcha operatsiyalari aynan mana shu hisobvaraqlardan o‘tkaziladi. Jamg‘armali va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar xo‘jaliklar tomonidan qo‘shimcha daromad olish yoki pul mablag‘larini asta-sekin ko‘paytirib borish maqsadida ochiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bir necha shakllarda olib boriladi va bu shakllar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi mumkin. Hozirgi kunda respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan va xalqaro amaliyotda qabul qilingan shakllarda tashkil etiladi. Hisob-kitob shakllari deyilganda, huquqiy me’yorlarda ko‘zda tutilgan pul mablag‘larining mahsulot yetkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning hisobvarag‘iga yozish usuli, hisob-kitob hujjatining turi va hujjatlar aylanishi tartibi bilan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi.

Korxonalar o‘zlariga qulay bo‘lgan hisob-kitob shaklini erkin tanlaydilar va uni o‘zaro shartnomada mustahkamlab qo‘yadilar. Naqd pulsiz hisob-kitoblar hozirgi kunda quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

– to‘lov topshiriqnomasi;
– to‘lov talabnomasi;
– akkreditiv;
– inkasso topshiriqnomasi;
– hisob-kitob cheki;
– memorial order;

– plastik kartochkalar.

Hisob-kitob shakllarining har birini keyingi paragraflarda batafsil ko‘rib chiqamiz.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar oldiga bir qator talablar qo‘yiladi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonlarida ularga amal qilish talab qilinadi. Bu talablar quyidagilar:

Birinchidan, aylanma mablag‘lar aylanishining uzluksizligini ta’minlash lozim, ya’ni xo‘jalikda ishlab chiqarishning rivojlanishiga to‘siq bo‘lmasligi kerak. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘lgan mablag‘lar doimiy harakatda bo‘lishi kerak. Ularning doimiy ravishda doiraviy aylanishda bo‘lishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning ijobiy ta’siri natijasida bo‘ladi.

Ikkinchidan, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning muddatliligi deb qarash mumkin. Bu talabning mohiyati shundan iboratki, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish vaqt jihatidan ularning ma’lum bir davrda yoki ma’lum bir muddatda amalga oshirilishini taqozo qiladi. Ularni amalga oshirish vaqti qanchalik kam bo‘ladigan bo‘lsa, naqd pulsiz hisob-kitoblar shunchalik tez amalga oshirilsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘lgan mol yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va iste’molchilar o‘rtasida molni yetkazib berish va ularning pulini undirib olish shunchalik qisqa va tez muddatlarda amalga oshirilsa, naqd pulsiz hisob-kitoblarning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Uchinchidan, to‘lovlarni amalga oshirishdagi javobgarlik masalasi hisoblanadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo‘yilgan bu talab ham naqd pulsiz hisob-kitoblarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu talabning mavjud bo‘lishi yuqoridagi ikki talabning bajarilishida o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda javobgarlikning bo‘lishi pul mablag‘larining doiraviy aylanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Javobgarlikning bo‘lmasligi, aksincha, mablag‘larning kunlarda aylanishini sekinlashtiradi. Mablag‘lardan yetarli darajada

samarali foydalanmaslik oqibatida noto‘lovlarning haddan tashqari oshib ketishiga, pirovardida mamlakat iqtisodiyotining izdan chiqishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Bu talab naqd pulsiz hisob-kitoblarning amalga oshirilishida majburiyat shartining, ya’ni shartnoma shartlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatining mavjud ekanligidir.

Shu narsani ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘lovlarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi va tijorat banklari vakillik varaqalari holati bo‘yicha nazorat o‘rnatgan. Bank vakillik varaqalarida mablag‘ning yetarli bo‘lmasligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z mijozlari talabini bajara olmasa, tijorat banklariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko‘riladi.

Bizning mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini Markaziy bank belgilaydi va ushbu tartibning bajarilishi bo‘yicha nazorat olib boradi. Amaliyotda bunday tartibning joriy etilishi butun respublika miqiyosida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

2-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha Nizomning mazmuni, ahamiyati va uning amaliyotda qo‘llanilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to‘g‘ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Korxona va tashkilotlar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatlari jarayonida doimo bir-biri bilan aloqada bo‘ladilar. Ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o‘zi esa pul aylanishining moddiy asosi bo‘lib hi-

soblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar vujudga keladi (soliq organlari, pensiya fondi, bank muassasalari va boshqalar).

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo‘yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag‘larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o‘tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy mahsulotni ishlab chitsarish jarayonida sodir bo‘ladigan munosabatlarini o‘zida aks ettirishiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi.

Naqd pul ishtiroksiz, mablag‘larni bir hisobdan ikkinchi hisobga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan hisoblar ***naqd pulsiz hisob-kitoblar*** deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomga asosan olib boriladi.

Bu Nizom O‘zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risida»gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me’yoriy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan. 2013-yil 3-iyundagi 2465-sonli Nizomga asosan hisob-kitoblarni olib borishda oldin mavjud bo‘lgan ba’zi bir cheklashlar olib tashlandi va korxonalarga ular qaysi mulk shakliga asoslanishidan qat’i nazar, hisob-kitob shakllarini tanlash va olib borishda erkinliklar berilgan.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi elementlardan tashkil topgan. Bular: naqd-pulsiz hisob-kitoblarni olib borish va amalga oshirishning asosiy tamoyillari; hisob-kitob shakllari; hisob-kitob hujjatlari; to‘lov turi; navbati, manbalari; hisob-kitob qatnashchilari, bankning huquq va majburiyatlari va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar o‘zining iqtisodiy mohiyatiga qarab, tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq hisob-kitoblar va notovar

xarakterdagi hisob-kitoblarga bo‘linadi. Tovarlarni sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular, asosan, korxona, tashkilotlar o‘rtasida olib boriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar hisob hujjatlari asosida olib boriladi. Shartnomaga asosan mol yetkazib beruvchi o‘z vaqtida tovarning pulini (ekvivalenti) olishi, mol sotuvchi pulni o‘z vaqtida o‘tkazishi zarur.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

– korxona, tashkilotlar o‘z pul mablag‘larini (o‘z mablag‘larini va qarz mablag‘lar) bankda saqlashlari zarur;

– barcha naqd pulsiz hisob-kitoblar bank orqali o‘tishi kerak;

– xo‘jalik organlari hisob-kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo‘yishlari mumkin;

– xo‘jalik organlarining hisob-kitoblar bo‘yicha shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmasligi kerak;

– tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar to‘lovchining roziligi bilan amalga oshiriladi.

– to‘lovlar xo‘jalik organlarining hisobvarag‘idagi mablag‘lari hisobidan, ba’zida (agar korxona kredit olishi mumkin bo‘lsa) bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin;

– to‘lov qoidasi mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnoma asosida kelishib olinadi;

– mol yetkazib beruvchining hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish shu mablag‘larni mol sotib oluvchining hisobvarag‘idan o‘chirilganidan keyin amalga oshiriladi (cheklar bilan hisob-kitob qilish bundan mustasno);

Korxona, tashkilotlarga pul mablag‘larini saqlash va hisob-kitoblar olib borish, kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun hisob-kitob (talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘i) ochiladi.

Hisob-kitob varaqlarini ochish uchun korxona quyidagi hujjatlarni bankka taqdim qilishi zarur.

a) hisobvaraq ochish to‘g‘risida ariza;

b) xo‘jalik, tashkilot tashkil qilinib, ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat;

d) huquqiy shaxs Nizomining notarial tartibda tasdiqlangan, huquqiy shaxs tomonidan imzolangan nusxasi;

e) imzolar namunalari, muhr bosilgan va notarial tartibda tasdiqlangan varaqcha;

f) boshqa ta’sis hujjatlari.

Korxona rahbarining pasporti (shaxsini tasdiqlovchi hujjat) ham bankka taqdim qilinadi.

Hisobvaraq ochish uchun yuqoridagi asosiy hujjatlardan tashqari zarur bo‘lganda boshqa qo‘shimcha hujjatlar ham bankka berilishi mumkin.

«O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risida»gi Qonunga asosan ish haqi to‘lash, budjetga to‘lovlar, davlat sug‘urtasining majburiy turlariga doir to‘lovlar va ijtimoiy sug‘urta jamgarmasi (pensiya jamg‘armasi)ga to‘lovlar barcha korxonalar uchun birinchi navbatda to‘lanadigan to‘lovlar hisoblanadi.

Banklarda bajariladigan barcha operatsiyalar ma’lum bir me’yoriy hujjatlar asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishda asosiy me’yoriy hujjat – bu «Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomdir. Lekin bu nizom doimiy bo‘lmay, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Iqtisodiy o‘zgarishlar, shuningdek, bank tizimidagi o‘zgarishlar barcha qonun-qoidalarning shunga mos ravishda o‘zgartirilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, kredit, hisob-kitob va boshqa operatsiyalarni olib borish tartib-qoidalari bir necha marta o‘zgartirildi. Jumladan, naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha 1993-, 1995- va, nihoyat, 1998-yillarda qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bir-biridan ma’lum moddalari bilan farq qiladi. Masalan 1993-yilda

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan «Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomda to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, to‘lov talabnoma-topshiriqnomasi, akkreditivlar, limitlashtirilgan va limitlashtirilmagan chek daftarchalarining cheklari va inkasso topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar ko‘zda tutilgan edi. Bu Nizomning yangiligi shundan iborat ediki, unda to‘lov talabnoma-topshiriqnomasi shakli yangilik qilib kiritilgan edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning ushbu shaklining mazmuni shundan iborat ediki, mol sotuvchi korxona sherigiga mol jo‘natish bilan birga tovar transport hujjatlarini ham mol sotib oluvchi korxonaga jo‘natar edi. Bunda bank chetlab o‘tilar edi. To‘lov talabnomasini olgan mol sotuvchi korxona talabnoma-topshiriqnomaning talabnoma qismida ko‘rsatilgan rekvizitlarni ko‘rib chiqib, olgan tovari bilan solishtirib, agar shartnoma shartlari bajarilgan bo‘lsa, hujjatning topshiriqnoma qismini to‘ldirib, uni bankka topshirishi lozim edi.

Shunday qilib, hisob-kitob shakllari yana bitta shakl bilan to‘ldirilgan. 1993-yilda chiqarilgan Nizomda keltirilgan cheklar bo‘yicha hisob-kitoblar limitlashtirilgan va limitlashtirilmagan chek daftarchalarining cheklari asosida olib birishga mo‘ljallangan edi. Limitlashtirilgan cheklar bo‘yicha hisob-kitoblarning mazmuni shundan iborat ediki, mijoz bankdan limitlashtirilgan chek daftarchasini arizasiga binoan olib, unga o‘z topshirig‘iga asosan ma’lum bir summani o‘tkazar edi. Mana shu summa chegarasida chekni rasmiylashtirib, mahsulot sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin edi. Limitlashtirilmagan cheklar bilan hisob-kitoblarning mazmuni shundan iborat ediki, bunda chek daftarchasiga pul o‘tkazilmas edi, hisob-kitoblar bank krediti hisobidan amalga oshirilardi. Bunday daftarchalardan, asosan, savdo, ta’minot tashkilotlari ko‘proq foydalanishar edi.

Lekin bu hisob-kitoblar bo‘yicha ko‘p noqonuniy operatsiyalar o‘tkazilgani aniqlangach, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy ban-

ki limitlashgan va limitlashmagan chek daftarchalari bo‘yicha hisob-kitoblarni bekor qildi. Uning o‘rniga yangi hisob cheklari deb nomlangan hisob-kitoblarni amaliyotga tatbiq etdi. Hisob cheklari bo‘yicha hisob-kitoblarning tartib-qoidalari ishlab chiqildi. Bu qoidalar avvalgi cheklar bo‘yicha hisob-kitoblardan farq qilar edi. Hisob cheklarining 5, 10, 25 varaqli ko‘rinishda, mijozlarning xohishlariga ko‘ra kitobcha shakliga keltirib berila boshlandi. Chek daftarchasiga pul qo‘yish mijozning topshirig‘iga binoan uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘idagi mablag‘lar hisobidan amalga oshirilardi. Tijorat banklari hisob cheklari bo‘yicha operatsiyalarni olib borishlari uchun hisob-kitob markazida alohida hisobvaraqlarini ochib, unga mablag‘ qo‘yishlari lozim edi.

Hisob cheklari bo‘yicha hisob-kitoblar 1995-yildagi Nizomga yangilik bo‘lib kiritildi. Shu bilan birga, ushbu Nizomda veksel muammosi ham ko‘zda tutilgan edi. 1995-yil may oyidan boshlab O‘zbekistonda veksel muomalasini kiritish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining Qarori chiqarildi. Qarordan so‘ng «Paxtabank», «O‘zsanoatqurilishbank», «Savdogarbank», «Turonbank» kabi bir qator banklar birinchilar qatorida veksellar emissiyasini boshlab berdilar. Lekin bu davrda respublikada amalda bo‘lgan «Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomda veksel muomalasi ko‘zda tutilmagan edi. Shu sababli veksellar bo‘yicha banklarning operatsiyalar o‘tkazish tartib-qoidasini ishlab chiqish birinchi navbatdagi vazifalardan biriga aylandi. Shunday qilib, navbatdagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish qonun-qoidalarini o‘z ichiga mujassamlagan yangi Nizom ishlab chiqilib, 1995-yil 4-sentabrda Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlandi. Ushbu Nizomda avvalgi hisob-kitob shakllari bilan bir qatorda yangi hisob cheklari va veksellar bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘zda tutildi. To‘lov talabnomasining o‘rni esa ancha pastga tushirildi va Markaziy bankning maxsus qarori bilan hisob-kitoblarda ishlatilishi, alohida xabar berilishi ko‘rsatib o‘tildi. Bunga sabab, bu davr

ichida noto‘lovlar uchun amaliyotda ishlatilayotgan 2-kartoteka bekor qilingan bo‘lib, mijozlardan hisob-kitob hujjatlari ularning hisobvarag‘ida to‘lash uchun pul yetarli bo‘lgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan edi. To‘lov talabnomasi esa bunday talabga javob bermas edi.

Vaqt o‘tishi bilan respublika to‘lov tizimi takomillashib bordi, buning natijasida elektron to‘lov tizimi joriy etildi. Barcha banklar o‘zaro hisob-kitoblarni yangi elektron to‘lov tizimi asosida amalga oshira boshladi. Bu esa hisob-kitoblar shakliga, ularning taqdim qilinishi, bank tomonidan qabul qilish va ishlov berish tartibining o‘zgartirilishiga sabab bo‘ldi. Bir oz vaqt o‘tgach veksel muomalasi va cheklar bo‘yicha hisob-kitoblar ma’lum sabablarga ko‘ra bekor qilindi. Natijada hisob-kitoblarni tashkil qilish qonun-qoidalariga o‘zgartishlar kiritish zarurati paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng, «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi 11/22-sonli Nizom qayta ishlab chiqildi. Bu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yilda 3-iyunda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan. Ushbu Nizom quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

– umumiy qoidalar;
– pul hisob-kitoblarini rasmiylashtirish tartibi;
– memorial orderlar bilan hisob-kitoblar;
– to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilish;
– to‘lov talabnomalari bilan hisob-kitob qilish;
– akkreditivlar bilan hisob-kitob qilish;
– inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
– cheklar bilan hisob-kitob qilish;
– plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar qilish;
– yuridik shaxsning qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish va tugatilishi paytida mablag‘larni hisobdan chiqarish;
– yakuniy qoidalar.

«O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi Nizom Fuqarolik kodeksi, «Markaziy bank to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Markaziy bankning O‘zbekiston hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soluvchi boshqa me’yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizomning bir maromda qo‘llanishi respublikaning butun iqtisodida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlaydi.

Nizomda naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining mazmuni, ularning qo‘llanish sohalari, hujjatlarni rasmiylashtirish, bankka taqdim etilishi va ularning ishlatilishi qonun-qoidalari belgilab berilgan. Keyingi paragraflarda ular bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning har birida alohida shakldagi hujjatlar ishlatiladi. Hisob-kitob nomi hujjat nomi bilan belgilanadi. Har bir hisob-kitob hujjatlari belgilangan me’yorlarga javob berishi kerak. Bu hujjatlarning har biri o‘z ichiga quyidagi rekvizitlarni olishi lozim:

– hisob-kitob hujjatining raqami;
– hujjat yozib berilgan sana;
– to‘lovchining nomi;
– hisobvaraq raqami;
– soliq to‘lovchining identifikatsiya kodi (chek va akkreditivlarda ko‘rsatilmaydi);
– to‘lovchi bankning nomi;
– to‘lovchi bankning kodi;
– mablag‘larni oluvchining nomi;
– mablag‘larni oluvchining hisobvaraq raqami;
– mablag‘ oluvchi bankning nomi;
– mablag‘ oluvchi bankning kodi;
– to‘lovning summasi raqam va yozuvda ko‘rsatilishi lozim;
– to‘lovning maqsadi (cheklarda ko‘rsatilmaydi);

Tijorat banklarining hisob-kitob cheklarida qo‘shimcha ravishda quyidagilar yoziladi:

– hisob-kitob chekining seriyasi va raqami;
– jismoniy shaxs pasportining seriyasi va raqami;
– chekning amal qilish muddati;

Akkreditiv ochish uchun taqdim etilgan ariza qo‘shimcha ravishda quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

– akkreditivning amal qilish muddati (akkreditiv yopilayotgan sana va oy)
– akkreditiv ochilayotgan shartnoma raqami;
– buyurtma raqami;
– buyurtma sanasi;
– akkreditiv qaysi mahsulotlarni yuklab jo‘natish va xizmat ko‘rsatish uchun ochilganligi;
– akkreditivning turi (u haqida kerakli ma’lumotlarni ko‘rsatish bilan);
– qo‘shimcha majburiyatlar;

Banklar va mijozlarning ishiga halal bermaydigan tarzda to‘lovchi va mablag‘larni oluvchining nomini ratsional darajada qisqartirish mumkin.

Xo‘jalik subyektlariga sotilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qo‘shimcha qiymat solig‘i hisoblansa, hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishda qo‘shimcha qiymat solig‘i summasi alohida qatorda ko‘rsatiladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlar, ko‘rsatilgan ish va xizmatlar uchun hisoblashishda rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘isiz so‘zi yoziladi yoki shu yozuv yozilgan shtapm qo‘yiladi.

To‘lov topshiriqnomalari texnik vositalardan foydalangan holda, bir martaning o‘zida nusxa ko‘chirish yoki birinchi nusxani hisob-kitobda qatnashuvchi barcha tomonlar va bank uchun yetarli bo‘lgan nusxalar sonida ko‘paytirish yo‘li bilan yozib beriladi. Cheklar siyoh va sharikli ruchkalarda qo‘lda yoki texnik vositalardan foydalangan holda yozib beriladi.

Hisob-kitob hujjatlariga qo‘lda o‘zgartirish kiritish, bo‘yash va tozalashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hisob-kitob hujjatlari bank tomonidan hisob-kitob, pul operatsiyalarini bajarish uchun qabul qilinadi:

1) yuridik shaxslar birinchi nusxada hisob-kitob hujjati tayyorlanishi shartidan qat'i nazar, imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shasxlarning imzosi va korxona muhrining izi mavjud bo‘lishi;

2) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmay faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy va yakka tartibdagi ijarachilar va tadbirkorlar tomonidan bajariladigan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlari ularda imzo mavjud bo‘lgan holda bajarish uchun qabul qilinadi.

Hisob-kitoblar hujjatini yozib berayotgan korxona muhrining izi va imzolar hujjatning asl nusxasiga qo‘yiladi.

Korxonalardan hujjatlarni qabul qilish, shartnomada boshqasi ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishlash vaqtidan kelib chiqqan holda bajarish uchun qabul qilinadi.

To‘lovchining hisobvarag‘idagi mablag‘larni initsiator bankda hisobdan chiqarish faqat hisob-kitob hujjatlarining birinchi nusxasi yoki Bank–Mijoz tizimidan foydalanuvchilar tomonidan elektron to‘lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Mijozlarning hisobvaraqlariga kirim qilinayotgan mablag‘lar banklarda dasturiy yo‘l bilan elektron to‘lov hujjatlari va hisob-kitob chekining asl nusxasi asosida amalga oshiriladi. Bank–Mijoz tizimidan foydalanuvchi banklar rasmiylashtirilgan elektron to‘lov hujjatlarini mijozning hisobvarag‘iga mablag‘lar qo‘shib yozilgandan yoki o‘chirilgandan keyin tegishli pochta qutisiga joylashtiradi.

3-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va takomillashtirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblarning o‘rni toboro ortib boradi, chunki iqtisodiyotda tovar ayirboshlash yanada ko‘payadi, tovar munosabatlari pul munosabatlar-

iga asos bo‘ladi, bu munosabatlar naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali hal etiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar – bu korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalar yuzasidan bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarini naqd pul ishlatmasdan pul mablag‘larini bankdagi bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o‘tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘ladigan munosabatlarni o‘zida aks ettirishiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi:

1) tovar operatsiyalari bo‘yicha pul aylanishi;

2) moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha pul aylanishi.

Tovar operatsiyalari bo‘yicha pul aylanishi guruhiga tovarlarni sotish, xizmatlar ko‘rsatish va kapital qurilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi. Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha pul aylanishi guruhiga esa budjetga to‘lovlar, ya’ni foydadan to‘lanadigan soliq (daromad solig‘i), qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar hamda budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, bank kreditlarining qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to‘lanishi, sug‘urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar va boshqalar kiradi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi 2013-yilda 3-iyunda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan Nizom va unga kiritilgan o‘zgartishlar asosida olib boriladi.

Mulkchlik shakllarining xilma-xilligi sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitlarida naqd pulsiz hisob-kitob qoidalari xo‘jalik organlari tomonidan hisob-kitob shakllarini erkin tanlash tamoyillaridan kelib chiqadi va ular shartnomalarda mustahkamlanadi. Xo‘jalik idoralarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi.

Hisob-kitob shakllari deyilganda, huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, hisob-kitob hujjatining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mablag'larni mol sotuvchi korxona hisobvarag'iga o'tkazish va yozish usuli bilan bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi. Respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblar qonunchilikda ko'zda tutilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

– to'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar;
– inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
– akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar;
– cheklar bilan hisob-kitoblar.

Yuqorida sanab o'tilgan hisob-kitob shakllari orqali operatsiyalar quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

– to'lov topshiriqnomasi;
– to'lov talabnomasi;
– inkasso topshiriqnomasi;
– akkreditivga ariza;
– tijorat banklarining hisob-kitob cheklari;
– memorial orderlar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar plastik kartochkalardan foydalangan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

To'lovchi va mablag' oluvchi orasidagi hisob-kitoblar shakli shartnoma asosida belgilanadi.

To'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar. To'lov topshiriqnomasi 0505411002 shakldagi standart blankada to'lovchi tomonidan rasmiylashtirilib, bankka topshiriladi.

To'lov topshiriqnomasi *– bu to'lovchi korxonaning uning bankdagi depozit hisobvarag'idan pul mablag'larining ma'lum bir summasini boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish haqida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka bergan topshirig'idir.*

To‘lov topshiriqnomalari orqali quyidagi to‘lovlar amalga oshiriladi:

– tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar;

– notovar operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar;

– Markaziy bankning me’yoriy hujjatlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bank ssudalari va unga qo‘shilgan foizlarni koplash uchun mablag‘ o‘tkazish;

– Hukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan hollardagi bank to‘lovlari.

Ilgari to‘lov topshiriqnomalari rasmiylashtirilgan kundan boshlab 10 kun ichida bankka topshirilishi mumkin bo‘lib, shu davr ichida u haqiqiy bo‘lib hisoblanar edi. «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi yangi Nizomga asosan to‘lov topshiriqnomasi rasmiylashtirilgan kun bankka taqdim etilishi lozim, ya’ni topshiriqnomaning sanasi uning bankka taqdim etilgan kuni bilan bir xil bo‘lishi kerak, ular mos kelmagan holda to‘lov topshiriqnomasi ijro uchun qabul qilinmaydi.

To‘lov topshiriqnomalari rasmiylashtirilgan kundan boshlab 1 kun ichida bankka topshirilishi lozim. Lekin budjetga va budjetdan tashqari fondlar bo‘yicha to‘lovlar bundan mustasno.

To‘lov topshiriqnomalarining bankka topshiradigan nusxalar soni to‘lovchi va mablag‘ oluvchilarning qaysi bankda joylashganligiga bog‘liq. To‘lovchi va mablag‘ oluvchi korxonalar bir bank bo‘limi xizmatidan foydalansalar, topshiriqnomalar bankka uch nusxada taqdim etiladi. Topshiriqnoma nusxalarining har biri quyidagicha ishlatiladi:

– birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

– ikkinchi nusxasi to‘lov oluvchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilgan holda to‘lovni oluvchi korxona vakiliga beriladi;

– uchinchi nusxa operatsiya bajarilganidan so‘ng, bank bo‘limining to‘rtburchak muhri izi tushirilgan, mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lovni amalga oshirish va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchi korxona vakiliga ularning depozit hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birgalikda beriladi.

Lekin har doim ham bir-biri bilan munosabatda bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir bank xizmatidan foydalanmaydilar, chunki hisob-kitoblar bir hudud tashqarisiga chiqishi mumkin. Agar to‘lovchi va mablag‘ oluvchi korxonalarga bir hudud ichidagi yoki boshqa hududda joylashgan turli bank bo‘limlari tomonidan xizmat ko‘rsatilsa, to‘lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim etiladi:

– birinchi nusxasi to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bank muhri izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

– ikkinchi nusxasi bank bo‘limining muhr izi tushirilgan, bank mas’ul ijrochisining imzosi, to‘lov amalga oshirilgan sana va topshiriqnomani qabul qilish sanansi ko‘rsatilgan holda to‘lovchi korxona vakiliga beriladi.

To‘lov topshirig‘ida quyidagi rekvizitlar ko‘rsatilishi lozim:

a) to‘lov topshirig‘ining nomi va raqami;

b) to‘lov topshirig‘i to‘ldirilgan sana, ya’ni kun, oy va yil;

d) to‘lovchining nomi, to‘lovchi bankining nomi va kodi;

e) to‘lovchining hisobvaraq raqami va identifikatsiya kodi;

f) mablag‘larni oluvchi korxona nomi, unga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi va kodi;

g) mablag‘ oluvchining hisobvaraq raqami;

h) to‘lovlarning summasi raqam va yozuvlarda ko‘rsatiladi;

i) to‘lovning maqsadi.

To‘lov topshirig‘ining barcha rekvizitlari to‘ldirilgandan so‘ng, topshiriqnomaning alohida ajratilgan pastki qismiga to‘lovchi korxona rahbari va bosh buxgalterining imzosi hamda muhr izi qo‘yiladi. Ushbu muhr va imzolar to‘lov topshirig‘ining faqat birinchi asl nusxasiga qo‘yiladi.

Korxonalardan hujjatlar qabul qilish, shartnomada boshqa narsa ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishlash vaqtidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda operatsion kun davomida bank tomonidan korxonalardan qabul qilingan hujjatlar shu kunning o‘zidayoq ijro qilinadi. Mas’ul ijrochi mijozlardan to‘lov topshirig‘ini olgandan so‘ng, to‘lov topshirig‘idan barcha rekvizitlarning to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi. Bundan tashqari, to‘lovchi korxonaning depozit bo‘yicha ochilgan hisobvarag‘ida hujjatda ko‘rsatilagan summani to‘lashga yetarli pul mablag‘lari borligini aniqlaydi. Agar to‘lov topshirig‘i to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilib, uni to‘lashga yetarli pul mablag‘lari bo‘lsa, mas’ul ijrochi topshiriqnomadagi barcha ma’lumotlarni dasturiy yo‘l bilan kompyuter orqali bankning elektron to‘lovlarini amalga oshiruvchi hisoblash markaziga o‘tkazadi. Ertasi kuni ertalabdan kechikmagan muddatda bank balansi chiqarilgandan keyin hujjatning birinchi nusxasi bankning kundalik yig‘majildiga tikiladi va belgilangan tartibda avval joriy arxivda saqlanadi, bir yil o‘tgandan so‘ng umumiy bank arxiviga topshiriladi. To‘lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birgalikda operatsiyalar o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mijozga qaytarib beriladi.

To‘lov topshiriqnomasi asosida to‘lovchining tijorat banki hisoblash markazidan dasturiy yo‘l bilan modem orqali elektron to‘lov o‘tkaziladi, ya’ni «Elektron pochta» deb nomlangan tizim orqali elektron to‘lov topshirig‘i Markaziy bank qoshidagi hi-

sob markaziga o‘tkaziladi. Markaziy bank qoshida ochilgan hisob markazi to‘lovchi korxonaga xizmat qiluvchi tijorat bankidan olingan ma’lumotlar asosida elektron to‘lov topshirig‘ini dasturiy yo‘l bilan mablag‘ oluvchi korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga o‘tkazadi.

Elektron to‘lovlar tizimi orqali olingan elektron to‘lov topshiriqnomalari mablag‘larni oluvchi bankda qog‘ozga chiqariladi. Topshiriqnomaning elektron ko‘rinishi bankning axborot bazasida saqlanadi. Elektron topshiriqnomaning qog‘ozga chiqarilgan nusxasi esa bank mas’ul ijrochisining imzosi va bank muhri izi qo‘yilgan holda mijoz hisobvarag‘iga ilova sifatida mijozga beriladi. Mablag‘lar to‘lovni oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazib qo‘yiladi. To‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi quyidagi chizma orqali yaqqolroq ko‘rinadi:

To‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi chizmasi:

4-chizma

Yuqorida keltirilgan chizmaga quyidagicha tavsif beramiz:

1. Eng avvalo, mol jo‘natuvchi va mol oluvchi korxonalar o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuziladi.

2. Shartnomaga asosan mol jo‘natuvchi korxona mol oluvchi korxonaga mahsulot jo‘natadi.

3. Mol oluvchi korxona olgan mahsulotiga pul o‘tkazish uchun to‘lov topshirig‘i rasmiylashtirib, o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bank-ka topshiradi.

4. Bank xodimi tomonidan to‘lov topshirig‘i asosida mol oluvchi korxona hisobvarag‘idan pul chegiriladi.

5. Hisob markazi orqali elektron to‘lov mol sotuvchi korxona bankiga jo‘natiladi;

6. Kelib tushgan elektron to‘lov mol sotuvchi korxona bankida mol sotuvchi korxona hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

7. Elektron to‘lov topshirig‘ining bir nusxasi to‘langan hujjatlar sifatida mol sotuvchi korxonaga beriladi.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o‘tkazilayotgan barcha to‘lovlarning qariyb 70–75 foizi to‘lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu uning afzalliklari bilan bog‘liq.

Bu afzalliklar quyidagilardan iborat:

birinchidan, hujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya’ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jihatdan qulayligi. Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va bank xodimla-rining mehnat sarfini kamaytiradi;

ikkinchidan, pul mablag‘lari harakatining tezligi, ya’ni to‘lov talabnomasiga nisbatan to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-ki-toblarda hujjatlarning aylanish harakati qisqaligi so‘zsiz xo‘jalik oborot mablag‘larining aylanish tezligini oshiradi;

uchinchidan, tovar sotib oluvchining qabul qilgan tovarlari yoki xizmatlar sifatining oldindan aniqlab olinishi. Hisob-kitoblarning bu shaklida to‘lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo‘lgani kabi bankka raddiya arizasi topshirilmaydi, chunki to‘lovchining o‘zi to‘lovni to‘lashga rozi bo‘lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi;

to‘rtinchidan, to‘lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz ope-ratsiyalarda qo‘llanishi, bu esa ushbu shakl bo‘yicha hisob-kitob-larning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning afzalliklari bilan bir qarorda kamchiliklari ham mavjud. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun to‘lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to‘la kafolatlanmagan. Chunki to‘lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to‘lovchi korxonaning depozit hisobvarag‘idagi mablag‘lar miqdoriga bog‘liq. To‘lovning to‘liq o‘tkazilishiga yetarli pul mablag‘larining bo‘lmasligi pul aylanishi sekinlashtiradi va mahsulot jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning moliyaviy holatini yomonlashtiradi.

Lekin ko‘rsatilgan kamchilik to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari oldidagi ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, hozirgi davrda xo‘jalik subyektlari o‘rtasida to‘lov topshiriqnomalarining qo‘llanish doirasi yanada kengayib bormoqda, chunki oldingi yillarda to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha to‘lovlar faqat mahsulot jo‘natilgandan va xizmatlar ko‘rsatilgandan keyingina amalga oshirilar edi. Bunday holat bozor munosabatlari sharoitida o‘zini oqlamaydi, debetor va kreditor qarzdorliklarning oshib ketishiga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotda qarzdorlik zanjirini keltirib chiqaradi.

To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning yana bir shakli to‘lov talabnomasi hisoblanadi.

> ***To‘lov talabnomasi*** *– bu mahsulot yetkazib beruvchi va mablag‘ oluvchilarning belgilangan summani to‘lovchi bank orqali to‘lashi to‘g‘risidagi talabnomani o‘z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir.*

To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar «aksept» shaklidagi hisob-kitoblar deb ham yuritiladi. «Aksept» so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, rozilik ma’nosini anglatadi, ya’ni bu to‘lovchining to‘lovni amalga oshirish uchun bankka bergan roziligidir.

Hisob-kitoblarning aksept, ya'ni to‘lov talabnomalari orqali o‘tkaziladigan shaklida ishlatiladigan asosiy hujjat – bu to‘lov talabnomasidir. To‘lov talabnomalari mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan belgilangan № 0505411001 shakldagi blankalarda bankka taqdim etiladi. To‘lov talabnomalari quyidagi hollarda ishlatilishi mumkin:

a) yuklab jo‘natilgan tovarlar uchun;

b) bajarilgan ishlar uchun;

d) ko‘rsatilgan xizmatlar uchun;

e) amaldagi qonunchilikda, me'yoriy hujjatlar yoki shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa to‘lovlar uchun.

To‘lov talabnomasida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan talabnoma raqami, u to‘ldirilgan sana, shu korxona nomi, uning hisobvaraq raqami, xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi, bankining kodi, to‘lovchi korxonaning nomi, uning bankdagi hisobvaraq raqami, to‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi va kodi, to‘lov summasi va to‘lov maqsadi ko‘rsatiladi. Hujjatlarda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan umumiy rekvizitlardan tashqari to‘lov talabnomasida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

a) shartnoma sanasi va raqami;

b) mahsulotlarni yuklab jo‘natish sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish, topshirish hujjatlari va transport turi, tovarlar pochta va telekomunikatsiya agentligi orqali jo‘natilganda esa pochta kvitansiyalarining raqami.

Agar mahsulot uni sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilsa, talabnomaning alohida ajratilgan joyida yuk uni sotib oluvchining o‘z transporti bilan olib chiqib ketilgani hamda ishonchnomaning raqami ko‘rsatiladi. Shunday hollar ham bo‘ladiki, mahsulot kontraksiya shartnomalari asosida realizatsiya qilinadi. Kontraksiya shartnomalari bo‘yicha mahsulot yetkazib berishda to‘lov talabnomasining yuqori qismida, ya'ni «talabnoma» deb yozilgan so‘z yoniga «kontraksiya shartnomasi» deb ko‘rsatilishi lozim.

To‘lov talabnomasining pastki, alohida ajratilgan qismida mahsulot jo‘natuvchi korxona rahbari va bosh buxgalterning imzolari va korxonaning muhr izi qo‘yiladi.

To‘lov talabnomasi mahsulot yuklab jo‘natilgandan keyin shartnomada belgilangan muddatdan kechiktirilmasdan bankka inkasso uchun topshiriladi. Mahsulot yetkazib beruvchi bitta operatsiya bo‘yicha talabnomalarni inkasso uchun qayta taqdim qilish huquqiga ega emas.

To‘lov talabnomasi mahsulot jo‘natilgandan so‘ng shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulot jo‘natuvchi korxona tomonidan ro‘yxat, ya’ni reyestr asosida bankka inkasso uchun topshiriladi.

Ro‘yxat to‘lov talabnomalarining barcha rekvezitlarini o‘z ichiga olgan holda ikki nusxada to‘ldiriladi. Ro‘yxatning birinchi nusxasi korxonaning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhr izi bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ro‘yxatning birinchi nusxasi qabul qilingan sana, mas’ul ijrochi imzosi qo‘yilgandan so‘ng, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilib, bankda qoldiriladi. Ro‘yxatning ikkinchi nusxasi esa qabul qilingan sana, mas’ul ijrochi imzosi qo‘yilib, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilib, mahsulot yetkazib beruvchiga qaytariladi.

To‘lov talabnomalari 2 yoki 3 nusxada to‘ldiriladi. Agar mahsulot yetkazib beruvchi va to‘lovchi tomonlarga bitta bank bo‘limi xizmat ko‘rsatsa, talabnoma 3 nusxada taqdim etiladi. Bu holda to‘lov talabnomalarning har bir nusxasi quyidagicha ishlatiladi:

– birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lovi amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

– ikkinchi nusxasi to‘lovni oluvchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhri izi qo‘yilgan va qabul qilingan sana ko‘rsatilgan holda beriladi;

– uchinchi nusxa qabul qilish sanasi, to‘lovni amalga oshirish sanasi, mas’ul ijrochining imzosi va bankning to‘rtburchak muhri izi qo‘yilgan holda to‘lovchiga uning hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birgalikda beriladi.

Agar to‘lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi bir hudud ichidagi yoki turli hududlarda joylashgan turli bank bo‘limlari xizmatidan foydalansalar, bu holda to‘lov talabnomalari 2 nusxada bankka taqdim etiladi. Ularning har ikkala nusxalari pochta aloqasi yoki kuryerlar orqali to‘lovchi bankiga jo‘natiladi.

To‘lovchi korxona bankiga mahsulot yetkazib beruvchi korxona bankidan birinchi va ikkinchi nusxa to‘lov talabnomasi pochta aloqasi yoki kuryerlar orqali kelib tushadi. To‘lov talabnomalari tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan akseptlash tartibida yoki akseptlamasdan to‘lanishi mumkin. Bank tomonidan talabnomalarni akseptlash uchun bir shahar ichidagi hisob-kitoblarda 3 kun, shaharlararo hisob-kitoblarda 5 kun muhlat beriladi. Lekin korxonaning iltimosiga ko‘ra, bank bu muddatni 10 kungacha cho‘zishi mumkin. To‘lov talabnomaning rekvizitlari 1-kartoteka bo‘yicha yuritiladigan daftarga qayd etiladi va mijozga xabar beriladi. Mijoz bu haqda jurnalga o‘z imzosini qo‘yadi.

Akseptlash tartibida to‘lanadigan talabnomalarning birinchi nusxasi to‘lov uchun akseptlashni kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 1-kartoteka deb yuritiladi.

Talabnomaning ikkinchi nusxasi tovar-transport hujjatlari bilan birga keyingi ish kunidan kechiktirilmasdan hujjatni akseptlash uchun qabul qilingan sana ko‘rsatilgan holda va to‘lov to‘g‘risida ma’lumot sifatida to‘lovchiga beriladi.

Agar mijoz 10 kun ichida bankka tashrif buyurmasa va to‘lov talabnomasi kelganligi to‘g‘risida xabar topmasa, talabnoma ijrosiz mol sotuvchi korxona bankiga qaytariladi.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, to‘lovchi to‘lov talabnomasining bir nusxasini olgandan keyin, uning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini, shartnoma shartlariga to‘g‘ri kelish-kelmasligini tekshirib chiqadi. To‘lovchi belgilangan muddatda tovar moddiy qiymatliklarni jo‘natishda, xizmatlar ko‘rsatishda amaldagi qonuniy hujjat talablariga hamda shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda talabnomani qisman yoki to‘liq to‘lashdan bosh tortishi mumkin. Buning uchun bankka yozma ravishda raddiya arizasi topshirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda bankka raddiya arizasi topshirilmasa, ya’ni yozma ravishda akseptlashni rad etmasa, talabnoma akseptlangan hisoblanadi. Akseptlashni rad etish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar doirasini bank bo‘limi boshqaruvchisi belgilaydi. Banklar akseptlashni rad qilish mohiyati bo‘yicha kelib chiqqan bahs va nizolarga aralashmaydilar.

To‘lov talabnomasini to‘lashdan bosh tortib yozilgan raddiya arizasi to‘lovchi tomonidan bankka topshirilganda talabnomalar shu kunning o‘zidayoq 1-kartotekadan olinadi hamda tovar-transport hujjatlari va boshqa ilovalar bilan birga mahsulot yetkazib beruvchi korxona bankiga ijrosiz qaytarib yuboriladi. To‘lovchi talabnomani akseptlashdan qisman bosh tortganda, to‘lovchi tomonidan akseptlangan summa bo‘yicha to‘lovlar o‘tkaziladi.

To‘lovchi hisobvarag‘ida talabnomaning akseptlangan qismini to‘lashga yetarli pul mablag‘lari bo‘lmaganda talabnoma «Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari» kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka 2-kartoteka deb yuritiladi.

Bunda talabnomaning dastlabki summasi o‘chiriladi va yoniga to‘lovchi akseptlagan summa yozib qo‘yiladi. Kartotekaga kirim qilingan summa to‘lovchi korxona hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgandan so‘ng to‘lanadi.

Agar 1-kartotekaga joylashtirilgan to‘lov talabnomasi bo‘yicha to‘lovchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to‘lov talab-

nomasi akseptlash uchun berilgan 3 kun muhlat o‘tgandan so‘ng to‘lanadi. To‘lov talabnomasini to‘lashdan avval to‘lovchi korxonaning depozit hisobvarag‘ini yurituvchi mas’ul ijrochi talabnomani to‘lash uchun yetarli pul mablag‘larining to‘lovchi hisobvarag‘ida mavjudligini tekshiradi. Agar depozit hisobvarag‘ida yetarli pul mablag‘lari bo‘lsa, talabanoma to‘lanadi.

To‘langan talabnoma elektron to‘lovlar tizimi yordamida Markaziy bank qoshidagi Hisob markazi orqali mahsulot sotuvchi bankiga o‘tkaziladi. Talabnomaning ushbu nusxasi bankning kundalik hujjatlar yig‘majildiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Lekin har doim ham to‘lovchi korxonaning hisobvarag‘ida to‘lov talabnomasini to‘lashga yetarli pul mablag‘lari bo‘lmasligi mumkin. To‘lovchining depozit hisobvarag‘ida mablag‘ bo‘lmaganda talabnomalar 2-kartotekada to‘lovni kutayotgan hujjatlar qatoriga joylashtiriladi, bu haqda mahsulot yetkazib beruvchi bankiga xabar beriladi.

To‘lov talabnomasi 2-kartotekada to‘lovchi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga talabnomani to‘lashga yetarli pul mablag‘lari kelib tushguncha saqlanadi. Pul kelib tushgandan so‘ng, kelib tushgan mablag‘lar doirasida me’yoriy hujjatlarda o‘rnatilgan tartibda to‘lov amalga oshiriladi.

To‘lovchi korxona bankida to‘langan to‘lov talabnomasi «Elektron pochta» elektron tizimi orqali Markaziy bank qoshidagi Hisob markaziga uzatiladi. Hisob markazida to‘lovchi korxona bankining vakillik hisobvarag‘idan to‘lov talabnomasida ko‘rsatilgan pul summasi mahsulot yetkazib beruvchi bankining vakillik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Elektron to‘lov tizimi orqali olingan elektron talabnomalar mablag‘larni oluvchi bankda bir nusxada qog‘ozga chiqariladi. Ilgari to‘lov talabnomasi yana bir nusxa chiqarilib, bankning hujjatlar papkasida saqlanar edi. Hozir esa bankning o‘zida bank axborotlar bazasida elektron to‘lov talabnomasi saqlanadi. Elektron to‘lov ta-

labnomasi mas'ul ijrochining imzosi va bank muhri qo'yilgan holda mahsulot yetkazib bergan korxonaning depozit hisobvarag'iga ilova sifatida qo'shib beriladi. Shu bilan birga, bu korxonaga hisobvaraqdan ko'chirma ham beriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar ham ma'lum bir afzallik va kamchiliklarga ega. To'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– mahsulot sotuvchi bilan mahsulot oluvchi tomonlar bir-birini o'zaro nazorat qilishga qulay;

– mahsulot oluvchiga tovarni jo'natish kechiktirilmaydi;

– mol jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun mahsulot oluvchining mablag'ini alohida hisobvaraqda deponent qilib qo'yish talab etilmaydi, ya'ni to'lovchining mablag'lari biror muddatga oborotdan tashqariga chiqib ketmaydi;

– to'lovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol yetkazib beruvchining shartnoma shartlari qay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi, shu bilan birga, shartnoma shartlaridan biri buzilgan holda to'lov to'lashdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi;

– mol oluvchi hisobvarag'idan akseptsiz talabnomalar bo'yicha mablag'larning majburiy olinishi mahsulot yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatgan tomon manfaatlariga mos keladi.

To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagilar:

1. Mahsulot sotuvchi korxonaga to'lovning o'z vaqtida o'tkazilishi kafolatlamaydi.

2. To'lov o'tkazilishi bilan tovar jo'natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi.

3. Omboxona bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi mumkinligi.


4. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi to'lov topshirig'iga nisbatan uzoqroq davom etishi.

Umuman, to‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning ishlatilishi ko‘p hollarda 2-kartotekada o‘z vaqtida to‘lanmagan to‘lov talabnomalarning ko‘payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnoma bankka to‘lov uchun kelib tushgan vaqtda to‘lovchining hisobvarag‘idan har doim ham to‘lovni amalga oshirish uchun yetarli pul mablag‘lari bo‘lmaydi. Kartotekaga qo‘yilgan har bir to‘lov talabnomasi respublika iqtisodiyotida debetorlik va kreditorlik qarzlarining oshganligidan dalolat beradi. Shu sababli, respublika banklari o‘z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ularni to‘lash bo‘yicha qanday ishlar olib borilayotganini nazorat qilib turadilar.

Yuqorida to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi qanday tartibda amalga oshirilishini mustaqil ravishda chizib ko‘rishni tavsiya qilgan edik. Bu sizning naqd pulsiz hisob-kitoblarning ushbu shaklini qanday o‘zlashtirganingizni yaqqol ko‘rsatadi. Endi o‘zingiz chizgan chizma bilan quyida keltirilgan umumiy chizmani solishtirib ko‘ring.

5-chizma

To‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish chizmasi



1. Mahsulot jo‘natuvchi korxona bilan mahsulot oluvchi korxona o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuziladi.

2. Mahsulot jo‘natuvchi korxona mahsulot oluvchi korxonaga tovar jo‘natadi.

3. Mahsulot jo‘natuvchi korxona o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limiga to‘lov talabnomasi va tovar-trasport hujjatlarini taqdim qiladi.

4. Mahsulot jo‘natuvchi korxona banki mahsulot oluvchi korxona bankiga pochta yoki kuryerlar orqali hujjatlarni jo‘natadi.

5. Mahsulot oluvchi korxona banki kelib tushgan to‘lov talabnomasini akseptlash uchun mahsulot oluvchi korxonaga beradi.

6. Korxona o‘z bankiga akseptlangan talabnomani taqdim etadi.

7. Mahsulot oluvchi korxona banki talabnomada ko‘rsatilgan summani to‘lovchi korxona hisobvarag‘idan chegirib, talabnoma bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi.

8. Mahsulot oluvchi korxona banki Hisob markaziga to‘langan elektron to‘lov talabnomasini modem orqali jo‘natadi.

9. Hisob markazi elektron to‘lov tizimi orqali to‘langan talabnomani mahsulot sotuvchi korxona bankiga o‘tkazadi (Hisob markazida bo‘ladigan operatsiyalar boshqa mavzuda batafsil ko‘rilishi sababli u yerda Hisob markazida bajariladigan ishlar batafsil yoritilmadi).

10. Mahsulot sotuvchi korxona banki talabnoma summasini mahsulot sotuvchi korxonaning hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

11. To‘lovning kelib tushganligini xabar qilish uchun kompyuterda chiqarilgan elektron to‘lov talabnomasining ikkinchi nusxasini hisobvaraqdan ko‘chirma bilan birgalikda mahsulot sotuvchi korxonaga topshiradi.

Akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar. Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to‘lov oborotida juda kam ulushni tashkil etadi. Jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni kafolatlash maqsadida akkreditiv shakldan foydalaniladi.

__Akkredetiv__ so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, «ishonchli» degan ma’noni bildiradi.

__Akkreditiv__ – mijozning topshirig‘iga ko‘ra shartnoma bo‘yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankining shartli pul majburiyatidir.

Unga ko'ra, akreditiv ochgan bank mahsulot yetkazib beruvchiga to'lovni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda va akkreditivning boshqa shartlari bajarilganda ularga bu to'lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditivlar ochilganda akkreditiv ochgan bank to'lovchining shaxsiy mablag'idan yoki unga berilgan kredit hisobidan mol yetkazib beruvchining banki tassarrufiga alohida «Akkredetivlar» balans hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazib beradi.

Akkreditiv faqat bir ta'minotchi bilan hisob-kitob qilishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Akkreditivning muddati va hisob-kitob qilish tartibi tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Shartnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

– emitent bankning nomi;

– akkreditiv turi, uni bajarish muddati va bajarish usullari;

– mol yetkazib beruvchining akkreditiv bo'yicha mablag' olishi uchun taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati va ularning aniq tavsifi;

– tovarlarni jo'natgandan keyin hujjatlarni taqdim qilish muddati;

– mol yetkazib beruvchi va oluvchi tomonlar nomi, ularning yuridik manzillari

– bajaruvchi bank nomi va boshqalar.

Akkreditiv ochish uchun xaridor o'z bankiga – emitent bankka akkreditivlarni ochish to'g'risidagi arizani 2 nusxada taqdim etadi. Arizada akkreditiv ochish uchun asos bo'lgan shartnoma raqami, akkreditivning amal qilish muddati, akkreditivni bajaradigan bankning nomi, akkreditiv ijro etiladigan joy, akkreditiv turi, akkreditiv bo'yicha haq to'lanadigan hujjatlarning to'liq va aniq nomi, rasmiylashtirish tartibi, akkreditiv bo'yicha to'lash usuli va boshqa kerakli rekvizitlar ko'rsatiladi.

Bankda ushbu korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi mas’ul ijrochi akkreditiv ochish haqidagi arizani olib, uning to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi, barcha kerakli rekvezitlarning mavjudligini tekshirib ko‘radi. Shundan so‘ng qabul qilingan akkreditiv ochish haqidagi arizaning birinchi nusxasiga o‘z imzosini, bankning to‘rtburchak muhri izini, arizani qabul qilish sanasi va to‘lov o‘tkazilgan sanasi qo‘yadi. Arizaning birinchi nusxasida ko‘rsatilgan barcha rekvezitlar kompyuterga kiritilib, elektron to‘lovlar tizimi yordamida to‘langan summa Markaziy bankning Hisob markazi orqali mahsulot jo‘natuvchi korxona bankiga, ya’ni bajaruvchi bankka jo‘natiladi.

Akkredetivni bajaruvchi bank emitent bankdan elektron to‘lovlar tizimi orqali to‘lovni qabul qiladi. Bu bankda akkreditivlarni ochish haqidagi ariza 2 nusxada qog‘ozga chiqariladi:

– arizaning birinchi nusxasi bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo hamda bank muhri izi qo‘yilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;

– ikkinchi nusxasi «To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» deb nomlangan 1-kartotekaga joylashtiriladi.

Emitent bankdan qabul qilingan to‘lov summasi 22602-sonli «Mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha depozitlari» hisobvarag‘iga o‘tkazilib, mahsulot jo‘natilib, bu haqda mahsulot jo‘natuvchi korxonadan kerakli hujjat taqdim qilingunga qadar saqlanadi. Bank mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida xabar beradi.

Mahsulot yetkazib beruvchi akkreditiv bo‘yicha kelib tushgan mablag‘larni o‘zining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuklab jo‘natish va akkredetiv shartlarida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar akkreditiv muddati o‘tgunga qadar mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan bankka taqdim etilishi va akkreditivning barcha

shartlarining bajarilganligini tasdiqlashi shart. Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarda mahsulot yetkazib beruvchining banki mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlariga rioya qilinganligini hamda tasdiqlovchi hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirishi lozim. Ushbu shartlarning birortasi buzilganda yoki bajarilmaganda bank akkreditivlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazishi mumkin emas. Bank tomonidan mahsulot yetkazib beruvchining akkreditivlar bo‘yicha hisobvarag‘idagi mablag‘larni uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga memorial order orqali o‘tkaziladi.

Akkreditiv mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga xizmat qiluvchi bankda quyidagicha yopilali:

a) akkreditiv muddati tugagandan keyin bajaruvchi bank akkreditiv yopilganligi to‘g‘risida emitent bankka xabar beradi;

b) mahsulot yetkazib beruvchining muddatidan oldin akkreditivni ishlatishdan voz kechishi to‘g‘risidagi arizasiga ko‘ra, mahsulot yetkazib beruvchining keyingi akkreditivdan foydalanishdan voz kechishi to‘g‘risidagi arizasiga asosan, emitent bankka bajaruvchi bank tomonidan bildirishnoma yuboriladi;

d) sotib oluvchining akkreditivni qisman yoki to‘liq chaqirib olish to‘g‘risidagi arizasiga ko‘ra, agar akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, akkreditivlar emitent bankdan xabar yetib kelgan kuni 22602 – «Mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha depozitlar» hisobvarag‘idagi mavjud mablag‘lar doirasida to‘liq yoki qisman qoplanadi. Akkreditivning yopilayotganligi haqida emitent bankka xabar beriladi.

Akkreditivlar bo‘yicha depozit hisobvaraqlardan naqd pul berilishi, akkreditivlarning boshqa shaxslar nomiga o‘tkazilishi va qayta rasmiylashtirilishiga ruxsat etilmaydi.


Bank emitent akkreditivni ishlatganligi to‘g‘risida bajaruvchi bankdan hujjatlarni olgandan keyin memorial orderga asosan ko‘zda tutilmagan hollar hisobvarag‘idan to‘liq hisobdan chiqaradi

va tasdiqlovchi hujjatlarni memorial orderning nusxasi bilan birgalikda to‘lovchi korxonaga beradi. Ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘i akkreditiv to‘liq ishlatilmagan va u sotib oluvchi bankidagi hisobvaraqqa qaytarilganda ham yopiladi.

Akkreditivlar bo‘yicha yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan operatsiyalarni quyidagi chizma orqali umumlashtiramiz.

6-chizma

Akkreditiv orqali hisob-kitoblarda hujjatlar aylanish chizmasi



Chizmaga quyidagicha tavsif beramiz:

1. Mahsulot yetkazuvchi va mahsulot oluvchi o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuziladi.

2. Mahsulot oluvchi o‘z bankiga akkreditiv ochish haqida ariza taqdim etadi.

3. Mahsulot oluvchi korxona banki arizaga asosan mahsulot oluvchi korxona hisobvarag‘idan to‘lov o‘tkazadi.

4. Akkreditiv ochish haqidagi elektron arizaga asosan elektron to‘lov Hisob markaziga elektron ko‘rinishda o‘tkaziladi.

5. Hisob markazi elektron to‘lov tizimi orqali mahsulot oluvchi korxona bankining vakillik hisobvarag‘idan pul mablag‘larini mahsulot sotuvchi korxona bankining vakillik hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

6. Kelib tushgan mablag‘lar mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha hisobvarag‘ida deponentlashtiriladi.

7. Akkreditiv ochilgani haqida mahsulot yetkazuvchiga xabar beradi.

8. Mol sotuvchi mol oluvchi korxonaga tovar jo‘natadi.

9. Mahsulot yetkazuvchi mahsulot jo‘natilganligi haqidagi hujjatlarni bankka taqdim etadi;

10. Bank deponentlangan summani mahsulot sotuvchi korxona hisobvarag‘iga o‘tkazadi va akkreditivni yopadi.

11. Bajaruvchi bank akkreditivning yopilganligi haqida emitent bankka xabar beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o‘z afzalligi, shu bilan birgalikda, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakli bo‘yicha hisob-kitob qilishning afzallik tomoni shundaki, mahsulot yetkazib beruvchi uchun to‘lov to‘liq kafolatlangan bo‘ladi.

Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

– akkreditiv shakli bo‘yicha hujjatlar aylanishi texnik jihatdan birmuncha qiyinroq;

– transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo‘natish uchun tayyor transport bo‘lmasligi mumkin, bu esa yuk jo‘natishning kechikishiga olib keladi;

– bu shaklda to‘lovchining mablag‘lari oborotdan qisman chetlashdi, boshqa hisob-kitoblar uchun bu mablag‘lardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;

– akkreditiv bo‘yicha, odatda, faqat bir mol yetkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinadi.

Inkasso topshiriqnomalari bo‘yicha operatsiyalar. Inkasso topshiriqnomasi – ushbu topshiriqnomani bergan bank mijozining emitent bankka to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘larni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi talabidir. Inkasso topshiriqlari quyidagi hollarda hisob-kitoblar uchun taqdim etiladi:

birinchidan, o‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlarni undirish uchun;

ikkinchidan, davlat budjetiga o‘tkaziladigan soliqdan tashqari to‘lovlar, jumladan, penyalar, jarimalarni undirib olish to‘g‘risidagi soliq organlarining farmoyishiga ko‘ra;

uchinchidan, budjetdan tashqari fondlardan to‘lovlarni undirib olishda, agar bu qonuniy hujjatlarda ko‘zda tutilgan bo‘lsa;

to‘rtinchidan, bojxona organlarining qaroriga ko‘ra o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlarini undirish uchun.

Bulardan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shuningdek, xo‘jalik sudining ijro varaqalari va unga tenglashtirilgan hujjatlari inkasso topshiriqlarini rasmiylashtirib bankka topshirish uchun asos bo‘la oladi. Ijro hujjatlariga xo‘jalik sudining buyruqlari, sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari hamda notariuslar tomonidan yozilgan ustxatlarni kiritish mumkin.

Budjet, bojxona va huquqni muhofaza qilish organlarini to‘lovni undiruvchi deb yuritamiz. To‘lovni undiruvchi inkasso topshiriqlarini ijro hujjatlarini ilova qilgan holda to‘lovni undirish uchun bankka taqdim qiladilar. Agar to‘lovni undiruvchi va to‘lovchi tomonlar bir shahar ichidagi bank xizmatidan foydalansalar, inkasso topshirig‘i to‘lovchining hisobvarag‘i yuritiladigan bank bo‘limiga topshiriladi. Agar inkasso topshirig‘i boshqa shahardagi to‘lovchilar nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, bu holda hujjat undirib oluvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limiga topshirilishi lozim. To‘lovchilarning hisobvaraqlaridan mablag‘lari hisobdan chiqarish bank bo‘limlari tomonidan hujjatlarning nusxasi bo‘yicha emas, balki asl nusxasi yoki dublikati asosida bajariladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar foydasiga mablag‘larni hisobdan chiqarish bo‘yicha hujjatlar qonunda belgilangan muddatdan o‘tkazib taqdim etilgan bo‘lsa, bank bo‘limlari ushbu hujjatlarni inkasso uchun qabul qilmaydilar. Ijro hujjatlarining bajarilish muddatlari quyidagicha belgilangan:

– sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari bo‘yicha – 3-yil;

– ijro ustxatlari bo‘yicha, agar qonunchilik tomonidan boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa – 3-yil;

– xo‘jalik sudlarining ijro varaqalari bo‘yicha – 6 oy;

– xo‘jalik sudining sudyasi tomonidan berilgan sud buyrug‘i bo‘yicha undirib olish, buyruq berilgan kundan boshlab 10 kun muddat davomida amalga oshiriladi.

Davlat sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta idoralari, davlat budjeti foydasiga mablag‘larni o‘tkazib berish bo‘yicha hujjatlar bank tomonidan amal qilish muddati cheklanmagan holda qabul qilinadi.

Inkasso topshiriqnomasi bank bo‘limiga undirib oluvchi tomonidan 0505411013 shaklda 3 nusxada topshiriladi. Undirib oluvchi va to‘lovchi tomonlarga bitta bank bo‘limida xizmat ko‘rsatilsa, inkasso topshiriqnomalarining alohida nusxalari quyidagicha ishlatiladi:

– birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, bankning to‘rtburchak muhri izi, to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi.

– ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birga to‘lovchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchiga beriladi;

– uchinchi nusxasi bank bo‘limining to‘rtburchak muhr izi tushirlgan, mas’ul bajaruvchi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovni oluvchiga beriladi.

Undirib oluvchi va to‘lovchiga bir shahar ichidagi turli banklar xizmat ko‘rsatganda ham inkasso topshiriqnomasi 3 nusxada rasmiylashtirilib, undirib oluvchi tomonidan bevosita to‘lovchi korxona bankiga topshiriladi. Inkasso topshiriqnomasining alohida nusxalari quyidagicha ishlatiladi:

– birinchi nusxa to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhri izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;

– ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birgalikda to‘lovchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan va bank muhri izi tushirilgan holda to‘lovchiga beriladi;

– uchinchi nusxasi bank bo‘limining to‘rtburchak muhri izi tushirilgan, mas’ul ijrochining imzosi, to‘lov amalga oshirilgan sana, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovni oluvchining o‘ziga inkasso topshiriqnomasining ijro uchun bank tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida qaytariladi.

Amaliyotda shunday hollar ham bo‘ladiki, bunda to‘lovni undiruvchi va to‘lov to‘lovchi turli shaharlarda joylashgan bo‘lib, ularga turli banklar xizmat ko‘rsatadi. Bunday shaharlararo yoxud hududlararo operatsiyalar banklararo hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Shaharlararo hisob-kitoblarda inkasso topshiriqlari undiruvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limlariga undiruvchi tomonidan topshiriladi. Bu holda inkasso topshirig‘i 3 nusxada rasmiylashtirilib bankka topshiriladi. Uning birinchi va ikkinchi nusxalari ijro hujjatlari bilan birga pochta aloqasi orqali to‘lovchining bankiga jo‘natiladi. Topshiriqnomani jo‘natishdan avval unga mas’ul ijrochi tomonidan imzo, hujjatning qabul qilinish sanasi qo‘yiladi hamda bankning to‘rtburchak muhri izi tushiriladi. Inkasso topshiriqnomasining uchinchi nusxasi bank bo‘limining to‘rtburchak muhri izi tushirilgan, mas’ul ijrochining imzosi, qabul qilish sanasi qo‘yilgan holda undiruvchiga qaytariladi.

Inkasso opshiriqnomasining to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi, uning barcha rekvezitlari mavjudligi, shu bilan birga, to‘lovchining hisobvarag‘ida ushbu topshiriqnomani to‘lash uchun pul mablag‘larining yetarliligi bank mas’ul ijrochisi tomonidan nazorat

qilinadi, shundan so‘ng to‘lov amalga oshiriladi. To‘lovlar elektron to‘lov tizimi orqali Hisob markaziga o‘tkaziladi.

To‘lov to‘lovchi va undiruvchi tomonlarga turli shahardagi turli banklar xizmat ko‘rsatsa, undiruvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank inkasso topshirig‘ini ijro hujjatlari bilan birgalikda pochta aloqasi orqali to‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi bankka jo‘natadi. To‘lovchining banki kelib tushgan hujjatlarning to‘lanishi mumkinligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirib, yuqorida buxgalteriya yozuvini o‘tkazadi va elektron to‘lov tizimi orqali Hisob markaziga to‘lovni jo‘natadi. Hisob markazi orqali to‘lov undiruvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bankning vakillik hisobvarag‘iga kelib tushadi. Bir vaqtning o‘zida kelib tushgan pul mablag‘lari undiruvchi tomonning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Undiruvchi bankida elektron to‘lov tizimi orqali qabul qilingan elektron inkasso topshiriqnomasi qog‘ozga chiqariladi. Inksso topshiriqnomasining elektron ko‘rinishi bankning axborot bazasida saqlanadi. Elektron inkasso topshiriqnomasining qog‘ozga chiqarilgan nusxasi esa bank mas’ul ijrochisining imzosi va bank muhri izi qo‘yilgan holda undiruvchi hisobvarag‘iga ilova sifatida undiruvchiga beriladi

4-§. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy to‘lov tizimidagi o‘rni

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning oxirgi yillarda rivojlanib borayotgan shakli – bu plastik kartochkalardir.

***Plastik kartochka** – bu shaxsiy to‘lov vositasi bo‘lib, uni kartochkadan foydalanuvchi shaxs mahsulot va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lovni amalga oshirishi uchun taqdim etadi, shuningdek, banklar va bankomatlardan naqd pul mablag‘larini olish uchun ishlatiladi.*

O‘zbekistonda ham plastik kartochkalar bilan operatsiyalar 1994–1995-yillardan amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lib, plastik kartochkalar soni, bu kartochkalar orqali o‘tkazilgan operatsiyalar soni va summasi, terminal va bankomatlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

«2014-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, muomalaga 10 mln donadan ziyod plastik kartochkalar chiqarilgan bo‘lib, ularning qariyb 2 mln 500 ming donasi On-line plastik kartochkalardir. Savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlariga o‘rnatilgan terminallar soni esa qariyb 130 mingtaga, to‘lovlarni uzluksiz qabul qiluvchi infokiosklar soni 1733 taga yetdi. O‘tgan 2013-yilda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 41 foizga oshdi».

Plastik kartochka tegishli bankda kartochka egasining hisobvarag‘i mavjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to‘lov vositasini o‘zida ifoda etadi.

To‘lov kartochkalari ishlatilishi vaqtida yuzaga keluvchi to‘lov majburiyatlarining bajarilishini kartochkani chiqargan emitent bank kafolatlaydi. Shuning uchun kartochkalar o‘zining amal qilish muddati davomida bankning mulki bo‘lib qoladi, mijozlar uni faqatgina foydalanish uchun oladilar

Plastik kartochkada, albatta, bir xil ma’noli identifikatsiya qiladigan emitentning nomi va logotipi qayd qilinishi shart.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda mahsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar, yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasidagi bo‘ladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek, naqd pul berish punktlari va bankomatlardan naqd pul olishda qo‘llaniladi.

Vakolatli banklar xalqaro plastik kartochkalar chiqarishi va ular bo‘yicha xizmat ko‘rsatishi mumkin, bunda ular xalqaro to‘lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarga va «Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq bajariladigan operatsiyalar qoidalariga amal qilishlari shart.

Plastik kartochkalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

a) tomonlarning nomlari;

b) shartnoma mavzusi;

d) tomonlarning huquq va majburiyatlari;

e) tomonlarning javobgarligi;

f) hisob-kitoblarni o‘tkazish shartlari;

g) shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari;

h) nizolarni hal qilish tartibi;

i) tomonlarning yuridik manzili.

Plastik kartochkalar o‘z xususiyatlari va funksiyalariga qarab quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin.

1. Ishlab chiqarilgan materiallariga qarab:

– qog‘ozli (kartonli);

– plastik;

– metall.

2. Kartaga ma’lumotlar yozilishiga qarab:

– grafik yozuv;

– shtrix-kodlashtirish;

– magnit chiziqdagi kodlashtirish;

– chip;

– lazer yozuv.

3. Emitentlariga qarab:

– bank kartochkalari;

– xususiy kartochkalar.

4. Mijozlarga qarab:

– oddiy karta;

– kumush karta;

– oltin karta;

– elektron karta.

Aloqadorligi bo‘yicha plastik kartochkalar shaxsiy, oilaviy va korporativ turlarga bo‘linadi

a) *shaxsiy kartochka* – bu jismoniy shaxsga berilgan plastik kartochkadir;

b) *olaviy kartochka* – bu shaxsiy kartochka egasining ishonchnomasi asosida foydalanuvchiga berilgan plastik kartochkadir;

d) *korporativ kartochka* – bu yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan plastik kartochkadir. Korporativ kartochkalardan ish haqi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa to‘lovlarni, shuningdek, naqd pul mablag‘larini to‘lashda foydalanish ta’qiqlanadi.

Plastik kartochkalar bajaradigan vazifalari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi

a) *debet kartochka*sidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, o‘zining kartochkasidagi pul mablag‘laridan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to‘lash va yoki naqd pul mablag‘larini olishda (korporativ kartochkalardan tashqari) foydalanish imkonini beradi;

b) *kredit kartochka*sidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, emitent tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to‘lash va yoki naqd pul mablag‘larini olish uchun (korporativ kartochkalardan tashqari) berilgan kredit liniyasi miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

d) *elektron hamyon* jismoniy shaxslarning kartochkasi bo‘lib, undan foydalanish, uning egasiga plastik kartochkadagi qoldiq mablag‘lar doirasida tovarlar, ishlar, xizmatlarga haq to‘lash va yoki naqd pul mablag‘larini olishga imkon beradi.

Bitta elektron kartochkada bir necha «elektron hamyonlar» joylashgan bo‘lishi mumkin.

Plastik kartochkada, uni shaxs nomiga biriktirishda, quyidagi rekvizitlar yozilgan bo‘lishi shart.

a) identifikatsiya belgilari (karta raqami, seriyasi va boshqalar);

b) emitent bank (kartochkalarni chiqaruvchi bank)ning kodi;

d) hisobvaraq raqami va kartochka egasining familiyasi, ismi, otasining ismi (tashkilot nomi);

e) kartochkaning amal qilish muddati.

Plastik kartochkada bir necha hamyonlar mavjud bo‘lganda, identifikatsiya belgilari har bir hamyonni bir xil ma’noli identifikatsiyalashi lozim.

Ko‘rsatilgan rekvizitlardan tashqari, kartochkaga operatsiyalarni amalga oshirish va ular hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha belgilar kiritilishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab tijorat banklari plastik kartalar emitenti bo‘lib hisoblanadi. Quyida ayrim banklarning plastik kartalari ko‘rinishi tasvirlangan rasmni keltiramiz.



1-rasm. **Banklarning plastik kartalari.**



2-rasm. **Viza kartaning ko‘rinishi.**

Shunday qilib, plastik kartochka – bu umumlashtirilgan atama bo‘lib, u hamma tur kartochkalarni bajaradigan funksiyalari, ularning biror-bir belgilanishi, texnik imkoniyatlarini umumlashtirilgan holatdir. Hamma turdagi kartochkalarning asosiy xususiyatlari shundaki, bunda alohida axborot jamlanmasi va alohida yordamchi dasturlardan foydalaniladi.

Qayta to‘lov vositasi sifatida foydalanishga tayyorlash (personalizatsiya) uchun qaytarilgan plastik kartochkalar hisobi 93609 – «Saqlanayotgan qimmatliklar» ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘ining alohida shaxsiy hisobvaraqlarida olib boriladi.

Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar qog‘oz ko‘rinishida (slip, elektron terminal kvitansiyasi) yoki elektron shakldagi (elektron terminal jurnalidan yoki bankomatdan olingan hujjat) hujjatlarni, shuningdek, hisob-kitoblar qatnashchilari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan boshqa hujjatlarni (bankomat kvitansiyasi va boshqalar) tuzish lozimligini ko‘zda tutadi.

Hujjatlar hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun zarur bo‘lgan nusxalar miqdorida tuziladi.

Kvitansiyalar o‘tkazilgan operatsiyalarni qo‘lda tiklash uchun barcha zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Plastik kartochkalardan foydalangan holda, operatsiyalarni amalga oshirishda tuzilgan hujjatlar rekvizitlari, plastik kartochkalar rekvizitlari bilan kartochka egalarining bank hisobvaraqlari, shuningdek, korxona identifikatorlari, NPBP, bankomatlar va tashkilotlarning bank hisobvaraqlari o‘rtasidagi muvofiqlikni haqqoniy belgilashga imkon beruvchi tomonlar o‘rtasida kelishib olingan belgilarpi o‘z ichiga olishi kerak.

Elektron hujjatlar ekvayer bank (savdo yoki xizmat ko‘rsatish korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi bank)ga, emitent bankka yoki kliring markaziga, shartnomada kelishilgan davriylikda jo‘natiladi.

Bitta bank bo‘limlari o‘rtasida kartochkalar bo‘yicha hisob-kitoblar qilish texnologiyasi Bosh bank tomonidan o‘z imkoniyatlari va foydalanadigan kartochkalar turlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilanadi.

Kartochkalar bo‘yicha banklararo hisob-kitoblar texnologiyasi quyidagi variantlarni ko‘zda tutadi.

a) hisob-kitoblarni amaldagi elektron to‘lovlar tizimi (ETT) orqali yalpi hisob-kitob asosda o‘tkazish;

b) hisob-kitoblarni hisob-kitoblar qatnashchilari tomonidan tashkil etilgan protsessing markazlaridan kun davomida o‘tkazib, yakuniy o‘zaro majburiyatlar hisoblangan holda, tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridan yakuniy hisob-kitoblar summasini o‘tkazish.

ETT orqali plastik kartochkalardan foydalangan holda, amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha yalpi hisob-kitoblar qilish, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) emitent bank tomonidan avtorizatsiya qilinmagan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarda:

a) ekvayer bank xizmat ko‘rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko‘rsatish tashkilotidan olingan kartochkalardan foydalangan hol-

da, tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, mablag‘larni uning hisobvarag‘iga o‘tkazadi, bunda elektron to‘lovlar tizimi orqali emitent bankka jo‘natiluvchi debetli elektron memorial orderi avtomatik ravishda shakllantiriladi.

b) emitent bankda olingan debetli elektron memorial orderga asosan mijozning kartochkali hisobvarag‘idan dasturiy ravishda mablag‘lar hisobdan chiqariladi. Debetli elektron memorial order bosmadan chiqariladi va kunlik hujjatlarga tikiladi.

2) emitent bank tomonidan oldindan shart bo‘lgan tartibda avtorizatsiya qilinadigan hisob-kitoblarda:

a) ekvayer bankda xizmat ko‘rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko‘rsatish tashkilotidan olingan kartochkalardan foydalangan holda, tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, ETT orqali avtorizatsiyalash va o‘tkazmani amalga oshirish uchun emitent bankka jo‘natiladigan elektron ma’lumot, foydalanilayotgan texnologiya qoidalariga muvofiq, avtomatik ravishda shakllantiriladi;

b) emitent bank, olingan elektron ma’lumotlarga asosan, tranzaksiyalar avtorizatsiyasini o‘tkazadi, mijozning kartochka hisobvarag‘idan mablag‘larni hisobdan chiqarish uchun avtomatik ravishda elektron memorial orderni shakllantiradi, savdo va xizmat ko‘rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga mablag‘larni o‘tkazish uchun elektron to‘lovlar tizimi orqali ekvayer bankka jo‘natadi.

d) ekvayer bankda, emitent bankdan olingan elektron memorial orderga asosan, mablag‘lar savdo yoki xizmat ko‘rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Memorial order bosmadan chiqariladi va bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

To‘lov tizimi yaxshi rivojlanishi uchun kartochkalarga xizmat ko‘rsatishda texnik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi nomoliyaviy tashkilot protsessing va kommunikatsiya markazlari, texnik xizmat ko‘rsatish markazlari va boshqalar muhim.

Protsessing markazi *– bu maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bo'lib, ekvayerlardan kelib tushuvchi avtorizatsiya uchun, talablar va o'zida kartochka bilan amalga oshgan to'lovlar va naqd pul berilgan ma'lumotlarni aks ettiruvchi protokollarni qabul qiladi.*

Buning uchun markaz ma'lumotlar bazasini olib borib, unda to'lov tizimi a'zolari va kartochka egalari aks ettirilgan.

Agar emitent bank o'zida bazasi bo'lmasa (off-line bank), markaz o'zida kartochka egalarining limitlari haqida ma'lumot va avtorizatsiya uchun talablarni bajaradi. Aks holda (on-line bank), protsessing markazi qabul qilingan talabni emitent bankka yuboradi.

Markaz, shuningdek, ekvayer bankka ham javobini yuboradi. Bundan tashqari, bir kunda yig'ilgan tranzaksiya protokollari asosida protsessing markazi to'lov tizimining ishtirok etuvchi banklari o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun oxirgi ma'lumotlarni yig'adi va tarqatadi. Shuningdek, protsessing markazlari emitent banklarning boshqa yangi kartochkalariga bo'lgan talabini qondirishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, rivojlangan to'lov tizimi bir qancha protsessing markazlariga ega bo'lishi, ularning rolini bank ekvayerlar ham bajarishi mumkin.

Kommunikatsiya markazlari to'lov tizimi subyektlariga ma'lumotlarni tarqatuvchi tarmoq dasturni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda 200 dan ortiq davlatlarda plastik kartochkalardan to'lov hisob-kitoblarida foydalanilmoqda. Plastik kartochkalarning bunchalik ommaviyligining sababi uning afzaliklaridadir. Protsessing markazlari orqali hisob-kitoblarni o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Kun davomida kartochkalar bo'yicha barcha tranzaksiyalar, hisob-kitoblar qatnashchilari tomonidan tasdiqlangan tartibda, protsessing markazi orqali o'tkaziladi va hisob-kitoblarda qatnashuvchi


har bir bank uchun alohida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

2. Hisob-kitoblar qatnashchilari kelishuviga asosan, hisob-kitoblar bo‘yicha yakuniy summalar (majburiyatlar) tijorat banklarining Markaziy bankning hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali shartnomada qayd etilgan davriylikda o‘tkaziladi.

3. Tijorat banklari, protsessing markazidan olingan ma’lumotlarga asosan, kartochkalardan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha mablag‘larni mijozlarning hisobvaraqlariga kiritadi yoki chiqaradi.

7-chizma

O‘zbekiston Respublikasida plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazish tartibi



Shunday qilib, bu jarayon har kuni plastik kartalarga xizmat ko‘rsatish davomida davom ettiriladi.

Plastik kartalarning afzalliklari, albatta, ommaviyligini ta’minlaydi. Ular quyidagilardan iborat:

– xavfsizlikning pasayishi, ya'ni foydalanuvchi o'zi bilan juda ko'p miqdorda naqd pul olib yurmasligi, boshqa tomondan to'lovni tezda amalga oshirishi;

– valuta konvertatsiyasidan xavotir olmaslik, buni bankning o'zi amalga oshiradi;

– budjet rejasi va nazorati yanada oshadi;

– plastik kartochka yo'qolsa, bankka xabar berib, o'z hisob-kitob raqamini muzlatib qo'yishi mumkin;

– bankka qo'yilgan qo'yilmalarga bank foiz to'laydi;

– kartochka egasi naqd pul egasidan ko'proq savdoni amalga oshirishi mumkin;

– plastik kartochkalardan foydalangan holda mijozlar hisob raqamidan mablag' yechish va unga pul o'tkazish umumrespublika yagona protsessing markazi orqali amalga oshiriladi, bu ham mijozlar hamda oluvchilarni turli qalloblik va aldovlardan himoya qiladi;

– kartochkada mijozning mablag'lari yigilib borib, biror katta summadagi xarid yoki xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkonining ko'payishi va hokazolar.

O'zbekistonda naqd pul massasini qisqartirish, pul muomalasining barqarorligini ta'minlash, naqd pullarning bankdan tashqarida aylanishini qisqartirish maqsadida O'zbekistonda ham plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar rivoj topmoqda. Deyarli barcha banklarning hammasida plastik kartochka emissiyasi amalga oshirilmoqda.

5-§. O'zbekistonda plastik kartalar orqali hisob-kitoblarni rivojlantirish

Bank plastik kartalari orqali hisob-kitoblarning rivojlanishi va amalda yaxshi ishlashi, avvalo, huquqiy me'yorlarning, mukammalligiga bog'liq. Shuning uchun hukumatimiz hamda respublika

Markaziy banki tomonidan plastik kartalar orqali hisob-kitoblarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va mukammallashtirib boriladi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hukumati tomonidan bank tizimida plastik kartochkalar sonini oshirish va aholining plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasida bir qancha imtiyozlar berilmoqda. Shulardan biri bu plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatadigan protsessing markazlari va bankomatlarni keltirish hamda ularni o'rnatish borasida bojxona to'lovlaridan 2020-yilga qadar ozod qilish chora-tadbirlari belgilangandir.

Respublikamizda plastik kartochkalar tizimini takomillashtirish hamda rivojlantirish, plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar hajmini yanada ko'paytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2010-yilning 19-aprelidagi PQ–1325-sonli Qarori muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va Banklar Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan 2010–2011-yillarga mo'ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha maxsus jihozlar tarmog'ini qo'shimcha kengaytirishga doir prognoz ko'rsatkichlar belgilab berilgan Ana shu prognoz ko'rsatkichlar ma'qullanib belgilangan yillar davomida amaliyotga tatbiq etilishi shart qilib ko'rsatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shahar, tuman hokimliklari, manfaatdor davlat hamda xo'jalik boshqaruv idoralari, tijorat banklari bilan hamkorlikda belgilab

berilgan ro‘yxatga asosan ro‘yxatga kiritilgan chakana savdo va aholiga xizmat ko‘rsatish obyektlarini bank plastik kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha hisob-kitoblarni hisob-kitob terminallari bilan jihozlash chora-tadbirlarini ko‘rishlari lozimligi belgilandi.

Quyidagi jadvalda 2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlarga binoan qo‘shimcha ravishda jami 24848 ta hisob-kitob terminallari va 161 ta bankomatlar o‘rnatish lozim.

4-jadval

2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlar[1]

T/r	Banklarning nomi	Qo‘shimcha o‘rnatiladigan jihozlar nomi	
		Hisob-kitob terminallari	Bankomatlar
1	«O‘zmilliybank»	3605	20
2	«Asakabank»	1210	10
3	«O‘zsanoatqurilishbank»	1500	9
4	«Agrobank»	3056	16
5	Xalq banki	4245	18
6	«Ipotekabank»	2456	10

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chor-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2010-yil 19-apreldagi PQ–1325-sonli Qarorining ilovasi.

Markaziy banki tomonidan plastik kartalar orqali hisob-kitoblarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va mukammallashtirib boriladi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hukumati tomonidan bank tizimida plastik kartochkalar sonini oshirish va aholining plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasida bir qancha imtiyozlar berilmoqda. Shulardan biri bu plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatadigan protsessing markazlari va bankomatlarni keltirish hamda ularni o'rnatish borasida bojxona to'lovlaridan 2020-yilga qadar ozod qilish chora-tadbirlari belgilangandir.

Respublikamizda plastik kartochkalar tizimini takomillashtirish hamda rivojlantirish, plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar hajmini yanada ko'paytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2010-yilning 19-aprelidagi PQ–1325-sonli Qarori muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va Banklar Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan 2010–2011-yillarga mo'ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha maxsus jihozlar tarmog'ini qo'shimcha kengaytirishga doir prognoz ko'rsatkichlar belgilab berilgan Ana shu prognoz ko'rsatkichlar ma'qullanib belgilangan yillar davomida amaliyotga tatbiq etilishi shart qilib ko'rsatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shahar, tuman hokimliklari, manfaatdor davlat hamda xo'jalik boshqaruv idoralari, tijorat banklari bilan hamkorlikda belgilab

berilgan ro‘yxatga asosan ro‘yxatga kiritilgan chakana savdo va aholiga xizmat ko‘rsatish obyektlarini bank plastik kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha hisob-kitoblarni hisob-kitob terminallari bilan jihozlash chora-tadbirlarini ko‘rishlari lozimligi belgilandi.

Quyidagi jadvalda 2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlarga binoan qo‘shimcha ravishda jami 24848 ta hisob-kitob terminallari va 161 ta bankomatlar o‘rnatish lozim.

4-jadval

2010–2011-yillarga mo‘ljallangan plastik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha maxsus jihozlar tarmog‘ini qo‘shimcha kengaytirishga doir prognoz ko‘rsatkichlar[1]

T/r	Banklarning nomi	Qo‘shimcha o‘rnatiladigan jihozlar nomi	
		Hisob-kitob terminallari	Bankomatlar
1	«O‘zmilliybank»	3605	20
2	«Asakabank»	1210	10
3	«O‘zsanoatqurilishbank»	1500	9
4	«Agrobank»	3056	16
5	Xalq banki	4245	18
6	«Ipotekabank»	2456	10

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chor-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2010-yil 19-apreldagi PQ–1325-sonli Qarorining ilovasi.

terminallari bilan jihozlanishi shart bo‘lgan chakana savdo hamda xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarining ro‘yxati ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi PQ–1325-sonli Qarorining ilovasida belgilab berilgan

Yuqoridagi ro‘yxatga kiritilgan xo‘jalik subyektlarining hisob-kitob terminallari bilan jihozlanish va ulardan foydalanishga oid talablarga rioya etmasligi nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlash va ulardan foydalanish tartibini, savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzishga tenglashtiriladi hamda ularga qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik yuklanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorida plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishda foydalaniladigan plastik kartochkalar, to‘lov terminallari, dasturiy ta’minot, bankomatlar, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish axborot kiosklari va boshqa uskunalar import qilish va ulardan foydalanishda bojxona va soliq imtiyozlarining amal qilish muddati 2012-yilning 1-yanvarigacha uzaytirilishi belgilab berilgan. Bu imtiyozlar esa, o‘z navbatida, respublikada plastik kartochkalar, to‘lov terminallari, dasturiy ta’minot, bankomatlar, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish axborot kiosklari va boshqa uskunalarning yetishmaslik muammolarining bartaraf etilishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, respublikamizda plastik kartalar tizimining yanada rivojlanishiga olib keldi.

Quyidagi ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, 2013-yil 1-mart holatiga ko‘ra respublikamiz bo‘yicha muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 9 504 154 tani tashkil etdi. Bank plastik kartalarining asosiy qismi, ya’ni 9 465 899 tasi jismoniy shaxslarga tegishli. Qolgan 26 153 tasi yuridik shaxslarning korporativ kartalari va 12 102 tasi yakka tadbirkorlarning korporativ kartalaridir.

6-jadval

2013-yil 1-mart holatiga muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar to‘g‘risida ma’lumot[1]

Banklar	Muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni	Shundan			O‘rnatilgan terminallar soni	O‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni
		Jismoniy shaxslarning plastik kartalari	Yuridik shaxslarning korporativkartalari	YTT larning korporativ kartalari		
Agrobank	1 952 143	1 951 614	462	67	17 927	131
TIF Milliy banki	1 558 519	1 551 151	5 927	1 441	13 957	239
Xalq bank	1 440 296	1 437 494	1 237	1 565	17 874	96
Asakabank	972 445	970 634	1 213	598	8 840	72
Sanoatqurilishbank	867 720	866 254	1 441	25	6 628	34
Ipotekabank	865 909	858 636	3 562	3 711	12 730	89
Mikrokreditbank	440 125	439 265	842	18	6 585	33
Ipak yo‘li banki	250 989	247 881	1 835	1 273	3 851	35
Qishloq-qurilish bank	224 039	223 628	406	5	4 567	27
Savdogarbank	154 744	154 216	331	197	3 506	19
Turonbank	150 777	149 335	922	520	2 301	20
Aloqabank	128 759	127 975	714	70	2 992	39
Kapitalbank	125 864	122 626	2 518	720	1 863	496
Hamkorbank	110 050	107 657	1 218	1 175	5 065	56
Kredit-Standart bank	69 032	68 388	566	78	515	12
Trastbank	58 998	57 788	1 019	191	1 198	21
UzKDB bank	31 569	31 325	244	0	168	3
Universalbank	24 030	23 830	133	67	572	0
Infinbank	18 562	18 179	334	49	518	3
Azia-alliansbank	14 434	14 168	250	16	255	8
Boshqa banklar	45 150	43 855	979	316	1 725	8
Jami	9 504 154	9 465 899	26 153	12 102	113 637	1 441

[1] Manba: www. cbu. uz

Oxirgi yillarda o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokioskl-ar soni ham ko‘payib bormoqda. 2013-yil 1-mart holatiga ko‘ra respublikamiz bo‘yicha o‘rnatilgan terminallar soni 113 637 taga, o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni esa 1441 taga yetgan.

7-jadval

2013yilning 1-mart mart holatiga muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar to‘g‘risida ma’lumot[1]

Hududlar	Muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni	Shundan		YTT larning korporativ kartalari	O‘rnatilgan terminallar soni	O‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni
		Jismoniy shaxslarning plastik kartalari	Yuridik shaxslarning korporativ kartalari			
Toshkent shahri	2 021 154	2 001 727	15 738	3 689	24 237	616
Farg‘ona	885 249	883 667	1 035	547	10 644	127
Qashqadaryo	796 449	795 461	710	278	8 065	47
Qoraqalpog‘iston	784 333	783 402	660	271	5 831	47
Samarqand	703 255	701 625	915	715	9 134	107
Andijon	628 336	626 709	800	827	7 936	53
Buxoro	575 052	573 303	1 008	741	6 549	80
Namangan	543 867	542 970	550	347	6 388	76
Surxondaryo	540 216	539 424	442	350	5 384	61
Toshkent	533 636	530 302	1 757	1 577	10 094	56
Navoiy	463 120	460 592	653	1 875	5 753	72
Xorazm	413 072	411 925	850	297	5 795	47
Jizzax	331 894	330 665	701	528	4 570	25
Sirdaryo	284 521	284 127	334	60	3 257	27
Jami	9 504 154	9 465 899	26 153	12 102	113 637	1 441

Muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni bo‘yicha Toshkent shahri, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlar-

[1] Manba: www. cbu. uz

ga erishgan. O‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar soni bo‘yicha Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Farg‘ona hamda Samarqand viloyatlari peshqadamlik qilmoqda.

6-§. Noto‘lovlar muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘la hajmda bajarish iqtisodiyotning turli sohalari faoliyatining zarur shartidir. Korxona, tashkilot, banklar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar muammosi doimo dolzarb, shu bilan birga, hal etilishi qiyin bo‘lgan muammolardan biri bo‘lib qoladi. Chunki tovar jo‘natish yoki xizmat ko‘rsatish bilan unga pulni to‘lash vaqti bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Bu esa debetorlik va kreditorlik qarzlarini yuzaga keltirib chiqaradi. Bunday qarzlar o‘z vaqtida yopilmasa, uzaytirilgan debetorlik yoki noqonuniy qarzlar paydo bo‘ladi.

Ma’lumki, noqonuniy kreditorlik, shu bilan birga, muddati uzaytirilgan debetorlik qarzlari hajmining ortishi noto‘lovlar holatining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa shu mamlakat iqtisodining izchillik bilan rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va to‘sqinlik qiladi.

Kreditorlik qarzlari – bu birlashma, korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan vaqtincha jalb qilingan va muvofiq ravishda yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘laridir. Majburiyatlar va to‘lov muddatlari doirasidagi kreditorlik qarzlari qonuniy qarzlardir. Hisob-kitob va to‘lov tartiblari buzilganda, noqonuniy kreditorlik qarzlari vujudga keladi. U aylanma mablag‘lar rejadan tashqari taqsimlanganligini bildiradi. Xaridor va buyurtmachilarning o‘zaro majburiyatlarga nisbatan befarqlik bilan qarashlari va ular tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilinmasligi debetorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelishining asosiy sa-

babidir. Korxona balansida muddati o‘tgan qarzdorliklarning mavjudligi salbiy alomat bo‘lib hisoblanadi, chunki bu holda korxona balansining tarkibi yomonlashadi. Bunda jalb etilgan mablag‘larga ehtiyoj kuchayadi.

Ehtiyoj kam bo‘lgan, omborlarda me’yoridan ortiq to‘planib qoladigan, raqobatga bardosh bera olmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarish ham debetorlik va kreditorlik qarzlarining kelib chiqishiga olib keladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning me’yoridan ortiq miqdorda omborlarda yig‘ilib qolishi korxona aylanma mablag‘larining muzlab qolishiga, ko‘zlangan foyda miqdorining kamayishiga, natijada korxona moliyaviy ahvolining yomonlashuviga olib keladi. Bu esa noto‘lovlar muammosini keltirib chiqaradi. Noto‘lovlar muammosini keltirib chiqaruvchi ko‘plab omillarni keltirish mumkinki, ular qatoriga narx siyosati, soliq siyosati, me’yordan ortiq bo‘lgan inflatsiya darajasi va boshqalarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, o‘zaro qarzdorliklarni keltiruvchi asosiy sabablar quyidagilar hisoblanadi:

1) iqtisodiyotda to‘lov vositalarining yetarli emasligi;

2) hisob-kitoblar uchun eng qulay to‘lov vositalari sifatida hozirgi kunda amaliyotda ishlatilayotganlariga qo‘shimcha ravishda mamlakatimizda ayrim sabablarga ko‘ra bekor qilingan chek va veksellarning ishlatilmasligi;

3) korxona aylanma mablag‘larining inflatsiya sharoitida ma’lum miqdorda qadrsizlanishi.

4) mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilarining mahsuloti doimo xaridorgir bo‘lmaganligi sababli sotishning qiyinligi;

5) marketingning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

6) korxonalarni soliqqa tortish mexanizmining kamchiliklari mavjudligi oqibatida aylanma mablag‘larning yo‘qotilishi.

Bu sabablarni davom ettirish mumkin. Lekin asosiy masala – o‘zaro qarzdorliklarni to‘liq yo‘qotib bo‘lmaydi. Ammo ularning umumiy summasini qisqartirish mumkin.

Respublikamizda hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ham aynan mana shu qarzdorliklardir. Bu masala Vazirlar Mahkamasining majlislarida hamda respublika iqtisodiyotini isloh qilish bilan bog‘liq turli yig‘ilishlarida doimo ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiyotda hisob-kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkazish va qarzdorlik muammolari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan. 1996-yil 24-yanvardagi «To‘lov intizomini va o‘zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon talablarini bajarish maqsadida to‘lovlarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi va vakillik hisobvaraqlarining ahvoli ustidan doimiy nazorat o‘rnatishni ta’minlash xususidagi vazifalar belgilab berilgan. Tijorat banklariga belgilab berilgan bir qator vazifalar bilan birgalikda Markaziy bankning bosh boshqarmalariga tijorat banklarining joylardagi har bir boshqarmasi va bo‘limlarida yil davomida kamida 1 marta Davlat soliq boshqarmasi bilan kelishilgan, muvofiqlashtirilgan tekshiruvlar rejasiga muvofiq debetor-kreditor qarzlar yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish topshirilgan.

Tijorat banklari mijozlar bilan «Bank hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha shartnoma» tuzishda bir qator nyuanslarni e’tiborga olishlari lozimligi belgilab berilgan:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar har oyning 6-kunida ichki idoraviy o‘zaro qarzlarning summasini alohida qatorga ajratgan, barcha muddati o‘tgan kreditorlik va debetorlik qarzlarining yuzaga kelish sanasi va ularni undirib olish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni ko‘rsatgan holda operativ ma’lumotlarni taqdim etishi.

2. Har chorakda taqdim etilayotgan balans bilan birga 2-shakldagi «Debetorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma»ni taqdim etish to‘g‘risidagi band mavjud bo‘lishi shart.

Korxona va tashkilotlardan operativ, oylik va choraklik balans ma’lumotlari, muddati o‘tgan debetorlik qarzlariga solishtirish

dalolatnomalarining talab qilinishi, ma'lumotlar taqdim qilinayotgan mijozlarga nisbatan qanday choralar ko'rilayotganini, olingan ma'lumotlarning tahlil qilib o'rganilishini ko'rib chiqish lozim. To'lov hujjatlarida, ya'ni to'lov talabnoma, topshiriqnomalarida xo'jalik subyektlari tomonidan yuborilayotgan mahsulot haqining oldindan to'lanayotgan miqdori to'g'risidagi yozuv mavjudligi tekshirilishi kerak.

Xo'jalik organlarida debetorlik qarzlari holati bo'yicha o'tkazilgan tekshirish dalolatnomalarining sifatini ko'rish va tekshirishda aniqlangan qonunbuzarlik holatlari bo'yicha ko'rilgan choralarni o'rganib chiqishlari lozim.

Hozirgi kunda banklar tomonidan noto'lovlarni qisqartirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari filiallari tomonidan 2-kartotekadagi to'lov hujjatlari muntazam ravishda inventarizatsiya qilib boriladi va uning natijasida noto'g'ri qo'yilgan hisob-kitob hujjatlari aniqlanib, mijozlarga qaytarilmoqda.

Biz yuqorida banklar tomonidan debetor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish bo'yicha qanday tadbirlarni o'tkazilishi mumkinligini ko'rib chiqdik.

Lekin xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zlari ham bunday qarzlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muddati o'tgan qarzlarning oldini olish usullarining har birini puxta bilish bu borada amalga oshirilgan ishlarning samarali bo'lishi uchun yetarli emas, balki muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda biror usullarni tatbiq etish ketma-ketligini chuqur anglash lozim.

Sotuvchi va xaridor o'rtasida uzoq muddatli shartnomalarning va aloqalarning mavjud bo'lganligiga qaramay, sotuvchi, o'z navbatida, xaridorning to'lov qobiliyati, moliyaviy natijalari va umumiy

ahvoli haqida muntazam ravishda ma'lumotga ega bo'lishga intilishi lozim. Sotuvchi, o'z navbatida, xaridor bilan uzoq muddatli hamkorlikka tayyorligi va xaridorning muvaffaqiyatli rivojlanishi tarafdorligini bildirib turishi maqsadga muvofiq. Shunda xaridor ham sotuvchiga nisbatan do'stona munosabatda bo'ladi va sotib olingan tovarlar uchun to'lovlarni kechiktirishi mumkin bo'lgan sabablarni sotuvchidan yashirmaydi. Muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelishining oldini olishning eng maqbul va zamonaviy usullaridan biri – bu sotuvchi va xaridorning qarzdorlikni birga bartaraf etishni amalga oshirishidir.

Shunday qilib, yuzaki qaraganda qanchalik asossiz bo'lib tuyulsa ham, sotuvchi va xaridor orasidagi hamkorlik hamda do'stona munosabatlar muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etish va vujudga kelishining oldini olishdagi eng tezkor hamda samarali yo'l bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyatida uchraydigan hamma holatlarni hisobga olish qiyin. Shuning uchun quyida sanab o'tilgan muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelishining oldini olish va bartaraf etish usullari tadbirkorlarga mavjud muammoni hal etish borasidagi strategiyasini ishlab chiqishda qo'l keladi. Chunki kapitalning aylanish tezligini oshirish va xaridorlarning qarzdorligini kamaytirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy tamoyillari bo'lib hisoblanadi.

Ushbu muammoni atroflicha va sistematik ravishda ko'rib chiqish maqsadida xo'jalik faoliyatida uchraydigan barcha holatlarni katta bloklarga bo'lish mumkin:

I. Sotuvchi va xaridor orasida uzoq muddatli munosabatlarga asoslangan xo'jalik aloqalari (xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, ehtiyot qismlarni yetkazib berish).

II. Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar yetkazib berish va bajarilgan xizmatlarni bajarish uchun jismoniy shaxslar bilan tuzilgan yakka shartnomalar.

III. Yetkazib berilayotgan asbob-usukunalar, transport vositalari, hisoblash va boshqa texnikani xaridorlar asosiy fondlar sifatida ishlatish hollari.

Har bir bloklar bo‘yicha alohida vaziyatlarni ko‘rib chiqamiz.

A) *Sotuvchi va xaridorlar orasida uzoq muddatli kooperatsiyaga asoslangan xo‘jalik aloqalari (xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar, butlovchi qismlarni yetkazib berish).*

Ushbu holat uchun ikki tomonlama yaxshi aloqalar, sheriklarni bir-birini yaxshi bilishlari, o‘zaro ishonch va hamkorlik alomatlari xosdir. Bunda keyinchalik ham o‘zaro foydali hamkorlikni amalga oshirish hamda tovar oborotini ko‘paytirish maqsadida, avvalambor, sotuvchining manfaatini ko‘zlagan holda, xaridorlarga nisbatan oldindan to‘lash, bo‘nak to‘lovlari va hatto akkreditiv kabi to‘lov shakllari ishlatilishi tavsiya etilmaydi.

Quyida sotuvchi va xaridorning ushbu blokka kiritilgan vaziyatlardagi amalga oshiradigan tadbirlari sanab o‘tilgan:

1. Xaridorda ma`lum bir moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelganida, sotuvchi tomonidan tijorat krediti berilishi maqsadga muvofiq. Bu vaziyatda tijorat kreditining qo‘llanishiga sabab shuki, ikkala tomon vaziyatdan kelib chiqqan holda to‘lov muddati va summasini muvofiqlashtirishlariga imkoniyat tug‘iladi.

Tijorat krediti qo‘llanilganida, xaridor kredit hisobidan olingan tovarlardan (xom ashyodan) tayyorlangan o‘z mahsulotini sotishdan kelib tushgan tushum hisobiga o‘z moliyaviy ahvolini yaxshilab oladi, sotuvchi esa, o‘z navbatida, xaridorni yo‘qotmagan holda, kredit operatsiyasidan tushgan foizlar ko‘rinishidagi foydaga ham ega bo‘ladi.

2. Xom ashyo, yarim fabrikatlar hamda butlovchi qismlarni doimiy va bir maromda yetkazib turilishi holatida sotuvchi bank muassasasi bilan faktoring xizmatlarini ko‘rsatish haqidagi shartnoma imzolashi mumkin. Shunda ushbu muassasa qarzlarni undirish

majburiyatini o‘z bo‘yniga oladi. Tovarlar ortib jo‘natilishiga qarab o‘z mablag‘larini olib turadi. Hozirda banklararo vakillik aloqalarining mavjudligi, ayniqsa, agar faktoring xizmatlarini ko‘rsatayotgan bank muassasasi va qarzdor shaxsning banki orasidagi vakillik aloqalari mavjud bo‘lsa, bank muassasasi tomonidan qarzlarni undirish borasidagi imkoniyatlari ko‘proq. Ammo bu holda sotuvchi tashkilot faktoring xizmatlari haqini to‘lashga majbur bo‘ladi hamda korxona kapitalining aylanish tezligi oshganligi, debetorlk qarzdorlikni undirish xarajatlarining kamayishi, kredit olish ehtiyojining kamayishi va bank bilan muomala shakllarining osonlashuvidan keladigan foyda miqdori faktoring xizmatlari haqidan yuqori bo‘lgandagina o‘z samarasini beradi.

3. Yuqorida sanab o‘tilgan usullarning hammasi xaridor tomonidan muddati o‘tgan debetor qarzdorligi vujudga kelishining oldini olishda hamda xaridor tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarning mavjudligi holatlarida ham ma’lum muddatdan so‘ng to‘lovlarning amalga oshirilishi qo‘llanishi mumkin. Agar xaridor surunkali ravishda o‘z majburiyatlarni buzsa, u holda sotuvchi nufuzli va baquvvat moliyaviy muassasalarining to‘lovning amalga oshirilishini kafolatlovchi xatlarini talab qilishi mumkin.

B) *Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar yetkazib berish va bajarilgan xizmatlarni bajarish uchun tuzilgan yakka shartnomalar.*

Ushbu turdagi xo‘jalik aloqalarida sotuvchi va xaridor o‘zaro oldi-sotdi operatsiyalarini birinchi marotaba amalga oshiradilar, ayniqsa, bunday holatlar yangi tuzilgan tashkilotlarda kuzatiladi. Shuning uchun sotuvchi o‘z xaridori haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmaydi. Bunday holatlarda quyidagi ko‘rsatilgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Vaziyat: sotish hajmi kichik, xaridor sifatida jismoniy shaxs qatnashishi mumkin.

Bunday holatda hisob-kitob naqd pul yoki cheklar yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Biroq xaridorning kimligi noma'lum bo'lib, uning yana bir bor qaytib kelishi noma'lum va to'lov summasi unchalik katta bo'lmagan holatlarda u taqdim etayotgan cheklarning pul bilan ta'minlanganligi tekshirib ko'rilishi lozim. Buning uchun xaridordan unga xizmat ko'rsatuvchi bankdan og'zaki yoki yozma ravishda bankdagi hisob raqamida qancha pul mavjudligini bilish kifoyadir. Agar sotuvchi cheklar bilan hisob-kitob shaklini xush ko'rmasa, xaridordan naqd pul, kredit kartochkalari orqali hisob-kitob qilinishini talab qilishi lozim.

2. Vaziyat: ulgurji savdo.

Bunday hollarda faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshirilishi lozim. Xaridor haqida hech qanday ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda to'lov amalga oshirilishini yuz foizga kafolatlovchi akkreditiv to'lov shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq agar xaridorning to'lov majburiyatlari vaqtida amalga oshirmasligi haqidagi ma'lumot mavjud bo'lsa, bo'nak yoki oldindan to'lov shakllari ishlatilgani maqsadga muvofiq. Xaridor akkreditiv va oldindan to'lov shakllarini amalga oshirolmasligi va uning to'lov qobiliyati haqida yetarlicha ma'lumot mavjud bo'lmasa, sotuvchi xaridordan o'zgacha kafolatlarni talab qilish huquqiga ega. Aks hollarda, xaridorlarni va bozorni yo'qotish ehtimoli kattadir.

To'lov amalga oshirilishini kafolatlovchi quyidagi hujjat shakllari mavjud:

– mashhur, ulkan va ishonchli tashkilotlarning to'lov amalga oshirilishini kafolatlovchi xatlari;

– garov;

– kafillik.

Kerakli hollarda xaridor veksellardan foydalinishi mumkin, bu hollarda vekselni olgan shaxs ehtiyoj sezilganida vekselni dis-

kontlash asosida bankka o‘tkazish va tegishli pul mablag‘larini olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq agar bankning veksel bergan shaxsning to‘lov qobiliyatiga shubhasi bo‘lsa, bank vekselga avaliyatlarning imzosi qo‘yilishini talab qilishi mumkin. Shunday holat yuzaga kelmasligi uchun vekselni taqdim etayotgan shaxsdan vekselda avalistning imzosi mavjud bo‘lishi talabi qo‘yiladi.

Bunda boshqa variantlar ham mavjud: sotuvchi o‘z tovari evaziga olingan vekselni o‘z kreditorlari bilan hisob-kitob vositasi sifatida ishlatishi mumkin.

3. Vaziyat: xaridor to‘lov amalga oshirishda o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarmayapti.

Bu hollarda debetorlik qarzdorligini qisqartirish va bartaraf etish borasida quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

Birinchidan, xaridorga qarzdorlikni tijorat krediti sifatida rasmiylashtirishini taklif qilish mumkin, agar:

– xaridor kredit muddati mobaynida yetkazib berilgan va hali to‘lovi amalga oshirilmagan to‘lovlarni amalga oshirishga rozi bo‘lsa;

– xaridor yaqin vaqt oralig‘ida vaqtinchalik moliyaviy tang ahvolini bartaraf etishi va to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lishiga ishonch bo‘lsa.

Ikkinchidan, sotuvchining zudlik bilan pul mablag‘lariga ehtiyojini qondirish uchun qarzdorlikni diskontlab sotib yuborishi mumkin.

Ushbu qarzdorlikni sotib olayotgan shaxs qarzdorlikning uzilishiga ishonchi bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda, debetorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirishda har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning harakati va xohishi bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ma’lumki, Prezidentimiz «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarida

inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo‘limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar haqida to‘xtalib o‘tib, mazkur chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator asosiy vazifalarni belgilab berdi. Ushbu vazifalardan to‘rtinchisi – elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste’molini kamaytirish va energiyani tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish vazifasidir. Bu vazifani bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan elektr energiyasi ta’minoti tizimiga xususiy operatorlarni joriy qilish bo‘yicha amaliy tajriba o‘tkazildi. Tajribani o‘tkazishdan maqsad foydalanilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob tizimini takomillashtirish, iste’molchilar hisob-kitobini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda iste’mol davrida elektr energiyasi yo‘qotishlarini kamaytirishdan iborat edi.

Tajribani sinovdan o‘tkazish uchun Toshkent shahar Bektemir tumani misolida elektr energiyasini taqsimlash va sotish bo‘yicha xususiy operatorni jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Bunda xususiy operatorni tanlash bo‘yicha maxsus komissiyasi tuzilib, tarif siyosati va shartnoma loyihalari qat’iy kelishib olindi. Jumladan, xususiy operatorni tanlash shartlari sifatida quyidagilar belgilandi:

– tegishli biznes rejaning mavjud bo‘lishi;

– xo‘jalik yuritish faoliyati bo‘yicha kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo‘lishi;

– elektr energiyasini sotish faoliyati uchun kamida muayyan tumandagi elektr energiyani iste’mol qilishning 3 oylik miqdoriga teng moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishi;

– mavjud debitorlik qarzdorlikni undirishni o‘z zimmasi olishi;

– maksimal ballga ega bo‘lishi va shartnoma tuzishi;

– 30% miqdoridagi oldindan to‘lov hamda har oyning yakunidan

so‘ng 30 kun davomida yakuniy hisob-kitob hisobotlarini amalga oshirishi.

Demak barcha shartlar ichida debetor qarzdorliklarni kamaytirish masalasi ham alohida hisobga olingan. Tanlovda ko‘plab korxonalar ishtirok etgan bo‘lib, ushbu tanlovda g‘olib chiqqan xususiy operatorlardan biri – bu «Shosh Energo» korxonasi hisoblanadi.

Ushbu korxona elektr energiyasini sotish xizmatiga jalb qilinganidan so‘ng erishilgan iqtisodiy samara yuqori darajada bo‘ldi. Buni quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin:

8-jadval

«Shosh Energo» korxonasini elektr energiyasini sotish xizmatiga jalb qilish orqali erishilgan iqtisodiy samara[1]

Ko‘rsatkichlar	Tajribadan oldingi holat	Tajribadan keyingi holat	Natija, foizda
Mavjud debitorlik qarzlari, mln so‘m	3379,0	443,0	–86
Jismoniy shaxs bo‘lgan abonentlar soni	9883	10122	+ 2
Yuridik shaxs bo‘lgan abonentlar soni	326	426	+ 31
Elektr energiyasidagi yo‘qotish miqdori, foiz	36,4	15,6	–20,8 (mutlaq) –57 (nisbiy)

Jadvaldan ko‘rinadiki, elektr-energiyasi sotish xizmatining xususiy operatorga o‘tkazilishi natijasida mavjud debitorlik qarzlari 86% ga qisqargan.

Umuman, hozirgi kunda noto‘lovlar, eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu muammoni bartaraf etishning yagona yo‘li yo‘q.

[1] *Karimov I. A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009.

Noto‘lovlar, ya’ni debetorlik va kreditor qarzdorlikni umuman yo‘q qilish mumkin bo‘lmay, faqat ularni kamaytirish bo‘yicha har bir holatda alohida yo‘lni tanlash nafaqat alohida xo‘jaliklar, balki butun iqtisodiyot uchun foydalidir.

Nazorat savollari:

1. *Naqd pulsiz hisob-kitoblarning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?*
2. *Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillarini sanab chiqing?*
3. *Naqd pulsiz hisob-kitoblar Markaziy bankning qaysi me'yoriy hujjati asosida tashkil etiladi?*
4. *«Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish to‘g‘risida»gi Nizomning mazmuni nimalardan iborat?*
5. *Nima uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat bir necha marta qayta ishlangan?*
6. *To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?*
7. *To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning afzallik va kachiliklari nimadan iborat?*
8. *To‘lov topshiriqnomalarining ishlatilish sohalarini sanab o‘ting.*
9. *Akseptning mazmuni va turlarining tavsifini keltiring.*
10. *To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning afzallik va kamchiliklarini sanab o‘ting?*
11. *1- va 2-kartotekalarning mazmuni, ularning yuritilishi va bir-biridan farqini tushuntiring.*
12. *To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarni hujjatlar aylanishi chizmasi orqali tavsiflab bering.*
13. *To‘lov talabnomasi bo‘yicha operatsiyalar hisobining yuritilishi qanday tartibda amalga oshiriladi?*
14. *To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar hujjatlar aylanishi chizmasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?*
15. *Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarning mazmuni, kamchilik va afzalliklari nimalardan iborat?*
16. *Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarning hujjatlar aylanishi chizmasini ko‘rsating.*
17. *Inkasso topshirig‘i kim tomonidan va qanday hollarda bankka taqdim etiladi?*

18. *Inkasso topshirig'i bo'yicha hisob-kitoblarning xususiyatini tushuntiring.*
19. *Plastik kartochkalarning mazmuni, turlari va ularning milliy to'lov tizimida tutgan o'rni haqida gapirib bering.*
20. *Tijorat banklarida plastik kratochkalar orqali operatsiyalar qanday tartibda amalga oshiriladi?*
21. *Noto'lovlar muammosi deganda nimani tushunasiz?*
22. *Debetor hamda kreditor qarzdorliklar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar nimalardan iborat?*
23. *Debetor hamda kreditor qarzdorliklarni qisqartirish yo'llarini ko'rsatib bering.*
24. *Xo'jalik yurituvchi subyektlar debetor hamda kreditor qarzdorliklarni kamaytirish uchun qanday ishlarni amalga oshirishlari lozim?*

IV BOB

ELEKTRON TO‘LOV TIZIMI VA UNING BANKLARARO HISOB-KITOBLARNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI

Tayanch tushunchalar: *avizo, yakuniy banklararo oborotlar, boshlang‘ich banklararo oborotlar, hisob-kitob markazi, kliring markazi, elektron to‘lovlar, elektron pochta, elektron to‘lovlar tizimi, bosh axborotlash markazi, initsiator bank, benifitsiar bank, tranzit hisobvaraqlar, tranzaksiya, fayl, overdraft, elektron to‘lov hujjati, operatsiyalar kodi, bank kodi, unikal kod, elektron raqamli imzo, ochiq kalit, yopiq kalit, axborotlarning muhofazasi.*

1-§. Elektron to‘lovlar tizimining mazmuni, ahamiyati, uning O‘zbekistonda joriy etilishi va ishlash prinsiplari

Hozirgi kunda respublikamizda Markaziy bank boshchiligida juda ko‘plab filial va mini banklarga ega bo‘lgan keng tarmoqli tijorat banklari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. «2013-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari soni 29 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat, 13 tasi aksiyadorlik tijorat, 9 tasi xususiy va 4 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublika hududlarida banklarning 829 ta filiali faoliyat ko‘rsatmoqda»[1].

Bu ma’lumotlarni javdal holida yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin.

[1] www. cbu. uz

9-jadval

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari haqida ma’lumot

T/r	Tijorat banklarining mulkchilik shakli bo‘yicha turlari	Soni
1	Davlat tijorat banklari	3 ta
2	Aksiyadorlik tijorat banklari	13 ta
3	Xususiy banklar	9 ta
4	Chet el kapitali ishtirokidagi banklar	4 ta
5	Jami:	29 ta

Bu tijorat banklari va ular filiallarining har biri turli mulkchilik shakllariga tegishli bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalarga hamda yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlar va barcha jismoniy shaxslarga xizmat ko‘satadi. Banklar tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo‘lgan turli mulkchilik shakllaridagi korxona, tashkilot, muassasalar, tadbirkorlar, dehqon va fermer xo‘jaliklariga hamda aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonida banklararo munosabatlar vujudga keladi.

Chunki har doim ham ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir bank mijozi bo‘lavermaydilar. Banklararo munosabatlar banklararo hisob-kitoblar (oborotlar) orqali olib boriladi. Banklararo oborotlarning mazmuni shundan iboratki, bunda bir bank xizmatidan foydalanuvchi korxonaning hisobvarag‘idan boshqa bank xizmatidan foydalanuvchi korxonaning hisobvarag‘iga hujjatda ko‘rsatilgan summa buxgalteriya yozuvlari orqali o‘tkaziladi.

Shunday qilib, bir-biri bilan hisob-kitoblarni yurituvchi korxonalarning hisobvaraqlari turli banklarda ochilganligi ikkita bank o‘rtasidagi hisob-kitoblarni yuzaga keltiradi. Agar o‘zaro aloqada bo‘lgan korxonalarning har ikkisi bitta bank xizmatidan foydalansalar, u holda banklararo oborotlar vujudga kelmaydi. Unda pul o‘tkazish operatsiyalari bir bankning o‘zida amalga oshiriladi.

Operatsiyalarni boshlagan bankdagi oborotlar ***boshlang'ich bank oborotlari*** deyiladi. Operatsiyalar tugallangan bankdagi oborotlar ***yakuniy oborotlar*** deyiladi. Har bir boshlang'ich oborotga yakuniy oborot mos kelishi shart. Bu banklar o'rtasida operatsiyalar yakunlanganini bildiradi.

Mustaqillik yillarida yangi bank tizimi barpo etilishi munosabati bilan banklararo hisob-kitoblarga ham o'zgartishlar kiritildi, progressiv usullar izlab topildi, yangi dasturlar yaratildi va takomillashtirib borildi. 1995-yilda Markaziy bank tomonidan hisob-kitoblarni tezlashtirish maqsadida barcha hududiy markaziy bank boshqarmalari qoshida Hisob markazlari tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. 90-yillarning boshlarida tashkil etilgan kliring markazlari tugatildi. Pochta orqali jo'natiladigan ogohnomalar ham bekor qilindi. Yangi hisob-kitob tizimi – «elektron pochta» to'lov tizimi joriy etildi.

2002-yildan boshlab respublika bank tizimida yana katta o'zgarishlar bo'lib, banklararo hisob-kitoblar yagona vakillik hisobvarag'i asosida tashkil etila boshlandi. Hududiy Hisob-kitob markazlarining faoliyati tugatilib, faqat Toshkent shahar Hisob-kitob markazi faoliyati saqlab qolindi. Hozirgi kunda turli tipdagi banklar o'rtasidagi banklararo hisob-kitoblar aynan Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali amalga oshiriladi. Bir tipdagi bankka tegishli bo'lgan barcha operatsiyalar bosh bankning yagona vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tishi bilan bank tizimida bir qator o'zgarishlar bo'lib o'tdi: ikki pog'onali bank tizimi paydo bo'ldi. Tijorat banklarining shoxobchalari kengaytirildi. Bundan tashqari, turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi banklar o'rtasidagi munosabatlarning ko'payishiga olib keldi. Shu munosabatlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida tezkorlik bilan amalga oshirish uchun yangi avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish zarurati tug'ildi.

Ilgari pochta yoki telegraf orqali to'lov hujjatlari bir bankdan ikkinchi bankka jo'natilganda to'lovlar bir necha kunga, hatto 15–

20 kunga cho‘zilib ketar edi. To‘lov hujjatlarining boshqa manzilga kelib tushish holatlari, bundan tashqari, noqonuniy avizolarni jo‘natish hollari ham kuzatilar edi.

Respublikamiz mustaqqillikka erishganidan so‘ng milliy bank tizimining barpo etilishi munosabati bilan banklar o‘rtasidagi munosabatlar yuzasidan kelib chiqaligan banklararo hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish orqali banklararo hisob-kitoblarni tezlashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi.

Shuning uchun respublika to‘lov tizimini takomillashtirish masalasi hukumat darajasida ko‘rildi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yilning 18 martidagi «Bank tizimini rivojlantirish va pul muomalasini barqarorlashtirish chora tadbirlari haqida»gi 146- sonli Qarorida banklararo hisob-kitoblarni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalar belgilab berilgan edi. Ular quyidagilardir:

1) bank tizimini kompyuterlashtirish va bank kompyuter markazlarini joriy etish;

2) elektron pochta, ya’ni elektron to‘lovlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

3) hisob-kitob ishlarini avtomatizatsiyalashtirish;

4) noqonuniy hisob-kitob operatsiyalarini o‘tkazishning oldini olish;

5) noqonuniy avizo-ogohnomalarni rasmiylashtirishga yo‘l qo‘ymaslik;

6) pochta avizolarini bekor qilish.

Hisob-kitoblarni tezlashtirish. Ko‘pgina tijorat banklarida bankning hisob ishlarini mexanizatsiyalash darajasi juda past ekanligini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklararo hisob-kitoblarni elektron pochta tizimi orqali tashkil etishga qaror qildi. Elektron pochta orqali to‘lovlar tizimini texnik jihatdan o‘rnatishning uncha qimmat emasligi, qisqa muddatda tatbiq etilishi, kadrlarning tez muddatlarda o‘qitilishi yangi tizimning joriy etilishini tezlashtirdi. Dastlab tajriba o‘tkazildi.

1994-yilning iyul–oktabr oylarida Markaziy bank taklifiga asosan «Fido-biznes» firmasi tomonidan dastur ishlab chiqildi va shu yilning 1-oktabridan e'tiboran «Elektron pochta» tizimidan tajriba sifatida foydalanila boshlandi.

Tajriba davomida uni ishlatish bo‘yicha o‘zgarishlar kiritildi. Dastlab to‘lovlarni 2–4 kun ichida o‘tkazishga erishildi. Keyinchalik bu muddat qisqarib bordi va bir necha daqiqani tashkil etdi. Barcha tijorat banklari birin-ketin elektron to‘lovlar tizimiga ulana boshladilar.

Shunday qilib, hukumat qarori asosida ishlab chiqilgan yangi elektron to‘lovlar tizimi dasturiy ta’minoti 1995-yildan boshlab to‘liq respublika bank amaliyotiga tatbiq etildi.

Elektron to‘lovlar tizimi – bu umumdavlat tizimi bo‘lib, banklararo to‘lovlarni tashkil etadi va u qog‘ozsiz texnologiyalarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki elektron pochta vositalari orqali o‘tkazilishiga asoslangandir. Hozirgi kunda elektron to‘lovlar tizimi yuqori o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lib, to‘lovlarning respublika miqyosida bir necha daqiqa mobaynida o‘tishini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda elektron to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2006-yil 17-yanvardagi 1/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan 628-sonli «Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom (O‘zR AVdan 2006-yil 14 fevralda 1545-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.) asosida amalga oshiriladi.

Banklararo to‘lov tizimi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘larni tezkorlik bilan o‘tkazishni ta’minlash;

2) uzatilayotgan elektron to‘lov hujjatlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;

3) elektron to‘lovlarni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga rioya qilish;

4) banklarning vaqtincha pul resurslaridan samarali foydalanish.

5) tijorat banklari tomonidan amaldagi qonunchilikka va bank faoliyati me’yoriy hujjatlariga rioya qilinishi bo‘yicha Markaziy bankning nazorat va kuzatuv funksiyalarini bajarish;

6) ma’lumotlar bazasini yaratish.

Elektron to‘lovlarni o‘tkazishda initsiator va benifitsiar banklar ishtirok etadi. ***Initsiator bank*** – bu to‘lov operatsiyalarini boshlovchi bank, ***benifitsiar bank*** esa to‘lov operatsiyalarini yakunlovchi bankdir. Banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar elektron to‘lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Elektron to‘lov hujjati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan shaklda pul hisob-kitob hujjatlari asl nusxasi asosida yaratilgan «elektron» belgili hujjat bo‘lib, uning asosiy nusxasi hisoblanadi va asl nusxa kuchiga ega bo‘ladi. Elektron to‘lovlar tizimida uzatishga mo‘ljallangan hujjatlarning to‘g‘ri to‘ldirilganlishi uchun bank mijozi javobgar bo‘ladi. Hududiy axborotlashtirish Markaziga qayta ishlash uchun uzatiladigan elektron to‘lov hujjatlarini hisoblab o‘tkazish, hisobdan chiqarish va ularning elektron fayllari shakllantirilishi to‘g‘riligi uchun javobgarlik initsiator bankka, hududiy axborotlashtirish markazidan qabul qilinadigan to‘lov hujjatlari uchun javobgarlik esa benifitsiar bankka yuklatiladi.

Elektron to‘lov tizimi bir qator tamoyillar asosida faoliyat ko‘rsatib, ular quyidagilardir:

a) elektron to‘lov hujjatlarini biror belgi bo‘yicha qayta ishlash ustuvorliklari yo‘qligi hamda tizimda ishtirok etish uchun adolatli va oshkora ruxsat;

b) foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan qulayliligi va elektron to‘lovni amalga oshirish vositalarining iqtisodiy samaradorligi;

d) hisob-kitoblar bo‘yicha aniq majburiyatlar tizimini boshqarish samaradorligi;

e) tashabbuskor bank tomonidan elektron to‘lovlarni boshlash;

f) banklarning Markaziy bank Hisob-kitob markazidagi vakillik hisobvaraqlari hamda banklarda ularga tegishli hisobvaraqlardagi aylanmalar va qoldiqlar mos kelganda elektron to‘lovlarni amalga oshirish;

g) boshlangan elektron to‘lovni bekor qilish imkoniyati yo‘qligi;

h) yuqori darajadagi xavfsizligi, tezkorligi va ishonchliligi;

i) tashabbuskor bankning elektron raqamli imzosi bilan elektron to‘lov hujjatlari tasdiqlanganidan boshlab elektron to‘lovning chaqirib olinmasligi va mablag‘lar benefitsiar bank vakillik hisobvarag‘iga o‘tkazilgandan boshlab elektron to‘lovning yakuniyligi;

j) tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarida mablag‘lar vaqtinchalik yetarli bo‘lmaganida, boshlangan elektron to‘lovlarni o‘z vaqtida yakunlash va kun davomida tizimning likvidliligini qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va bank o‘rtasida tuzilgan alohida shartnoma asosida zarur bo‘lgan mablag‘larni yetkazib berish imkoniyati;

k) elektron to‘lov hujjatlar almashuvini «qabul qilish–nazorat–uzatish» texnologik davrlar ko‘rinishida tashkil etish;

l) jismoniy shaxslarga berilgan tijorat banklarining hisob-kitob cheklari bo‘yicha elektron to‘lovlardan tashqari, elektron to‘lovlarning summasi miqdori uchun qo‘yiladigan cheklashlarning yo‘qligi.

Elektron to‘lovlar ishtirokchilari *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Axborotlash markazlari va Hisob-kitob markazlaridir.*

Elektron to‘lovlar tizimidan foydalanuvchilar *Hisob-Kitob kassa markazlari va tijorat banklari hisoblanadi.*

Elektron to‘lovlar tizimi ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari tijorat banklari, Axborotlash markazlari va

Hisob-Kitob markazlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solib turiladi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish bosh markazi – amaldagi qonunchilik hamda Axborotlashtirish bosh markazi va banklar o‘rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to‘lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta’minlaydigan markazdir.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining hisob, hisobot va hisob-kitoblar boshqarmasi bo‘limi bo‘lib, uning vazifasiga tijorat banklarining bosh ofislariga vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko‘rsatish hamda ular o‘rtasida elektron to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash kiradi.

Har bir bank elektron to‘lovlar tizimiga qo‘shilishi uchun, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro‘yxatga olingan hamda BDMAB tomonidan unikal kod berilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ushbu bank elektron to‘lovlar tizimiga chiqish imkoniyatini beradigan tegishli dasturiy majmuaga ega bo‘lishi lozim. Shundan so‘ng bank elektron to‘lovlar tizimiga ulanguncha Axborotlashtirish bosh markazi xodimlari yordamida ma’lumotlarni qabul qilish, uzatish bo‘yicha bir necha sinov tajribalarini o‘tkazish yo‘li bilan bank tayyorgarligining haftalik tajriba tekshiruvi o‘tkaziladi. Bunday tajriba-tekshiruv ishlari ijobiy natija olguncha davom ettiriladi.

Tajriba tugagandan so‘ng hududiy axborotlashtirish markazida bankning elekron to‘lovlar tizimida ishlashga tayyor ekanligi to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi va bank elektron to‘lovlar tizimiga qo‘shiladi.

Shunday qilib, elektron to‘lov tizimi oddiy pochta-telegraf tizimidan butunlay farq qiladi. Buni elektron to‘lov tizimining qator afzalliklari orqali yaqqolroq ko‘rish mumkin. Elektron to‘lovlar tizimining ijobiy tomonlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

10-jadval

Elektron to‘lovlar tizimining ijobiy tomonlari

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	Elektron to‘lov tizimi	Pochta-telegraf tizimi
1	To‘lov muddati	Bir necha daqiqa	2–7 kun (ba’zan undan ko‘proq)
2	Ishlovchilar soni. Toshkent shahar HKM	7	20
3	Yillik balansning yopilishi	Joriy yilning 31-dekabr kuni	Kelasi yilning mart–aprel oylari
4	Noqonuniy o‘zlashtirishdan himoya	– tarmoq protokol himoyasi; – parol himoyasi; – uzatiladigan fayllarning shifrlanishi; – ishlovchi xodimlar malakasi	Xodimlar malakasi
5	Arxivlashtirish	Elektron arxivlashtirish	Papkadagi qog‘oz hujjatlar ko‘rinishidagi arxiv

Elektron to‘lov tizimining kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ularga kompyuter texnologiyasi va telekommunikatsiyalarni sotib olish uchun katta miqdordagi moliyaviy qo‘yilmalar talab etilishi va turli texnik muammolarning kelib chiqishini keltirish mumkin. Lekin moliyaviy qo‘yilmalar axborot uzatish tezligi va xavfsizligi hisobidan qoplanib ketadi.

2-§. Banklararo elektron to‘lov tizimiga ulanish tartibi

Tijorat banklari banklararo hisob-kitoblarni elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirishlari uchun, albatta, ushbu tizimga ulanishi lozim.

Banklararo to‘lov tizimiga ulanish uchta yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin:

a) bankning to‘lov (hisob-kitob) markazi ulanishi;

b) filialga ega bo‘lmagan banklarning ulanishi (bunda elektron to‘lovlar bankning amaliyot boshqarmasi orqali amalga oshiriladi);

d) bank filialining ulanishi.

Bankning to‘lov yoki hisob-kitob markazining banklararo to‘lov tizimiga ulanishi uchun bank to‘lov yoki hisob-kitob markazining nomi va manzilini ko‘rsatgan holda xat bilan Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamentiga murojaat qilinadi.

Xatga asosan Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamenti bankning to‘lov yoki hisob-kitob markazini ulash hamda uning filiallarining vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlarini o‘tkazish tartibini tayyorlaydi.

Filialga ega bo‘lmagan bankni yoki bank filialini banklararo to‘lov tizimiga ulash uchun ular qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro‘yxatga olingan, Bank depozitorlarining milliy axborot bazasida xos raqam (unikal kod)ga hamda banklararo to‘lov tizimiga chiqish imkoniyatini beradigan tegishli dasturiy majmuaga ega bo‘lishi kerak.

Filialga ega bo‘lmagan banklarning ulanish tartibi quyidagicha bo‘ladi:

– Markaziy bankning tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti va bank tomonidan bank faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bank litsenziyasini olganligi to‘g‘risida bankning to‘liq nomi va manzili ko‘rsatilgan holda xabar beradi;

– Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamenti yozma xabarnomasiga muvofiq, Axborotlashtirish bosh markazining Bank depozitorlarining milliy axborot bazasi bo‘limi tijorat banki uchun xos raqam va unga tegishli rekvizitlarni zaxiralaydi hamda bir vaqtning o‘zida bank va Markaziy bankning

to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamentiga bu haqda xabar beradi;

– bank xos raqam olganidan keyin, o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan Markaziy bankning ro‘yxatga olish markaziga elektron raqamli imzo kalitini olish uchun Axborotlashtirish bosh markaziga – Markaziy bankning hisob-kitoblar markazining serveriga kirish ruxsatini olish maqsadida autentifikatsiya ma’lumotlarini aniqlash uchun murojaat qiladi;

– Axborotlashtirish bosh markazi xodimlari yordamida bir qancha ETHlarining «qabul qilish–nazorat qilish–uzatish» texnologik almashuvini o‘tkazish yo‘li bilan bank tayyorligining sinov tekshiruvi o‘tkaziladi.

Sinov quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

a) bankning ma’lumotlari sinov majmuasidagi tegishli ma’lumotnoma (spravochnik)ga kiritiladi;

b) dastlab bank xodimlari bilan axborotlar almashuvini o‘tkazish bo‘yicha tushuntirish (instruktaj) o‘tkaziladi;

d) sinov majmuasidagi bankning vakillik hisobvarag‘iga bankning ishlashi uchun ustav fondi sifatida oldindan kelishilgan summa kiritiladi;

e) bank vakillik hisobvarag‘idagi qoldiqni tasdiqlash uchun axborotni va ETHlarini shakllantiradi hamda Axborotlashtirish bosh markaziga sinov tariqasida jo‘natadi, Axborotlashtirish bosh markazi shakllantirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshiradi;

f) Axborotlashtirish bosh markazi bank uchun vakillik hisobvarag‘ini tasdiqlash, ish tugashi va ETHlarning qayta ishlanganligi bo‘yicha axborotni shakllantiradi, bank esa ular bilan ishlay olishini tasdiqlashi kerak;

g) sinov bank tayyorligini tekshirish ijobiy natijalar olingunga qadar davom ettiriladi;

h) sinov tugaganidan keyin Axborotlashtirish bosh markazi bank bilan birgalikda bank holatining banklararo to‘lov tizimida ishlashga tayyor ekanligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi.

Markaziy bank tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamentining bankka litsenziya berilganligi, bankning banklararo to‘lov tizimida ishlashga tayyorligi to‘g‘risidagi Markaziy bank xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentining xabarnomalari hamda sinovning ijobiy natijasi to‘g‘risidagi Axborotlashtirish bosh markazining dalolatnomasiga, shuningdek, soliq to‘lovchining identifikatsion raqami ko‘rsatilgan Davlat soliq qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi asosida, Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamenti barcha banklarga bankning ochilganligi, unga Bank depozitorlarining milliy axborot bazasida xos raqam berilgani va banklararo to‘lov tizimiga ulanganligi to‘g‘risida rasmiy xabarnoma yuboradi.

Bank filiallari Markaziy bankning Hisob-kitob markazida hisobvaraqlar ochmasligini inobatga olib, banklararo to‘lov tizimiga filiallarni ulash bo‘yicha barcha tayyorgarlik ishlarini (filialning tayyorgarlik sinov tekshiruvi, elektron raqamli imzo kalitini yaratish) banklarning o‘zi olib boradi.

Filialga xos raqam zaxiralash uchun bank bevosita Axborotlash Bosh Markazining BDMAB bo‘limiga murojaat qiladi.

Filial uchun elektron raqamli imzo kalitlarini bankning ro‘yxatga olish markazi yaratadi. Bankning ro‘yxatga olish markazi mavjud bo‘lmagan taqdirda, bank filial uchun elektron raqamli imzo kalitlarini yaratish uchun Markaziy bankning ro‘yxatga olish markaziga murojaat qilishi mumkin.

Barcha ishlar tugatilgandan so‘ng, bank filialni banklararo to‘lov tizimiga ulash iltimosi bilan Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamentiga xat taqdim etadi. Unda bank filialining nomi, manzili, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami va bank statistik hisobotlarini berishda filialning hududiy tobeligi ko‘rsatiladi.

Ushbu xatga asosan Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamenti bank filiali uchun BDMABda xos raqam beradi, elektron ma’lumotnomasiga kiritadi va bank filiali ochilganligi hamda uni banklararo to‘lov tizimiga ulanganligi to‘g‘risida barcha banklarga rasmiy xabarnoma beradi.

Filialning banklararo to‘lov tizimida to‘g‘ri ishlashi bo‘yicha javobgarlik bank zimmasiga yuklatiladi.

3-§. Banklararo to‘lov tizimi faoliyat yuritishning buxgalteriya modeli

Har bir tijorat banki o‘zining banklararo munosabatlarini olib borish uchun Hisob-kitob markazida vakillik hisobvarag‘ini ochishi lozim.

Vakillik hisobvarag‘i – bu tijorat bankiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yoki boshqa tijorat banklarida banklararo hisob-kitoblarni yuritish uchun ochilgan hisobvaraqdir. Tijorat bankilari uchun quyidagi vakillik hisobvaraqlari ochilishi mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi milliy va chet el valutasidagi vakillik varag‘i;

– rezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari;

– norezident banklarning vakillik hisobvaraqlari.

Rezident tijorat banklari milliy va chet el valutasidagi vakillik varag‘ini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Hisob-kitob markazida ochadilar. Yangi tashkil etilayotgan bank ta’sischilari bank ro‘yxatga olinguncha ta’sis badallarini yig‘ish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yoki biror tijorat bankida vaqtinchalik 29801 – «Mijozlar bilan hisob-kitoblar» hisobvrag‘ini ochadi. Keyinchalik to‘plangan summa yangi ochilgan vakillik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Vakillik hisobvarag‘i ochilayotganda Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi o‘rtasida vakillik munosabatlari to‘g‘risida

shartnoma tuziladi. Tijorat banki vakillik hisobvarag‘i ochilishini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

– hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi ariza;

– soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma nusxasi;

– bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaning nusxasi;

– statistika idoralari tomonidan berilgan korxona va tashkilotning yagona Davlat ro‘yxatiga kiritilganligi to‘g‘risida guvohnoma nusxasi;

– imzolar va muhr izi tushirilgan varaqlarining notarial tasdiqlangan nusxasi.

Norezident banklar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yoki vakolatli tijorat banklarida vakillik hisobvaraqlarini ochish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

– norezident bankning to‘liq nomi va uni ro‘yxatdan o‘tkazgan davlatdagi yuridik manzili ko‘rsatilgan holda hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi ariza;

– imzolar va muhr izi tushirilgan varaqcha hamda mazkur davlatning Markaziy yoxud Milliy banki tomonidan berilgan litsenziya nusxasi;

– norezident bank tomonidan u ro‘yxatga olingan davlatda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar qo‘llanilishi to‘g‘risidagi axboroti.

Ushbu hujjat ilgari talab qilinmas edi. Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 3-noyabrda ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qaroriga binoan, yuqorida keltirilgan axborot vakillik hisobvarag‘ini ochish uchun talab qilinadi.

Vakillik hisobvarag‘i Markaziy bank farmoyishiga ko‘ra ochiladi. Vakillik hisobvaraqlari raqamini va bank kodini Bank De-

pozitorlari Milliy Axborot Bazasi (BDMAB) belgilaydi. Vakillik hisobvarag‘i ochish to‘g‘risidagi farmoyish tijorat banki hududiy boshqarmasi va bo‘limiga, uning nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Hisob-kitob markaziga jo‘natiladi.

Shunday qilib, bankning vakillik hisobvarag‘i – bu tijorat bankiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Hisob-kitob markazida ochilgan hisobvaraq bo‘lib, u banklararo hisob-kitoblarini o‘tkazishga mo‘jallangan. Ushbu hisobvaraq 21302 balans hisobvarag‘i bo‘yicha ochiladi. Tijorat banklarining filiallariga esa Bosh bankda banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun vakillik hisobvarag‘i 22204 balans hisobvarag‘i bo‘yicha ochiladi.

Markaziy bank Hisob-kitob markazida vakillik hisobvaraqlari quyidagi tamoyillarga rioya qilgan holda yuritiladi:

1) Markaziy bank Hisob-kitob markazida banklarning vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi. Elektron to‘lov hujjatining muvaffaqiyatli qayta ishlanganligi tasdiqlanishi bilan vakillik hisobvarag‘ida aks ettiriladi. Uzatiladigan elektron to‘lov hujjatlarida himoya qilish vositalari yordamida xatolar aniqlanganda yoki elektron to‘lov hujjatlarini qayta ishlash imkoniyati bo‘lmaganda, ular qaytariladi (faylni qayta ishlashda fayl butunlicha qaytariladi) va bu haqda elektron kvitansiya beriladi;

2) elektron to‘lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i doirasida amalga oshiriladi, agarda Markaziy bank Hisob-kitob markazi va bank o‘rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo‘lsa;

3) bank banklararo elektron to‘lovlar o‘tkazishga o‘zining Markaziy bank Hisob-kitob markazidagi vakillik hisobvarag‘i va bankdagi tegishli hisobvarag‘idagi aylanma va qoldiq summalarining muvofiqligini tahlil qilgandan keyingina kirishadi.

Banklararo to‘lov tizimida qo‘llaniladigan elektron to‘lov hujjatlarining tarkibi va tuzilishi:

1) banklararo to‘lov tizimida elektron to‘lov hujjatlari qo‘llaniladi;

2) har bir elektron to‘lov hujjati tashabbuskor bank tomonidan jo‘natish uchun tayyorlangan hujjatni va benefitsiar bankda elektron usul bilan olingan hujjatni identifikatsiya qilish uchun mo‘ljallangan tegishli kod, ya’ni operatsiya turi bilan belgilanishi kerak;

3) mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘tkazish maqsadida bankning mas’ul xodimi elektron to‘lov hujjati tayyorlashda pul hisob-kitob hujjatlarining barcha rekvizitlarini to‘g‘ri kiritishi kerak;

4) to‘lov topshiriqnomasini (operatsiya turi kodi – +01), to‘lov talabnomasini (operatsiya turi kodi – 02), memorial orderni (operatsiya turi kodi – 06) va inkasso topshiriqnomasini (operatsiya turi kodi – 11) kiritishda quyidagi rekvizitlar to‘g‘ri to‘ldirilishi kerak:

– hujjatning raqami;
– hujjatning sanasi;
– to‘lovchining nomi;
– to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘i raqami;
– soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
– to‘lovchi bankning kodi;
– to‘lovchi bankning nomi;
– hujjatning summasi (raqam bilan);
– oluvchining nomi;
– oluvchining shaxsiy hisobvarag‘i raqami;
– oluvchi bankning kodi;
– oluvchi bankning nomi;
– hujjatning summasi so‘z bilan (avtomatik tarzda) yoziladi;
– to‘lovning maqsadi.

To‘lov maqsadi quyidagi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi:

a) to‘lov nima uchun o‘tkazilayotganligi ko‘rsatiladi;

b) shartnoma, hisobvaraq, tovar-transport hujjatlari, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun hisob-kitob qilishda ishni qa-

bul qilish dalolatnomasi yoki ularning o‘rnini bosadigan hujjatlar, mahsulot kim orqali jo‘natilganligi to‘g‘risidagi ishonchnomaning raqami va sanasi ko‘rsatiladi. Ijro hujjatlari bo‘yicha inkasso topshiriqnomasida undirib olish uchun asos bo‘layotgan ijro hujjatining raqami, sanasi va nomi ko‘rsatiladi.

Qonunchilikka muvofiq, ayrim to‘lovchilarga «to‘lov maqsadi» rekvizitida nima maqsadda to‘lov o‘tkazilayotganligi to‘g‘risida ma’lumot ko‘rsatilmasligi mumkin.

5) Akkreditiv uchun ariza (operatsiya turi kodi – 05)ni kiritishda quyidagi rekvizitlar to‘g‘ri to‘ldirilishi kerak:

– akkreditiv raqami;
– akkreditivni yozish sanasi;
– to‘lovchining nomi;
– to‘lovchining hisobvaraq raqami;
– soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
– emitent bankning nomi;
– emitent bank (tashabbuskor bank)ning kodi,
– akkreditiv summasi raqam bilan;
– yetkazib beruvchining nomi;
– yetkazib beruvchining hisobvarag‘i raqami;
– akkreditivni ijro etuvchi bankning nomi;
– akkreditivni ijro etuvchi bank (benefitsiar bank)ning kodi;
– akkreditiv summasi so‘z bilan (avtomatik tarzda) yoziladi;
– akkreditiv muddati.

Akkreditiv shartlari:

a) akkreditiv turi;

b) tovar (mahsulot), xizmatning nomi;

d) akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun asos bo‘ladigan hujjatning nomi;

Markaziy bank Hisob-kitob markazi tomonidan bankning vakillik hisobvarag‘i debetiga yoki kreditiga mablag‘ xato o‘tkazilganda, Markaziy bank Hisob-kitob markazining amaliyot kuni davomida

bankka xato o‘tkazilgan to‘lovlar to‘g‘risida xabarnoma jo‘natishi kerak. Bank, Markaziy bank Hisob-kitob markazidan xabarnomani olganda, darhol shu amaliyot kunining o‘zidayoq vakillik hisobvaraqqa xato o‘tkazilgan mablag‘larni qaytarishni amalga oshirishi kerak.

Tashabbuskor bankning aybi bilan elektron to‘lov noto‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirda, u benefitsiar bankka xato o‘tkazilgan to‘lov to‘g‘risidagi ma’lumotni ko‘rsatgan holda, xato o‘tkazilgan mablag‘ni qaytarish to‘g‘risida xabarnoma jo‘natadi. Bu holda, xato o‘tkazilgan mablag‘ni qaytarilmasligidan qat’i nazar, tashabbuskor bank mablag‘ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart.

Quyida elektron hujjatlar uzatish, qayta ishlash grafigi bilan tanishtiramiz:

Soat 8:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan vaqtda banklar vakillik hisobvarag‘ining oldingi kun nihoyasidagi holati to‘g‘risida ma’lumot uzatadilar. Olingan ma’lumotlar Axborotlashtirish bosh markazida banklarning vakillik hisobvaraqlari qoldig‘i va aylanmalarining banklardagi tegishli hisobvaraqlari bilan muvofiqligi nazoratidan o‘tadi va bu haqda bankka elektron kvitansiya uzatiladi. Bir xil bo‘lgan holda, bank ishlashga tushadi, mos kelmasa, bank ularning sababini aniqlaydi va bartaraf etadi.

Agar bank fors-major holatlari bo‘yicha bir yoki bir necha kun ishlamagan bo‘lsa, u Axborotlashtirish bosh markazi bilan ishni boshlashdan oldin, o‘tgan qayta ishlanmagan kunlarda to‘planib qolgan barcha elektron to‘lov hujjatlarni qabul qilishi va qayta ishlashi, joriy kunning boshida vakillik hisobvarag‘ining holatini aniqlashi va faqat shundan keyingina ishni boshlashi shart.

Soat 9:00 dan 16:00 gacha banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha elektron to‘lov hujjatlarni uzatish–qabul qilish–nazorat qilish vaqti:

1) banklar mazkur davrning har qanday vaqtida Markaziy bank Hisob-kitob markaziga elektron to‘lov hujjatlarini uzatishlari mumkin;

2) jo‘natishga mo‘ljallangan elektron to‘lov hujjati nazoratdan o‘tadi, bankning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, shifrlanadi va bank telekommunikatsiya tarmog‘i bo‘yicha Markaziy bank Hisob-kitob markaziga bundan keyingi qayta ishlashlar uchun uzatiladi.

Soat 17:00 gacha Respublika budjeti hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tegishli hisobvaraqlariga mablag‘larni o‘tkazish bo‘yicha elektron to‘lov hujjatlarini uzatish amalga oshiriladi. Bunda soat 16:30 gacha tijorat banklari o‘rtasidagi, soat 17:00 gacha esa tijorat banklaridan Markaziy bank hamda Xalq bankiga, shuningdek, Markaziy bankdan yuborilgan elektron to‘lov hujjatlarining qayta ishlanishi yakunlanadi.

Soat 17:00 dan Axborotlashtirish bosh markazi banklarga kunning yakunlanishi va yaroqsiz (brak) deb topilgan elektron to‘lov hujjatlari to‘g‘risida (tashabbuskor bank va benefitsiar bank bo‘yicha) xabarnoma jo‘natadi.

Shundan keyin Axborotlashtirish bosh markazida «Kunning yakunlanishi» bosqichi amalga oshiriladi. Markaziy bank Hisob-kitob markazida quyidagilar «Kunning yakunlanishi» bosqichi bajarilishining shartlari hisoblanadi:

a) banklardan elektron to‘lov hujjatini qabul qilish vaqtining tugashi;

b) Markaziy bank Hisob-kitob markaziga uzatilgan barcha elektron to‘lov hujjati qayta ishlangan va banklarning tegishli vakillik hisobvaraqlarida aks ettirilgan bo‘lishi kerak.

Banklarda «Kunning yakunlanishi» bosqichining vaqti bankning ichki to‘lov tizimi qoidalariga muvofiq mustaqil ravishda belgilanadi.

«Kunning yakunlanishi» bosqichi chiqish shakllarini chiqarish, ma’lumotlarni arxivatsiyalash va tizimni navbatdagi kunning boshlanishiga tayyorlash bilan birgalikda boradi.

4-§. Banklararo to‘lov tizimi orqali ma’lumotlarni uzatishning texnologik jarayoni

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Hisob-kitob markazi – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki buxgalteriya hisobi va hisob-kitoblar boshqarmasining bo‘limi bo‘lib, uning funksiyasiga banklarning vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish va banklararo hisob-kitoblarning uzliksizligini ta’minlash kiradi.

Hisob-kitob markazi elektron to‘lov tizimiga ulangan tijorat banklari bilan belgilangan vaqt davomida alohida tarmoq orqali axborot almashish tartibida ish olib boradi. Elektron to‘lov tizimi bo‘yicha ish kuni boshlanishidan banklarning ichki va tashqi vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlari va oborotlari qiymatining mosligi tahlil qilingandan so‘ng banklarga tizimda ishlashga ruxsat etiladi. Fayllarni qabul qilish, qayta ishlash, nazorat qilish va jo‘natish avtomatik rejimda seanslar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Banklardan kelgan har bir elektron fayl bir daqiqa interval bilan qayta ishlab turiladi. Kelgan har bir fayl ichki nazoratdan o‘tkaziladi. Tekshiruvdan muvaffaqiyatli o‘tgan fayl hisob-kitoblar markazida qayta ishlashga ruxsat etiladi. Kelib tushgan to‘lov turiga qarab, Hisob-kitob markazida buxgalteriya provodkalari amalga oshiriladi. Lekin tekshiruv jarayonida biror-bir yozuvida xato chiqsa ham, fayl to‘lig‘icha bankka qaytariladi.

Ilgari Hisob-kitob markazida banklararo oborotlarni o‘tkazish uchun bir qator hisob varaqlar yuritilar edi. 2003-yil sentabr oyidan boshlab turli tipdagi bosh banklar o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblar Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali o‘tkazila boshlandi, boshqa viloyatlardagi hisob-kitob markazlarining faoliyati to‘xtatildi. Bir bankka qarashli filiallar o‘rtasidagi hisob-kitoblar Bosh bank tomonidan tashkil etila boshladi. Biz turli tipdagi banklar

o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazish tartibi bilan tanishib chiqamiz.

Bosh banklar o‘rtasida banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazish uchun Markaziy bank qoshida ochilgan Toshkent shahar Hisob-kitob markazida 27416 balans hisobvarag‘i ajratilgan. Tijorat banklaridan elektron hujjatlarni qabul qilib olgan Hisob-kitob markazi ularni banklar bo‘yicha saralaydi. Bu hujjatlarning o‘zi alohida debet va kredit hujjatlariga bo‘linadi. Shundan keyin, debet hujjatlari bo‘yicha alohida, kredit hujjatlari bo‘yicha alohida buxgalteriya yozuvlari o‘tkaziladi. Debet hujjatlari bo‘yicha dastlab quyidagi provodka o‘tkaziladi:

– debet 27416 – «Banklararo hisob-kitoblar»;

– kredit 21302 – «Tijorat bankining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i» TBA;

Bir vaqtning o‘zida quyidagi javob provodkassi o‘tkaziladi:

– debet 21302 – «Tijorat bankining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i» TBB;

– kredit 27416 – «Banklararo hisob-kitoblar».

Bu ikki yozuv orqali 27416- hisobvarag‘ining tranzit hisobvaraq ekanligi va bir vaqtning o‘zida yopilishini ko‘rish mumkin.

Hisob-kitob markazlariga tijorat banklariga tushadigan hujjatlarning asosiy qismi kredit hujjatlaridir. Kredit hujjatlari bo‘yicha ham Hisob-kitob markazlarida buxgalteriya yozuvlari o‘tkaziladi.

Bosh bank o‘z filiallaridan kelgan elektron to‘lovlarni qayta ishlab, o‘zining yagona vakillik hisobvarag‘i orqali Toshkent shahar Hisob-kitob markaziga modem aloqasi orqali jo‘natadi. Bu operatsiya bo‘yicha Bosh bankda quyidagi buxgalteriya amallari bajariladi:

– debet 22204 – «Filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan hisobvaraqlar» A filial;

– kredit 10301 – «Bosh bankning vakillik hisobvarag‘i» A bank.

Hisob-kitob markazi bir tijorat bankining vakillik hisobvarag‘ida pul mablag‘larining kamayishi bo‘yicha ushbu buxgalteriya yozuvini bajaradi:

– debet 21302 TB «A»;

– kredit 27416.

Ikkinchi tijorat bankining vakillik hisobvarag‘ida pul mablag‘larining ko‘payishi bo‘yicha provodka quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

– debet 27416;

– kredit 21302 TB «B».

Tijorat banklarining vakillik hisobvarag‘idan mablag‘larni hisobdan chiqarish va bu vakillik hisobvarag‘iga mablag‘larni o‘tkazish har bir kelib tushgan yozuvni qayta ishlash jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshiriladi, shuning uchun barcha to‘lov hujjatlari bir vaqtning o‘zida 27416-hisobvarag‘ining ham debeti, ham krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

Bu hol har bir operatsiya bo‘yicha va mos ravishda kun yakunlari bo‘yicha 27416-hisobvarag‘ining avtomatik ravishda yopilishiga olib keladi, 27416-hisob raqamining 0 ga yopilishi tijorat banklari o‘rtasida hisob-kitoblarning muvaffaqiyatli yakunlanganligini ko‘rsatadi.

Turli tipdagi bosh tijorat banklarining vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha chiqariladigan ko‘chirmalari 27416-shaxsiy hisobvaraqda va o‘tkazmalar jurnalida aks ettiriladi.

Hisob-kitob markazidan elektron to‘lov mablag‘i oluvchi Bosh bankka o‘tkaziladi. Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha elektron to‘lov Bosh bankka kelib tushganda dasturiy yo‘l bilan quyidagi yozuvlar bajariladi:

– debet 22204 – «Filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan hisobvaraqlar» B filial;

– kredit 10301 – «Bosh bankning vakillik hisobvarag‘i» B bank.

Respublikamizda to‘lov tizimi yil sayin, takomillashib bormoqda. Bu esa banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazish texnologiyalariga qator o‘zgartishlarni kiritilishini taqozo qilmoqda. Banklararo hisob-kitoblar ham mazmunan, ham sifat jihatidan avvalgi yillarga nisbatan o‘zgarmoqda.

Barcha hisob-kitoblar banklar orqali o‘tkaziladi. Pul o‘tkazuvchi va pul oluvchi tomonlar bir bankning mijozlari bo‘lib, ular o‘rtasidagi hisob-kitoblar bir bankda boshlanib, shu bankning o‘zida yakunlanadi, ya’ni bir korxona hisobvarag‘idan pul mablag‘lari summasi kamayib, ushbu summa ikkinchi korxona hisobvarag‘iga o‘tkazib qo‘yiladi.

Hisob-kitoblar ko‘pincha bir bankdan tashqariga ham chiqishi mumkin. Bu hollarda hisob-kitoblar bir bank tizimi ichida bo‘lishi mumkin, masalan, faqat «O‘zsanoatqurilishbank» ichida. Bunday holda, «Sanoatqurilishbank»ning biror filiali ushbu bankning boshqa filiali bilan hisob-kitoblarni o‘tkazadi.

Shu bilan birga, turli banklar o‘rtasida ham hisob-kitoblar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, «O‘zsanoatqurilishbank» bilan «Agrobank» OATB o‘rtasida banklararo hisob-kitoblar o‘tkaziladi. Bu holda pul to‘lovchi korxona «O‘zsanoatqurilishbank»ning mijozi bo‘lsa, pul oluvchi korxona esa «Agrobank»ning mijozi bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi hisob-kitoblar «O‘zsanoatqurilishbank» va «Agrobank» orqali amalaga oshiriladi.

Shunday qilib, barcha hisob-kitoblarni 3 guruhga bo‘lishimiz mumkin.


1. Bir bank filiali ichidagi hisob-kitoblar.
2. Bir bank ichidagi filiallararo hisob-kitoblar.
3. Turli banklar o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblar.

Bu uch guruh hisob-kitoblarda to‘lovlarni o‘tkazish texnologiyasi turlicha bo‘lib, ularning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

A) *Bir bankning mijozlari bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni o‘tkazish texnologiyasi.*

Bir bankning mijozlari o‘rtasidagi hisob-kitoblar shu bankning o‘zida o‘tkaziladi. Bu holda banklararo hisob-kitoblar vujudga kelmaydi. Buni quyidagi chizma orqali yaqqolroq ko‘rish mumkin.

8-chizma



Ushbu chizmaga quyidagicha izoh beramiz: to‘lovchi va oluvchi o‘rtasida shartnoma imzolangandan so‘ng, to‘lovchi o‘z bankiga topshiriqnoma topshiradi. Bank topshiriqnomaga asosan to‘lovchining hisobvarag‘idan pulni o‘tkazadi va bu haqda sotuvchi va to‘lovchiga shaxsiy hisobvaraqdan ko‘chirma beradi. Sotuvchi to‘lovchiga mahsulot jo‘natadi. Shunday qilib, hisob-kitoblar tez va oson yakunlanadi.

Endi bir bank tizimidagi filiallararo hisob-kitoblarni ko‘rib chiqamiz.

B) *Bir bankka tegishli filiallar o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblar.*

Bir bank filiallari o‘rtasida hisob-kitoblar debet hujjatlari bo‘yicha alohida, kredit hujjatlari bo‘yicha alohida buxgalteriya provodkalari yordamida bajariladi. Pul mablag‘larini o‘tkazish, avvalo, to‘lovchi

bank filialida amalga oshiriladi. Bunda to‘lovchi korxona hisobvarag‘idan mablag‘lar hisob-kitob hujjatida ko‘rsatilgan summaga kamaytiriladi. Ushbu bankdan pul mablag‘lari chiqib ketayotganligi sababli, bank filialining banklararo hisob-kitoblar hisobvarag‘i ham kamaytiriladi. Bu operatsiya quyidagi buxgalteriya provodkasi yordamida ifodalanadi:

– debet 20200 – to‘lovchi mijozning hisobvarag‘i;

– kredit 16103 – banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha olinadigan hisobvaraqlar.

Bosh bank axborotni qabul qilgach dasturiy yo‘l bilan filiallar o‘rtasida mablag‘larni o‘tkazish bo‘yicha buxgalteriya provodkalarini bajaradi, ya’ni bir bank filialining vakillik hisobvarag‘idan ikkinchi bank filialining hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkaziladi. Bu operatsiya quyidagi buxgalteriya provodkasi orqali bajariladi:

– debet 22204 «A» filiali;

– kredit 22204 «B» filiali.

Bu provodka initsator bank hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari benifitsiar bankning hisobvarag‘iga o‘tkazilganini bildiradi.

Benifitsiar bank Bosh bankdan o‘ziga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini qabul qilganda, dasturiy yo‘l bilan quyidagi buxgalteriya provodkasini bajaradi:

– debet 16103 – «Banklararo hisob-kitoblar» bo‘yicha olinadigan hisobvaraqlar;


– kredit 20200 – pulni oluvchi korxonaning talab qilingunga saqlanadigan depozit hisobvarag‘i.

Yuqoridagilarni quyidagi 9-chizma orqali yaqqolroq ko‘rish mumkin.

To‘lovlarni o‘tkazish va qayta ishlash avtomatik tarzda bajariladi. Bosh bank filiallarning hisobvaraqlarida pul mablag‘larining yetarliligini nazorat qiladi, mablag‘lar yetmaganda mablag‘ bilan ta’minlash usullarini ishlab chiqadi.

9-chizma

Bir bankning turli filiallari mijozlari o‘rtasidagi hisob-kitoblarning o‘tish texnologiyasi



D) *Turli banklar o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblar.*

Amaliyotda ko‘p hollarda ikki turli banklarning mijozlari bir-birlari bilan xo‘jalik munosabatlarini o‘rnatadilar bu esa ushbu banklar o‘rtasidagi banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazishda bank tipi va bank kodiga alohida e’tibor beriladi.

Bosh bank elektron to‘lovlarni qayta ishlab, yagona vakillik hisobvarag‘i orqali benifitsiar bankka jo‘natadi. Bosh bankda bu operatsiyalar dasturiy yo‘l bilan quyidagi provodka bilan ifodalanadi:

– debet 22204 – filiallarga, filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan hisobvaraqlar;

– kredit 10301 – Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i.

Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha elektron to‘lovlar kelib tushganda, to‘lovni oluvchi Bosh bankda dasturiy yo‘l bilan ushbu provodka bajariladi:

– debet 10301;

– kredit 22204.

Filiallar banklararo operatsiyalar bo‘yicha elektron to‘lovlar kelib tushganda, dasturiy yo‘l bilan mijozning hisobvarag‘iga mablag‘ni tushirish bo‘yicha quyidagi provodkani bajaradi:

– debet 16103;


– kredit 20200 – pul oluvchi mijozning hisobvarag‘i.

Bosh bankda kliring natijalari bo‘yicha yakunlash operatsiyalari avtomatik tarzda o‘tkaziladi. Yagona balansga o‘tganda 16103- va 22204-hisobvaraqlar o‘zaro yopiladi.

Turli banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali bajariladi. Bu operatsiyalarni quyidagi chizma orqali ko‘rish mumkin:

10-chizma

Banklararo hisob-kitoblarning o‘tish texnologiyasi




Yuqoridagi chizmada turli banklarning mijozlari o‘rtasidagi hisob-kitoblarning 2 ta Bosh bank, ya’ni «O‘zsanoatqurilishbank» hamda «Agrobank» orqali o‘tish tartibi ko‘rsatilgan. Agar banklararo hisoyub-kitoblardagi Axborotlash markazlarining ishtirokini

ham kiritadigan bo‘lsak, buni chizma tarzda quyidagicha ifodalash mumkin

11-chizma

Hisob-kitob markazi orqali banklararo hisob-kitoblarni o‘tkazish cxemasi



Turli banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali tashkil etiladi.

5-§. O‘zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilishni tashkil etish

Bank axborotlari biror-bir bank operatsiyasi yuzasidan elektron ko‘rinishda bir bank tomonidan ikkinchi bankka o‘tkaziladi. Boshqacha qilib aytganda, hisob-kitoblar elektron to‘lov tizimi bo‘yicha doimiy ravishda bir bank vakillik hisobvarag‘idan ikkinchi bank vakillik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi, ya’ni bir bank mijozining pul mablag‘lari kamayib, ushbu summa boshqa bank mijozining hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.Bunday pul o‘tkazish elektron axborot ko‘rinishida bo‘lib, maxsus dastur yordamida aloqa kanallari orqali bajariladi.

Hozirgi kunda mana shunday elektron axborotlar muhofazasi eng dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda ham bank elektron axborotlarini muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor beriladi. Elektron axborotlar muhofazasini ta’minlash maqsadida «Elektron imzo to‘g‘risida»gi Qonun ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Shuningdek, bank elektron axborotlarining muhofazasini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi hududida banklarda elektron axborotlarni muhofazalashni tashkil etish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Bank muassasalarida elektron to‘lov tizimi orqali qabul qilinadigan va uzatiladigan axborotlar bilan ishlash uchun ruxsat quyidagi shaxslarga beriladi:

a) bank rahbari bilan amaldagi mehnat shartnomasiga muvofiq to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida yozma shartnoma tuzilgan xodimga;

b) bosh buxgalterga;

d) bosh buxgalter bo‘lmagan hollarda, uning o‘rinbosariga.

Ushbu yo‘riqnoma banklar o‘rtasida elektron to‘lov tizimi orqali o‘tadigan axborotlarni muhofazalashning asosiy yo‘nalishlari va ularni joriy etish tartibini belgilab beradi. Mazkur yo‘riqnomaga banklarda elektron to‘lov tizimida hisoblash texnika vositalari bilan hujjatlarni tayyorlashda rioya etilishi shart.

Hisoblash texnika vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan shaxslar hamda hisoblash texnika vositalaridan foydalanuvchilar «O‘zbekiston Respublikasi hududida banklarda elektron axborotlarni muhofazalashni tashkil etish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma, texnik vositalarni ishlatish bo‘yicha yo‘riqnomalar, shuningdek, axborotlarni muhofaza qilish tartibini belgilovchi boshqa me’yoriy hujjatlarni o‘rganib chiqqach, ularning bilimi tekshirib ko‘rilgandan keyingina ishga qo‘yiladi.

Hisoblash texnika vositalari shovqindan to‘silgan, tashqaridan begonalarning kuzatishi mumkin bo‘lmagan, ishonchli himoyalangan xonalarga o‘rnatiladi. Ushbu xonalar quyidagi jihozlanish talablariga javob berishi shart:

a) mustahkam devorlar va ishonchli to‘siqlarga ega bo‘lishi;

b) maxsus kodli qulflar yoki boshqa ishonchli qulflar o‘rnatilgan mustahkam eshiklar bilan jihozlanishi;

d) derazalar xonaga kirishdan himoya qilish vositalariga ega bo‘lishi, shuningdek, begona shaxslarning ko‘z yoki maxsus qurilmalar bilan kuzatishidan himoya qiluvchi deraza pardalari, zarur hollarda, ichki ishlar organlari qo‘riqlash bo‘linmalari bilan bog‘langan ogohlantirish qurilmalari bilan jihozlangan bo‘lishi;

e) yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishi.

Hisoblash texnika vositalari o‘rnatilgan xonalarga radio nuqtalar, elektr soatlar va boshqa kam quvvatli qurilmalarni o‘rnatish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Hisoblash texnika vositalari o‘rnatiladigan xonalar axborotni ishonchli muhofazalash zarurligini hisobga olgan holda tanlanishi lozim. Texnologik aloqa uchastkalari bir-biridan ajratiladi. Har bir

xonada faqat unga kirish huquqiga ega bo‘lgan kishilargina ishlashlari zarur.

Bank siri ma’lumotlari yozilgan tashqi magnit tashuvchilarni (disketlar, CD disklari, strimmer lentalari va h.k.) saqlashga mo‘ljallangan xonalar esa maxsus metall shkaflar yoki seyflar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Ish faoliyati hisoblash texnika vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan rahbarlar tegishli mutaxassislar va yuridik xizmat xodimlari bilan birgalikda quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlashlari zarur:

a) tegishli bankka yoki uning bo‘linmasiga taalluqli bo‘lgan bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar ro‘yxatini aniqlash;

b) zarur hollarda, yetkazilgan zararni qoplash maqsadida qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda, ko‘rsatilgan axborotlarga ega bo‘lgan har bir xodim bilan bank siri va boshqa xizmat ma’lumotlarini sir saqlash bo‘yicha majburiyatnomani imzolash;

d) bank siri axborotlari hisoblash texnika vositalaridan chiqib ketishi, bunday ma’lumotlar oshkor qilinishining hamda hisoblash texnika vositalarilarning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishining oldini olish, qo‘shimcha nurlanish va kuzatishlar bo‘lmasligi choralarini ko‘rish;

e) hisoblash texnika vositalarida ishlaydigan shaxslar sonini cheklash choralarini ko‘rish, bank siri axborotlaridan foydalanish uchun belgilangan tartibga rioya qilish;

f) hisoblash texnika vositalarini «virus»lardan himoya qilish maqsadida kompyuter tashkil etuvchi qismlarni va dasturlarni ruxsatsiz o‘zgartirishga, ekspert tasdig‘idan o‘tmagan va foydalanishga tavsiya etilmagan dasturlarni, shuningdek, kompyuter o‘yinlarini o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslik;

g) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisoblash texnika vositalarilarini ishlatish jarayonida axborotlarni muhofazalash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilishni nazorat qilish;

h) muntazam ravishda xodimlarning malakasini oshirish tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Bunday tadbirlar har bir bankda elektron axborotlarni ta'minlashga yordam beradi.

6-§. Axborotlarni muhofaza qilishda elektron imzo va shifratsiya kalitlaridan foydalanish tartibi

Axborotlarni muhofaza qilishda elektron imzo va shifratsiya kalitlari alohida o'rin tutadi. Elektron imzo va shifratsiya kalitlari yopiq turdagi elektron axborotlarning asliga to'g'riligini va tashqi muhit ta'siridan muhofazalash maqsadida qo'llaniladi. Bankning bosh buxgalterida elektron imzo, elektron shifratsiya kaliti yoki boshqa turdagi maxsus qurilma bo'lishi kerak. Mazkur elektron to'lov tizimi orqali uzatilayotgan yopiq turdagi elektron axborot maxsus texnik dasturiy muhofazalash qurilmasida elektron imzo va shifratsiya kalitlari qo'llanilgan holda himoyalanadi.

Elektron imzo va shifratsiya kalitlari Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining vakolatga ega bo'lgan bo'limida maxsus texnik dasturlar yordamida vujudga keltiriladi.

Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining vakolatga ega bo'lgan bo'limi tomonidan elektron imzo va shifratsiya kalitlari tarqatilishi haqida bank rahbarlariga oldindan xabar beriladi. Ushbu xatda elektron imzo va shifratsiya kalitlari tarqatilishining muddatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Elektron imzo va shifratsiya kalitlarini sozlash ishlari amalga oshiriladi. Shifrlovchi va elektron imzo bilan tasdiqlash maxsus texnik dasturiy majmua yopiq turdagi elektron axborotni elektron to'lov tizimi orqali qayta ishlovchi yoki axborotni elektron to'lov tizimi orqali qayta ishlovchi va qabul qiluvchi dastur tarkibida ishlashi banklarda

chiquvchilar tomonidan ta'minlanadi. Belgilangan davrda elektron imzo va shifratsiya kalitlari o'zgartirilganda sozlash ishlalarini amalga oshirish bank xodimlari, dasturchi operatorlar tomonidan qo'llanilayotgan tegishli dasturning yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Markaziy bank elektron to'lov tizimi orqali amalga oshirilayotgan yopiq turdagi elektron axborotlar elektron imzo bilan tasdiqlangan va imzolangan bo'lishi shart.

Elektron imzo tasdiqlanmagan yopiq turdagi elektron axborotlar ishlash uchun qabul qilinmaydi. Elektron to'lov tizimi ishtirokchisi o'zidan jo'natilgan yopiq turdagi elektron axborotni elektron imzosiz yoki elektron imzo mos kelmaganligi haqida ma'lumot olganda, zudlik bilan muammoni hal qilishi va yopiq turdagi elektron axborotlarni qaytarishi lozim.

Bankning bosh buxgalteri elektron imzosi va zaxira elektron imzosi seyfda saqlanishi shart. Elektron arxivlar uchun javobgar shaxs muddati tugagan yoki kuchini yo'qotgan shifratsiya kalitlarini tashqi saqlovchi qurilmaga ko'chirib, uni arxivlashtirishi shart.

Bankning bosh buxgalteri Markaziy bankdan olgan yangi elektron imzolari kuchga kirgunga qadar eskisidan foydalanib turadilar. Yopiq turdagi elektron axborotlarni tegishli elektron imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmaganda, masalan, elektron imzo buzilganda, bosh buxgalter Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining vakolatga ega bo'lgan bo'limiga avval telefon orqali, so'ng yozma ravishda xabar berishi talab etiladi. Bunday ma'lumotnomada elektron imzoning buzilish sabablari ko'rsatiladi va zaxira disketkasi yoki zaxira elektron identifikatordan foydalanishga ruxsat so'raladi. Zaxira disketkasi yoki zaxira elektron identifikatordan 3 kundan ortiq foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo ayni bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirda qog'oz hujjatga

qo‘lda yoki o‘zi qo‘ygan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega bo‘lib sanaladi:

1) elektron raqamli imzoning haqiqiyligi tasdiqlangan bo‘lsa;

2) elektron raqamli imzoning haqiqiyligi tasdiqlangan paytda yoki imzolash paytini belgilovchi dalillar bo‘lganda elektron hujjat imzolanayotgan paytda elektron raqamli imzo kalitining sertifikati amal qilib turgan bo‘lsa;

3) elektron raqamli imzodan elektron raqamli imzo kalitining sertifikatida ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanilayotgan bo‘lsa.

Elektron raqamli imzo vositalari elektron hujjatda elektron raqamli imzoning yaratilishi, elektron raqamli imzoning haqiqiyligining tasdiqlanishi, elektron raqamli imzoning yopiq va ochiq kalitlari yaratilishini ta’minlaydigan barcha texnikaviy va dasturiy vositalardan iborat bo‘ladi. Elektron raqamli imzoning ochiq va yopiq kalitlari mavjud bo‘lib, ushbu ochiq va yopiq kalitlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yoki ularning murojaatiga binoan ro‘yxatga olish markazi tomonidan elektron raqamli imzo vositalari yordamida yaratilishi mumkin.

Elektron raqamli imzoni yaratgan, ya’ni elektron hujjatga imzo qo‘ygan va ro‘yxatga olish markazi tomonidan uning nomiga elektron raqamli imzo kaliti va sertifikati berilgan jismoniy shaxs elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi bo‘ladi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun elektron raqamli imzo ochiq kalitidan foydalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar elektron raqamli imzo ochiq kalitining foydalanuvchisi bo‘ladi. Elektron raqamli imzo ochiq kalitining foydalanuvchisi elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligini va elektron raqamli imzo haqiqiyligini tekshirish uchun elektron raqamli imzo kalitini bergan ro‘yxatga olish markaziga murojaat etish, elektron raqamli imzo haqiqiyligi tasdiqlanmagan hollar haqida elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga xabar berishga haqli.

Elektron raqamli imzo ochiq kalitining foydalanuvchisi elektron raqamli imzo yopiq kaliti egasining shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar muhofaza qilinishini ta’minlashi kerak.

Nazorat savollari:

1. *Banklararo hisob-kitoblarning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?*
2. *Boshlang‘ich va yakuniy banklararo oborotlarning mazmunini tushuntirib bering.*
3. *90-yillardan oldingi davrdagi banklararo hisob-kitoblar qanday tarzda tashkil etilgan?*
4. *Hisob-kitob markazlari foaliyati nimadan iborat?*
5. *Elektro to‘lovlar tizimini joriy etilishining sabablarini sanab o‘ting.*
6. *Elektron to‘lov tizimining ishlash prinsiplarini sanab o‘ting.*
7. *Banklarning vakillik hisobvaraqlari mazmuni va ularning raqamlanishini tushuntiring.*
8. *Vakillik hisobvaraqlarini ochish tartibini tushuntiring.*
9. *Hisob-kitob markazida banklararo hisob-kitob operatsiyalarining hisobi qanday tashkil etiladi?*
10. *Bir tipdagi banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar bo‘yicha qanday provodkalar bajariladi?*
11. *Turli tipdagi banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar qanday tartibda amalga oshiriladi?*
12. *Banklararo hisob-kitoblarda ishlatiladigan tranzit hisobvaraqning mazmunini tushuntirib bering.*
13. *Ochiq kalit va yopiq kalit tushunchalariga izoh bering.*
14. *Elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qanday shartlarga rioya qilingan holda qog‘oz hujjatga qo‘yilgan imzo bilan bir xil sanaladi?*
15. *O‘zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilish qanday tartibda tashkil etilgan?*
16. *O‘zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilishni tashkil etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi lozim?*

V BOB

YAGONA ҶAKILLIK HISOBVARAG‘I ORQALI HISOB-KITOBLARGA ASOSLANGAN TO‘LOV TIZIMI

Tayanch tushunchalar: *yagona vakillik hisobvarag‘i, kripto jarayon, to‘lov markazi, axborot tizimi, real vaqt rejimi, telekommunikatsiya tizimi, elektron to‘lovlar, elektron to‘lovlar tizimi, bosh axborotlash markazi, initsiator bank, benifitsiar bank, tranzit hisobvaraqlar, tranzaksiya, fayl, filiallarga moliyaviy yordam ko‘rsatish, g‘aznachilik, elektron to‘lov hujjati.*

1-§. To‘lov tizimida yagona vakillik hisob raqamining tutgan o‘rni, ahamiyati va unga o‘tilishi

O‘zbekiston bank tizimi rivojlanib borar ekan, ushbu sohaga tegishli bo‘lgan telekommunikatsiyalar tizimlarini ham doimo takomillashtirib borish zarur edi. Banklarning, shu bilan birga, butun moliya sohasining axborot tizimini takomillashtirishga hukumat darajasida alohida e’tibor berildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jahon banki o‘rtasida hamkorlik munosabatlari o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jahon banki o‘rtasida 1998-yil dekabr oyida tuzilgan shartnomaga muvofiq, respublika moliya sohasini rivojlantirish uchun kredit ajratilgan. Bu loyiha besh yo‘nalishga bo‘linib amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishlarning biri – «O‘zbekiston moliya sohasining axborot tizimini takomillashtirish»dir.

«O‘zbekiston moliya sohasining axborot tizimini takomillashtirish» yo‘nalishi o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

1) to‘lov tizimini takomillashtirish;
2) boshqarish uchun axborot tizimini yaratish;
3) bank telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
4) axborot tizimining muhofazasini yaratish.

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni bajarish uchun, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan oxirgi 10 yilda bir qator ishlar qilindi. Bu borada rivojlangan davlatlarning tajribasi o‘rganildi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Jahon banki maslahatchilari va ekspertlari O‘zbekistonga tashrif buyurganda barcha banklarning yagona vakillik hisobvarag‘iga va yagona balansga o‘tishlari lozimligi belgilab berildi.

Ma’lumki, yirik masshtabdagi banklar resurslarini bitta hisob raqamga tez yig‘ish va bu raqamdan katta daromad keltiruvchi yirik loyihalarni moliyalashtirish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi ssuda kapitalining banklararo bozorda sotilishi va sotib olinishi ilgarigiga nisbatan ancha tezroq amalga oshirilishini talab qila boshladi. Yirik banklar Yaponiyadagi birjalar yopilganda, Yevropa va AQSH birjalari faoliyati uchun 1 soatdan 12 soatgacha bo‘lgan kreditlardan foydalanishi, bundan tashqari, transmilliy banklar uchun, bir davlatdan ikkinchi davlatga overnayt kreditlarini amalga oshirish uchun katta pul mablag‘larini tez ko‘chirish imkonini beruvchi texnologiyalar bosh bankda yagona buxgalteriya balansi, yagona vakillik raqami tizimiga o‘tishga undadi.

Tijorat banklarining ilk bor yagona vakillik hisob raqamlariga o‘tishi «Feduayr»[1] tizimi multikorporatsion va transmilliy banklarining yagona vakillik raqamlari tizimiga o‘tish tavsiyasiga ko‘ra AQSHda amalga oshirildi. Respublikamiz tijorat banklarining yagona vakillik hisob raqamlariga o‘tishi bilan esa mazkur masalalar

[1] Feduayr tizimi AQSHning Federal rezerv tizimida ishtirokchi banklar uchun kutish yoki chetga qo‘yish rejimida emas, balki real vaqt rejimida hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

yanada jadallashdi. Shuning uchun jahon tajribasini o‘rganish, alohida dolzarblik kasb etadi va bank likvidligini boshqarish sohasida amaliy bilimlar tizimi hamda yig‘ilgan tajriba tahliliari va xulosalarini samarali qo‘llash imkonini beradi.

2-§. Yagona vakillik hisobvarag‘ining o‘ziga xos xususiyatlari

Yagona vakillik hisob raqami orqali boshqarishning mohiyati shundan iboratki, yirik tijorat banklari bo‘limlari o‘zlarining vakillik hisob raqamlarini bosh bankda ochadilar va bosh bank orqali amalga oshiradilar. Ushbu tizimning bir qancha ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– tizim ichidagi amalga oshiriluvchi operatsiyalar tezlashadi hamda real vaqt rejimida ishlaydi;

– katta daromad keltiruvchi yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun resurslarni tez jamlash imkoni paydo bo‘ladi;

– tizim ichida bo‘limlar resurslarining aktiv operatsiyalarga joylashtirilishi tufayli vakillik raqamidagi minimal darajada saqlay oladi va hatto debet qoldiq bo‘lganda ham ishlay oladi;

– banklararo bozorda resurslar qayta taqsimotida ham bankning raqobatbardoshligini oshiradi;

Demak, bank muassasasi uchun vakillik hisob raqami shunday hisob-kitob raqamiki, unda tijorat bankining barcha mablag‘lari, ya’ni o‘z mablag‘lari ham, xizmat ko‘rsatilayotgan mijozlar mablag‘lari ham, shuningdek, boshqa jalb etilgan resurslar ham saqlanadi. Vakillik hisob raqami orqali banklar mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha operatsiyalarni, shuningdek, xo‘jalik subyekti sifatida bank operatsiyalarining o‘zini ham amalga oshiradi. Hozirgi vaqtgacha ana shu jarayonlarning barchasi juda katta sxema ko‘rinishida amalga oshirilardi.

Aytaylik, to‘lovchi yoki mablag‘ni oluvchiga turli banklarda xizmat ko‘rsatilayotgan bo‘lsa yoki banklar bir-birini kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan banklararo operatsiyalar hamda naqd pullarning joyini almashtirishga doir vaziyat sodir bo‘ldi deb faraz qilaylik. Bunday hisob-kitoblar har bir tijorat bankining balansida ochilgan vakillik hisob raqamlari orqali amalga oshiriladi. O‘z navbatida, tijorat banklari filiallarining vakillik hisob raqamlari Markaziy bankning Hisob-kitob markazida ochilgan. Shunday qilib, har qanday to‘lov pul mablag‘larini o‘tkazishning ko‘p bosqichli tizimidan o‘tishi lozim bo‘ladi. Bitta bank o‘rtasida to‘lovlar amalga oshirilayotganida ham, hisob-kitoblarning ana shu sxemasiga amal qiladi. Bu banklararo hisob-kitoblarni tashkil etishning markazlashgan varianti bo‘lib, u samarasiz usul hisoblanadi. Banklararo hisob-kitoblar 2002-yilgacha shu sxema asosida o‘tkazilgan. Ilgari bundan voz kechishga texnikaviy jihatlarga oid bir qancha jiddiy muammolar imkon bermas edi.

Hozirgi kunga kelib ko‘pgina tijorat banklari yagona vakillik hisob raqamiga o‘tish bo‘yicha ishlarni amalga oshirgan va banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar yagona hisobvarag‘i orqali o‘tkazilmoqda. Yagona vakillik hisob raqami orqali boshqaruvni amalga oshirish tizimini joriy qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak edi:

Bosh bank uchun yangi bank kodi olinadi. Masalan, «O‘zsanoatqurilishbank» uchun bank kodi sifatida 09003 berilgan.

Bosh bankda o‘tish kuniga qadar barcha bo‘limlari uchun, shu jumladan, o‘zidagi amaliyot boshqarmasiga ham 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar» bo‘yicha balans hisob raqami ochiladi va har bir bo‘limga shu haqda xabar beriladi. O‘z navbatida, har bir bo‘lim «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha olinadigan mablag‘lar» bo‘yicha balans hisob raqamini ochadi va bosh bankka xabar beradi.

So‘ngra bankning bo‘limlari memorial order orqali 10301 – «Markaziy bankdagi vakillik hisob raqami – Nostro» hisob raqamidagi qoldig‘ini Bosh bankda ochilgan 22204-hisob raqamiga, shu jumladan, Bosh bankning boshqarmasiga ham o‘tkazadi.

Bunda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi:

– debet: 16103;

– kredit: 22204.

Masalan, «O‘zsanoatqurilishbank»ning bo‘limlaridagi 10301-hisob raqamlaridagi qoldig‘ini Markaziy bankning boshqarmalari yordamida «O‘zsanoatqurilishbank»ning bosh bankiga ko‘chirib, bo‘limlarda bu operatsiya bo‘yicha to‘g‘irlash provodkasi amalga oshiriladi.

Bank bo‘limlaridan vakillik hisob raqami 09003 ga 10301 dagi qoldiqni o‘tkazganidan so‘ng, bunday buxgalteriya yozuvi boshqa amalga oshirilmasligini cheklovchi dasturga qo‘yilib, uni bankning xavfsizlik xizmati tekshirib, bank bo‘limlarining to‘lov reyslari ishlanmasligi uchun, Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh Markazi belgilagan tartibda ularning pochta qutisini yopadi.

Markaziy bankdagi To‘lov tizimi va axborotlashtirish markazi «Bank bo‘limlari» banki uchun 09003 bank kodi kiritilganligi haqida o‘zgartirish kiritadi.

«O‘zsanoatqurilishbank» tizimida Markaziy bank ichki elektron virtual tarmoq tashkil qilinadi.

Bank ma’lumotlarining muhofazasini ta’minlovchi kripto himoya va shifratsiya, shuningdek, barcha bo‘limlarning deshifratsiya kalitlari bosh bankka o‘rnatiladi.

Bosh bank uchun buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha normativ hujjatlar ishlab chiqiladi.

Tijorat banklarining xususiyatiga qarab hamda bank boshqaruvining ehtiyojiga qarab, dasturiy vositada informatsion boshqaruv tizimi tuziladi.

Tijorat banklarining yagona balans texnologiyasiga o‘tishi bilan bankning ichki tuzilishi ham, normativ va hisobotlari ham tubdan o‘zgara boshlaydi. Shuningdek, jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha zaxira fondiga ajratmasi bosh Bankda amalga oshiriladi. Bu bilan resurslarning ishlatilishida yanada optimallashtirish paydo bo‘ladi va banklarning rentabellik ko‘rsatkichlarini oshirishda hamda bank aktivlarining oborotini tezlashtirib, bankning yuqori daromad olishiga olib keladi. Bu tizimning yana shunday xususiyati mavjudki, bunda Markaziy bank uchun pul muomalasini tartibga solishda va iqtisodiyotda pul massasini boshqarishda ma’lum qulaylik va imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

3-§. Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvarag‘i asosidagi hisob-kitoblarga «O‘zsanoatqurilishbank» misolida o‘tkazilishi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng olib borilayotgan islohotlarning mahsuli sifatida to‘lov tizimida yagona vakillik hisobvarag‘ining tashkil etilishini kuzatishimiz mumkin. Yagona vakillik hisobvarag‘iga o‘tish tajribasini mamlakatimizda birinchi bor «O‘zsanoatqurilishbank» boshlab berdi va Internet texnologiyalari ma’lumotlarini qayta ishlash va saqlashning tizimiga o‘tish borasida o‘z ishini tashkil etayotgan respublikadagi dastlabki banklardan biri bo‘ldi. 2002-yilning iyulidan boshlab mazkur bank o‘z faoliyatini keyinchalik yagona balansga o‘tishni mo‘ljallab, yagona vakillik hisob raqami asosida amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-martdagi «Bank axborot tizimini rivojlantirish to‘g‘risida»gi PF–3080-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi «Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va texnologiyalarni joriy etish

to‘g‘risida»gi 200-sonli Qarori bank axborot tizimini rivojlantirishga yangi omil baxsh etdi. Ushbu hujjatlarga «O‘zsanoatqurilishbank» boshqaruvi alohida ahamiyat berdi.

«O‘zsanoatqurilishbank»ning yagona vakillik hisob raqamini joriy qilishi Boshqaruv belgilab bergan yo‘nalishlardan birining ro‘yobga chiqishi bo‘lib hisoblanadi.

«O‘zsanoatqurilishbank» yagona vakillik hisob raqamiga o‘tishi bilan, bank boshqarishning eng zamonaviy sifat darajasi bilan ta’minlandi. Bank aktivlarini samarali boshqarish uchun metodologik va texnologik negiz modernizatsiya qilindi hamda mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlar turi ko‘paydi.

Yagona vakillik hisob raqamini yo‘lga qo‘yishdan ilgari «O‘zsanoatqurilishbank»ning butun tizimida resurslar va xatarlarni qulay boshqarish imkoniyati yo‘q edi. Ta’kidlash lozimki, filiallar bo‘yicha bank xizmati turlari shartlarini tanlab olishda, aslida, bank resurslarini tezkorlik bilan qayta taqsimlash darajasiga ko‘ra oldindan belgilab qo‘yilgan filiallarning daromadliligi va likvidligini boshqarish, turli-tuman xatarlarni imkon boricha kamaytirishga e’tibor berilgan.

Bunday tizimda ishlashda Bosh bank oddiy vazifalarni bajarish bilan birga, o‘ziga xos yumushlarni ham ado etishiga to‘g‘ri keladi. Masalan, kredit portfeli shakllantirilayotganda filiallarning mijozlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (filiallar esa ko‘pincha turli mintaqalarda joylashgan), filiallarda berilgan kreditlar haqida, mazkur kreditlarning holati to‘g‘risida ma’lumotlarni jamlash zarurati paydo bo‘ladi. Buning ustiga, olinayotgan jami axborot yangi bo‘lishi lozim. Shu boisdan ham, bankning barcha filiallarida yagona hisob siyosatini yuritish zarur.

Hisob raqamlar rejasini tashkil etish, hisob raqamlar ochish qoidalarini ishlab chiqish va bank operatsiyalari amalga oshirilayotganda provodkalarni bajarishni, shuningdek, jamlangan ichki va fiskal hisobotni tayyorlashni shular jumlasiga kiritish lozim.

Bank xizmatlarining tarkibi va shartlarini boshqarish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham qanday xizmatlar, qanday hajmda va qaysi shaklda ko‘rsatilishi lozimligini aniqlab olish talab etiladi. Mijozlarning u yoki bu guruhlariga kreditlarning qaysi turlarini berish va beriladigan bo‘lsa, foiz stavkasi qanday bo‘lishini belgilab olish ham zarur bo‘ladi. Filiallar uchun valuta tarkibi, valutalar bilan bo‘ladigan operatsiyalar hamda shu valutalar operatsiyalari ijro etiladigan savdo kurslari «yo‘llari»ni tayin etib olishda tabaqalishtirilgan yondashuv darkor. Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar yagona vakillik hisob raqami orqali amalga oshiriladi.

Agar «O‘zsanoatqurilishbank» solnomasini varaqlaydigan bo‘lsak, ta’kidlash lozimki, bank mutaxassislari vakillik hisob raqami texnologiyasiga juda o‘xshab ketadigan tizimda ishlab, yetarlicha tajriba orttirgan. Lekin ilgari axborot texnologiyalari o‘z taraqqiyotining boshlang‘ich bosqichini boshidan kechirayotgan edi. Telekommunikatsiyalar axborotni zarur darajada zudlik bilan kuzatishga imkon bermas edi. Lekin shunga qaramasdan, bank mutaxassislari ishda katta tajriba to‘plaganlar, bu tajriba esa texnikaviy loyihalar tuzish va yangi texnologiyalar mexanizmini qayta ishlashda yordam beradi.

«O‘zsanoatqurilishbank» uchun integrallashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi «Fido-Biznes» kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. Shu kompaniya mutaxassislari «O‘zsanoatqurilishbank»-da mazkur tizimni bosqichma-bosqich joriy etishda faol qatnashmoqda.

Bank faoliyati samaradorligini ko‘tarish, katta foyda olish, kapitallashtirishda eng kam samara beradigan sohalarga qo‘yilgan bank aktivlarining kamayib borishiga juda bog‘liq. Hozirgacha ham bo‘lib turgan amaliyot, ya’ni Markaziy bankning vakillik hisob raqamlarida tijorat banki har bir filialining mablag‘larini rezerv qilib ushlab turish aktivlarining oborotdan chiqishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, bosh yagona vakillik hisob raqami hamda yagona balans asosida ishlashini ta'minlash tijorat banki faoliyatining daromadliligini ko'taradi. Yagona vakillik hisob raqamini joriy etishdan ko'riladigan samara ko'p qirralidir. Agar uning afzalligi haqida gapiradigan bo'lsak, bu bank resurslarini yengillik bilan qayta taqsimlash imkoniyati hamda shu resurslarni to'plash orqali bank ishining samarasi oshayotganidan dalolatdir.

Dastlabki bosqich ham yakunlanib qoldi, bu ma'lumotlarni markazlashtirilgan tarzda qayta ishlash va saqlashga, ya'ni yagona balans bilan ishlashga o'tish demakdir. Ana shu loyihalarning amalga oshirilishi bilan, bank faoliyatini boshqarishning sifat jihatidan yangi darajasiga ko'tariladi.

Bugungi kunda yagona vakillik hisob raqami tizimiga o'tish bank tizimini isloh qilishda juda muhim natija bo'ldi. Xususan, tijorat banklarining Markaziy bankdan mustaqilligini va o'z xarajatlarini kamaytirishni ta'minlashda ushbu tizimning ahamiyati katta. Bundan tashqari, banklarning aktivlari o'z oborotidan tashqarida qolishi, ya'ni Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'ida qolishi majburiy bo'lgan qoldiq summasidan bank o'z oborotida foydalanishi mumkin.

4-§. Tijorat banklari to'lov markazining yagona vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalari

Yagona vakillik hisobvarag'ini yuritish tartibi barcha banklarda deyarli bir xil. Yagona vakillik hisobvarag'ining tijorat bankida amal qilishi uchun «Yagona vakillik hisobvarag'i orqali filiallar va boshqa banklar o'rtasida elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilgan va bankning Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan. Yagona vakillik hisobvaraq orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun Buxgalteriya va moliya hisobi

Boshqarmasi qoshida alohida sektor tashkil qilingan. Ushbu sektor tijorat bankining to‘lov markazi deb ataladi. Har bir filial ushbu to‘lov markazida o‘zining vakillik hisobvarag‘ini ochgan.

Yagona vakillik hisobvarag‘i orqali to‘lovlarni amalga oshirish uchun tashkil qilingan sektorning asosiy funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

– tijorat bankining o‘z filiallari hamda boshqa banklar o‘rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish;

– elektron to‘lovlarni amalga oshirish borasida filiallar va boshqa banklar bilan fayllar va ma’lumotlarni avtomatik ravishda almashish;

– filiallarni ularning vakillik hisobvarag‘ining to‘lov markazidagi holati to‘g‘risida ogohlantirib turish;

– yagona vakillik hisobvarag‘i va filiallarning hisobvaraqlari holatini nazorat qilish;

– to‘lovlarning amalga oshirilishi ustidan nazorat;

– amalga oshirilayotgan to‘lovlarni buxgalteriyada aks ettirish;

– ma’lumot funksiyasi;

– har kun oxirida barcha ma’lumotlarni arxivlash;

– filiallar va banklararo amalga oshirilayotgan to‘lov va ma’lumotlarni himoya qilish;

– to‘lov markazi to‘lovlar va boshqa operatsiyalar uchun filiallarga ma’lum bir vaqtlar oralig‘ini belgilab beradi, filiallar ushbu vaqtlar oralig‘ida operatsiyalarni amalga oshiradi.

Har bir filial o‘zining mijozlari bilan, ular bilan tuzgan shartnomalari asosida mustaqil ravishda xizmat ko‘rsatadi.

Filialning mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi mas’ul xodimi pul hisob-kitob hujjatini qabul qilganda uni tekshiradi va elektron to‘lov tizimiga kiritadi.

Ushbu holda tizimga kiritilgan ma’lumotlar hisob-kitob hujjatining asl nusxasi bilan bir xil bo‘lishi lozim.Ushbu ma’lumotlar tizimga kiritilgandan so‘ng, filialda elektron fayl vujudga keladi

hamda bosh buxgalterning unikal elektron imzosidan so‘ng bu fayl to‘lov markaziga yuboriladi.

Filialning vakillik hisobvarag‘i balansning 16103 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha olinadigan mablag‘lar» hisobvarag‘ida hisobga olinadi. Filial ushbu hisobvaraq qoldig‘i doirasida operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Operatsiya amalga oshirilganda quyidagi provodka bajariladi:

– debet 20200 – mijozning yoki bankning ichki hisobvarag‘i;

– kredit 16103 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha olinadigan mablag‘lar».

To‘lov markazidan to‘lovni qabul qilgan filiallarda esa quyidagicha provodka amalga oshiriladi:

– debet 16103 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha olinadigan mablag‘lar»;

– kredit 20200 – mijozning yoki bankning ichki hisobvarag‘i.

Agarda to‘lovni qabul qilishi lozim bo‘lgan hisob raqam noto‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, kelgan mablag‘ 23206 – «Aniqlanayotgan tranzaksiya» hisobvarag‘iga olib qo‘yiladi hamda 3 kun ichida o‘zining maqsadiga yo‘naltiradi.

Agarda filialning vakillik hisobvaraqmida operatsiyalarni amalga oshirish uchun mablag‘ kamlik qilsa, ushbu filial tijorat bankining g‘aznachilik boshqarmasi orqali boshqa filiallardan moliyaviy yordam puli olishi mumkin.

Tijorat banki to‘lov markazida har bir filialning vakillik hisobvarag‘idagi qoldiq 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar» balans hisob raqamida hisobga olinadi. Barcha banklararo va filiallararo to‘lovlar ushbu hisob raqamlar orqali amalga oshiriladi.

Filiallarning boshqa banklarga pul o‘tkazish bo‘yicha to‘lov topshiriqlari to‘lov markazi tomonidan deshifrovka qilinadi hamda limitdan katta o‘tkazmalar ko‘rib chiqish uchun g‘aznachilik boshqarmasiga yuboriladi. Agarda to‘lovlar ssuda hisobvarag‘idan

yuborilgan bo‘lsa, limitdan katta o‘tkazmalar tegishli kredit boshqarmalaridan biriga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi. G‘aznachilik boshqarmasi to‘lovning maqsadini o‘rganib chiqib, zarur bo‘lsa, to‘lovni bekor qilishi yoki to‘xtatib turishi mumkin (mijozlarning talab qilib olinuvchi hisobvarag‘idan o‘tayogan pullar bundan mustasno). Kredit boshqarmalari ham ssuda hisobvarag‘idan o‘tayotgan to‘lovlarni o‘rganib chiqib, tijorat bankining kredit siyosati talablari buzilayotgan bo‘lsa, o‘tayotgan to‘lovni bekor qilish hamda to‘xtatib turish huquqiga ega.

G‘aznachilik va kredit boshqarmalari tomonidan to‘xtatilmagan to‘lovlar shifrovka qilinadi hamda o‘z maqsadi bo‘yicha yuboriladi. Bunda quyidagi provodkalar amalga oshiriladi:

Filial nomidan boshqa banklarga pul o‘tkazilsa,

– debet 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar»;

– kredit 10301 – Markaziy bankdagi yagona vakillik hisobvarag‘i.

Filial nomiga boshqa banklardan pul kelsa,

– debet 10301 – Markaziy bankdagi yagona vakillik hisobvarag‘i;

– kredit 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar».

Filial tomonidan boshqa filiallarga pul o‘tkazilsa,

– debet 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar» A filial;

– kredit 22204 – «Banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lanadigan mablag‘lar» B filial.

Tijorat bankining to‘lov markazi bank nomidan quyidagi operatsiyalarga pul o‘tkazishi mumkin:

– majburiy rezerv jamg‘armasiga pul o‘tkazish;

– depozitlarga mablag‘ joylashtirish;

– filiallarga moliyaviy yordam ko‘rsatish;

– elektron to‘lovlar xizmati uchun pul o‘tkazish;

– Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan jarima to‘lovlarini to‘lash;

– va boshqa to‘lovlar.

To‘lov markazi filiallarning vakillik hisobvarag‘idan memorial order orqali majburiy ravishda quyidagi maqsadlar uchun mablag‘larni olib qo‘yishi mumkin:

– majburiy rezerv jamg‘armasiga ajratmalar;

– to‘lov markazi ko‘rsatadigan xizmatlari uchun to‘lanadigan mablag‘lar;

– oldingi berilgan moliyaviy yordamlar;

– Markaziy bankka to‘langan jarimalarni qoplash uchun, mablag‘lar.

Tijorat banki to‘lov markazi soliq to‘lovchi subyekt maqomiga ega emasligi tufayli, uning xo‘jalik faoliyatidan keladigan barcha daromad va xarajatlari tijorat bankining bosh amaliyot boshqarmasi balansida aks etadi. Agarda filiallar bosh bank oldidagi majburiyatlarni bajarmasa, to‘lov markazi filial tomonidan uzatiladigan elektron to‘lovlarni to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Har bir tijorat bankining to‘lov markazi doimo Markaziy bank hisob-kitob markazi bilan aloqada bo‘ladi. Yagona vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha to‘lov hujjatlarini to‘g‘ri to‘ldirish uchun filialning mijozi javobgar hisoblanadi. Elektron hujjatlarni yaratish, uni sifatli to‘ldirish, yuborish va qabul qilishga filiallar javobgardir. Filiallar tomonidan yuboriladigan hujjatlarni o‘z vaqtida ijro etish, ularning hisobini to‘g‘ri yuritishga to‘lov markazi javobgardir. Ssuda hisobvarag‘idan amalga oshirilayotgan to‘lovlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqishga kredit boshqarmalari javobgardir. Yagona vakillik hisobvarag‘ini hamda filiallarning to‘lov markazidagi vakillik hisobvarag‘ining likvidligini ta’minlash va vaqtincha to‘xtatilgan to‘lovlarni kunning oxirigacha o‘tkazib yuborish bankning g‘az-

jmdagi hisob-kitoblarni amalga oshiradigan 5 mingdan ziyod yirik korxonalarga bankdagi o‘z hisob raqamlarini ish joyidan turib boshqarish va ular haqida zarur ma’lumotlar olish imkonini bermoqda»[1].

«Bank–Mijoz» tizimi bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar doirasi bank xizmatlarining barcha asosiy turlarini o‘z ichiga oladi. Bular, xususan, to‘lovlar o‘tkazish, bankdagi hisobvaraqlar holati, ulardagi tushumlar va chiqimlar to‘g‘risida mufassal axborot olish, bankning tegishli xizmatlari bilan amaliy yozishmalar olib borish kabilardir.

Mijozga xizmat ko‘rsatish vaqti maksimal darajada kengayadi. Tizimdan foydalanuvchilarga bank dam olish kunlarisiz, kecha-yu kunduz xizmat ko‘rsatadi.

Bundan buyon mijoz har kuni bankka borishi shart emas. Endi u bevosita ofisda yoki uyda turib uning xizmatlaridan foydalanishi mumkin. «Bank–Mijoz» tizimi bankka borish uchun sarflaydigan vaqt va xarajatni ancha kamaytiradi hamda bankning qayerda joylashgani mutlaqo farqsiz bo‘lib qoladi.

«Bank–Mijoz» tizimidagi barcha ma’lumotlar elektron hujjatlar ko‘rinishida bo‘ladi. Ular kompyuterlar xotirasida saqlanadi va elektron kanallar orqali jo‘natiladi. Bank mijozning elektron imzosi bilan tasdiqlangan elektron raqam shakldagi to‘lov hujjatlarini olishi yuridik jihatdan qog‘ozdagi to‘lov hujjatlari olishi bilan teng hisoblanadi.

«Bank–Mijoz» tizimi bank oldidagi quyidagi masalalarni hal qilish uchun ishlatiladi:

– mijoz uchun navbatga turishga hojat qolmaydi;

– mijoz uchun bankning operatsiyalar zaliga kelish xarajatlari bo‘lmaydi;

– mijoz hisob raqamidagi operatsiyalarni amalga oshirish vaqtini kamaytiradi;

– hujjatlarni kompyuterga kiritishdagi, tekshirishdagi va qayta ishlashdagi xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi, xatarini kamaytiradi;

---

[1] *Karimov I. A.* O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari. – T.: O‘zbekiston, 2011.

– bank xodimining mehnati yengillashadi va ish sifati oshadi;

– mijoz uchun keng ko‘lamdagi xizmat turlari taklif qilinadi va bu xizmat turlari rivojlantiriladi;

– mijozlar bankdan sutkasiga 24 soat mobaynida va haftasiga 7 kun mobaynida ma’lumot olishlari mumkin va buning uchun bankda 3 smenali ishni tashkil qilish shart emas;

– bankni rivojlantirish uchun mijozlarni qo‘shimcha investitsiyalar qilmasdan jalb qilish mumkin.

Shu bilan birga, mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

– bank bilan kelishgan holda bu tizimga bog‘langan ishchi uchun ish joyiga, uyiga yoki maxsus xizmat ko‘rsatish punktlariga o‘rnatib berish;

– bankka kelib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning kamayishi;

– hujjatlar to‘ldirilayotgandagi xatoliklarga yo‘l qo‘yilmaslik xavfini kamaytirish;

– ishonchli va xavf-xatarsiz bank operatsiyalarini amalga oshirish va uning natijasini tezda ko‘rish;

– hisob raqami to‘g‘risidagi, kiruvchi va chiquvchi to‘lovlar haqidagi aniq va ishonchli ma’lumotlarni olish;

– bank haqidagi turli ma’lumotlarni olish;

– bank qayerda joylashgani emas, balki u qay darajada xizmat ko‘rsatishi zarur.

«Bank–Mijoz» tizimidagi hujjatlar aylanishi bu oddiy qog‘ozli hujjat aylanishining texnika vositalari orqali amalga oshirish vositasidir.

Elektron hujjat aylanishi *– bu qog‘oz hujjatlar ishlatmasdan kompyuter orqali axborot almashish va uni qayta ishlashdir.*

Elektron hujjat aylanishidan foydalanganda axborotning qayta ishlanishi tezlashadi va aniqlashadi, ushbu axborotlarning hajmi

kattalashib ketmasligi uchun qo‘shimcha axborotlar olishga manbalar ochiladi. Bundan tashqari, hujjatlar qalbakilashtirilishining oldi olinadi va bu hujjatlarning haqiqiyligiga ishonch hosil bo‘ladi.

«Bank–Mijoz» tizimidagi barcha axborot elektron hujjat tarzida taklif etiladi.

Elektron hujjatlar *– bu asli qog‘oz hujjatlarning elektron versiyasi bo‘lib, u kompyuter xotirasida saqlanadi va elektron kommunikatsiya kanallari orqali jo‘natiladi. Agarda kerak bo‘lsa, ushbu hujjatlarning elektron versiyasini qog‘ozga tushirib olish mumkin*

«Bank–Mijoz» tizimida asosan, gipermatnli dasturlar qo‘llangan bo‘lib, bu dasturlar hozirgi kunda Internet tarmog‘ida keng foydalanilmoqda.

Ushbu tizim mijoz uchun bankning Web-serveriga ulanib, u orqali On-line rejimida bank operatsiyalarini amalga oshirish va qo‘shimcha axborotlar olish imkonini beradi.

Aloqa vositasi sifatida oddiy telefondan foydalanish mumkin. Dastur ta’minoti sifatida standart Web-Brayzer Microsoft Internet Exployer dasturidan foydalanish mumkin. Mijozda hech qanday qo‘shimcha bank dasturlari bo‘lmaydi va hech qanday baza ma’lumotlari saqlanmaydi. Hamma dastur ta’minoti, biznes mantiq va baza ma’lumotlari bankning R-Bank tizimi bilan bank serverida saqlanadi. Mijoz qachon bank bilan bog‘lansa, o‘shanda barcha ishlarni amalga oshirishi mumkin.

«Bank–Mijoz» tizimi – bu mijoz va bank o‘rtasidagi himoyalangan elektron hujjatlar almashishning Web-texnologiyalar asosida yaratilgan tizimidir.

«Bank–Mijoz» tizimida mijoz operativ holatda On-line rejimida o‘zining hisobvaraqlarini boshqaradi, bankdan joriy vaqtdagi hisob raqamidagi qoldiq haqida ma’lumot olish va ulardan ko‘chirmalar qilish, boshqa har xil vaqtlar uchun ko‘chirmalar qilish va boshqa moliyaviy ma’lumotlar olish imkonini beradi.

2-§. «Bank–Mijoz» tizimining asosiy vazifalari

«Bank–Mijoz» dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– elektron pul hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;
– so‘rovnomlar va xabarnomalarni shakllantirish;
– elektron imzo va ma’lumotlarni raqamlash;
– bank bilan modem aloqada bo‘lishi;
– ma’lumotlarni qabul qilish va uzatish;
– qabul qilingan ma’lumotlarni qayta ishlash;
– kerakli ma’lumot va hisobot shakllarini qayta ishlash;
– kerakli ma’lumot va hisobot shakllarini bosmadan chiqarish;
– ma’lumotlarni arxivlash.

«Bank–Mijoz» tizimi mijoz uchun bank ichidagi va bank tashqarisidagi barcha to‘lovlarni amalga oshirish va asosiy to‘lov hujjatlari bilan ishlash imkonini beradi:

1) milliy valutada:
– to‘lov topshiriqnomasi;
– to‘lov topshiriqnomasini qaytarib olish;
2) chet el valutasida:
– valutani ko‘chirish uchun ariza;
– valutani majburiy sotish uchun topshiriqnoma;
– valuta sotish uchun ariza;
– valuta sotib olish uchun ariza;
– akkreditiv uchun ariza.

To‘lov hujjatlari bilan ishlashda, tizim quyidagilarni amalga oshirishga ruxsat beradi:

– yangi hujjatni yangidan va namuna bo‘yicha to‘ldirish. Bu degani – mijoz bo‘sh blankani olganidan keyin uni uch xil yo‘l bilan to‘ldirishi mumkin. Birinchisi – qo‘l bilan yangidan ma’lumotlarni kiritish. Ikkinchisi – shablon hujjatlar ma’lumotnomasini chaqirish

orqali. Uchinchisi – oldin qilingan hujjatni ko‘chirib olish orqali, ya’ni oldin qilingan hujjat ro‘yxatdan topiladi va ko‘chirib olinadi. Shu bilan birga, mijoz ko‘chirib olgan hujjatini o‘zgartirish imkoniga ega bo‘ladi;

– agar mijoz Off-line rejimida boshqa buxgalteriya dasturlari orqali to‘lov hujjatlarini tayyorlab qo‘ygan bo‘lsa, ularni «Bank–Mijoz» tizimiga ko‘chirishi yoki ushbu ikki dasturni bog‘lashi mumkin, lekin bunda ushbu elektron hujjatlar qattiq tekshiruvdan o‘tkaziladi;

– ko‘pgina to‘lov hujjatlarining modellari doimo saqlanib turadi va ularni qaytadan kiritish shart emas. Masalan, hujjatning raqami, oluvchining rekvizitlari va boshqalar;

– mijoz tomonidan ma’lumotnoma yuritish. Bunda mijoz tez-tez qaytarilib turadigan hujjatlarni ma’lumotnomaga kiritib qo‘yadi va u kerak bo‘lganda ma’lumotnomadan chaqirib olishi va ishlatishi mumkin;

– to‘lov hujjatlari mijoz tomonidan birma-bir imzolanishi mumkin yoki birdaniga hammasi filtr orqali yoki korrespondensiya orqali imzolanadi;

– jo‘natilgan hujjatlarni qaytarib olish imkoni, ya’ni agar mijoz elektron hujjatni jo‘natgan bo‘lsa-yu, bank tomonidan ushbu hujjat bo‘yicha hali to‘lov amalga oshirilmagan bo‘lsa, hisob raqamida o‘zgarishlar bo‘lmagan bo‘lsa, mijoz to‘lovni bekor qilishi mumkin;

– elektron hujjatlarni printerdan chiqarib olish imkoni, ya’ni mijoz barcha elektron hujjatlarni, ko‘chirmalarni o‘ziga qulay holda printerdan chiqarib olishi mumkin va uni o‘zida saqlab o‘tirishi shart emas;

– tizimga ulangandan buyon amalga oshirilgan barcha axborotlar arxiviga, ya’ni bank serverida axborotlar saqlash imkoni. Bunda mijoz o‘zing kompyuteridagi disk xotirasini saqlaydi, yana ushbu

axborotlarning tasodifan yoki ataylab o‘chirib yuborilmasligi imkonini beradi;

– berilgan rekvizitlari bo‘yicha arxivdan kerakli hujjatlarni tezda topish imkoni, ya’ni hisob raqamlar bo‘yicha, korrespondentlar bo‘yicha, valuta turlari bo‘yicha topish imkoni;

– axborotni filtrlash va saralash. Bunda mijoz qidirish ma’lumotlari kiritilsa bo‘ldi, topish tezlashadi.

Ushbu tizim mijoz uchun haqiqiy vaqt rejimida quyidagilarni olish imkonini beradi:

– o‘zining barcha hisob raqamlaridagi qoldiqlar haqidagi ma’lumotlarni olish;

– so‘rov berilgan vaqtgacha bo‘lgan barcha oborotlari haqidagi barcha hisob raqamlaridan ekspress ko‘chirmalar olish;

– hamma hisob raqamlari bo‘yicha bank operatsion kuni yopilgandan keyin ko‘chirma olish;

– har qanday hisob raqamidan har qanday davr uchun ko‘chirma olish;

– On-line rejimida turgan holda, o‘tkazgan to‘lovlari, bankning moliyaviy holati haqida aniq ma’lumot olish;

– aniq On-line rejimida turgan holda, 2-kartotekada turgan hujjatlar haqida ma’lumot olish;

– barcha ssuda va depozitlar bo‘yicha hisoblangan foizlar haqida va ularni to‘lash vaqti to‘g‘risida ma’lumot;

– kredit bo‘yicha hisoblangan qarzlari bo‘yicha oxirgi ma’lumotlarni olish;

– O‘zbekiston Respublikasi banklari to‘g‘risidagi ma’lumotnomadan ma’lumot olish;

– MB tomonidan belgilangan joriy va oldingi valuta kurslari haqida ma’lumot olish.

Bundan tashqari, «Bank–Mijoz» tizimi:

– kelajakda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan to‘lovlarni ushlab turish;

– ko‘p qirrali elektron imzoni qabul qilish imkoni, ya’ni operator-buxgalter-direktor;

Tizim bank bilan pochta almashish imkonini beradi:

– bankka matn holatidagi axborotni jo‘natish yoki bankdan qabul qilib olish;

– bankka ixtiyoriy holatdagi fayllarni jo‘natish va qabul qilib olish;

– bankning e’lonlar doskasi bilan bog‘lanib turish va u yerdan axborotlar olish imkoni.

Mijoz tizim bilan xohlagan vaqtda, xohlagan joydan turib, mehmonxonadami, uyidami, ishxonasidami yoki boshqa shaharda bo‘lsa ham, sistemaga ulangan kompyuteri va modem orqali to‘lovlarni amalga oshirishi mumkin. Ushbu tizim ko‘pchilik tomonidan birdaniga foydalansa bo‘ladigan imkonga ega, ya’ni mijoz tomonidan ham, bank tomonidan ham. To‘lov hujjatlarini bir yerda to‘ldirib, buxgalter yoki direktor boshqa yerdan turib imzolashi ham mumkin.

Ushbu tizim yuqori darajali himoyaga ega bo‘lib, aloqa yo‘llari orqali mijoz tomonidan yoki bank tomonidan noqonuniy kirishlardan himoyalangan. Mijoz va bank tomonidan kiritilgan axborotlar shifrlanadi va elektron imzo bilan tasdiqlanadi.

3-§. Hisob-kitoblarni «Bank–Mijoz» tizimi orqali o‘tkazish tartibi

O‘zbekistonda bank tizimi rivojlanib borgani sari banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanmoqda, ularga yangi bank xizmatlari taklif etilmoqda. Shulardan biri 90-yillarning oxirida yangi texnologiya hisoblangan «Bank–Mijoz» dasturi bo‘yicha hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan «Hisob-kitoblarni «Bank–Mijoz» dasturiy majmuasi orqali amalga oshirish to‘g‘risida»gi Nizom asosida olib boriladi.

«Bank–Mijoz» dasturiy majmuasi (dastur) bank va mijozning avtomatlashtirilgan o‘zaro aloqasi uchun belgilangan bo‘lib, pul mablag‘larini operativ boshqarishning o‘sishiga va quyidagilarga imkoniyatlar yaratadi:

– mijozning har kuni bankka qatnamasligi hisobiga o‘z vaqtini va mablag‘ini tejashga;

– manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan, mijozning o‘zi bankni ixtiyoriy ravishda tanlashiga;

– bank mijozlari bo‘lgan fuqarolarga ularning uyida, yuridik tashkilotlarga esa ularning idoralarida avtomatlashtirilgan ish joyini tashkil qilgan holda bank xizmatini ko‘rsatishga;

– operatsion va axborotlar sohasida mijozga ko‘rsatiladigan xizmat doirasini kengaytirishga;

– bank buxgalterlarining mehnat unumdorligini oshirishga;

– operatsiyalarning yuqori tezlikda va sifatli ro‘yxat qilinishini ta’minlashga.


«Bank–Mijoz» dasturiy majmuasining ishlashi bank bilan mijoz o‘rtasida kommunikatsion aloqa tarmog‘i orqali faylda ma’lumotlar almashinuviga asoslangan.

Mijozlar bilan ma’lumotlarni almashish uchun bankda mijozlar uchun pochta qutisi tashkil qilinadi, unga parol va identifikator orqali kiriladi. Mijozlarning so‘rovlarini qayta ishlash, ma’lumotlarni qabul qilish, uzatish avtomatlashgan holda amalga oshiriladi.

«Bank–Mijoz» dasturi bankning shaxsiy mulki hisoblanadi. Bank mijozlari ushbu dasturning asosiy foydalanuvchilari hisoblanib, ular munosabatlari tartibga solinishi uchun shartnoma tuziladi. Lekin «Bank–Mijoz» dasturi orqali operatsiyalarni amalga oshirishdan avval mijozlar bir qator texnik vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

12-chizma

Mijoz uchun talab etiladigan texnik vositalar



Shunday qilib, chizmada ko‘rib turganimizdek, dasturiy majmuaga ulanishlari uchun mijozlarda quyidagilar bo‘lishi talab etiladi:

– shaxsiy kompyuter;

– modem;

– printer;


– mos dasturiy ta’minot, ya’ni Windows 98, 2000; Win NT4, NT Server, Windows XP, Millennium va hokazolardan biriga ega bo‘lishi kerak.

«Bank–Mijoz» dasturi bo‘yicha mijozning hujjatlarini bankka yuborish uchun, eng avvalo, ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

Mijozlarning elektron pul hisob-kitob hujjatlarini bankning ma’lumotlar bazasiga kiritish quyidagi chizma bo‘yicha amalga oshiriladi:

13-chizma

Hujjatlarni ma’lumot bazasiga kiritish chizmasi



Elektron pul hisob hujjatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi, shifrlanishi va ularning aloqa kanallari orqali bankka uzatilishi bo‘yicha javobgarlik mijoz zimmasiga yuklatiladi.

Bank mijozning hisobvarag‘idan mablag‘larning to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligi va o‘tkazilganligi hamda elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha axborotni o‘z vaqtida uzatish uchun javobgardir.

Aloqa kanallari orqali mijoz bilan bank o‘rtasidagi axborot almashinuvi shartnomada kelishilgan vaqtda amalga oshiriladi. Yangi amaliyot kuni boshlanishidan oldin mijoz o‘tgan kun bo‘yicha o‘z depozit hisobvarag‘idagi harakatlar (oborotlar) va qoldiqlarni bank bilan taqqoslab tekshirib olishi shart.

Agar harakatlar va qoldiqlar mos kelsa, mijozga yangi amaliyot kunini boshlash va hujjatlarni kiritish uchun ruxsat beriladi. Aks holda, ular o‘rtasidagi farq sabablari aniqlanadi va mijoz axborot bilan muvofiqlashtiriladi. Shaxsiy hisobvaraqlardagi harakatlar va qoldiqlarning taqqoslash natijalaridan qat’i nazar, bank bilan mijoz o‘rtasidagi axborot so‘rovnomalari va xabarlar almashinishi amalga oshiriladi.

Bu tizim orqali hisob-kitob qilishda mijoz o‘z hisobvarag‘idan mablag‘larni faqat to‘lov topshiriqnomasi shaklida amalga oshiradi.

Bankda mijozlardan aloqa kanallari orqali olingan elektron pul hisob-kitob hujjatlari, to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin, ikki nusxada bosmaga chiqariladi:

– bir nusxasi umumiy tartibda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

– ikkinchi nusxasi esa taqqoslash uchun pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalarini olinguncha bankda qoldiriladi.

Mijoz aloqa kanallari orqali jo‘natilgan pul hisob hujjatlarining asl nusxalarini bankka shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda yetkazishi lozim, bunda elektron hujjatlar asl nusxa bilan solishtirilib,

buxgalter imzosi va unga biriktirilgan bank shtampi bilan tasdiqlanadi va elektron hujjatlarning nusxalari bilan birgalikda bankning kunlik hujjatlariga tikib qo‘yiladi. Dasturdan foydalanuvchi mijozlarning pul hujjatlarining asl nusxalarini yuritish uchun bankda alohida hujjat papkalari yuritiladi.

4-§. «Bank–Mijoz» dasturi bo‘yicha mijoz va bankning ish tartibi

«Bank–Mijoz» dasturi orqali mijozning ish tartibi quyidagicha bo‘ladi:

Mijoz pul hujjatlarini Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2643-yo‘riqnomaga asosan rasmiylashtiradi. Mijozning ma’lumotlarini hisob-kitob hujjatining asl nusxasiga asoslangan holda, kompyuterga kiritishni amalga oshiradi. Kompyuterga kiritilgan hujjatlarning ro‘yxati bosmadan chiqarilishi zarur. Javobgar xodim, ya’ni bosh buxgalter yoki majburiyat yuklangan boshqa bir shaxs ushbu ro‘yxatlarni pul hujjatlarining asl nusxalari bilan taqqoslashi, ularning mosligini tasdiqlashi va bankka jo‘natish uchun ruxsat berishi lozim.

Axborotlar elektron imzo bilan tasdiqlangandan keyin, u kriptografik himoyaga o‘tadi va aloqa kanali orqali xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga uzatiladigan elektron fayl shakllantiriladi. Kriptografik himoyadan o‘tgan fayl mijozni daxl qilish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Tijorat bankida qabul qilingan axborotlar dasturiy ravishda qayta ishlanadi va kelib tushgan hujjatlar, elektron pul hisob-kitob hujjatlari, shaxsiy hisobvaraqlar ro‘yxati shakllanadi.

Mijoz qabul qilgan ma’lumotni kompyuter ekranida ko‘rishi va uni bosmaga chiqarishi mumkin. Mijoz uni o‘chirish yoki o‘zgar-

tirish imkoniga ega emas. Pul hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha bankdan jo‘natilgan va qabul qilingan barcha axborotlar dasturiy ravishda arxivlanadi hamda o‘rnatilgan tartibda saqlanadi. Axborotlarni saqlash muddati tugashi bilan dasturiy ravishda arxivdan o‘chiriladi. Arxivga faqat korxonaning javobgar yoki ruxsat berilgan xodimigina kirishi mumkin.

«Bank–Mijoz» dasturi orqali bankning ish tartibi quyidagicha bo‘ladi:

Mijozlar bilan axborotlar almashinish uchun bankda har bitta mijozga alohida pochta qutisi tashkil etiladi. Mijozlardan kelib tushgan barcha axborotlar dasturiy ravishda deshifratsiya qilinib, rekvizitli nazoratdan o‘tadi va bankning ma’lumotlar bazasiga «kiritilgan» maqomi ostida tushiriladi. Zarur hollarda bankning javobgar xodimi o‘z ish joyida qo‘shimcha tekshirilishi lozim bo‘lgan elktron hujjatlarni bosmadan chiqaradi va bankning tegishli bo‘limlari bilan kelishadi. Pul hujjatlari o‘rnatilgan tartibda tekshirilgach, ular tasdiqlanadi va bankning amaliyot kuniga qayta ishlash uchun yuboriladi, keyin esa elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha oluvchiga jo‘natiladi. Mijozning hisobvarag‘ida mablag‘lar yo‘q bo‘lgan hollarda, pul hujjatlari bilan butun fayl qayta ishlashdan chiqarib tashlanadi va mijozning pochta qutisiga qaytariladi, agar shartnomada yoki boshqa me’yoriy hujjatlarda boshqasi nazarda tutilmagan bo‘lsa.

Elektron to‘lovlar tizimi orqali kelib tushgan pul hujjatlari ijro etilganidan so‘ng mijozning pochta qutisiga joylashtiriladi. Kun davomida mijozlardan olingan barcha ma’lumotlar arxivlanadi va o‘rnatilgan tartibda saqlanadi.

Nazorat savollari:

1. *«Bank–Mijoz» tizimi bo‘yicha qanday xizmatlar ko‘rsatiladi?*
2. *«Bank–Mijoz» tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?.*

3. *«Bank–Mijoz» tizimining bank va mijoz uchun afzalliklarini sanab o'ting.*
4. *Hisob-kitoblarni «Bank–Mijoz» tizimi orqali o'tkazish tartibi qanday?*
5. *Hisob-kitoblarni «Bank–Mijoz» tizimi orqali o'tkazishda qanday texnik vositalar zarur bo'ladi?*
6. *«Bank–Mijoz» dasturi bo'yicha mijozning ish tartibi qanday?*
7. *«Bank–Mijoz» dasturi bo'yicha xizmat ko'rsatishning odatiy xizmat ko'rsatishdan farqlari nimalardan iborat?*
8. *G'aznachilik operatsiyalarini bajarishda «Bank–Mijoz» tizimining o'rni nimalardan iborat?*
9. *«Bank–Mijoz» tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
10. *«Bank–Mijoz» dasturi bo'yicha bankning ish tartibi qanday?*

VII BOB

SWIFT XALQARO TO‘LOV TIZIMI

Tayanch ***tushunchalar:*** *xalqaro to‘lov tizimlari, to‘lov, SWIFT xalqaro to‘lov tizimi, tizimning ishlash tamoyillari, a’zo bo‘lish bosqichlari, a’zo daslatlar, ulush, aksiyadorlik jamiyati, SWIFT orqali hisob-kitoblar, komission haq, axborot uzatish, SWIFTning afzalliklari. SWIFTning kamchiliklari.*

1-§. SWIFT xalqaro to‘lov tizimining mazmuni va uning tashkil etilishi

Hozirgi paytda foydalanilayotgan bank elektron tizimi bank xabarlari va hisob-kitob tizimidan tarkib topgan. Ikkalasining, ya’ni bank xabarlari va hisob-kitob tizimining farqi shundan iboratki, birinchisidan operativ jo‘natmalar va hujjatlarni saqlash, ikkinchisidan esa a’zolari o‘zaro talab va majburiyatlarini so‘ndirish maqsadida foydalaniladi. Birinchi guruhga SWIFT va Bank Wire – banklarning xususiy kapital elektron set tizimi, ikkinchisiga esa Fed Wire – AQSH federal zaxira tizimiga tegishli tizim; CHIPS – Nyu-York xalqaro hisob-kitob to‘lov tizimi; CHAPS – London avtomatlashgan hisob-kitob to‘lov tizimi palatasi misol bo‘la oladi. Yaponiyada esa «ZENCHEKIO» xalqaro naqd pulsiz o‘tkazmalarning banklararo tizimi faoliyat yuritadi. Bularning barchasi telekommunikatsiya bilan bog‘liq tizimlar hisoblanadi.

Bank tizimida elektron hisob-kitoblarni tashkil etish xususida so‘z borar ekan, telekommunikatsiya tizimlari haqida to‘xtalmasdan mumkin emas. Biz quyida jahondagi maxsuslashtirilgan telekommunikatsiya tizimlaridan biri haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Zarur uskunalar va dasturiy majmualardan foydalangan holda, maxsuslashtirilgan telekommunikatsiya tarmoqlarini yaratish mumkin. Maxsuslashtirilgan telekommunikatsiya tarmog‘i deganda, banklararo elektron axborotlar va to‘lovlar, shuningdek, plastik kartochkalarga asoslangan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi tushuniladi.

SWIFT (Society for World-Wide Interbank Financial Telecommunication) *– jahonbanklararo moliyaviy telekommunikatsiya uyushmasi bo‘lib, jahondagi moliyaviy telekommunikatsiya tarmoqlari ichida yetakchi o‘rinda turadi.*

1950-yillarning oxirlarida xalqaro savdoning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida bank operatsiyalari soni ortib, aloqaning an’anaviy shakllari (pochta, telegraf) banklar talabiga javob bermay qoldi. Banklararo to‘lovlarning o‘tishida har-xil muammolar va xatoliklar paydo bo‘la boshladi.

Banklararo to‘lovlarda operatsiyalarning ortishi bilan, juda ko‘p qog‘ozlarning ishlatilishi bir talay noqulayliklarni keltirib chiqarar edi. Buning oqibatida axborotlarni qog‘ozsiz tarzda uzatishga ehtiyoj sezila boshlandi.

1960-yilga kelib 60 ta Amerika va Yevropa banklari xalqaro bank tizimlari ishini andozalashtirish maqsadida muhokamaga yig‘ildi.

Bu yig‘ilishda banklararo to‘lovlarni o‘tkazishda kompyuter texnikalaridan va telekommunikatsiya uskunalaridan foydalanishga kelishib olindi. Ushbu uskunalar asosida tez va xavfsiz axborot uzatish tizimini yaratishga kelishildi.

Bu loyiha quyidagilarga javob berishi lozim edi:

– to‘lov muomalalari qog‘ozsiz tarzda va imkon darajada ratsional ishlashi;

– telekommunikatsiya uskunalaridan foydalangan holda banklararo axborotlar almashishining tezlashishi;

– bank xatarlari minimallashuvi (masalan, yo‘qotishlar, to‘lovlarning xato ketishi, qalbaki to‘lovlar va hokazo).

1973-yil may oyida Belgiya qonunchiligi asosida 15 ta davlatning 239 ta banki SWIFTni ta'sis etdi. Keyingi 4 yil tashkiliy va texnikaviy masalalarni hal etishga qaratildi.

1977-yilga kelib SWIFTning ochilishi, ya'ni tarmoqning ishga tushirilishi bo'ldi. Shu yilning oxirigacha bank a'zolari soni 586 taga etdi. Bir kunda 50000 ta trafik axborot uzatilishi ta'minlandi.

Hozirgi vaqtda SWIFTdan 203 ta davlatning 5000 ga yaqin banklari va bank bo'lmagan moliya tashkilotlari foydalanadi. Bulardan 3000 dan ortig'i banklar hisoblanadi. Bu bank va moliya tashkilotlari joylashgan hududlardan qat'i nazar, 365 kun davomida kecha-kunduz bir-biri bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Hozir SWIFT orqali bir kunda 5 million moliyaviy axborot uzatiladi.

O'zbekistonning Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki O'zbekistonda birinchi bo'lib 1993-yilda SWIFTga a'zo bo'lgan. Rossiya banklari SWIFTga avvalroq a'zo bo'lgan. Rossiya banklaridan birinchi bo'lib Vneshekonombank SWIFTga a'zo bo'lgan. Bu hodisa 1989-yil 4-dekabrda sodir bo'lgan. 1996-yilga kelib a'zo bo'lgan banklarning soni 240 taga yetdi (bu ko'rsatkich AQSHda 150 ta edi). Bu ko'rsatkich yuqori bo'lishiga qaramasdan, Rosssiya haligacha bu tizimning faol ishtirokchilaridan biri emas edi. SWIFTga a'zolar soni jihatidan Rossiya dunyo bo'yicha 3-o'rinni egallasa ham, xabarlarning yillik hajmi jihatidan Vengriya, Polsha, Chexiya davlatlaridan keyin orqada qoladi (Rossiyadagi umumiy traffikning hajmi 0,7% oborotni tashkil qiladi). Tizimning yirik foydalanuvchilari quyidagilar: «Mosbiznesbank», «Imkonbank», «Tokobank», Xalqaro Moskva banki, «Vneshtorgbank» va boshqalar. Ularning ayrimlari kuniga 200 ortiq xabarlar bilan ishlaydi.

Milliy banklar, asosan, SWIFTni xalqaro to'lovlarda ishlatadi, lekin ularning asosiy qismini oxirgi manzili Rossiya bankiga kelib tushadigan xabarlar tashkil qiladi (20–30%). Bu tarmoqda asosiy o'zgarish bo'lishining asosiy sababi 1995-yil yoz oylarida «rublli xabarlarni shakllantirish tavsiyalari»ning ishlab chiqilishi bo'ldi.

Buning natijasida Rossiya banklari uchun qulay imkoniyat paydo bo‘ldi, ya’ni ular bu tizim orqali ichki to‘lovlarni amalga oshira olardilar. Shunigdek, SWIFT yordamida kliring hisob-kitoblarini tashkil etish va Rossiya qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Rossiyada bu tizimning rivojlanishida siyosiy ta’sirlarning ham o‘rni katta. 1994-yilda a’zolik badalining birdaniga tushib ketishi (1800000 Belgiya frankidan 4000000 Belgiya frankiga) va xabar o‘tkazmalari uchun to‘lovning (21 Belgiya frankidan 15 Belgiya frankigacha xalqaro to‘lovlar uchun, 6 Belgiya franki ichki to‘lovlar uchun) kamaytirilishi kichik banklarni ham o‘ziga jalb qila boshladi. Buning natijasida esa mijozlar bankka to‘laydigan to‘lov summasi ham nisbiy holda kamayadi. SWIFT yordamida Rossiyadagi bank yillik xabarlarini 5 mln ga yetkazishni mo‘ljallanmoqda. Ammo oxirgi paytda bo‘lib o‘tgan voqealarni inobatga olgan holda banklar soni kamaymoqda, ya’ni litsenziyadan mahrum bo‘lgan banklar o‘zidan o‘zi SWIFT tizimidan chiqib ketmoqdalar. Bu muammoni yechish uchun 1996-yil Rossiya Federatsiyasining Markaziy banki SWIFTga a’zo bo‘ldi. SWIFTga a’zo bo‘lish orqali kengroq va shaxsiy moliyaviy va iqtisodiy tashqi aloqalar, shuningdek, Rossiya va MDH davlarlariga kirib keladigan investitsiyalarga qulay sharoitlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, SWIFT tizimining rivojlanish bosqichlarini umumlashtiramiz:

1973–1977-yillar (Automating the telex) SWIFT tizimiga 22 mamlakatdan 518 ta tijorat banklari a’zo bo‘lgan va tizim orqali 3 400 000 axborot jo‘natilgan.


1978–1985-yillar (Growing and expanding) 54 mamlakatdan 1188 ta tijorat banki a’zo bo‘lgan va 157 220 000 axborot jo‘natilgan.

1986–1996-yillar (Extending our reach) 151 mamlakatdan 5632 ta tijorat banklari a’zo bo‘lgan va 688 000 000 axborot jo‘natilgan.

1997–2005-yillar (Strengthening the core) 203 mamlakatdan 7678 ta tijorat banki a'zo bo'lgan va 800 720 685 axborot jo'natilgan.

1980-yildan boshlab SWIFT tizimiga Osiyo qit'asidan birinchi bo'lib Gong Kong va Singapur banklari a'zo bo'lgan.

1983-yilda Belgiyaning «Banque Nationale de Belgique» banki SWIFT tizimining 1000-a'zosi sifatida ro'yxatga olingan.



3-rasm. **SWIFT tizimining elektron xizmatlari.**

Umumiy qilib aytganda, SWIFT notijorat tashkilot bo'lib, barcha keladigan daromadlar xarjatlarni qoplash va tizimni modernizatsiyalashga ishlatiladi.

2-§. SWIFT to'lov tizimiga a'zo bo'lish bosqichlari

SWIFT *– bu egalari bank a'zolari bo'lgan aksionerlik jamiyat hisoblanadi.*

Yuqorida aytilganidek, bu jamiyat Belgiyada ro'yxatga olingan. Shtab-kvartirasi Brusseldan uncha uzoq bo'lmagan La-Ulp shahri-

da joylashgan. Ushbu aksionerlik jamiyati Belgiya qonunchiligi asosida faoliyat yuritadi. Yuqori organi bank a'zolarining umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

Barcha qarorlar Assambleya qatnashuvchilarining ko'pchilik ovozi orqali qabul qilinadi. Bunda bir aksiya – bir ovoz hisoblanadi.

Aksiyalar axborotlarni uzatish soniga qarab taqsimlanadi. AQSH, Germaniya, Shveytsariya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda aksiyalar soni birmuncha ko'p.

SWIFTga milliy qonunchiligida xalqaro bank muomalalarini amalga oshirishga ruxsati bor har bir davlatning banki a'zo bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki SWIFT-da birinchi tranzaksiyalarini 1993-yilning sentabr oyida amalga oshirdi. Hozirgi paytda O'zbekistonning eng yirik banklaridan Xalq banki ham, ushbu tizimga a'zoga bo'ldi.

SWIFTga a'zo bo'lish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

*Birinchi bosqich*da jamiyat a'zoligiga kirish va bankning tarmoqqa qo'shilishi uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish. Bu bosqichda a'zolik bo'yicha ariza taqdim etiladi, jamiyatning muomala xarajatlari uchun to'lovlarni o'tkazadi, bank manzillilari bo'yicha paket hujjatlarni jamiyatga jo'natadi. SWIFTning Direktorlar kengashi bu hujjatlarni ko'rib chiqadi va jamiyatga bankni qabul qilish yoki qabul qilmaslik bo'yicha o'z qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qaror ijobiy bo'lsa, bank nomzod bir marotabalik to'lovni amalga oshirishi va bir dona aksiyani sotib olish huquqini qo'lga kiritadi. SWIFTga a'zo bo'lish juda qimmat turadi. Bir marotabalik badal 400000 Belgiya frankini tashkil etadi. Bundan tashqari, a'zo bank bir dona jamiyat aksiyasini sotib olishi zarurligi xususida to'xtalib o'tgan edik. Ushbu jamiyat aksiyasining narxi 55000 Belgiya franki miqdorida turadi.

*Ikkinchi bosqich*da bankning tarmoqqa ulanishi bilan bog‘liq masala hal etiladi. Bu barcha texnik masalalar, shuningdek, bank telekommunikatsiya uskunalarini xarid qilish (bu uskunalarga taxminan 100000 AQSH dollari atrofida mablag‘ sarflash lozim bo‘ladi) va ushbu tarmoqda ishlash uchun xodimlarni tayyorlash, ya’ni o‘qitish ishlarini amalga oshish masalalari hisoblanadi.

Tarmoqqa qo‘shilish vaqti yilning mart, iyun, sentabr va dekabr oylarining birinchi dushanbasi hisoblanadi.

3-§. SWIFTning afzalliklari va kamchiliklari

SWIFTning kamchiliklari va afzalliklari mavjud:

SWIFT foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– tarmoq axborotlarni uzatishda fizik, texnik va tashkiliy usullar orqali to‘liq xavfsizlikni ta’minlaydi;

– axborotlarni uzatishning ishonchliligi mavjud;

– aloqalar arzon narxda;

– jahonning istalgan nuqtasidan axborotlarni tez uzatish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu axborotlarni uzatish 20 daqiqani tashkil etadi. Axborotlarning zaruriyatiga qarab bu muddat 1–5 daqiqani tashkil etishi mumkin.

Barcha to‘lov hujjatlari bir andozada bo‘ladi. Bu esa ma’lumotlarni ishlashda yengilliklar tug‘diradi.

SWIFT o‘z foydalanuvchilari uchun moliyaviy himoyani kafolatlaydi. Agar SWIFTning aybi bilan kun davomida belgilangan joyga to‘lov yetib bormasa, shu to‘lov bilan bog‘liq barcha xarajatlarni tarmoq o‘z zimmasiga oladi.

SWIFTning katta kamchiligi bo‘lib, foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan qaraganda, bu tizimga kirishning o‘ta qimmatligidir. SWIFTga kirish uchun bank 160–200 ming AQSH dollari miqdorida xarajat qilishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘rta va kichik banklarga qi-

yinchilik va bir qancha muaommolarni tug‘diradi. Bundan tashqari, ichki tashkiliy texnik tizimning murakkabligidir (buzilishlar va boshqa texnik muammolarning kelib chiqishi mumkinligi)

4-§. SWIFT xabarlarini jo‘natish bo‘yicha operatsiyalar

Jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri – bu moliyaviy axborotlar almashinuvida unifikasiyalashtirilgan vositalardan foydalanish. Bu maqsadni amalga oshirirsh uchun ishlab chiqilgan va bugungi kunda takomillashtirilayotgan moliyaviy axborotlarning strukturaviy tizimi ishlab chiqildi, u orqali deyarli bankning va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish mumkin, jumladan, valuta operatsiyalari va fond bozorlaridagi operlar.

Xabarlarni tayyorlab jo‘natish formati standartlashtirilib, u o‘ziga xos bo‘lib, boshqa milliy banklardan mustaqil holda ishlaydi. Shu bilan birga, SWIFT tizimida axborotlarni jo‘natishda ishlatiladigan, o‘zida banklarning identifikatsion kodini (sakkiztalik kod, bank va boshqa moliyaviy institutlarning unikal manzili hisoblanadi) mujassamlashtirgan xabarlarning unifikatsiyalashgan formati ISO tomonidan xalqaro standart sifatida tavsiya etilgan. Turli mamlakatlarning bank faoliyatiga ta’siri kundan kunga oshib bormoqda, SWIFT standartlari moliyaviy axborotlar uchun de fakto standartlariga aylanib bormoqda. Masalan, SWIFT standartlari bazasida ayrim mamalakatlar kliring tizimini ishlab chiqdi (CHAPS Angliyada, SAGRITTER Fransiyada). Mashina pechat qiladigan formatlarning unifikatsiyalashganligi yuborilayotgan xabarlarning tog‘riligiligini tekshirishda qo‘l keladi. U, bir tarafdan, bilmasdan qilingan xatolardan saqlab qoladi va, ikkinchi tarafdan, to‘g‘ri tuzilgan xabarlar uchun tizim orqali harakati tezlashadi.

Bugungi kunda 11 kategoriya mavjud bo‘lib, u o‘zida katta aniqlik bilan moliyaviy operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan

130 turdan ortiq xabarlarni (Message transaction – MT) qamrab olgan.

Xabarlar, odatda, bir foydalanuvchidan ikkinchisiga yuboriladi, shu bilan birgalikda, tizimli xabarlar kategoriyasi mavjud bo‘ladi. Tizimli xabarlar maxsus faoliyatni amalga oshirish uchun va maxsus hisobotlarni olish uchun, ma’lumotlar bazasidan xabarlarni qidirish uchun, o‘quv amaliyoti vaqtida ishlatiladi. Foydalanuvchi tizimdan so‘rov qabul qilishi yoki tizim o‘zining holati haqida mijozga xabar berib turishi mumkin, ya’ni yangiliklar, yangi xizmatlar va boshqalar haqida. Asosan, 3 ta tizimli xabarlar mavjud:

1) LOG-IN/OUT – tizimga kirish/chiqishga mo‘ljallangan tizimli xabar;

2) RETRIEVAL – bu so‘rov orqali tizim saqalangan xabarning nusxasini jo‘natadi;

3) REPORTS – turli hisob turlarini olish imkoniyatini beradi.

Tizimli xabarlar yuqori prioritetga ega, chunki ular tizimning faoliyatiga tegishli bo‘lgan axborotlarni o‘zida saqlaydi. Bank xabarlari tezkor va oddiy xabarlarga bo‘linadi, tezkor xabarlar uchun alohida ta’rif evaziga haq undiriladi.

Qolgan barcha 1–9- va *n*-kategoriyasiga kiradigan xabar turlariga 3 ta raqamdan iborat kodlar berilgan, undan birinchi soni amalga oshiriladigan operatsiyaning kategoriyasini bildiradi.

n kategoriyasi – umumiy guruh xabarlari. Umumiy guruh tarkibidagi ixtiyoriy xabar 1–9-kategoriyada ishlatilishi mumkin. Bu yerda *n* – ixtiyoriy mos keluvchi sonli kategoriya bilan almashtirilishi mumkin; 9 – kategoriyadagi har bir xabarning o‘ziga xosligini bildirib turadi; M – xabarning aniq turini aniqlaydi (masalan, 0 – bildirishnoma; 2 – annulirovat qilish to‘g‘risida talab; 5 va 6 – mos ravishda so‘rov va javob).

1-kategoriya – mijoz o‘tkazmalari va cheklari. Bu kategoriyaning xabarlari to‘lov yoki u haqidagi ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘ladi, qachonki buyurtmachi yoki benifitsiar, yoki ikkalasi ham moliyaviy tashkilot bo‘lmaganda.

2-kategoriya – moliyaviy tashkilotlarning o‘tkazmalari.

Xabarlarning barcha turi yagona prinsip bo‘yicha tuzilgan. Ular boshlang‘ich va yakuniy qismlardan tashkil topgan. Boshlang‘ich qismiga xabar boshlanishining nuqtasi (Start of message), sarlavha (Header), xabarning matnining boshlanish nuqtasi (Start of Text), xabarning matni (Text of message) kiradi. Yakuniy nuqtasiga esa matn oxirining nuqtasi (End of text), parametrlar (Trailer) va xabarning oxirgi nuqtasi (End of message) kiradi. Boshlang‘ich va yakuniy qismlari «convert» tashkil qiladi. U orqali xabarlar yuboriladi va tarkibida xabarlarning harakatini boshqarish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni jamlaydi. Sarlavha xabarni qabul qilib oluvchining o‘n birlik kod idenfikatoridan iborat bo‘ladi (Bank Identifier Code, BIC, tizimdagi manzil hisoblanadi), yuboruvchining terminal kodidan, boshqaruv va himoya funksiyasini bajaruvchi joriy beshtalik raqam (ulardan prioritetning ikkitalik kodi va xabarning uchlik kodi)dan iborat. Parametrlarda autentifikatsiya kodi va boshqa xabarlar ko‘rsatiladi, masalan, qabul qiluvchi bankni xabar yuborilishining kechiktirilishi to‘g‘risida xabardor qilish, ikki martalik to‘lov bo‘lishi mumkinligi haqida xabardor qilish va boshqalar. Xabar yuborilayotganda tizim xabar matnini ko‘rmaydi.

Xabar matni ikkilik raqam kodidan tashkil topgan maydonlardan iborat bo‘ladi. Masalan, 57 kodi – schyot yuritilayotgan bankni bildiradi; 71 – to‘lov kim tomonidan amalga oshirilayotgani va kommisiyaning qiymati; 32 – to‘lov summasi. Xabar matniga ma’lumotlar aniq ketma-ketlikda kiritiladi. Maydonning qismlarini to‘ldirish majburiy hisoblanadi.

Har bir alohida xabar turi uchun maydonni to‘ldirish usullari mavjud. Majburiy maydonlar xabarni to‘g‘ri qayta ishlash uchun mo‘ljallangan ma’lumotni o‘zida jamlaydi. Matn va sarlavhalar bank mutaxassislari tomonidan maydonni to‘g‘ri to‘ldirish qonun-qoidalari asosida kiritiladi.

Zamonaviy SWIFT tizimining arxitekturasi. SWIFTning texnik infratuzilmasi 1970-yillarda tashkil qilingan va butun dunyoda

joylashgan yuqori tezlikda xabar jo'natuvchi liniyalar bilan ulangan kompyuter markazlaridan iborat edi. Turli mamlakatlardagi turli moliyaviy tashkilotlar turli terminallar orqali SWIFTga a'zo bo'lishlari mumkin. Boshida SWIFT tizimi o'zida quyidagilarni jamlagan:

– ikkita operatsion markazlar AQSHda va Niderlandiyada;
– beshta aktiv tizimlar AQSHda va Niderlandiyada;
– turli mamalakatlardan regional protsessorlar;
– umumiy va maxsus foydalanishga mo'ljallangan aloqalar kanali.

Operatsion markazlarda tizimda ishlovchi texnik ta'minotlar va dastur ta'minotlarining kunlik nazorati olib borladi, diagnostik ma'lumotlar yig'iladi, sboydan keyin qayta tiklaydigan diagnostik jarayoni boshqariladi.

Qaysi vaqtgacha SWIFT–1 o'ziga yuklangan vazifalarni bajara olgan. Ammo mijozlar sonining o'sishi, tizimdagi trafiklar va texnikalarning eskirishi yangi tizimli arxitekturani kiritsh kerakligini ko'rsatib o'tdi. SWIFT–2 ga o'tish 1989-yil oxirlarida boshlanib, 1995-yilga kelib to'liq tugatildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tizim foydalanuvchilari bu jarayon payti hech qanday salbiy ta'sirini his qilmadilar. SWIFT–2 da ko'proq ishlab chiqaradigan protsessorlar va tarmoqli vositalar foydalanilgan. Ular trafikni oshirish va takomillashgan dastur ta'minotidan foydalanadi. SWIFT–1 kabi SWIFT–2 ham odam qatnashmagan holda ikkita operatsion tizim o'zaro bog'langan holda faoliyat yuritadi.

5-§. SWIFT faoliyatining xavfsizligini ta'minlash

SWIFT tizimi xabarlarning xavfsizligini yuqori darajada ta'minlab beradi. SWIFT tizimli trafikining to'liqligini va konfedensialligini ta'minlash maqsadida keng ko'lamda profilaktika va nazorat

ishlari olib boriladi. Shu o‘rinda, mijozlarga xizmat ko‘rsatishga ta’sir qilmagan holda himoyani ta’minlashda tizimli yondashuv talab etiladi, unda esa integral himoyani ta’minlashda tizimning barcha kompanentlariga e’tibor qaratiladi: dastur ta’minotiga, terminallarga, texnik infrastrukturaga, personalga, binolarga. Shu o‘rinda, risklarning butun spektori ko‘rib chqiladi, ya’ni qaloblikdan tortib to mayday jismoniy resurslarning yomonlashishigacha bo‘lgan risklarni. Himoya vositalarini ishlab chiqish va kuchaytirish tizimda general inspektor boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tashqi auditorlar himoyalarining tekshiruv ishlari amalga oshiriladi. SWIFTda mijozlar va kompaniyalar tomonidan himoyani ta’minlashda javobgar bo‘lga bo‘lim tizimda mavjud. Foydalanuvchi to‘g‘ri ekspluatatsiya, terminalning fizik himoyasiga, dostup nuqtasigacha bo‘lgan modem va liniya va xabarlarining to‘g‘ri tuzilganligiga javob beradi. Qolgan barcha javobgarlik SWIFTning bo‘ynida qoladi.

Terminallarni himoya qilish maqsadida parol asossida foydalanuvchilar soni kamaytirildi, 1993-yilda esa smartkartlar asosida. Teminalni setga ulashda SWIFT ko‘p talablar qo‘yadi. Agar liniya uzilib qolsa, to‘siqlar mavjud bo‘lsa, xabar yuborishda bir nechta xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, xabar notog‘ri raqam bilan kiritilgan bo‘lsa va boshqa hollarda tizim tomonidan terminal avtomatik ravishda o‘chirilishi mumkin. Past sifatli liniyalarni aniqlash uchun va terminal orqali tasniflanmagan xizmatlarni aniqlash uchun tizimda alohida fayl yuritiladi unda barcha o‘chirilgan terminallar avtomatik tarzda fiksirlanadi. Xabarlarni yuborishda ya’ni ularni chiqib ketgandan so‘ng va yetib borguncha SWIFT tomonidan o‘rnatilgan maxsus shifrlaydigan vosita orqali ulanish sxemasini ishlatishni tavsiya etiladi. SWIFT kommunikatsiyasining himoyalash uchun xalqaro liniya aloqalarida yuboriladigan barcha xabarlar shifrlanadi. Xabarlar shifrlangan

holida saqlanib qoladi va personal uni maxsus dostupsiz o‘qiy olmaydi.

Dasturning texnik himoya qoidalariga quyidagilar kiradi:

Xabarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi kodlar. Ular maxsus algoritmlar yordamida kiritiladi va xabarlarni ushlashda baza hisoblanadi. Algoritm hammaga ma’lum bo‘lsa ham, kerakli kalitni faqat yuboruvhi va qabul qilib oluvchi biladi. Kalitlarni har yarim yilda almashtirshni maslahat berishadi.

Xabarning davomiyligi nazorati. SWIFT xabarlariga kirish va chiqish uchun unikal raqamlari har aloqa seansida beriladi. Kirish natijaviyligi slays-protsessori orqali qayta ishlanadi, chiqish esa qabul qiuvchi tomonidan. Agar yuqorida sanab o‘tilganlar bajarilmasa, nafaqat xabar yuborilmaydi, balki foydalanuvchi terminali o‘chirib qo‘yiladi. Bu mexanizmda hech qaysi xabar o‘chib ketmaydi va dublikat qilinmaydi.

Tizim arxitekturasi ham himoyalangan. Tizimda keng rezervlangan apparat vositalari ishlatiladi. Aloqaning barcha kanallari zashifrofka qilingan ma’lumotlar bilan ishlaydi, telekommunikatsiyalashgan vositalarga kirish man etilgan.

Vositalarning ishlamay qolishi ehtimolida barcha xabarlar himoyalanadi va ular saqlab qolinadi, lekin ularning yetib borganligi to‘g‘risidagi axborot alohida saqlanadi. Shubhalar paydo bo‘lganda foydalanuvchi qabul qilib olgan xabarlarning nusxasini so‘rashi mumkin. Qo‘shimcha harakatlarni amalga oshirgan holda, jumladan, aloqa kanallarini himoyalashda apparat vositalari tizim ma’lumotlariga bo‘lgan noqonuniy ta’sirlardan himoyalaydi.

Shu kungacha amalga oshirilgan ishlar natijasida SWIFT tizimida hech qanday noqonuniy hujum va ma’lumotlar yo‘qolishi kuzatilmagan. Shunday qilib, SWIFTni banklararo aloqalarda ishlatilishi ma’lumotlarning tez, qulay, xavfsiz holda moliyaviy tashkilotlar va banklar o‘rtasida aylanish imkoniyatini beradi.

Nazorat savollari:

1. *SWIFT xalqaro to'lov tizimining mazmuni nimadan iborat?*
2. *SWIFT tizimi tashkil etilishining qisqacha tarixini gapirib bering.*
3. *SWIFT xalqaro to'lov tizimining vazifalari nimalardan iborat?*
4. *SWIFT xalqaro to'lov tizimining aksiyadorlari kimlar bo'lishi mumkin?*
5. *SWIFT xalqaro to'lov tizimining ishlash tartibi qanday?*
6. *SWIFT xalqaro to'lov tizimining ishlash tamoyillarini sanab o'ting.*
7. *SWIFT to'lov tizimiga a'zo bo'lish bosqichlarini sanab o'ting va izohlang.*
8. *SWIFT to'lov tizimi orqali hisob-kitoblarning turlari haqida gapirib bering.*
9. *SWIFT to'lov tizimi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi haqida gapirib bering.*
10. *SWIFTning afzalliklari nimalardan iborat?*
11. *SWIFT tizimining kamchiliklari ham mavjudmi?*

VIII BOB
YANGI BANK TEXNOLOGIYALARI

Tayanch tushunchalar: *bank texnologiyalari, bank ekvayr, elektron bank xizmati, texnik vositalar, «Internet banking», «MailBank», «Supermarket banking, elektron imzo, modem aloqasi, fayl, ma'lumotlarni uzatish tizimi, ma'lumotlarni uzatish vositalari, ma'lumotlar bazasi, server, real vaqt tartibi, qog'ozsiz elektron usullar.*

1-§. Elektron bank xizmati va uning tarkibiy qismlari

Oxirgi yillarda «elektron pullar», «elektron xizmatlar» degan atamalar tez-tez ishlatilmoqda. «Elektron pullar» va «elektron xizmatlar»ning O‘zbekiston chakana to‘lovlar tizimlari bozorida shakllanishi va aktiv holda rivojlanishi bor-yo‘g‘i bir necha yil avval boshlandi. Bunday innovatsion vositalarning paydo bo‘lishi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning tezlik bilan rivojlanishini taqozo etdi, shu bilan birga, yangi bank xizmatlarining keng rivojlanishiga yo‘l ochib berdi.

Hozirgi kunda bank xizmatlarining turlari tobora ko‘payib bormoqda. Shulardan biri elektron bank xizmatlaridir.

> ***«Elektron bank»*** *– bankning mijozi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga Internet elektron tarmog'i orqali o'zlarining hisobvaraqlari bo'yicha bank xizmatlaridan foydalanishga imkon yaratib beruvchi raqamlardan iborat xizmatdir*

Bu xizmat turi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibini yoritishdan avval, ushbu xizmat bo‘yicha ba’zi atamalarni keltiramiz:

Ushbu uslubiy tavsiyalar maqsadida quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

a) Internet – jahon kompyuter tarmog‘i, ya’ni global muloqot muhiti;

b) Web-sayt – moliyaviy operatsiyalarning dasturiy mahsuloti joylashgan Internet-sayt;

d) Web-brauzer – Internetda ishlash uchun dasturiy mahsulot (Internet bo‘yicha yo‘l ko‘rsatuvchi);

e) modullik – tarmoqning nisbiy mustaqilligi;

f) ochiq arxitektura – onson loyihalashtirishning imkoniyati;

g) kripto jarayon – ma’lumotlarni shifrlash va deshifrlash jarayoni;

h) AIJ – avtomatlashtirilgan ish joyi;

i) SSL (Secure Sockets Layer) – ma’lumotlarni o‘tkazishda qo‘llaniladigan xafvsiz protokol;

j) auntenfikatsiya – haqiqiylikni (tasdiqlash) o‘rnatish;

k) yagona session kalitning yaratilishi – ma’lumotlar muhofazasini ta’minlaydigan nodir kod (raqamlar yig‘indisi yoki belgilar) ning qayta ishlab chiqilishi;

l) IP – axborotlar almashinuvini amalga oshiradigan tarmoqlararo protokol.

«Elektron bank» veb-sahifa va veb-brauzer orqali mijozlarga turli operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. «Elektron bank» mijozlarga o‘z hisob raqamlarining holatini, shuningdek, uning tarixini (barcha to‘lovlar va tushumlar yozuvlari) real vaqt tartibida batafsil o‘rganishga va zarurat tug‘ilganda mijozlar bilan ishlovchi, ya’ni naqd pul olishdan tashqari, barcha bank va konsultativ xizmatlarni o‘z ichiga oladigan xizmat bo‘limiga murojaat qilishga imkon beradi.

«Elektron bank» tizimi tarkibiy qismlari jihatidan quyidagi uchta kichik tizimlardan iborat bo‘lishi mumkin:

– «InternetBank» – elektron to‘lovlar kichik tizimi;

– «PhoneBank» – telefon orqali bank kichik tizimi;
– «MailBank» – elektron to‘lovlar kichik tizimi.


«Elektron bank» tizimining asosiy qoidalari quyidagilardir:

a) mijoz-server;
b) modullik;
d) ochiq arxitektura;
e) real vaqt tartibi;
f) moslanuvchanlik.

Bu qoidalarni quyidagi chizmaga mujassamlashtiramiz:

14-chizma

«Elektron bank» tizimining asosiy qoidalari



«Elektron bank» dasturiy ta'minoti bankning o'zi yoki kompyuter dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqishga ixtisoslangan kompaniyaning mahsuloti bo'lishi mumkin va u maqsadlari bo'yicha bank faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq hamda tegishli tartibda sertifikatlashlari lozim.

Banklar Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarning bank korporativ tarmog'idan va bank kompyuterlaridan alohida ajratilgan bo'lishi sharti bilan, Internet tarmog'idan «Elektron bank»ning ish jarayoni vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Shunday qilib, «Elektron bank» – bankning mijozi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga «Internet» elektron tarmog'i orqali o'zlarinining hisobvaraqlari bo'yicha bank xizmatlaridan foydalanishga imkoniyat yaratuvchi raqamlardan iborat xizmatdir.

2-§. «Internet Banking» elektron to'lovlari kichik tizimining banklar faoliyatida tutgan o'rni

«InternetBank» (Internet bank) *– mijoz tomonidan o'z hisob raqamini Internet orqali masofadan boshqarish tizimidir.*

«InternetBank» – bank va mijozning o'zaro majmuaviy interaktiv faoliyati bo'lib, u quyidagilardan iborat:

a) o'z hisobvaraqlari holati va barcha operatsiyalar tarixi haqida ma'lumotlar olish;

b) hisob raqamlarni ochishda ularni zaxiralash imkoniyati;

d) nostandart vaziyatlar haqida bankni tezkor ogohlantirish, masalan, to'lovda yo'l qo'yilgan xato bo'lgan holda;

e) bank, uning mahsulotlari va xizmatlari haqida tezkor axborot olish, bankdan elektron ko'rinishda ma'lumotlar (masalan, bitim va shartnoma shakllari) yoki dasturiy mahsulotlarni, onlayn konsultatsiyalarni olish.

Internet tarmog‘iga chiqadigan kompyuterlarda antivirus dasturiy ta’minotlari o‘z vaqtida yangilanib turishi zarur.

«Internet banking»ga ulanish uchun mijoz quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:

a) internet tarmog‘iga ulangan kompyuter yoki boshqa qurilma;

b) brauzer dasturi;

d) axborot muhofazasini qo‘shimcha darajada ta’minlaydigan quyidagi vositalar:

– kodlash darajasini oshirish maqsadida qo‘shimcha dasturiy modulni yoki ko‘makchi dasturni yoxud smart kartalar texnologiyasini qo‘llaydigan tizimlarni o‘rnatish;

– identifikator va ro‘yxatdagi nomi bilan bir qatorda, tranzaksiyalar raqamlari ro‘yxatidan (TAR), ya’ni faqat bitta bank operatsiyasi uchun bir martalik qo‘llaniladigan parollar yig‘indisidan foydalanish.

Ovozli axborot «PhoneBank» (telefon orqali bank) kichik tizimi bank mijozlariga aniq vaqt tartibida quyidagi axborot va to‘lov xizmatlarini ko‘rsatadi:

1. Universal parol bo‘yicha barcha foydalanishi mumkin bo‘lgan xizmatlar:

a) bankning axborot ma’lumot xabarlari, zarurat tug‘ilganda operatorga ulanish;

b) joriy sanadagi valuta kurslari, zarurat bo‘lganda esa kurslar jadvalini faks apparatiga yuborish.

2. Mijozlarni doimiy yoki bir seans kodlari orqali identifikatsiya qiluvchi norasmiy xizmat:

a) aniq mijozlar uchun axborot;

b) har qanday sanadagi valuta kurslari;

d) mijozning hisobvaraqlari holati (har qanday sanadagi qodiqlar va aylanmalar);

e) to‘lov hujjatlaridan ko‘chirma va nusxalarni faks apparatidan olish.

15-chizma

«Internet banking»ning imkoniyatlari

«Internet bank» – mijoz tomonidan o‘z hisob raqamini Internet orqali masofadan boshqarish tizimi, ya’ni bank va mijozning o‘zaro majmuaviy interaktiv faoliyatidir

Hisob raqamlarini ochishda ularni zaxira-lash imkoniyatini beradi

Mijoz o‘z hisob raqamlari holati va barcha operatsiyalar tarixi haqida ma’lumot oladi

INTERNET-BANKING

Nostandart vaziyatlar haqida bankni tezkor ogohlantirish imkoniyatini beradi

Bank, uning xizmatlari va mahsulotlari haqida tezkor ma’lumot olish imkoniyatini yaratadi

Tizimdan foydalanish uchun mijozga ovozli terish rejimiga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lgan telefon apparati kerak bo‘ladi. Mijoz bankka qo‘ng‘iroq qiladi, u yerda kompyuter telefoniya platasi o‘rnatilgan kompyuter telefon «go‘shagini ko‘taradi». Ovoz tizimi va insonning muloqoti mijozning telefon apparatidagi raqamli tug-

machalarni bosishi hamda taklif etiladigan buyruqlar orqali amalga oshiriladi, masalan: «Hisob raqamingiz holati to‘g‘risidagi ma’lumotni olmoqchi bo‘lsangiz, 1 raqamni bosing, chet el valutalar kurslari to‘g‘risidagi ma’lumotni olmoqchi bo‘lsangiz, 2 ni bosing...» Mijoz o‘z telefon apparatidagi tegishli tugmachalarni bosadi, shundan keyin unga tizim yoki yangi xizmatlar ro‘yxatini taklif etadi, yoki qiziqtirgan ma’lumotni xabar qiladi. Axborotni muhofaza qilish, hisob raqamlarni kodlash shifrning turli algoritmlari va parollash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, «Internet banking» mijozlarga xizmat ko‘rsatishning eng qulay usuli hisoblanadi.

O‘zbekistonda «Internet banking» xizmatlari shakllangan, lekin uni rivojlangan deyish qiyin. Hali barcha banklarda ushbu xizmat turi mijozlarga taklif etilmagan, mijozlarning ko‘pi bu xizmat turi haqida xabardor emas. Hukumatimiz tomonidan bank tizimini yanada rivojlantirish, bank tizimida islohotlar o‘tkazib, ko‘plab ishlar qatorida banklarda axborot-aloqa texnologiyalarini keng qo‘llash, jumladan, «Internet banking» bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ1438- sonli «2011–2015-yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori ilovasida «Ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining sifati va ko‘lamini axborot-aloqa texnologiyalarini keng qo‘llash bilan kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, 2015-yilgacha respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga «Internet banking» bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash»[2] vazifasi belgilab berildi.

Ushbu vazifa 2011–2015-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda amaliy ishlar boshlab yuborilgan.

3-§. «MailBank» elektron to‘lovlari kichik tizimining xususiyatlari

«Minibank» kichik tizimi bank mijoziga tegishli to‘lovlarni elektron usullardan foydalangan holda qog‘ozsiz amalga oshirishdan iborat. Bundan tashqari, bank mijoziga qo‘shimcha ravishda uning hisob raqami holati to‘g‘risida axborot hamda bank faoliyati va u ko‘rsatayotgan xizmat turlari haqida ma’lumot berishi mumkin.

«MailBank» funksional jihatdan ikki qismdan iborat:
a) elektron to‘lovlar serveri (tizimning kichik bank qismi);
b) bank mijozining ARMi (kichik tizimning mijozlar qismi).

«MailBank»ning bank qismi quyidagilardan iborat:

a) so‘rovnomalarni qayta ishlovchi;

b) «MailBank» administratori;

d) buxgalterning ish joyi;

e) operatorning ish joyi.

So‘rovnomalarni qayta ishlovchi qism mijozlardan kelgan so‘rovlarni qabul qiladi, ularni rasshifrovka qiladi, qayta ishlab chiqadi, javoblarni shifrlaydi va ularni mijozga yuboradi.


«MailBank» administratori mijozlarga hisob raqamlari va so‘rovnomalar ma’lumotlariga kirib borishga ruxsat, mijozlar bilan ishlash bo‘yicha tizimdagi statistikani ko‘rib chiqishga imkon beradi, mijozlarga ko‘chirmalarni shakllantiradi va yuboradi, «MailBank» xizmatidan foydalanganligi uchun abonent haqini undiradi va haq yozadi.

Internet orqali mijozga xizmat ko‘rsatganda xavfsizlik masalalari quyidagi tizimlar ishlab chiqarishning har bir bosqichida hal etilgan bo‘lishi kerak:

a) foydalanuvchilar huquqlarini cheklash;

b) tarmoq orqali yuborishda axborotlar muhofazasi;

d) axborotlarni haqqoniyligini tasdiqlash.



Foydalanuvchilar huquqini cheklash deganda, foydalanuvchilar tizimining aniq ma’lumotlariga kirib borishga ruxsat nazorati, shuningdek, foydalanuvchilarning aniq ma’lumotlar bilan bo‘lishi mumkin bo‘lgan harakatlari ustidan nazorat tushuniladi.

Har bir foydalanuvchi bank hujjatlariga ularning xususiyatlari (parametrlari) yig‘indisi bo‘yicha murojaat qilishi va tizim hujjatlariga qo‘shimcha qilishi, modifikatsiyalash va hujjatlarni olib tashlash imkoniyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos yagona huquqlar yig‘indisiga ega.

Tizimda barcha harakatlar, albatta, faqat foydalanuvchi huquqlarining tekshirilishidan keyin amalga oshirilishi kerak.

Tizimda shart bo‘lgan ravishda u yoki bu harakatlarning aniq tashabbuskorini aniqlash uchun foydalanuvchining muhim ma’noga ega bo‘lgan amallari daftari yuritiladi.

Tarmoq bo yicha yuboriladigan ma'lumotlar himoyasi deganda, ochiq tarmoq aloqasi orqali yuboriladigan ma'lumotlar tahlili asosida tizimning aniq ma'lumotini yashirish, foydalanuvchilarga to‘sqinlik ko‘rsatuvchi choralar yig‘indisi tushuniladi.

Ushbu maqsadlarda SSL (Secure Sockets Layer) protokolidan foydalaniladi, bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

a) veb-serverning haqiqiyligini tasdiqlash. Mijoz xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan tizimning aniq serveri bilan bog‘lanishini kafolatlaydi;

b) yagona bir seansli kalitni yuzaga keltirish. Bir seansli kalit ma'lum bir davrda (aloqaning bir seansida) aloqa uzilib qolganda ham, axborotlarni muhofaza qiladi;

d) ma'lumotlar xavfsizligini kafolatlaydigan himoyalash turida Internet bo‘yicha ma'lumotlar yuborish.

Bundan tashqari, axborotni kripto muhofaza qilishning sertifikatlangan vositalaridan foydalanish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, «MailBank» – bank mijoziga tegishli to‘lovlarni elektron usullardan foydalangan holda qog‘ozsiz amalga oshirishidan iborat.

Bundan tashqari, bank mijoziga qo‘shimcha ravishda uning hisob raqami holati to‘g‘risida axborot hamda bank faoliyati va u ko‘rsatayotgan xizmat turlari haqida ma'lumot berishi mumkin.

4-§. Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalari, ularning O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanishi va istiqbollari

Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalaridan biri – bu «Supermarket banking»dir. Bank mahsulotlarini kengaytirish, bozorni segmentlarga ajratish, chakana xizmatlarning taklifini kengaytirish hamda bank moliyaviy natijalarini yanada yaxshilash uchun ortiq-

cha chiqim va xarajatlarni cheklashga qaratilgan bank strategiyalarni amalga oshirish kabilar bank–mijoz munosabatlarini yaxshilash uchun asos bo‘ladi.

Banklarning rivojlanishida chakana xizmatlarning ham o‘z o‘rni bor. Banklarning chakana xizmatlarini rivojlantirishdagi yangi yo‘nalishlardan biri – bu «Supermarket banking»dir.

Supermarket banking (Supermarket banking) ingliz tilidan olingan bo‘lib, uning so‘zma-so‘z tarjimasi – «do‘konda bank operatsiyalari». Supermarket banking tarixan AQSHda paydo bo‘lgan va quyidagi o‘ziga xos belgilarga ega:

– tijorat markazlarida xaridorlar oqimi katta bo‘ladi;

– bunday oqimlarni do‘konda bank bo‘limlari joylashgan yerlarga yo‘naltirish imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– supermarketlarda turli toifadagi iste’molchilar bilan aloqa bog‘lash imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– banklar o‘z xizmatlarini kengaytirish va tabaqalashtirish uchun tijorat markazlaridan manfaatdor bo‘ladi;

– banklar bilan tijorat markazlari bir-birlariga mahsulot sotish operatsiyalarini amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdor bo‘ladi.

Bank supermarketda o‘z ishini do‘konning an’anaviy joylarida minibo‘limlar ochishdan boshlab, keyinchalik bank yirik bank zallarida va boshqa joylarda tashkil etishi mumkin. «Supermarket banking» uchun qandaydir ideal model yo‘q. Optimal variantga erishish uchun xilma-xil strategiyalarga amal qilish kerak bo‘ladi. Mazkur strategiyalar loyihalash, joylashtirish masalalari, tashkiliy va texnikaviy jihatlar ishlab chiqilgan, shuningdek, band bo‘ladigan xodimlarning optimal soni belgilangan vaqtdagina muvaffaqiyatli bo‘ladi.

«Supermarket banking»ning tashkiliy modeli va uni joylashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langandir. Birinchi element bank bo‘limining joylashishidan kelib chiqadi: tijorat markazi ichida u qoida

tarmoq bo yicha yuboriladigan ma'lumotlar himoyasi degan-
da, ochiq tarmoq aloqasi orqali yuboriladigan ma'lumotlar tahlili asosida tizimning aniq ma'lumotini yashirish, foydalanuvchilarga to‘sqinlik ko‘rsatuvchi choralar yig‘indisi tushuniladi.

Ushbu maqsadlarda SSL (Secure Sockets Layer) protokolidan foydalaniladi, bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

a) veb-serverning haqiqiyligini tasdiqlash. Mijoz xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan tizimning aniq serveri bilan bog‘lanishini kafolatlaydi;

b) yagona bir seansli kalitni yuzaga keltirish. Bir seansli kalit ma'lum bir davrda (aloqaning bir seansida) aloqa uzilib qolganda ham, axborotlarni muhofaza qiladi;

d) ma'lumotlar xavfsizligini kafolatlaydigan himoyalash turida Internet bo‘yicha ma'lumotlar yuborish.

Bundan tashqari, axborotni kripto muhofaza qilishning sertifikatlangan vositalaridan foydalanish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, «MailBank» – bank mijoziga tegishli to‘lovlarni elektron usullardan foydalangan holda qog‘ozsiz amalga oshirishidan iborat.

Bundan tashqari, bank mijoziga qo‘shimcha ravishda uning hisob raqami holati to‘g‘risida axborot hamda bank faoliyati va u ko‘rsatayotgan xizmat turlari haqida ma'lumot berishi mumkin.

4-§. Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalari, ularning O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanishi va istiqbollari

Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalaridan biri – bu «Supermarket banking»dir. Bank mahsulotlarini kengaytirish, bozorni segmentlarga ajratish, chakana xizmatlarning taklifini kengaytirish hamda bank moliyaviy natijalarini yanada yaxshilash uchun ortiq-

cha chiqim va xarajatlarni cheklashga qaratilgan bank strategiyalarni amalga oshirish kabilar bank–mijoz munosabatlarini yaxshilash uchun asos bo‘ladi.

Banklarning rivojlanishida chakana xizmatlarning ham o‘z o‘rni bor. Banklarning chakana xizmatlarini rivojlantirishdagi yangi yo‘nalishlardan biri – bu «Supermarket banking»dir.

Supermarket banking (Supermarket banking) ingliz tilidan olingan bo‘lib, uning so‘zma-so‘z tarjimasi – «do‘konda bank operatsiyalari». Supermarket banking tarixan AQSHda paydo bo‘lgan va quyidagi o‘ziga xos belgilarga ega:

– tijorat markazlarida xaridorlar oqimi katta bo‘ladi;

– bunday oqimlarni do‘konda bank bo‘limlari joylashgan yerlarga yo‘naltirish imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– supermarketlarda turli toifadagi iste’molchilar bilan aloqa bog‘lash imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– banklar o‘z xizmatlarini kengaytirish va tabaqalashtirish uchun tijorat markazlaridan manfaatdor bo‘ladi;

– banklar bilan tijorat markazlari bir-birlariga mahsulot sotish operatsiyalarini amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdor bo‘ladi.

Bank supermarketda o‘z ishini do‘konning an’anaviy joylarida minibo‘limlar ochishdan boshlab, keyinchalik bank yirik bank zallarida va boshqa joylarda tashkil etishi mumkin. «Supermarket banking» uchun qandaydir ideal model yo‘q. Optimal variantga erishish uchun xilma-xil strategiyalarga amal qilish kerak bo‘ladi. Mazkur strategiyalar loyihalash, joylashtirish masalalari, tashkiliy va texnikaviy jihatlar ishlab chiqilgan, shuningdek, band bo‘ladigan xodimlarning optimal soni belgilangan vaqtdagina muvaffaqiyatli bo‘ladi.

«Supermarket banking»ning tashkiliy modeli va uni joylashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langandir. Birinchi element bank bo‘limining joylashishidan kelib chiqadi: tijorat markazi ichida u qoida

Tarmoq bo‘yicha yuboriladigan ma’lumotlar himoyasi deganda, ochiq tarmoq aloqasi orqali yuboriladigan ma’lumotlar tahlili asosida tizimning aniq ma’lumotini yashirish, foydalanuvchilarga to‘sqinlik ko‘rsatuvchi choralar yig‘indisi tushuniladi.

Ushbu maqsadlarda SSL (Secure Sockets Layer) protokolidan foydalaniladi, bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

a) veb-serverning haqiqiyligini tasdiqlash. Mijoz xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan tizimning aniq serveri bilan bog‘lanishini kafolatlaydi;

b) yagona bir seansli kalitni yuzaga keltirish. Bir seansli kalit ma’lum bir davrda (aloqaning bir seansida) aloqa uzilib qolganda ham, axborotlarni muhofaza qiladi;

d) ma’lumotlar xavfsizligini kafolatlaydigan himoyalash turida Internet bo‘yicha ma’lumotlar yuborish.

Bundan tashqari, axborotni kripto muhofaza qilishning sertifikatlangan vositalaridan foydalanish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, «MailBank» – bank mijoziga tegishli to‘lovlarni elektron usullardan foydalangan holda qog‘ozsiz amalga oshirishidan iborat.

Bundan tashqari, bank mijoziga qo‘shimcha ravishda uning hisob raqami holati to‘g‘risida axborot hamda bank faoliyati va u ko‘rsatayotgan xizmat turlari haqida ma’lumot berishi mumkin.

4-§. Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalari, ularning O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanishi va istiqbollari

Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalaridan biri – bu «Supermarket banking»dir. Bank mahsulotlarini kengaytirish, bozorni segmentlarga ajratish, chakana xizmatlarning taklifini kengaytirish hamda bank moliyaviy natijalarini yanada yaxshilash uchun ortiq-

cha chiqim va xarajatlarni cheklashga qaratilgan bank strategiyalarni amalga oshirish kabilar bank–mijoz munosabatlarini yaxshilash uchun asos bo‘ladi.

Banklarning rivojlanishida chakana xizmatlarning ham o‘z o‘rni bor. Banklarning chakana xizmatlarini rivojlantirishdagi yangi yo‘nalishlardan biri – bu «Supermarket banking»dir.

Supermarket banking (Supermarket banking) ingliz tilidan olingan bo‘lib, uning so‘zma-so‘z tarjimasi – «do‘konda bank operatsiyalari». Supermarket banking tarixan AQSHda paydo bo‘lgan va quyidagi o‘ziga xos belgilarga ega:

– tijorat markazlarida xaridorlar oqimi katta bo‘ladi;

– bunday oqimlarni do‘konda bank bo‘limlari joylashgan yerlarga yo‘naltirish imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– supermarketlarda turli toifadagi iste’molchilar bilan aloqa bog‘lash imkoniyati mavjud bo‘ladi;

– banklar o‘z xizmatlarini kengaytirish va tabaqalashtirish uchun tijorat markazlaridan manfaatdor bo‘ladi;

– banklar bilan tijorat markazlari bir-birlariga mahsulot sotish operatsiyalarini amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdor bo‘ladi.

Bank supermarketda o‘z ishini do‘konning an’anaviy joylarida minibo‘limlar ochishdan boshlab, keyinchalik bank yirik bank zallarida va boshqa joylarda tashkil etishi mumkin. «Supermarket banking» uchun qandaydir ideal model yo‘q. Optimal variantga erishish uchun xilma-xil strategiyalarga amal qilish kerak bo‘ladi. Mazkur strategiyalar loyihalash, joylashtirish masalalari, tashkiliy va texnikaviy jihatlar ishlab chiqilgan, shuningdek, band bo‘ladigan xodimlarning optimal soni belgilangan vaqtdagina muvaffaqiyatli bo‘ladi.

«Supermarket banking»ning tashkiliy modeli va uni joylashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langandir. Birinchi element bank bo‘limining joylashishidan kelib chiqadi: tijorat markazi ichida u qoida

tariqasida, markaziy o‘tish joyida supermarket kassalarining qarshisida joylashadi (bunday joylashish navbatda turgan mijozlarni u yerdagi reklamaga e’tibor berishga majbur qiladi). Shu bilan birga, markazga keluvchilarga bank bo‘limining old tomoni namoyon bo‘lib, unda bankning markasi (savdo belgisi) ajralib turadi, supermarket ichida bu bo‘lim ancha ko‘rinarli qilib do‘konga kiraverishga yoki kafe atrofiga, hech bo‘lmaganda, bevosita kassalar oldiga joylashtirilishi lozim.

«Supermarket banking» bo‘limining zarur belgilari uning ko‘zga tashlanib turishi, xaridorlar oqimining o‘rtasida bo‘lishi, shuningdek, kirish osonligi va jozibadorligidan iborat, ya’ni mijozlar uchun sotish punktiga borish, xodimlar uchun mijozlarni osongina jalb etish tabiiy va yengil bo‘lishi lozim).

Bo‘limning joylashishi shunday loyihalashtirilishi kerakki, natijada hozirgi va bo‘lajak mijozlarni bank tijorat siyosatining asosiy elementlaridan xabardor qilish va, ayni vaqtda, ularga innovatsiya tashabbuslari haqida ko‘pincha supermarket faoliyati bilan chambarchas bog‘langan holda axborot berish mumkin bo‘lsin. Sotish punktining ishi uchun uni ochish vaqti katta ahamiyatga ega. Bu vaqt bank bo‘limining uzviy qismi bo‘lgan savdo markazining ochilish vaqtiga to‘g‘ri kelishi shart, holbuki, bo‘lim xodimlari xaridorlar oqimiga va bozorning tegishli imkoniyatiga qarab tabaqalashadi.

Ikkinchi element taklif qilinadigan xizmatlar turi bilan ifodalanadi. Bank bo‘limining turi uchta har xil operativ zona bo‘lishini nazarda tutadi:

Birinchisi ochiq va kirish oson zona bo‘lib, o‘ziga o‘zi xizmat qilish qurilmalaridan to‘lovni qabul qilish uchun avtomat kassa apparati va boshqalar joylashgan yerda bo‘ladi; bu zona jozibali, qulay bo‘lishi kerak. Masalan, bank apparati orqali operatsiyalarni o‘tirgan holatda amalga oshirish mumkin bo‘lsin. Shu bilan birga, bunday apparatlar bilan ishlashda mijozlarga yordam berish uchun

hamda ularga ba'zi birlamchi tijorat axborotini berish uchun hech bo'lmaganda bitta xodim doimo hozir bo'lib turishi kerak.

Ikkinchi zona bir yoki bir necha nafar xodim ishtirokida bank bo'limining an'anaviy xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan: bunday xizmatlarning bo'lishi muayyan operatsiyalarni amalga oshirishni (masalan, naqd pulni boshqarish chog'ida xavfsizlikni ta'minlash) taqozo etadiki, bu hol bank bo'limini alohida loyihalashni taqozo qiladi.

Uchinchi zona tijorat maslahatlari uchun mo'ljallangan va u yerda mijozlar bilan aloqa bog'lab turish maqsadida foydalaniladigan va videoqurilmalar bilan jihozlangan maxsus ajratilgan joy bo'ladi. Bu bank uchun juda muhim, chunki u bankning mijozlarga tafsilotlarini ushbu bo'lim xodimlari bilishi shart bo'lmagan barcha xizmatlarni taklif etishiga imkon beradi.

Texnologik jihozlanish mijozlar uchun jozibador hamda foydalanishga oson, shuningdek, bo'lajak mijozlar bank bilan aloqa o'rnatish uchun ularning e'tiborini o'ziga torta oladigan bo'lishi kerak. Uning asosiy vazifasi yangi mijozlar jalb etish, inkassatsiya qilish hamda to'lovlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, asosiy bank mahsulotlarini, ya'ni joriy hisobvaraqlar, kredit kartalari bilan operatsiyalarni sotishdan iborat. Ushbu kanalning samaradorligi bankning markaziy tuzilmalari tomonidan ko'rsatiladigan texnologik va professional yordamning sifatiga bog'liq.

AQSHda «Supermarket banking»ning qo'llanilishi. Washington Mutual banki 1889-yilda tashkil etilgan bo'lib, 93 mlrd AQSH dollari miqdorida aktivlarga hamda yettita shtatda 900 ta bo'limlar tarmog'iga ega bo'lgan eng yirik Amerika banklaridan biridir. So'nggi yillarda bank 103 ta instore supermarket banking bo'limini ochdi, ulardan 70 tasi yagona do'konlar tarmog'ida joylashgan. Bu tarmoq bilan tuzilgan bitim to'la logistik uyg'unlikda va o'z savdo markazlaridan birgalikda foydalanishga asoslangan. Dastlabki bosqichda uning siyosati barcha xizmatlarni ko'rsata

oladigan ancha katta bo‘limlar (250–300 kv m) ochishdan, ya’ni xodimlari tegishli malakaga ega bo‘lgan an’anaviy bo‘limlardan foydalanishdan iborat edi. Faoliyatni yanada kengaytirish maqsadi, shuningdek, hajmi kichikroq bo‘lgan, manfaatdor bo‘lishi mumkin bo‘lgan yirik supermarketlarning mavjudligi – bu moliya-kredit institutini optimal qaror qabul qilishga, kichikroq hajmdagi (taxminan 150 kv m bo‘lgan) bo‘limlar ochishga, cheklangan hajmda xizmatlar ko‘rsatishga (umumiy xizmatlarning 90 foizigacha) undadi. Bunday yondashuv 78 foizgacha yangi mijozlar jalb etish imkonini berdi.

Centura bank Shimoliy Karolina shtatida bo‘lib, aktivlari 7 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi, 188 ta bo‘limga ega. Bank chakana savdo segmentidagi hamma joyda va hamma vaqt mijozlar uchun qulaylik va osonlik prinsiplariga asoslangan marketing strategiyasiga amal qiladi.

«Supermarket banking» tarmog‘ining maqsadi yangi mijozlar jalb etish, kam xarajatlar taqsimlash tizimini kuchaytirish va depozitlar hajmi, sonini oshirishdan iborat. Bank uchun tijorat markazlarini tanlash mezonlari xaridorlar oqimi ancha katta bo‘lishidan (hech bo‘lmaganda haftasiga 10000 mijoz) va marketing siyosatini birgalikda amalga oshirishdan iborat. «Supermarket banking» bo‘limlarining hajmi 120–150 kv m, turiga ko‘ra ular uchta operativ zonaga bo‘linadi, operatsiyalarni standartlashtirish darajasi yuqori, haq to‘lash tizimi pirovard natijalarga qaraydi. Bank 4 ta tijorat markazlari tarmog‘ida 23 ta «Supermarket banking» bo‘limini ochgan, ular haftasiga yetti kun ishlaydi. U inkassatsiyalash, to‘lovlar yuzasidan avtomat kassa apparatlaridan foydalanishda eng yuqori foizga (22 foiz) erishgan; sotish punktlarida jalb etilgan o‘rta muddatli depozitlar 5,3 mlrd AQSH dollariga yetdi.

O‘zbekistonda eng yangi texnologiyalarga mos bo‘lgan bank infratuzilmasi yaratilgan. Biroq hozirgi bosqichda tijorat banklariga mijozlar bazasini va chakana xizmatlar taklif etishni kengaytirish imkonini beradigan yangi noan’anaviy yondashuvlar talab qilinadi.

O‘zbekiston shaharlari va tuman markazlarida borgani sari ko‘proq supermarketlar va yirik savdo markazlari ishga tushirilmoqda. Banklar «Supermarket banking» usulidan foydalanib, ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Nazorat savollari:

1. *«Elektron bank» tizimining mazmuni va zarurligi nimalardan iborat?*
2. *«Elektron bank» tizimining qanday turlari mavjud?*
3. *«InternetBanking» elektron to‘lovlari kichik tizimining mazmuni va afzalliklari nimadn iborat?*
4. *«InternetBanking» elektron to‘lovlari kichik tizimining banklar faoliyatida tutgan o‘rni va uning respublika bank amaliyotida qo‘llanishi haqida nimalarni bilasiz?*
5. *«PhoneBank» – telefon orqali bank tizimining mazmunini tushuntirib bering.*
6. *«PhoneBank» –telefon orqali bank tizimining bank amaliyotda ishlatilishi haqida gapirib bering.*
7. *«MailBank» elektron to‘lovlari kichik tizimining mazmunini tushuntiring.*
8. *«MailBank» elektron to‘lovlari kichik tizimining xususiyatlari nimalardan iborat?*
9. *Jahon amaliyotidagi qanday bank texnologiyalarini bilasiz?*
10. *Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalarining O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilishi va uning istiqbollarini gapirib bering.*

IX BOB

PUL O‘TKAZISH TIZIMLARI

Tayanch tushunchalar: *naqd pul o‘tkazmalari tizimi, xizmat turi jo‘natma miqdori, xizmat tariflari, raqobat muhiti, komission haq, bank ish kuni, xalqaro pul o‘tkazish tizimi, mahalliy pul o‘tkazish tizimi, pul o‘tkazmalarining maksimal miqdori, operator, blanka, xarajatlar.*

1-§. Naqd pul o‘tkazish tizimlari va ularning turlari

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mavzular, asosan, naqd pulsiz to‘lov tizimlari, ularning xususiyatlari, yangi bank xizmatlariga bag‘ishlangan edi. Naqd pulsiz to‘lov tizimlari bilan birga naqd pul o‘tkazmalari ham mavjud bo‘lib, ular ham ma’lum bir tizim asosida amal qiladi.

Boshqa davlatlarda bunday naqd pul o‘tkazmalari tizimi ancha yillardan buyon amaliyotga tatbiq qilingan va muvaffaqiyat bilan ishlatilayotgan bo‘lsa, respublikamizga bunday tizimlar, asosan, 2000-yillardan so‘ng kirib keldi va bank tizimining yangi xizmat turlaridan bo‘lib hisoblanadi.

Naqd pul o‘tkazmalari globallashuv jarayoning bir debochasi bo‘lib hisoblanadi. Naqd pullar ma’lum bir tizim orqali ko‘proq rivojlangan davlatlardan iqtisodi asta-sekin rivojlanib kelayotgan davlatlarga, ma’lum bir shaxs nomiga jo‘natiladi.

Hozirgi kunda naqd pul o‘tkazmalari yangi xizmat turidan biri bo‘lishiga qaramasdan, ularning salmog‘i yildan yilga ortib borib, bu xizmat turidan foydalanayotganlar soni toboro ko‘payib bormoqda.

Oxirgi yillarda naqd pul o‘tkazmalarining salmog‘i mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5–10 foizini tashkil etmoqda. Buning uchun respublikamizda pul o‘tkazmalari infrastrukturasi jadal shakllangan bo‘lib, aholiga ushbu xizmat turida samarali foydalanish uchun moslashtirilgan shoxobchalar soni kundan kunga ortib bormoqda.

Demak, naqd pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida, aholining turmush darajasini oshirishda alohida o‘rin tutadi. Pul o‘tkazmalari aholining turli qatlamlari uchun chet davlatlarda ishlab topgan qo‘shimcha daromadlarini o‘z oilalariga yetkazib turish, ota-onalarning o‘zidan uzoqda yashayotgan farzandlariga yordam sifatida naqd pul yuborish kabi yumushlarini oson hal qiladi, aholi turmush darajasini oshirish va moliya vositachilarining faollashuviga, shu bilan birga, banklar uchun ham qo‘shimcha daromad manbayi bo‘lib hisoblanadi.

Naqd pul o‘tkazmalari yurtimizdan xorijga naqd pul jo‘natish va, aksincha, xorijdan mamlakatimizga kiritilayotgan pul mablag‘larining hajmi yildan yilga ortib bormoqda. 2002-yilda mamlakatimizga kiritilgan pul mablag‘larining miqdori 225 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yilda esa uning miqdori 1,25 mlrd AQSH dollariga yetdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizga kiritilgan pul mablag‘larining o‘rtacha o‘sish sur’ati o‘rtacha 49 foizni tashkil etdi. O‘zbekistondan xorijga jo‘natilayotgan pul miqdori kiritilayotgan pul miqdoriga nisbatan 2 barobar kamdir. Agar 2002-yilda mamlakatimizdan xorijga 86 mln AQSH dollari miqdorida po‘l o‘tkazilgan bo‘lsa, 2008-yilga kelib bu ko‘rsatkich 100 mln AQSH dollarini, 2009-yilda esa 126 mln AQSH dollarini tashkil etgan[1].

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha naqd pul o‘tkazmalari miqdori 2009-yilda 268 mlrd AQSH dollarini tashkil qilib, shundan 200 mlrd AQSH dollari migrantlarning o‘z uylariga jo‘natgan pul mablag‘lari hisoblanadi[2].

---

[1] www. cbu. uz

[2] www. bankir. uz

Umuman, butun dunyo bo‘yicha amalga oshirilgan pul o‘tkazmalarining 70–80 foizi MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Naqd pul o‘tkazmalari soni ortib borishi pul o‘tkazmalari bo‘yicha tariflarning pasayishi va xizmat ko‘rsatish doirasining toboro kengayib borishiga olib keladi. Bunga «WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining Rossiya va MDH davlatlaridagi vitse prezidenti Jonatan Knausning fikrlari ham isbot bo‘la oladi. Uning fikricha, «Naqd pul o‘tkazmalari – bu bugungi kunda eng zarur talab qilinayotgan xizmat turi hisoblanib, doimiy ravishda mijozlar soni ortib turishi va xizmat ko‘rsatish doirasining kengayishi tariflarning pasaytirilishi hamda pul pul aylanmasining ortishi bilan ifodalanadi»[1].

MDH davlatlari ichida naqd pul o‘tkazmalari miqdori bo‘yicha Ukraina yetakchilik qilib, Rossiya, Belorusiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon ham pul o‘tkazmalari miqdori jihatidan boshqa hamdo‘stlik davlatlari ichida yuqori mavqeni egallamoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda ham naqd pul o‘tkazmalari barqaror rivojlanmoqda va ularning miqdori ortib bormoqda.

O‘zbekistonda naqd pul o‘tkazmalari tizimi bo‘yicha bank xizmatlari tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmoqda. Hammaga ma’lum bo‘lganidek, yangi xizmat turi yoki yangi mahsulotning kirib kelishi dastlabki davrda katta miqdordagi xarajatlarni talab etadi. Vaqt o‘tishi bilan uni rivojlantirish talab etiladi, bu esa xarajatlarni ham yanada ko‘paytiradi, ayni vaqtda, ushbu xizmat yoki mahsulot turining raqobatbardoshligini oshiradi.

Mamlakatimizda 2002-yilda atigi 3 ta naqd pul o‘tkazmalari tizimi amaliyotga tatbiq etilgan edi. Ular AQSHning «WESTERN UNION», «MONEUGRAM» va Rossiyaning «Быстрая почта» tizimlaridir. Bu davrda ushbu naqd pul o‘tkazmalarining deyarli barchasida o‘rtacha komission bahosi o‘tkazilayotgan pul miqdorining 10 foizi atrofida bo‘lgan. 2009–2010-yillarga kelib, respublikamizda

[1] www. bankir. uz

20 dan ortiq naqd pul o‘tkazmalari tizimi amal qilib, ularning o‘rtacha komission bahosi 2 foizdan 4 foizgachani tashkil qildi. Ayrim banklarda faqat bitta naqd pul o‘tkazmalari tizimidan foydalanilsa, ayrim banklarda 5–6 xil naqd pul o‘tkazmalari tizimi aholiga taklif qilinmoqda. Bu esa aholi uchun ancha qulay bo‘lib, ular o‘z imkoniyati va istagiga qarab, nisbatan arzon va qulay pul o‘tkazmasidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda pulni uch yo‘l bilan jo‘natish mumkin. Bular:

1. Xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi orqali (Bunga «WESTERN UNION», «MONEUGRAM», «CONTAKT», «ANELIK», «MIGOM», «BLIZKO»va boshqalar).

2. Xalqaro SWIFT tizimi orqali.

3. Pochta xizmati orqali.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning ichida xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi aholi uchun eng ommalashgan va rivojlangan tizim bo‘lib hisoblanaadi.


2-§. «WESTERN UNION» pul o‘tkazmasi, uning afzalliklari, shartlari

«WESTERN UNION» pul o‘tkazmasi tizimi 200 ga yaqin davlatlarda o‘z ish faoliyatini olib boradi. Birgina MDH davlatlarida 1500ga yaqin xizmat shoxobchalari tashkil etilgan.

Pul jo‘natmalari, asosan, AQSH dollarida va yevroda amalga oshiriladi. Ushbu tizim orqali pul jo‘natishda komission to‘lov jo‘natilayotgan pul mablag‘lari jami summasining 5–25% ini tashkil etadi. Jo‘natilgan mablag‘lar 1 soatdan 1 haftagacha muddat ichida olinishi ta’minlanadi. «WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining bir qator afzalliklari mavjud.

17-chizma

«WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining afzalliklari



«WESTERN UNION»ning tezkorligi – pulni u yuborilgandan so‘ng bir necha daqiqadan keyin olish mumkin. «WESTERN UNION» dunyoning 200 ga yaqin mamlakatlarida zudlik bilan pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun eng yangi elektron texnologiyalar noyob jahon kompyuter tarmog‘idan foydalanadi.

«WESTERN UNION»ning ishonchliligi – «WESTERN UNION» kompaniyasi 130 yildan ortiq vaqt mobaynida o‘z mijozlariga pul o‘tkazmalari xizmatini taklif etib kelmoqda. Hozirgi kunda bu xizmatlar dunyo bo‘yicha xalqaro elektron to‘lovlar shaklida ko‘rsatilmoqda. Har bir o‘tkazmaning o‘z nazorat raqami bo‘lib, uning yordamida pul yo‘nalishini kuzatish mumkin. Bunda mijozning puli tezda va faqat mo‘ljallangan odamga to‘lanishi kafolatlanadi, chunki ular noyob xavfsizlik tizimi bilan himoyalangan.

«WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining qulayligi – Pulni jo‘natish yoki olish uchun «WESTERN UNION»ning butun dunyo bo‘yicha joylashgan 170 mingta bo‘limidan istalganiga murojaat qilish mumkin. «WESTERN UNION»ning bo‘limlari aholi uchun qulay bo‘lgan vaqtda ochiq bo‘lib, odatda, dam olish kunlarisiz ishlaydi.

Pul mablag‘larini yuborish tartibi:

– belgilangan shakldagi blanka to‘ldiriladi;

– operatorga pasport hamda jo‘natuvchi, oluvchi to‘g‘risidagi, pul jo‘natadigan mamlakat va pul jo‘natiladigan mamlakat, pul miqdori kabi ma’lumotlar to‘ldirilgan hujjat taqdim etiladi;

– «WESTERN UNION» operatori pul o‘tkazmasi bo‘yicha taqdim qilingan hujjat asosida ma’lumotlarni tizimga keltiradi;

– operatorga jo‘natildigan pul va vositachilik haqqi beriladi, shundan so‘ng operator o‘tkazmaning 10 ta raqamli sirli kodi ko‘rsatilgan kvitansiyani mijozga qaytaradi;

– pul jo‘natuvchi pul oluvchiga pul o‘tkazmasi miqdori va 10 ta raqamli kodni ma’lum qiladi.

«WESTERN UNION» pul o‘tkazish tizimi orqali naqd pul jo‘natish uchun ta’riflar belgilangan. Quyida ushbu ta’riflar haqida jadval ma’lumotlarini keltiramiz.

11-jadval

«WESTERN UNION» pul o‘tkazish tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasidan MDH davlatlariga va boshqa davlatlarga pul o‘tkazish tariflari (AQSH dollarida)

O‘zbekiston Respublikasidan MDH davlatlariga pul o‘tkazish tariflari		O‘zbekiston Respublikasidan boshqa davlatlarga pul o‘tkazish tariflari	
O‘tkaziladigan summa	Komission haq miqdori	O‘tkaziladigan summa	Komission haq miqdori
100,00 gacha	6,00	50,00 gacha	13,00
100,01–200,00	9,00	50,01–100,00	15,00
200,01–300,00	14,00	100,01–200,00	22,00
300,01–400,00	19,00	200,01–300,00	29,00
400,01–500,00	24,00	300,01–400,00	34,00
500,01–750,00	29,00	400,01–500,00	40,00
750,01–1000,00	37,00	500,01–750,00	45,00
1000,01–1500,00	53,00	750,01–1000,00	50,00
1500,01–2000,00	69,00	1000,01–1500,00	75,00
2000,01–2500,00	89,00	1500,01–1750,00	80,00
2500,01–3000,00	109,00	1750,01–2000,00	90,00
3000,01–6500,00	129,00	2000,01–2500,00	110,00
		2500,01–3000,000	120,00
		3000,01–3500,00	140,00

Jadval ma'lumotlaridan ko'rib turganimizdek, o'tkaziladigan pul miqdori ortib borishi bilan, pul o'tkazmasi uchun komission haq tarifi ortib boradi.

Pul o'tkazilganidan keyin pul jo'natuvchi pul oluvchiga pul o'tkazmasi miqdori va 10 ta raqamli kodni ma'lum qilganidan so'ng, pulni oluvchi unga jo'natilgan o'tkazmani olishi mumkin. Buning uchun pul oluvchi tegishli shakldagi blankani to'ldiradi. Operatorga pasporti va oluvchi to'g'risida ma'lumot, jo'natuvchi to'g'risida ma'lumot, pulni jo'natgan mamlakat, pul miqdori va 10 ta raqamli nazorat kodi ko'rsatilgan holda to'ldirilgan blankani beradi. Operator blankadagi ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirib chiqadi va pul o'tkazmasini AQSH dollarida pul oluvchiga beradi.

«WESTERN UNION» pul o'tkazish tizimi orqali pul o'tkazmasi olinganda pul oluvchi vositachilik haqini to'lamaydi.

Hozirgi kunda TIF Milliy bank, «Savdogarbank», «Aloqabank», «Trastbank», «Ravnaqbank», «Hamkorbank», Ipoteka bank, «Asakabank», «Kapital bank», «Kredit-standart bank», Xalq banki, «UTbank», «Turonbank», «Universalbank» kabi qator banklar «WESTERN UNION» pul o'tkazish tizimi orqali bank xizmatlarini ko'rsatmoqdalar.

3-§. «MONIGRAM» tizimi orqali naqd pul o'tkazish tartibi

«MONEUGRAM» – pul o'tkazish tizimi jahonning 170 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritadi. Valuta o'tkazmalari AQSH dollari, Rossiya rubli va yevroda amalga oshiriladi. Ushbu o'tkazma turi bo'yicha komission haq jo'natilayotgan mablag' summasi va yetkazib berish vaqtiga ko'ra 5–24% ni tashkil etadi.

2003-yilning 15-aprel kuni «G'allabank» (hozirda «Qishloqqurilishbank») va «MONEUGRAM PAYMENT SYSTEM Inc» kompaniyasi o'rtasida xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha kelishuv

imzolandi. «MONEUGRAM» kompaniyasi – bu «Thomas Cook Group Ltd» va «MONEUGRAM PAYMENT SYSTEM Inc» kompaniyalarining birgalikda tashkil etilgan qo‘shma korxonasi bo‘lib, hozirgi kunda u o‘zining ko‘plab mamlakatlarda jismoniy shaxslar uchun tez rivojlanib borayotgan pul o‘tkazmalari tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

«MONEUGRAM» faoliyati, asosan, mijozlarga rag‘batlantirish asosida xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Kompaniya tomonidan mijozlarning mablag‘larini qisqa vaqt ichida o‘tkazib beradigan zamonaviy elektron texnologiyalari qo‘llaniladi. Har bir pul o‘tkazmasi ishonchli xavfsizlik tizimi bilan himoyalangan bo‘lib, mablag‘larni faqatgina yuboruvchi tomonidan ko‘rsatilgan shaxsgina olishi kafolatlanadi.

«MONEUGRAM» pul o‘tkazmalari tizimining bir qator afzalliklari mavjud. Bu qulayliklar quyidagilar:

– tezkorlik (operatsiyalar tezkor amalga oshiriladi);

– qulaylik (to‘lovlar naqd pul berilishi bilan amalga oshiriladi);

– xizmat ko‘rsatish shoxobchalari tarmog‘ining kengligi (dunyoning 155 ta mamlakatida 55000 dan ortiq qulay joylashgan xizmat ko‘rsatish shoxobchalari mavjud);

– qulay va raqobatbardosh narxlar;

– bepul ma’lumot berish.

«MONEUGRAM» pul o‘tkazmalari tizimi orqali pul yuborish tartibi:

– to‘lovning belgilangan manzili katalogdan foydalangan holda tekshirib ko‘riladi.

– pul mablag‘larini o‘tkazish blankasi to‘ldiriladi;

– mijoz haqidagi ma’lumotlar tekshiriladi;

– mijozdan xizmat haqi olinadi;

– operatsiyalarni qayta ishlovchi Bosh ofis bilan bog‘laniladi;

– mijozga berilgan maxsus raqam Bosh ofisdan qabul qilinadi va blankaga yozib qo‘yiladi;

– mijozga maxsus raqam yozilgan blankaning ikkinchi nusxasi topshiriladi.

12-jadval

«MONEUGRAM» pul o‘tkazish tizimi orqali pul o‘tkazmalarini o‘tkazish tariflari (AQSH dollari hisobida)

T/r	Pul o‘tkazmalari summasi		Pul o‘tkazmalari tariflari
	(dan)	(gacha)	
1	0,01	100,00	12,00
2	100,01	250,00	20,00
3	250,01	400,00	24,00
4	400,01	600,00	32,00
5	600,01	800,00	40,00
6	800,01	1000,00	50,00
7	1000,01	1200,00	60,00
8	1200,01	1800,00	75,00
9	1800,01	2500,00	100,00
10	2500,01	5000,00	150,00
11	5000,01	7500,00	225,00
12	7500,01	10000,00	300,00

«MONEUGRAM» pul o‘tkazmalari tizimi orqali pul mablag‘larini qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: pul jo‘natuvchi pul oluvchiga pul o‘tkazmasi miqdori ma’lum qilganidan so‘ng, pulni oluvchi unga jo‘natilgan o‘tkazmani olishi mumkin. Buning uchun pul oluvchi tegishli shakldagi blankani to‘ldiradi. Operatorga pasporti va oluvchi to‘g‘risida ma’lumot, jo‘natuvchi to‘g‘risida ma’lumot, pul jo‘natilgan mamlakat, pul miqdori ko‘rsatilgan holda to‘ldirilgan blankani beradi. Operator blankadagi ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tekshirib chiqadi va operatsiyalarni qayta ishlovchi Bosh ofis bilan bog‘lanadi. Operator pul mablag‘larini qabul qilish kodini aniqlashtiradi va mijoz bergan blankaga yozib qo‘yadi. Shundan so‘ng mijoz nomiga kelgan pul summasini hamda blanka nusxasini beradi.

«MONEUGRAM» pul o‘tkazish tizimi orqali pul o‘tkazmalarining maksimal miqdori bir kunda bitta tranzaksiyaning o‘zida 5000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Hozirgi kunda bu o‘tkazmadan «Ipak Yo‘li» banki, «Qishloqqurilishbank» kabi bir qator banklar foydalanmoqdalar.

4-§. «CONTACT» pul o‘tkazmasi bo‘yicha bank xizmatlari

Pul o‘tkazmalari bozorining yetakchi ishtirokchilaridan biri «Contact» pul o‘tkazish tizimi bo‘lib, u Rossiyaning 1-xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish tizimidir. U orqali mijozga hisob raqami ochmay turib AQSH dollari, yevro va Rossiya rublida pul o‘tkazmalarini amalga oshirish mumkin.

«CONTACT» quyidagi xizmatlarni taklif etadi:

– jismoniy shaxslardan yuridik shaxslarga pul o‘tkazmalarini o‘tkazish. Bunday xizmatlarga to‘lovlarni yig‘ish, xizmatlar haqini to‘lash, tovar sotib olish, elektron hamyonlarni to‘ldirish va boshqalar kiradi;

– yuridik shaxslardan jismoniy shaxslarga pul o‘tkazmalarini o‘tkazish. Bunday xizmatlarga yutuqlar, gonorarlar hamda elektron hamyonlardagi mablag‘larni to‘lash va boshqalar kiradi.

Pul o‘tkazmalari va o‘tkazilgan pul mablag‘larini qabul qilib olishni amalga oshirish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi lozim. Qonunchilik bo‘yicha shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti;

– harbiy xizmatchining shaxsiy guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ravishda istiqomat qiluvchi, fuqarolikka ega bo‘lmagan shaxs uchun doimiy istiqomat uchun guvohnoma.

Chet el fuqarosi yoki fuqarolikka ega bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha va doimiy istiqomat qiluvchilar uchun asosiy hujjatlar:

– vaqtincha istiqomat qilish uchun ruxsatnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish uchun taklifnoma;

– ishlash uchun ruxsatnoma.

Agar pul o‘tkazmasi amalga oshirilish jarayonida pul o‘tkazuvchi yoki qabul qiluvchining nomidan vakil qatnashsa, ushbu vakilga quyidagi tartibda ishonchnoma rasmiylashtiriladi:

– ishonchnoma notariusda tasdiqlangan bo‘lishi kerak;

– mol-mulk yuzasidan ish ko‘rishga olingan umumiy ishonchnomasida bank hisob-raqamlaridan pul olish huquqi ko‘rsatib o‘tilmagan bo‘lsa, ushbu ishonchnoma qabul qilinmaydi;

– ishonchnoma O‘zbekiston Respublikasidagi chet el elchixonasi yoki O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi elchixonasida tasdiqlangan bo‘lishi mumkin.

Chet tildagi ishonchnoma bankka o‘zbek (rus) tiliga o‘girilib tasdiqlangan tarjimasi bilan birga taqdim etiladi.

Ishonchnomaning asl nusxasi kassa hujjatlarida qoladi.

Pul o‘tkazmalarini mijozdan qabul qilish tartibi:

– pul o‘tkazmasi operatsiyasiga asos bo‘lib pul o‘tkazish uchun berilgan ariza hisoblanadi. Amaliy ishchi pul jo‘natuvchining arizada zarur hollar uchun o‘z telefon raqamlarini ko‘rsatib o‘tishini tavsiya qilishi kerak;

– pul o‘tkazmasi qabul qilinayotganida ushbu o‘tkazmaga tartib raqam beriladi (registratsiya tartibi yoki dasturlash uslubi bo‘yicha). Jo‘natuvchi pul o‘tkazmasi uchun berilgan tartib raqami haqida ogohlantirilishi shart;

– o‘tkazilgan pulni olish uchun qabul qilib oluvchi shaxsiy hujjatini taqdim etishi, o‘tkazma miqdori va tartib raqamini aytishi lozim;

– ushbu ma’lumotni qabul qilib oluvchiga berish majburiyati jo‘natuvchi zimmasiga yuklangan;

– pul o‘tkazmasini qabul qilib oluvchining bankiga ushbu shaxs bilan telefon orqali bog‘lanishi shart emas (arizada ko‘rsatilgan telefon raqam);

– jo‘natuvchidan amalga oshirilgan pul o‘tkazmasi uchun komissiyani ushlab qoladi;

– chet el mamlakatlariga chet el valutasi va so‘mda pul o‘tkazmalari uchun o‘tkazma miqdoridan – 3%;

– o‘tkazma miqdoridan 1% – jo‘natuvchi bankining komissiyasi;

– o‘tkazma miqdoridan 1% – kliring markazi bilan hisob-kitobni amalga oshirish uchun komissiya;

– o‘tkazma miqdoridan 1% – o‘tkazilgan pulni qabul qilib oluvchi bankining komissiyasi bo‘lib hisoblanadi.

Pul o‘tkazmalarini tarqatish tartibi. Agar o‘tkazmani qabul qilib oluvchi ko‘rsatgan hujjatidagi ma’lumotlari o‘tkazmada belgilangan ma’lumotlar bilan mos kelgandagini o‘tkazilgan pul ushbu shaxsga beriladi. Shu bilan birga, quyidagi qo‘shimcha indentifikatorlar ham mos kelishi lozim:

– pul o‘tkazmasining tartib raqami;

– pul o‘tkazmasining miqdori;

– jo‘natuvchining ismi;

– jo‘natuvchining familiyasi;

– pul o‘tkazmasini qabul qilib oluvchining telefon raqami.

«CONTACT» pul o‘tkazish tizimi Rossiya, yana bir qator MDH davlatlari, Boltiqbo‘yi davlatlari va xorijiy davlatlarda ish faoliyatini olib boradi.

Hozirgi kunda ushbu tizim bo‘yicha O‘zbekistonning 12 ta tijorat banki, jumladan, TIF Milliy bank, «O‘zsanoatqurilishbank», «Savdogarbank», «Hamkorbank», «Ipotekabank», «Kapitalbank», Xalq banki, «Turonbank» kabi qator banklar «CONTACT» pul o‘tkazish tizimi orqali bank xizmatlarini ko‘rsatmoqdalar. 2010-yilda «CONTACT» tizimidan 1,5 mln dan ortiq respublikamiz fuqarolari foydalangan.

5-§. Naqd pul o‘tkazmalarining boshqa turlari va ularning xususiyatlari

Hozirgi kunda O‘zbekistonda pul o‘tkazmalari infratuzilmasi jadal sur’atlar bilan shakllanayotgan bo‘lib, aholining ushbu xizmat turidan samarali foydalanishi uchun keng tarmoqli shoxobchalar

tashkil etilgan. Shunday shoxobchalar soni hozirgi kunda mingdan ortiqdir. Respublikamiz tijorat banklari yuqorida ko‘rib chiqqan naqd pul o‘tkazmalarining «WESTERN UNION» va «MONEUGRAM»dan tashqari juda ko‘plab turlarini taklif etmoqdalar. Ularga «CONTAKT», «ANELIK», «MIGOM», «BLIZKO», «INTEREXPRESS», «TRAVELEX», «LEADER», «Бистрая почта», «Uzbekistan ekspress», «Aziya ekspress» kabi pul o‘tkazish tizimlarini kiritish mumkin.

«ANELIK» – pul o‘tkazmasi Rossiya rubli va AQSH dollarida amalga oshiriladi. Dunyoning 90 dan ortiq mamlakatlari o‘rtasida ushbu tizim bo‘yicha pul o‘tkazmalari 3 soatdan 24 soat oralig‘ida o‘tkaziladi. «ANELIK» bo‘yicha o‘tkazilgan pul mablag‘larining 3% i miqdorida ko‘rsatilgan xizmati uchun haq oladi. Bu o‘tkazmadan «Savdogarbank», «Hamkorbank», «Ipak yo‘li banki» kabi tijorat banklari amaliyotida foydalaniladi.

«MIGOM» – naqd pul o‘tkazmasi, asosan, MDH davlatlari o‘rtasida faoliyat yuritadi. Ushbu tizim bo‘yicha pul o‘tkazmalari 10–15 daqiqa ichida o‘z egalariga yetkaziladi. Bunda pul o‘tkazmasi summasining 2% i miqdorida komission haq olinadi. «MIGOM» naqd pul o‘tkazmasi tizimi orqali «Kapitalbank», «O‘zsanoatqurilishbank» va «Kredit-standart bank»lari aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatmoqda.

«BLIZKO» – ushbu pul o‘tkazish tizimi 2006-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, hozirgi kunda undan Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Belorusiya, Gruziya, Moldova, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Ukraina, Tojikiston kabi davlatlar keng foydalanmoqdalar. «BLIZKO» pul o‘tkazish tizimi bo‘yicha AQSH dollari, yevro va Rossiya rublida pul o‘tkazmalarini amalga oshirish mumkin. Pul o‘tkazmalarini amalga oshirishda jo‘natilayotgan pul miqdorining 1,3–2% miqdorida tijorat banklari komission haq oladi.

«INTEREXPRESS» – jismoniy shaxslar bo‘lgan mijozlarga hisob raqami ochmay turib pul mablag‘larini dunyoning istalgan mamlakatiga jo‘natish imkoniyatiga ega bo‘lgan xalqaro pul o‘tka-

zish tizimidir. Ushbu tizim orqali pul o‘tkazmalarini manzilga yetkazish 3–6 soat ichida ta’minlanadi. «INTEREXPRESS» bo‘yicha o‘tkazmalarni AQSH dollari, yevro va Rossiya rublida pul o‘tkazmalari amalga oshiriladi. Hozirgi kunda ushbu tizim faoliyatini «O‘zsanoatqurilishbank» amaliyotida ko‘rish numkin.

«Бистрая почта» – pul o‘tkazmasi bo‘yicha o‘tkazilgan pul mablag‘lari bor-yo‘g‘i 20 daqiqa ichida egasiga yetkazib beriladi. Bunda o‘tkazilgan jo‘natma miqdorining 2% i miqdorida komission haq to‘lanadi. «Бистрая почта» pul o‘tkazmasi bo‘yicha pul o‘tkazmalari Rossiyada rubl, Rossiya, O‘zbekiston, Armaniston, Gruziya Ozarbayjon, Belorusiya, Qozog‘iston, Moldoviya, Qirg‘iziston, Ukraina, Tojikiston kabi davlatlarda AQSH dollari va yevroda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda «Бистрая почта» tizimi bo‘yicha bank xizmatlarini «Ipak yo‘li» va «Turonbank»lari taklif etmoqda.

«Uzbekistan ekspress» – O‘zbekiston hududidagi tijorat banklarida hisob raqam ochmasdan turib, faqat milliy valutada pul o‘tkazmalarini respublikaning istalgan joyiga jo‘natish tizimidir. Naqd pul o‘tkazmalari 3 bank ish kunida o‘z manziliga yetkazilishi ta’minlanadi. «Uzbekistan ekspress» pul o‘tkazmasi bo‘yicha o‘tkazib berilayotgan pul mablag‘larining miqdoriga qarab 0,5–4% miqdorida komission haq olinadi. Hozirgi kunda ushbu pul o‘tkazmasi tizimi bo‘yicha xizmatlar «O‘zsanoatqurilishbank» tomonidan amalga oshirilmoqda.

«Aziya ekspress» pul o‘tkazmasi bo‘yicha xizmatlarni O‘zbekiston va Rossiya tijorat banklari taklif etmoqdalar. Demak, bu tizim bo‘yicha Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi jo‘natmalar amalga oshiriladi. Bunda o‘tkazilgan jo‘natma miqdorining 2% i miqdorida komission haq to‘lash lozim bo‘ladi. Pul o‘tkazmalari faqat AQSH dollarida amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasi fuqarolari ham, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ham 1 kunda 5000 AQSH dollaridan ortiq bo‘lmagan miqdorda pul o‘tkazishlari mumkin. «Aziya ekspress» pul o‘tkazmasi «Trastbank» va «Kredit-standart bank»larida foydalaniladi.

Umuman, hozirgi kunda respublikamiz banklari tomonidan yana ko‘plab yang pul o‘tkazmalari tizimi taklif qilinmoqda, ularga «TRAVELEX», «LEADER», «UNISTREAM», «XRESS-money», «FASTER», «CONISTAR», «ALLYUR» kabi pul o‘tkazmalari tizimi amalda bo‘lib, yangidan yangi mijozlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Pul o‘tkazmalari tizimlarining ko‘payishi ular o‘rtasidagi raqobat muhitini yanada kuchaytiradi va kelgusida ularning xizmat tariflari ancha pasayishiga olib keladi. Pul o‘tkazmalari tizimlarining O‘zbekistonda takomillashtirilishi bilan ushbu xizmat turining yanada rivojlanishi va natijada iqtisodiyotga katta miqdorda valuta kirib kelishiga zamin yaratadi.

Nazorat savollari:

1. *Naqd pul o‘tkazmalarining qanday tizimlarini bilasiz?*
2. *Qaysi naqd pul o‘tkazmasi eng birinchi bo‘lib tashkil etilgan?*
3. *Naqd pul o‘tkazmalarining O‘zbekistonda barqaror rivojlanishi nimalar bilan belgilanadi?*
4. *O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan qaysi pul o‘tkazmalari aholiga taklif etilmoqda?*
5. *Pul o‘tkazmalari, asosan, qaysi valutalarda amalga oshirilmoqda?*
6. *«WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining asosiy xususiyatlari va afzalliklari nimalardan iborat?*
7. *«MONEUGRAM» tizimining asosiy shartlari nimalardan iborat?*
8. *«WESTERN UNION» pul o‘tkazmalari tizimining komission tariflari qanday stavkalarda belgilangan?*
9. *«MONEUGRAM» pul o‘tkazmalari tizimining komission tariflari qanday stavkalarda belgilangan?*
10. *Boshqa pul o‘tkazish tizimlari haqida nimalarni bilasiz?*
11. *Respulika hududida amal qilayotgan pul o‘tkazmasining shartlari qanday?*
12. *Respublikamizda faoliyat yuritayotgan qaysi banklar pul o‘tkazmalari bozorida faollik ko‘rsatmoqda?*

BANKLARDA HISOB VA TO‘LOV TIZIMI FANI BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

1. To‘lov tizimi o‘z ichiga nechta bosqichni oladi ?

A) 3 bosqichni
B) 2 bosqichni
C) 4 bosqichni
D) 5 bosqichni

2. To‘lov tizimining bevosita va bilvosita ishtirokchilari kimlar?

A) jismoniy shaxslar,yuridik shaxslar,hukumat, banklar va boshqa moliya institutlar
B) Markaziy bank
C) tijorat banklari, hukumat
D) Moliya vazirligi va Markaziy bank

3. To‘lov tizimida Markaziy bankning maqsadi nima?

A) kamroq xarajat qilib, minimal tavakkalchilik asosida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi tizimni ta’minlashdan iborat
B) tijorat banklarining tizimda qatnashishini ta’minlash
C) hisob-kitoblarning to‘liq o‘tkazilishini ta’minlash
D) hisob-kitob markazi faoliyatini tashkil qilish

4. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimining 1-bosqichi qaysi yillarni o‘z ichiga oladi.

A) 1996–1997-yillar
B) 1991–1994-yillar
C) 1997–2000-yillar
D) 1999-yildan hozirgacha

5. O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimi dasturini ishlab chiqishga hukumatning qaysi hujjati asos bo‘ldi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi Farmoni
B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-martdagi 146-sonli Qarori

C) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 15-sentabrdagi 165-sonli Qarori

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 21-martdagi Farmoni

6. Elektron to‘lov tizimi dasturini ishlab chiqishda Markaziy bank bilan birga kim qatnashdi.

A) Artur Andersen firmasi

B) «Fido-biznes» firmasi

C) Alp Jamol banki

D) «Virte» firmasi

7. Ilk «Bank–Mijoz» dasturi MDH davlatlaridan qaysi birida birinchi bo‘lib qo‘llanilgan?

A) O‘zbekistonda

B) Ukrainada

C) Rossiya

D) Qozog‘istonda

8. Quyida keltirilgan hisob raqamlaridan qaysilari hisob-kitob markazida banklararo oborotlarni o‘tkazishda ishlatiladi?

A) 17416.21302

B) 16400.26400

C) 15400.25400

D) 18400.28400

9. Initsiator bank – bu...

A) to‘lov operatsiyalarni yakunlovchi bank

B) to‘lov operatsiyalarida vositachilik qiluvchi bank

C) to‘lov operatsiyalarini boshlovchi bank

D) to‘lov operatsiyalarini nazorat qiluvchi bank

10. Elektron hujjat aylanishi – bu...

A) bank to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish

B) bank operatsiyalarini xavf-xatarsiz amalga oshirish

C) bank fayllarini jo‘natish va qabul qilish

D) qog‘oz hujjatlarni ishlatmasdan kompyuter orqali axborot almashish va qayta ishlash

11. Yagona vakillik hisob raqami orqali hisob-kitoblar – bu...

A) barcha hisob-kitoblar yagona to‘lov tizimi orqali o‘tadi

B) barcha to‘lovlar Bosh tijorat banki vakillik hisobvarag‘i orqali o‘tadi

C) barcha to‘lovlar belgilangan summada markazdan o‘tadi.

D) barcha to‘lovlar 21304-vakillik hisobvarag‘i orqali o‘tadi

12. Naqd pul o‘tkazmalari qaysi qatorda to‘liq ko‘rsatilgan?

A) Monegram, Tratta, Anelik, Western Union, Contact

B) Monegram, Contact, Migom, Anelik, Western Union,

C) Monegram, Migom, Anelik, Western Union, Contact

D) Monegram, Tratta, Anelik, Western Union, Duet

13. Elektron imzo qo‘yishga kim haqli?

A) bank boshqaruvi raisi

B) bank boshqaruvchisi

C) bank bosh buxgalteri

D) bank kassiri va yuristi

14. Hozirgi vaqtda respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblarda qanday to‘lov hujjatlari qo‘llanilyapti?

A) to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, akkreditivga ariza, inkasso topshiriqnomasi, memorial order

B) to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, akkreditivga ariza, inkasso topshiriqnomasi, hisob-kitob cheki, memorial order

C) to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, akkreditivga ariza, inkasso topshiriqnomasi, hisob-kitob cheki, plastik kartochkalar

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

15. «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizom talablari kimlar uchun tatbiq qilinadi?

A) respublikadagi barcha rezedent va norezidentlarga

B) faqat rezentlarga

C) faqat norezentlarga

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

16. Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar o‘tkazish tartibi va uning amal qilish muddati kim tomonidan belgilanadi?

A) akkreditiv ochgan bank tomonidan belgilanadi

B) Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga asosan belgilanadi

C) to'lovchi va pul mablag'larini oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi

D) Hamma javoblar to'g'ri.

17. Akkreditivning qanday turlari bor?

A) qoplangan (deponetlangan) va qoplanmagan (kafolatlangan)

B) akseptsiz va akseptli

C) To'g'ri javob yo'q.

D) Hamma javoblar to'g'ri.

18. Akkreditivning qaysi turida emitent bank akkreditiv hisobvarag'ini ochish vaqtida mijozning, ya'ni to'lovchining o'z mablag'lari yoki unga berilgan kreditni emitent bankning majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga ijrochi bank ixtiyoriga o'tkazishi shart?

A) qoplanmagan akkreditivda

B) chaqirib olinadigan qoplanmagan akkreditivda

C) qoplangan akkreditivda

D) Tog'ri javob yo'q.

19. Akseptli to'lov talabnomasi qaysi hollarda bank tomonidan ijrosiz orqaga qaytarib yuboriladi?

A) mijoz to'lovdan bosh tortganligini yozma ravishda bildirganda

B) mijoz 10 bank ish kuni davomida bankka kelmaganda

C) A va B javob to'g'ri

D) Hamma javoblar to'g'ri.

20. Akseptsiz to'lov talabnomalari qaysi hollarda amalga oshiriladi?

A) issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblarda

B) qarzdor tomonidan talabnomaga da'vo summasi tan olinganligi haqida javob xatining asl nusxasi ilova qilinganda

C) banklar tomonidan – qarzdorlarning boshqa banklardagi ochilgan ikkilamchi hisobvaraqlariga, kreditlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qarzdorlikni o'z vaqtida uzmaganda

D) A, B javoblar to'g'ri.

21. Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida mahsulot yetkazib beruvchining foydasiga qaysi hollarda to‘lov amalga oshiriladi?

A) mahsulotlar to‘lovchining manziliga jo‘natilganda

B) to‘lovchi haq to‘lashga rozilik berganda

C) akkreditiv shartnomasida ko‘zda tutilgan barcha shartlar bajarilganda

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

22. Memorial orderlar qanday hollarda qo‘llaniladi?

A) mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan

B) mahsulot yetkazib beruvchi bilan mahsulot oluvchi o‘rtasida

C) bank mijozlar bilan hisob-kitob qilganda va bankning ichki operatsiyalarida

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

23. Tijorat banklarining hisob-kitob cheklari – bu...

A) pul-hisob-kitob hujjatining turi

B) chek beruvchining hisobvarag‘idan chek qabul qiluvchining hisobvarag‘iga ma’lum miqdordagi pul mablag‘ini o‘tkazib berish to‘g‘risidagi bankka bergan topshirig‘i

C) A va B javoblar to‘g‘ri.

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

24. Elektron bank» tizimi tarkibiy qismlari jihatidan qanday kichik tizimlardan iborat?

A) «InternetBank» – elektron to‘lovlari kichik tizimi

B) «PhoneBank» – telefon orqali bank kichik tizimi

C) «MailBank» – elektron to‘lovlari kichik tizimi

D) A, B va C javoblar to‘g‘ri.

25. «Elektron bank» tizimining asosiy qoidalari nimalardan iborat?

A) mijoz-server, modullik, ochiq arxitektura

B) real vaqt tartibi, moslanuvchanlik

C) veb-sahifa

D) A va B javoblar noto‘g‘ri.

26. Elektron imzo va shifratsiya kalitlari – ...

A) Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining vakolatga ega bo‘lgan bo‘limi tomonidan maxsus texnik dasturlar yordamida vujudga keltiriladi

B) maxsus komissiya tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi

C) dasturlar tayyorlaydigan tegishli firmalar tomonidan vujudga keltiriladi

D) Markaziy bankning tegishli departamenti tomonidan vujudga keltiriladi

27. Yuridik shaxslarning korporotiv plastik kartochkalari orqali qaysi to‘lovlarni amalga oshirish ta’qiqlanadi?

A) ishchi va xizmatchilarning oylik maoshlarini berish

B) ishchi va xizmatchilarning xizmat safari xarajatlarini to‘lash

C) bank kassasidan naqd pul olish

D) A va B javob to‘g‘ri.

28. Banklar akseptli to‘lov talabnomasiga akseptlashni rad qilish mohiyati bo‘yicha bahslarni necha kun muddatda ko‘rib chiqadilar?

A) 3 ish kunida

B) 5 ish kunida

C) 10 ish kunida

D) Banklar akseptlashni rad qilish mohiyati bo‘yicha bahslarni ko‘rib chiqmaydilar.

29. To‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘larni hisobdan chiqarish qaysi pul hisob-kitob hujjati asosida amalga oshiriladi?

A) to‘lov talabnomasi

B) akkreditiv

C) inkasso topshiriqnomasi va akseptsiz to‘lov talabnomasi

D) faqat inkasso topshiriqnomasi

30. Bank rahbari memorial orderlarga qaysi hollarda imzo chekishi shart?

A) Bank to‘lovchi sifatida qatnashganda.

B) Mijozlardan foiz, komissiya va boshqa daromadlarni olishda.

C) Bankning ichki siyosatidan kelib chiqqan holda.

D) Bank rahbari memorial orderga imzo chekmaydi.

31. Bankka kelib tushgan akseptli to‘lanadigan to‘lov talabnomalari «To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» hisobvarag‘i (1-kartoteka)ga qachon kirim qilinadi?

A) Bankka kelib tushgandan keyingi ish kunidan kechikmay kirim qilinadi.

B) To‘lovchi vakili imzosi bilan qayd etilgandan so‘ng.

C) Bankka kelib tushgan kunini hisobga olmagan holda, uch ish kunidan so‘ng.

D) Akseptli to‘lanadigan to‘lov talabnomalari 1-kartotekaga kirim qilinmaydi.

32. Qaysi holda mablag‘larni oluvchi bir operatsiya uchun talabnomani takroran taqdim etishi mumkin?

A) Mablag‘larni oluvchi bir operatsiya uchun talabnomani takroran taqdim etish huquqiga ega emas.

B) Mablag‘lar o‘z vaqtida to‘lanmaganda talabnomani takroran taqdim etish huquqiga ega.

C) To‘lovchining bankiga dastlabki talabnoma kelib tushmaganligi haqida xabarnoma mavjud bo‘lganda.

D) Javoblarning barchasi to‘g‘ri.

33. Qaysi hollarda mablag‘larni akseptsiz to‘lov talabnomalari orqali hisobdan chiqarish amalga oshirilishi mumkin?

A) Elektr va issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblarda va qonunchilikda to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘zda tutilgan boshqa hollarda.

B) Qarzdor tomonidan talabnomaga da’vo summasi tan olinganligi haqida javob xatining asl nusxasi ilova qilinganda.

C) Aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlari uchun hisob-kitoblarda.

D) A va B javoblar to‘g‘ri.

34. Qoplangan akkreditiv bo‘yicha depozit hisobvarag‘i qaysi bankda va kimning nomiga ochiladi?

A) mablag‘larni to‘lovchining bankida to‘lovchi nomiga

B) mablag‘larni oluvchining bankida mablag‘larni oluvchi nomiga

C) mablag‘larni oluvchining bankida to‘lovchi nomiga

D) mablag‘larni to‘lovchining bankida mablag‘larni oluvchi nomiga

35. Respublika bo‘yicha 1997–1998-yillarda to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarning o‘tishi qanday muddatni tashkil qilgan?

A) 1 soat
B) 15–20 daqiqa
C) 5–10 daqiqa
D) 1 kun

36. Elektron to‘lov tizimida qaysi pul hisob-kitob shakllari qo‘llaniladi?

A) to‘lov topshiriqnomasi, memorial order, to‘lov talabnomasi
B) akkreditivga ariza, hisob-kitob cheki, inkasso topshiriqnomasi
C) plastik kartochkalar va inkasso topshiriqnomasi.
D) A va B javoblar to‘g‘ri.

37. To‘lov talabnomalari kim tomondan qo‘yiladi?

A) mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan
B) mahsulot sotib oluvchi tomonidan
C) To‘g‘ri javob yo‘q.
D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

38. Qaysi pul hisob-kitoblariga asosan to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘larni hisobdan chiqarish mumkin?

A) inkasso topshiriqnomasi
B) akseptsiz to‘lov talabnomasi va inkasso topshiriqnomasi
C) to‘lov topshiriqnomasi
D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

39. Inkasso topshiriqnomasini qaysi qatordagi organlar qo‘yishi mumkin?

A) soliq, bojxona organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan

B) soliq, bojxona organlari, Moliya vazirligi, undiruvchilar va sud ijrochilari tomonidan

C) soliq, bojxona organlari va Markaziy bank tomonidan
D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

40. «MailBank»ning bank qismi nimalardan iborat?

A) so‘rovnomalarni qayta ishlovchi

B) «MailBank» administratori
C) buxgalterning va operatorning ish joyi
D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

41. Aholining naqd pulsiz hisob-kitoblari qaysi hujjatlar orqali amalga oshiriladi?
A) memoreal order, pul cheki
B) kirim kassa jurnali, to‘lov talabnomasi
C) hisob cheki, plastik kartochka
D) plastik kartochka, order

42. Mol sotuvchi tomonidan qanday hujjat to‘ldiriladi?
A) to‘lov talabnomasi
B) to‘lov topshirig‘i
C) xarajatlar jadvali
D) pul cheki

43. Hisob-kassa markazining faoliyati nimadan iborat?
A) hisobotlarni tekshirish, naqd pul pechat qilish
B) naqd pullarni sanash, naqd pullarni chiqarish
C) tijorat banklarini naqd pul bilan ta’minlash, o‘z mijozlarini hisob-kitobini tashkil etish
D) naqd pul bo‘yicha hisobot tayorlash

44. «Bank–Mijoz»tizimi orqali operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijoz qaysi texnik vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim?
A) naqd pul hisobotlari, shartnoma, hisobvaraqda pul mablag‘lari
B) modem, shaxsiy kompyuter, printer, dasturiy ta’minot
C) kompyuter, hisob-kitob schyoti va shartnoma
D) modem, shaxsiy kompyuter

45. SWIFT – bu ...
A) xalqaro shartnoma bo‘yicha hisob-kitoblar
B) dasturiy ta’minot
C) jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalash tizimi
D) Jahon banklararo Assotsiatsiyasi

46. SWIFT – ...

A) 1973-yil ta'sis etilgan aksionerlik jamiyati Belgiyada ro'yxatga olingan.

B) 1973-yil ta'sis etilgan davlat-aksionerlik jamiyati Belgiyada ro'yxatga olingan.

C) 1977-yil ta'sis etilgan xususiy tashkilot Italiyada tashkil etilgan.

D) To'g'ri javob yo'q.

47. «Elektron bank» tizimi tarkibiy qismlari jihatidan qanday kichik tizimlardan iborat?

A) «InternetBank» – elektron to'lovlari kichik tizimi

B) «PhoneBank» – telefon orqali bank kichik tizimi

C) «MailBank» – elektron to'lovlari kichik tizimi

D) Barcha javoblar to'g'ri.

48. «Elektron bank» tizimining asosiy qoidalari:

A) mijoz-server, modullik; ochiq arxitektura

B) real vaqt tartibi, moslanuvchanlik

C) veb-sahifa

D) A va B javoblar to'g'ri.

49. «MailBank»ning bank qismi nimalardan iborat?

A) so'rovnomalarni qayta ishlovchi

B) «MailBank» administratori

C) buxgalterning va operatorning ish joyi

D) Barcha javoblar to'g'ri.

50. Elektron imzo va shifratsiya kalitlari – ...

A) Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining vakolatga ega bo'lgan bo'limi tomonidan maxsus texnik dasturlar yordamida vujudga keltiriladi.

B) maxsus komissiya tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi

C) dasturlar tayyorlaydigan tegishli firmalar tomonidan vujudga keltiriladi

D) Markaziy bankning tegishli departamenti tomonidan vujudga keltiriladi

51. «WESTERN UNION» pul o'tkazish tizimi orqali pul o'tkazmasi olinganda – ...

A) pul oluvchi vositachilik haqqini to‘lamaydi
B) pul oluvchi vositachilik haqqini to‘ladi
C) pul jo‘natuvchi vositachilik haqqini to‘lamaydi
D) pul jo‘natuvchi ham oluvchi ham vositachilik haqqini to‘laydi

52. «WESTERN UNION» pul o‘tkazish tizimi orqali pul jo‘natmalari – ...

A) istagan valutada amalga oshiriladi
B) AQSH dollarida va yevroda amalga oshiriladi
C) AQSH dollarida va yevro, rublda amalga oshiriladi
D) AQSH dollarida va yevro, rubl, so‘mda amalga oshiriladi

53. «MIGOM» naqd pul o‘tkazmasi – ...

A) Yevropa davlatlari o‘rtasida faoliyat yuritadi.
B) asosan, MDH davlatlari o‘rtasida faoliyat yuritadi
C) barcha davlatlarda faoliyat yuritadi
D) AQSH va Yevropa davlatlarda faoliyat yuritadi

54. «MIGOM» naqd pul o‘tkazmasi bo‘yicha pul o‘tkazmalari ...

A) 10–15 daqiqa ichida o‘z egalariga yetkaziladi
B) 50 daqiqa ichida o‘z egalariga yetkaziladi
C) 10–30 daqiqa ichida o‘z egalariga yetkaziladi
D) 1 soat ichida o‘z egalariga yetkaziladi

55. «Uzbekistan ekspress» – ...

A) O‘zbekiston hududidagi tijorat banklarida hisob raqami ochmasdan turib, faqat milliy valutada pul o‘tkazmalarini respublikaning istalgan joyiga jo‘natish tizimidir

B) Yevropa hududidagi tijorat banklarida hisob raqami ochmasdan turib, faqat milliy valutada pul o‘tkazmalarini respublikaning istalgan joyiga jo‘natish tizimidir

C) O‘zbekiston hududidagi tijorat banklarida hisob raqami ochib, faqat milliy valutada pul o‘tkazmalarini respublikaning istalgan joyiga jo‘natish tizimidir

D) O‘zbekiston hududidagi tijorat banklarida hisob raqami ochib, chet el va milliy valutada pul o‘tkazmalarini respublikaning istalgan joyiga jo‘natish tizimidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonuni. – T., 1995-y. 21-dekabr

2. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida«gi Qonuni. – T., 1996-y. 25-aprel.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – T.: 1996-yil 30 avgust, 279–1-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi Qonuni. – T., 2003-yil 11-dekabr, 560-II.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni» 2003-yil 11-dekabr, 560-II.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi Qonuni. – T., 2004-yil 29-aprel, II.

7. O‘zbekiston Respublikasining «Elektron to‘lovlar to‘g‘risida»gi Qonuni. – T., 2005-yil 16-dekabr, O‘RQ–13-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2006-yil 3-avgustdagi PQ–433-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 2007-y. 7-noyabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 12-iyuldagi PQ–670-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. 2008-yil 20-fevral, PF–3968.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik subyektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 6-apreldagi Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chor-tadbirlar to‘g‘risida» 2010-yil 19 apreldagi Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori

xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi PQ–1438-sonli Qarori.

15. *Karimov I. A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.

17. *Karimov I. A.* Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010.

18. *Karimov I. A.* O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.

19. *Karimov I. A.* 2012-yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, 2012.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish» nomli ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2013-yil 19-yanvar.

21. *Karimov I. A.* O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari. – T.: O‘zbekiston, 2011.

22. *Abdullayev Y. Karaliyev T.* Bank ishi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.

23. *Бонарев В. В.* Финансовый анализ. – СПб.: Питер, 2007.

24. *Лаврушин О. И.* Банковское дело. Экспресс-курс. – М.: Кронус, 2009.

25. *Муругова И. А.* Операионная техника и учет в банках. Учебное пособие. – T.: IQTISOD-MOLIYA , 2010.

26. *Navruzova K. N.* Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.

27. *Navruzova K. N., Qulliyev I. Y.* Markaziy bankda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.

28. *Navruzova K. N., Karimov. N., Ortiqov U. D.* Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Davr, 2012.

29. Централний Банк России. Анализ и сатистика. Выпуск № 20. 2010.

30. Аналитеческий обзор банковского сектора Узбекистана поитогам 2012 года. Эжеквартальний бюллетен, 2013.

31. Iqtisodiy yo‘nalishlar choraklik nashr. O‘zbekiston. I–4-chorak, 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Pul-kredit siyosatida mavjud vaziyat va monetar siyosatining 2013-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. // Bozor, pul va kredit, 2013-yil, №1.

2. «O‘zbekiston Respublikasida Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish haqida»gi 2465-sonli Nizom. 2013-yil, 3-iyun.

3. «Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini chiqarish tartibi va ularni O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi to‘g‘risida» 1344-sonli Nizom, 2004.

4. «Yuridik shaxslar tomonidan milliy valutadagi korporativ bank kartalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida» 1470-sonli Nizom, 2005.

5. «To‘lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo‘llash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom, 2009-yil aprel.

6. «Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom, 2006-yil 14-fevral, 1545-son.

7. «O‘zbekiston Respublikasi bank depozitorlarining milliy axborotlar bazasi va unda mijozlarga xos raqam berish hamda bank hisobvaraqlari ro‘yxatini yuritish tartibi to‘g‘risida» Nizom, 2008-yil 27-sentabr, 1863-son.

8. «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma, 2009-yil 27-aprel, 1948-son.

9. «Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarida ishlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. 2010-yil 19-noyabr 2155-son .

10. «O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma, 2011-yil 264-mart, 2205-son.

11. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlariga pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma, 2012-yil 15-mart, 2342-son.

Internet saytlari

1. www.stat.uz
2. www.bir.uz
3. www.cer.uz
4. www.cbu.uz
5. www.bankinggtech.com
6. www.cbu.uz

MUNDARIJA

Kirish..... 3

I BOB. TO‘LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI

1-§. To‘lov tizimi tushunchasi va uning elementlari 5
2-§. Makro va mikrodarajadagi to‘lov tizimi..... 11
3-§. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi va uning tashkil etilishi..... 14
4-§. Respublikada axborot va to‘lov tizimini takomillashtirish..... 21

II BOB. MARKAZIY BANKNING TO‘LOV TIZIMIDAGI O‘RNI

1-§. To‘lov tizimini tashkil etishda Markaziy bankning o‘rni 25
2-§. To‘lov oboroti, uning tuzilishi va tashkil etilishi 28
3-§. To‘lov oborotiga ta’sir qiluvchi omillar 36
4-§. Jahon amaliyotida to‘lov tizimi va uning xususiyatlari..... 39

III BOB. NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA NOTO‘LOVLAR BO‘YICHA MUAMMOLAR

1-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va ularning elementlari 44
2-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblar bo‘yicha Nizomning mazmuni, ahamiyati va uning amaliyotda qo‘llanilishi 51
3-§. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va takomillashtirish..... 60
4-§. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy to‘lov tizimidagi o‘rni 85
5-§. O‘zbekistonda plastik kartalar orqali hisob-kitoblarni rivojlantirish 95
6-§. Noto‘lovlar muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari 103

IV BOB. ELEKTRON TO‘LOV TIZIMI VA UNING BANKLARARO HISOB-KITOBLARNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI

1-§. Elektron to‘lovlar tizimining mazmuni, ahamiyati, uning O‘zbekistonda joriy etilishi va ishlash prinsiplari 116
2-§. Banklararo elektron to‘lov tizimiga ulanish tartibi..... 124
3-§. Banklararo to‘lov tizimi faoliyat yuritishning buxgalteriya modeli..... 128

4-§. Banklararo to‘lov tizimi orqali ma’lumotlarni
uzatishning texnologik jarayoni 135
5-§. O‘zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilishni tashkil etish 144
6-§. Axborotlarni muhofaza qilishda elektron imzo
va shifratsiya kalitlaridan foydalanish tartibi 147

V BOB. YAGONA VAKILLIK HISOBVARAG‘I ORQALI
HISOB-KITOBLARGA ASOSLANGAN TO‘LOV TIZIMI

1-§. To‘lov tizimida yagona vakillik hisob raqamining
tutgan o‘rni, ahamiyati va unga o‘tilishi 151
2-§. Yagona vakillik hisobvarag‘ining o‘ziga xos xususiyatlari 153
3-§. Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvarag‘i
asosidagi hisob-kitoblarga «O‘zsanoatqurilishbank»
misolida o‘tkazilishi 156
4-§. Tijorat banklari to‘lov markazining yagona
vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalari 159

VI BOB. «BANK–MIJOZ» DASTURIY TA’MINOTIGA
ASOSLANGAN TO‘LOV TIZIMI

1-§. «Bank–Mijoz» dasturiy ta’minoti va uning ahamiyati 165
2-§. «Bank–Mijoz» tizimining asosiy vazifalari 169
3-§. Hisob-kitoblarni «Bank–Mijoz» tizimi orqali o‘tkazish tartibi 172
4-§. «Bank–Mijoz» dasturi bo‘yicha mijoz va bankning ish tartibi 176

VII BOB. SWIFT XALQARO TO‘LOV TIZIMI

1-§. SWIFT xalqaro to‘lov tizimining mazmuni va uning tashkil etilishi 179
2-§. SWIFT to‘lov tizimiga a’zo bo‘lish bosqichlari 183
3-§. SWIFTning afzalliklari va kamchiliklari 185
4-§. SWIFT xabarlarini jo‘natish bo‘yicha operatsiyalar 186
5-§. SWIFT faoliyatining xavfsizligini ta’minlash 189

VIII BOB. YANGI BANK TEXNOLOGIYALARI

1-§. Elektron bank xizmati va uning tarkibiy qismlari 193
2-§. «Internet Banking» elektron to‘lovlari kichik tizimining
banklar faoliyatida tutgan o‘rni 196
3-§. «MailBank» elektron to‘lovlari kichik tizimining xususiyatlari 200

4-§. Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalari, ularning
O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanishi va istiqbollari 202

IX BOB. PUL O‘TKAZISH TIZIMLARI

1-§. Naqd pul o‘tkazish tizimlari va ularning turlari 208
2-§. «WESTERN UNİON» pul o‘tkazmasi, uning afzalliklari, shartlari 211
3-§. «MONIGRAM» tizimi orqali naqd pul o‘tkazish tartibi..... 214
4-§. «CONTACT» pul o‘tkazmasi bo‘yicha bank xizmatlari..... 217
5-§. Naqd pul o‘tkazmalarining boshqa turlari va ularning xususiyatlari 219

Banklarda hisob va to‘lov tizimi fani bo‘yicha test savollari 223
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 234

Klara Nuruddinovna Navro‘zova
Oybek Abdullayevich Ortiqov

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR VA TO‘LOV TIZIMI

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir ***Jahongir Qo‘nishev***
Badiiy muharrir ***Sardor Kurbanov***
Texnik muharrir ***Shokir Alibekov***
Musahhih ***Sherali Rustamov***
Sahifalovchi ***Akbar Qo‘nishev***

Litsenziya raqami AI № 163. 09. 11. 2009. Bosishga 2014-yil 25-sentyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60 × 84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog‘ozi. «Times New Roman» garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 13,95. Nashr bosma tabog‘i 11,0. Adadi 500 nusxa. Shartnoma № 65-2014. Buyurtma № 850.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas’uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Radialniy tor ko‘chasi, 10.

17300 5